Shu o'rinda eslatish joizki, mo'g'ul xalqining nomi aksariyat Xitoy manbalarida "meng-u" tarzida yozilib, ularning Shiveyga kirishi eslatilgan [5; B.184]. Mo'g'ul etnonimi ilk marotaba 945-yilda yozilgan "Jyu Tang shu" ("Eski Tang tarixi") yilnomasida "meng-u shivey" tarzida uchraydi [16; B.136]. Bu X asrda, va hatto, undan ilgariroq ham mo'g'ullarning ayni nomda xitoyliklarga ma'lum ekanligini anglatadi. Chunki, ularning VI-VII asrlarda Turk xoqonligiga bo'ysunganligidan xitoyliklar xabardor edi. "Sin Tang shu" ("Yangi Tang tarixi") yilnomasida shivey qabilalari xitan xalqining bir tarmog'i ekanligi hamda dingling avlodiga mansubligi haqidagi ma'lumotlar berilgan [24; B.176]. Mirzo Ulug'bek esa Arkanaqundan chiqish hamda tatarlar bilan jang voqealarini bayon qilar ekan shunday yozadi: "O'z yerlarini egallagach, tashqarida qolgan bir guruh Xitoyga borib, joylashgan edilar. Ular bu yerdan chiqib, mo'g'ul eliga kelib qo'shildilar. Ammo mo'g'ul xalqi shu ikki nasldan boshqasini e'tiborga olmaydilar [30; B.60]". Bu ma'lumot dostonida eslangan yashirinish davri O'ttiz tatar qabila ittifoqiga kirgan hamda yilnomalarda "meng-u" tarzida nomlangan mo'g'ullarga qarindosh elatlarning ma'lum bir qismigagina tegishli ekanligini ko'rsatadi. Lekin, dostonning mazmuni shimollik ko'chmanchi elatlarning tarixida yuz bergan yirik siyosiy burilishga aloqadordir. Umuman olganda, qadimgi turk va mo'g'ul "Arkanaqun" versiyalari umumiy ildizga ega bo'lib, ushbu xalqlarning yashirinish davridan so'ng yagona tarixiy taqdirga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Bunday xususiyat esa Turk xoqonligi tashkil topishidan keyingi davrlarga daxldordir.

Shuningdek, tarixchi olim Lin fon Pal fikricha, IX asrda Arkanaqun hududlari Xakasiyaga kirgan bo'lib, o'sha vaqtda u anchagina kuchli davlat bo'lgan. "Meng-u"

aholisi esa IX asrda yoki biroz ilgariroq dushmanlardan vodiya qochib, 300-400 yil yashagan bo'lishi mumkin [25; B.46-47]. Ammo, biz ushbu fikrga qo'shila olmaymiz. Chunki, IX-XII asrlarda mo'g'ul xalqi haqidagi tarixiy faktlarga boy ma'lumotlarning manbalarda tilga olinganligi ularning bu davrda boshqa xalqlarga noma'lum tarzda hayot kechirganligi ehtimolini rad qiladi. Umuman olganda, manbalarning xronologik dalillari ham yuqoridagi xulosalarimizni asoslaydi.

Xronologik xulosalar turli olimlarning asarlarida turlicha mazmunga egadir. Masalan, isroillik tarixchi M.Biran, Manjuriyada yashagan xitanlar (Lyao sulolasi, 907-1125) tomonidan Mo'g'ulistonga qilingan yurishlar u yerdagi turkiy aholining g'arbga, Chingizxon ajdodlari yashagan hududning sharqi va janubiga ko'chishiga sabab bo'lgan, deya xulosa bergan [1; B.88]. Ye.Kichanov fikricha esa, Rashididdin asarida keltirilgan Chingizxon tug'ilishidan 400 yillik ilgari muddat haqidagi fikrga asoslanib, VIII asr o'rtalarida xitanlar tazyiqi ostida mo'g'ullar g'arbga ko'chganlar va shu tariqa "Arkanaqun" dostoni shakllangan. Olimning taxminicha, ushbu migratsiya xitanlar hujumiga qadar boshlangan bo'lishi ham mumkin [17; B.14]. Shu narsa aniqki, Lyao davlati tuzilishidan oldinroq, 885-887-yillarda xitanlar Shiveyga hujum qilganlar [19; B.139]. Bundan biroz ilgariroq esa shivey qabilalari qirg'izlarning 847-yilgi hujumlariga ham uchragan edilar. O'sha vaqtda mo'g'ul-shiveylar biroz g'arbroqda, Kichik Xingan tog'lari sharqiy tomonida, Sungari daryosining Amurga qo'shilishining janubida yoki Yuqori Amur va Arg'un daryosi janubida yashaganlar [17; B.13]. Ammo, bu faktlar mo'g'ullarning yashirinishiga xitanlar hujumi sabab bo'lganligini isbotlash uchun yetarli emas. Buning ustiga VIII asr o'rtalaridan boshlab xitanlar xalqaro munosabatlarda tinch rivojlanish pozitsiyasini egallagan edilar. 755-763-yillarda yuz bergan An Lushan qo'zg'oloni esa Xitoyning Tang imperiyasi (618-907)ni zaiflashtirish barobarida shimollik xalqlarning kuchayishi uchun zamin yaratgan [20; B.56]. Umuman olganda, "Arkanaqun" dostonida asosiy o'rinda tilga olingan tatar qabilalarining ajdodlari VIII asrning o'rtalarida yirik siyosiy ta'sirga ega bo'lmay, bu vaqtda Uyg'ur xoqonligi (744-840) mintaqadagi yirik nufuzga ega imperiya hisoblanar edi.

Shuningdek, Ye.Kichanov o'z fikrlarini asoslash uchun bir o'rinda Rashididdinning "Jome ut-tavorix" asarida Barta Chinaning o'g'li Batachixon tug'ilishidan Chingizxon tug'ilishiga qadar 400 yil o'tganligi yozilganini ta'kidlaydi [18; B.176]. Ammo, olim ma'lumotlarni tahlil qilishda biroz chalkashliklarga yo'l qo'ygan. Rashididdin aslida Arkanaqundan chiqish emas, balki, mo'g'ul qabilalarining momosi Alan-qoa (yoki Alanquva) va uning eri Dobun mergan (yoki Do'bun Bayon) davridan Chingizxongacha 400 yilga yaqin vaqt o'tganligini yozadi [26; B.8]. Bu esa bir necha asrlik chalkashlikka sabab bo'lishi mumkin.

"Mo'g'ullarning sirli tarixi"da Barta Chinadan Dobun merganga qadar 11 avlod ismi sanab o'tilgan. Jumladan, keyingi shajara quyidagichadir: Batachixon – Tamacha – Qorichar Mergan – Aujam Boroul – Sali Qachau – Yeke Nidun – Sem So'chi – Qarchu – Bo'rjigiday Mergan – Toroqoljin Bayan. Mo'g'ullarning Shimoliy dashtlarga Tibetdan kelganligini ta'kidlovchi Tibet tarixiy manbasi – "Altan tobchi"da ham xuddi shu shajara berilgan [22; B.53]. Kitobda Toroqoljinning Duva Soqor va Dobun Mergan ismli ikki o'g'li borligi, Duva Soqorning peshanasining o'rtasida faqatgina bitta ko'zi bo'lganligi yozilgan [27; B.23]. Rashididdin qurlas urug'idan bo'lgan Alanquvaning eri Do'bun Bayonning temirchilik bilan shug'ullanganligini yozgan [26; B.154]. Abulg'oziy Bahodirxon esa o'zining "Shajarayi turk" asarida Alanquva Barta Chinaning o'n uchinchi avlodi ekanligini ta'kidlaydi [8; B.43-44]. Ammo, bu borada uning fikrlarida ba'zi chalkashliklar mavjud. Jumladan, u mazkur nasabnomada Barta Chinaning xotini Qoa-Maral (asarda Qo'yamaral tarzida yozilgan)ni uning o'g'li sifatida tasvirlagan [8;

B.48-49]. Bu xatolikni uning asariga asoslanib yozilgan “Firdavs ul-iqbol”da ham uchratish mumkin [23; B.67]. Nima bo‘lgan taqdirda ham, orada o‘ndan ziyod avlod almashilganligi hamda har doim ham katta o‘g‘illar voris bo‘lavermasligini inobatga olgan holda, Ye.Kichanov tomonidan chalkashtirilgan vaqt oralig‘i taxminan 300 yilga yaqin vaqt ekanligini ayta olamiz.

Natijalar.

“Arkanaqun” dostoni barcha turkiy va mo‘g‘ul xalqlarining tarixiy taqdiriga tegishli bo‘lib, umumiylik xarakteriga egadir. Dostonning shakllanish jarayoniga esa turkiy xalqlar siyosiy, madaniy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar, sulolagacha bo‘lgan va Lyao davri xitanlarining mintaqadagi gegemonlik uchun kurashi bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu doston turk-mo‘g‘ul xalqlarining bir necha mingyillik tarixi davomida yuz bergan voqealarni o‘zida aks ettirsa-da, ilk va rivojlangan o‘rta asrlar badiiy xalq ijodiyotining ma’naviy ta’siri, ko‘chmanchi feodal imperiyalar davrining badiiy ruhi asarda yaqqol sezilib turadi.

“Arkanaqun” turk-mo‘g‘ul eposining shakllanishida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy jarayonlar sifatida Syungnu qabila ittifoqining parchalanishi, Turk xoqonligining tashkil etilishi, mo‘g‘ul xalqlarida urug‘chilikning yemirilishi, Xitan imperiyasining bosqinchilik yurishlari kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Turk-mo‘g‘ul xalqlarining umumiylik xarakteriga ega ushbu tarixiy dostonni deyarli to‘la tarixiy haqiqat mahsuli sifatida qabul qilish mumkin.

Badiiy syujetning umumiy xususiyatlari, alohida personajlar va ularning faoliyat doirasidagi o‘xshashliklar tufayli dostonning qadimgi turk va mo‘g‘ul versiyalarini yagona ildizga ega asarlar sifatida e’tirof etish mumkin. Dostonning boshlanish qismi milodiy I asrda yuz bergan xalqaro siyosiy nizo haqida hikoya qiladi. Xronologik, lingvistik dalillar hamda manbalar tahlili asosida ushbu xulosaga kelish mumkin. Dostonda bayon etilgan tog‘ vodiylaridan chiqish voqeasi esa ilk o‘rta asrlarda qadimgi turklarning siyosiy maydonga kelishi aks-sadosidir.

Xulosa.

“Arkanaqun” tog‘ining joylashgan hududi sifatida eposning Xitoy yilnomalarida bayon etilgan tasviriy ifodalari hamda qadimgi turklar tarixiga oid jarayonlar geografiyasini tahlil qilish orqali Sharqiy Tyanshan tog‘larini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, doston matnini ilmiy o‘rganish jarayonida Syungnu ittifoqining parchalanishi va uning natijasida Arkanaqun tog‘iga kirmagan turli etnik guruhlarining shakllanishini dalillash imkoni bor. Bu etnik guruhlar bir necha asrlar davomida Syanbi konfederatsiyasi, Jo‘jan xoqonligi tarkibida bo‘lgan. Turk xoqonligi davri tarixiga oid xotiralarning XIII asr mo‘g‘ul dunyosi ma’naviy hayotida deyarli saqlanmaganligini “Arkanaqun” eposining mavhumliklarga boy syujeti bilan asoslashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.  
REFERENCES:

1. Biran M. Kitan Migrations in Eurasia (10th-14th Centuries) // Journal of Central Eurasian Studies, Vol.3 (Oct. 2012). – P.85-108.
2. Isakov A. Kirgiz-mo‘g‘ol ilişkileri (IX.-XV. Yüzyil) / Doktora Tezi. – Ankara, 2014. – 443 s.
3. The Secret History of The Mongols. Vol. 1. (Translation) / tr. by Cleaves F.W. – Cambridge-London: Harvard University Press, 1982. – 280 p.
4. Türk tarihinin ana hatları. – İstanbul: Devlet Matbaası, 1930. – 606 s.
5. Xu Elina-Qian. Historical development of the pre-dynastic Khitan (Academic dissertation). – Helsinki: Multiprint Oy, 2005. – 300 p.
6. Youliu. URL: <http://en.wikipedia.org/wiki/Youliu>
7. Абаев Н.В. О прародине всех тюрков и монголов: “Эргенекон”, “Эргунэ-хун” или Танну-урянхай? // Новые исследования Тувы. 2011. №.1. – С.169-185.

8. Баходирхон А. Шажарайи турк / Масъул мухаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А. Аҳмедов. – Т.: Чўлпон, 1992. – 192 б.
9. Бичурин (Иакинф) Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3 т., Т.1. – М.–Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1950. – 384 с.
10. Вэй Чжэн 魏徵. Суй шу 隋書. – Пекин 北京: Чжунхуа шуцзюй 中國書局, 1973. – 1904 頁 (бет).
11. Гумилев Л.Н. Кадимги турклар. Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: Бахтиёр Урдабекли, Абдуқаюм Айритомий. – Т.: Узбекистон Республикаси Фанлар Академияси “Фан” нашриёти, 2007. – 500 б.
12. Гумилев Л.Н. Тысячелетие вокруг Каспия. – М.: Мишель и Ко., 1993. – 336 с.
13. Д’Оссон К. История монголов от Чингиз-хана до Тамерлана. Т.1: Чингизхан. / Пер. и пред. проф. Н.Козьмина. – Иркутск: Огиз – Восточносибирское областное издательство, 1937. – 252 с.
14. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – 676 с.
15. Жанайдаров О. Түркі мифтері // Альманах Тюркской Академии. – Астана, 2013. – Б.378-387.
16. Крадин Н.Н., Скрынникова Т.Д. Империя Чингис-хана. – М.: Вост.лит., 2006. – 557 с.
17. Кычанов Е.И. Жизнь Темучжина, думавшего покорить мир: Чингис-хан. Личность и эпоха. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН; Школа-Пресс, 1995. – 272 с.: ил.
18. Кычанов Е.И. Кочевые государства от гуннов до маньчжуров. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 1997. – 319 с.
19. Кычанов Е.И. Монголы в VI – первой половине XII в. // Дальний Восток и соседние территории в средние века. – Новосибирск: Наука, 1980. – С.139.
20. Латипов Ж. Хитанлар: давлатчилик сари йўл (монография). – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2019. – 92 б.
21. Линху Дэфэнь 令狐德棻. Чжоу шу 周書. – Пекин 北京: Чжунхуа шуцзюй 中國書局, 1971. – 932 頁 (бет).
22. Лубсан Данзан. Алтан тобчи (“Золотое сказание”). / Пер. с монгольского, введ., комм., и прил. Н.П. Шастиной. – М.: Издательство “Наука” – Главная редакция восточной литературы, 1973. – 440 с.
23. Мунис ва Огохий. Фирдавс ул-иқбол. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 520 б.
24. Оуян Сю 歐陽脩. Синь Тан шу 新唐書. – Пекин 北京: Чжунхуа шуцзюй 中國書局, 1975. – 6472 頁 (бет).
25. Паль, Лин фон. История империи монголов: До и после Чингисхана. – М.: АСТ; СПб: Астрель-СПб, 2010. – 541 с.
26. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т.1, Кн.1. / Пер. с персидского Л.А. Хетагурова, ред. и прим. проф. А.А. Семенова. – М.–Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – 200 с.
27. Старинное Монгольское сказание о Чингизхане (пер. с кит., с прим. Архимандрит Палладий) // Труды членов Российской духовной миссии. Т.4. – СПб: Типография В.Безобразова и комп., 1866. – С.3-260.
28. Сыма Цянь. Исторические записки: Ши ши [В 9 т.]. Т.8 / Пер. с кит. Р.В. Вяткина и А.М. Карапетьянца, коммент. Р.В. Вяткина, А.Р. Вяткина и А.М. Карапетьянца, вступ. ст. Р.В. Вяткина. – М.: Вост.лит., 2002. – 623 с.
29. Хафиз-и Таныш ибн Мир Мухаммад Бухари. Шараф-нама-йи шахи (Книга шахской славы) / факсимиле рукописи D 88, перевод с перс., введ., прим. и указ. М.А. Салахетдиновой, часть 1. – М.: Издательство “Наука” – Главная редакция восточной литературы, 1983. – 300 с.
30. Ходжаев А. Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников). – Т.: Издательство “Tafakkur”, 2010. – 220 с.
31. Улуғбек Мирзо. Тўрт улус тарихи / Б. Аҳмедовнинг кириш сўзи, изоҳлари ва таҳририда; Форс тилидан Б.Аҳмедов ва бошқ.тарж. – Т.: Чўлпон, 1993. – 352 б.



## BARDALIK YUSUF BUXOROLIK OXUNI KALON

*Qilichev Rajab,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

*Annotatsiya: Maqolada 1563-1644 yillarda yashab o'tgan faqif, tilshunos, tasavvufshunos alloma, shoir Muhammadjon Yusuf al-Qorabog'iy al-Muhammad Shoxiyning hayoti, uning Buxoro shahriga kelib qolishi sabablari, olib borgan ilmiy-pedagogik faoliyati, yaratgan ilmiy asarlari, Buxoro xonligining madaniy, ilmiy hayotida tutgan o'rni, ustozlari Mirzajon al-Sheroziy al-Bornaviy, Xalilulloh Badaxshoniy haqida turli manbalarda bildirilgan fikr-mulohazalar, Yusuf Qorabog'iyning so'nggi oromgohi haqida fikr yuritilgan.*

*Kalit so'lar: Tog'li Qorabog', Barda, Muhammadjon Yusuf al-Qorabog'iy al-Muhammad Shoxiy, Shirvon, Sheroz, Habibulloh Mirzajon al-Sheroziy al-Bornaviy, Samarqand, Buxoro, Xalilulloh Badaxshoniy, Kubroviya, tasavvuf, Hazrat Mavlono Yusuf Oxuni Kalon ziyoratgohi.*

## ЮСУФ ИЗ БАРДЫ ОХУНИ КАЛОН БУХАРЫ

*Куличев Ражаб*

*Аннотация: В статье описывается жизнь учёного, лингвиста, мистика, поэта Мухаммаджона Юсуфа аль-Карабози аль-Мухаммад Шахи, жившего в 1563-1644 годах, причины его прибытия в город Бухару, его научная и педагогическая деятельность, его научные труды, его роль в культурной и научной жизни Бухарского ханства, мнения, высказанные в различных источниках его учителях Мирзаджане аш-Шерази аль-Борнави, Халилудде Бадахшани и месте последнего упокоения Юсуфа Карабози.*

*Ключевые слова: Нагорный Карабах, Барда, Мухаммаджон Юсуф аль-Карабози аль-Мухаммад Шахи, Ширван, Шираз, Хабибулла Мирзаджон аш-Шерази аль-Борнави, Самарканд, Бухара, Халилудде Бадахшани, Кубровия, суфизм, Хазрат Храм Маулань Юсуфа Охуни Калон.*

## YUSUF FROM BARDA OKHUNI KALON BUKHARA

*Qilichev Rajab*

*Abstract: The article discusses the life of the scholar, linguist and poet Muhammadjon Yusuf al-Qarabog'iy al-Muhammad Shahi, who lived in 1563-1645, the reasons for his stay in the city of Bukhara, his scientific and pedagogical activities, his scientific works, the place he held in cultural and scientific life of Bukhara khanate, opinions expressed in various sources about his teachers Mirzajan al-Sherazi al-Bornawi, Khalilullah Badakhshani, and the last resting place of Yusuf Karabog'ii.*

*Keywords: Karabakh, Barda, Muhammadjon Yusuf al-Qarabog'ii al-Muhammad Shaxhi, Shirvan, Shiraz, Habibullah Mirzajon al-Sherazi al-Bornavi, Samarkand, Bukhara, Khalilullah Badakhshani, Kubroviya, Sufism, Hazrat Shrine of Maulana Yusuf Okhuni Kalon.*

Buxoroda Hazrati Oxuni Qorabog'iy nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu zotning asli ismi sharifi Muhammadjon Yusuf al-Qorabog'iy al-Muhammad Shoxiydir. Ulug' avliyo, tarbiyachi, hikmat va kalom ilmlari ustodi, faqif, tilshunos, tasavvufshunos alloma, shoir Mavlono Muhammadjon Yusuf al-Qorabog'iy al-Muhammad Shoxiy hozirgi Ozarbayjonning Tog'li Qorabog' hududidagi Barda shahri yaqinidagi kichik bir qishloqda 1563-yilda tug'ilgan. Yusufning otasi mashhur ilohiyot olimi edi. Farzandining o'qishini davom ettirish uchun 1579-yilda 16 yoshlik Yusufni Shirvonga olib boradi. Shirvondagi og'ir siyosiy vaziyat tufayli Yusuf Sherozga jo'naydi va atoqli olim Habibulloh Mirzajon al-Sheroziy al-Bornaviyga shogird bo'ladi. Yusuf undan hikmat (falsafa), kalom ilmini o'rgandi[1.]. XVI

asrning ikkinchi yarmida ustozi bilan Samarqandga kelib, Kubroviya tariqatining piri murshidi Hazrat Xalilulloh Badaxshoniyga murid bo'ladilar[2.B.290.]. Yusuf Samarqanddagi Juazaniya masjidi qoshidagi maktabda saboq beradi. So'ngra Badaxshoniy ijozati bilan Buxoroyi sharifga kelib, tolibi ilmlarga shariatu tariqat ilmidan saboq bergan. Yusuf Qorabog'iy haqlarida "Samaratul mashoyix", "Tuxfat az-zoirin" va boshqa manbalarda xabar berilgan. "Tuxfat az-zoirin"da yozilishicha, Imomqulixon hukmronligi davrida (1611-1642) Hazrat Mavlono Yusuf bilan o'sha asrning allomasi Hazrat Shayx Husayn ibn Mavlono Poyanda Soktaregiy oralarida ko'p bahsu-munozaralar bo'lib o'tgan ekan va oxirida bu ikki fozil zot bir-biri bilan do'st bo'lgan[3.B.257.]. Bu haqda "Tuxfat az-zoirin"da shunday bitilgan: "Tariqat yo'nalishi bo'yicha u birinchi bo'lib shayx Xalilulloh Badaxshoniy hazratlari, sirlarini muqaddas bo'lsin. Binobarin, barcha kamolot va ilmga ko'ra, Imomqulixon hazratlari bilan-qabri yorug' bo'lsin-shayx Husayn ibn Mavlono Poyanda Saktarig'iy hazratlari bilan-Alloh uning sirini muqaddas qiladi-katta munozaralar qildilar. Keyinchalik umrining oxirida olim va murid va muxlis bo'ldi"[6.B.49-50.]. Yusuf Qorabog'iy asarlarini o'rganish va tahlil qilish uning g'oyat keng ma'nodagi alloma va chuqur bilimli faylasuf ekanligini ko'rsatadi. U aniq fanlardan xabardor, tibbiyotni bilgan, boshqa ko'pgina fanlardan risolalar yozgan. F.Alekperli "Ozarbayjonda tibbiyot tarixi" nomli maqolasida Yusuf Qorabog'iyning iste'dodli shifokor bo'lganligini ta'kidlab, Ibn Sinoning "Tib ilmi kanoni"ning izohi va talqini" asarini yozgan deydi[8.].

Olimning asarlarida mashhur mutafakkirlar va tabiatshunoslardan Arastu, Platon, Pifagor, Suqrot, Anaksagorlarning nomlarini tez-tez uchramiz. Sharq olimlaridan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Baxmanyor, G'azzoliy, Tusiy, Taftazoniy kabilar qatorida as-Sullamiy, Ibn Ammuna, Abulhasan al-Koshiylarning ismlarini o'qiymiz. Olimning "Yetti jannat" nomi bilan ham mashhur "Risolai botiniyya" risolasida insondagi nafsoniy kuchlar, odamdagi ruhiy olam haqida hikoya qilingan. "Risolai hilvatiyya" asari arab tilida yozilgan bo'lib, olti qismdan iborat. Hilvatlar esa o'z navbatida "to'xtalish"larga bo'lingan. Bu asarda muallif borliq bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p falsafiy muammolar haqida so'z yuritgan. Asar davomida o'zidan oldin yashab o'tgan mashhur allomalar bilan u yoki bu masala haqida munozaralar qilgan. "Fi tarifil ilm" asarida ilmning hikmati haqida fikr yuritgan. Qorabog'iyning "Risolai fi bayonil juz la yatajazza" asari olimlar o'rtasidagi falsafiy munozaralarni yoritishga bag'ishlangan. Qorabog'iyning "Mafatix" asarida esa diniy urf-odatlar, huquqiy qoidalar va ularni bajarish masalalari xususida bahs yuritilgan. Shuningdek, Qorabog'iy Davoniy, Kazviniy, Taftazoniy, Shahobiddin Suxravardiy kabi olimlarning asarlariga sharhlar yozgan, mantiq, arab tili, riyoziyot, lug'atshunoslik, diniy masalalarga oid qator risolalar ijod etgan. Qorabog'iy ilmiy faoliyatidan tashqari she'riyat bilan ham qiziqqan, uning nomi o'sha davr shoirlari orasida tez-tez yodga olib turiladi. Qorabog'iy asarlarining ko'pchiligi, aniqrog'i, 24 ta risolasining qulyozmasi O'zbekiston Respublikasi FAning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi[4.B.35.].

Ba'zi manbalarda XVI asrning ikkinchi yarmida ustozi bilan Buxoroga kelib, vatan tutgani aytiladi. Bu asarlarda olimning 1563-yili tug'ilib, 1647-yili Buxoro yaqinidagi Safidmun mavzeida dunyodan o'tgani, 1690-yili esa uning xoki Badaxshonda dafn etilgan ustozi Xalilulloh Badaxshoniy mozori yoniga ko'chirilganligi zikr qilinadi. Biroq, keyingi paytlarda qo'lga kiritilgan boshqa yozma manbalar ma'lumotlari va olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz bu qarashlarning ayrimlarini rad etmoqda, ba'zilariga qo'shimchalar kiritmoqda. Yusuf Qorabog'iyning saboqdosh va yoshlikdagi do'sti Mutribiy Samarqandiy o'zining "Tazkirat ush-shuaro" (1605-y.) asaridan tashqari "Nusxayi zeboiy Jahongir" tazkirasida (1625-1628-yy.) ham mazkur olim va shoir haqida birmuncha to'laroq ma'lumotlar yozib qoldirilgan ekan. Mutribiyning "Tazkirat ush-shuaro"sida Yusuf Qorabog'iyning tarjimai holiga oid bergan ma'lumotlar mazmuni quyidagicha: "Mavlono Yusuf Qorabog'iy iroqiy she'rda o'z ismini taxallus qiladilar, olimlar ustozi "Mulloyi nav" ("yangicha qarashdagi olim") laqabi bilan

mashhur bo'lgan mavlono Mirzojon Sheroziyning shogirdlaridandir. Ushbu 1013-xijriyda (1604-1605) Samarqandda o'qitish ishlari bilan mashg'uldirlar. Ilmu hikmat va hay'at, riyoziyot fanlaridan davomli darslarga ko'plab shogirdlar yetishtirmoqdalar. Kubroviya tariqatida darveshlik yo'lini bosib o'tmoqdalar va ko'ngil xushligi uchun she'r ham yozib turadilar. Mullo Saburiy ul zotning manavi g'azallarini menga keltirib berdi..."[7.].

Mutribiyning birinchi tazkirasidagi Yusuf Qorabog'iyga tegishli ma'lumotlar ana shulardan iborat. "Nusxayi zeboiy Jahongir"da esa Mutribiy Yusuf Qorabog'iydan tashqari uning ustoz Mirzojon Sheroziy, Xalilulloh Badaxshoniy to'g'risida ham maxsus ma'lumotlar havola etadi: "Mirzojon Sheroziy zikri. Kamina Buxoroda mavlono Mirzojon Sheroziyning ommaviy darslarida qatnashganman. U kishi oliymaqom mavlonolardan bo'lib, ko'p fanlar bo'yicha kitob, risolalari bor, ayniqsa, ilohiya va kalomiya sohasidagi yaxshi asarlari o'quvchilar uchun foydalar koni bo'lgan qo'llanma, qayta-qayta murojaat etiladigan manbadir. 989-hijriy (1580) yili Buxoroga keldilar va fanlardan darslar berishga kirishdilar. Ulug' olim va hukmdorlar u kishining hurmatini bekami ko'st joyiga qo'yardilar. Ammo shu mashhurligi asnosida Buxorodagi Safidmun mavzeida o'z xonadoni va ko'plab muridlari bo'lgan taniqli shayx Xalilulloh Maydoniy Badaxshoniy Mirzojon Sheroziyni biroz takaburrligi uchun yoqtirmay, undan ko'ngillari ozor topdi. Mirzojon Sheroziy shu zotning duoi badi orqasida qattiq kasallanib, olamdan o'tdi va Buxorodagi Turki Jandiy qabristoniga dafn etildi"[7.]. Mutribiy Mirzojon Sheroziyning vafoti yilini aniq ko'rsatmaydi. Muhammad Maleho Bade Samarqandiyning "Muzakkir ul-asbob" tazkirasida Mirzojon Sheroziyning 996-hijriyda (1587) vafot etgani aytiladi. Bu sana ayrim manbalarda va olimlarimiz tadqiqotlarida 994-hijriy (1585) yil shaklida ham berilgan.

"Nusxayi zeboiy Jahongir"ning Yusuf Qorabog'iy haqidagi ma'lumotlari mazmuni esa quyidagicha: "Furu va usul ilmlarini to'la o'zlashtirgan, ma'qul va manqul sohasini yuksak darajada egallagan mavlono Yusuf Qorabog'iyning chiroyli zikri. Olimlar olimi bo'lgan bu oxund mavlono Mirzojon Sheroziyning shogirdlaridandir. Ushbu kunlarda Buxoro shahrida ilm toliblarga darslar bermoqdalar. Hikmat ilmi va falsafa sohasida tengsiz hisoblanadilar. Mavlono Jaloliddin Davvoniyning "Sharhi aqoid" asariga yaxshi sharh bitganlar. Gohida she'r yozish bilan ham mashg'ul bo'ladilar. Turon hukmdori Imomqulixonning u kishiga zo'r e'tiqodi bor. Ushbu 1034-hijriy (1625) yili Safidmun mahallasida xonaqoh qildirganlar, yoz paytlari o'sha yerda o'zini qiyinchiliklar girdobiga tashlab, darveshona hayot kechirishi bilan birga dars o'qitish ishlari bilan ham shug'ullanadilar. Kubroviya sulukida muridlik nisbati esa shayx Husayn Xorazmiyga (vafoti 1551-yil-R.Q.) ulanadi. Kamina Hindiston sari safarga otlanganimda (1626-yil-R.Q.) bir paytlari "Talvih" darsini birgalikda o'zlashtirganimiz haqqi-hurmati uchun huzurlariga kirib o'tdim. Eski do'stlik ayyomlarimizni eslab, ko'p gapirdilar va gap orasida hozir she'r yozishni tashlaganini uqtirib o'tdilar. Oxundan yoshlari nechadaligini so'raganimda "Yetmish oltiga kirdim", dedilar. Hindistondan qaytgach, yana Oxund Qorabog'iy ziyoratiga bordim va o'tirishda o'z yoshlariga ishora qilingan ushbu bir baytni o'qib berdilar, unda 77 yoshga kirganligi aytilgan edi"[7.]. Bilamizki, Mutribiy Hindistondan 1627-yil yozida Buxoroga qaytgan. Demak, o'sha yili 77 yoshida bo'lgan faylasuf olim Ozarbayjonning Qorabog'ida 1550-yil dunyoga kelgan bo'ladi. Mutribiyning yuqorida Mirzojon Sheroziy haqidagi ma'lumotlarida aks etganiga ko'ra, Yusuf Qorabog'iy mazkur ustoz bilan Buxoroni 1580-yildan vatan tutgan.

Endi Yusuf Qorabog'iyning mangu oromgohi xususidagi fikrlarga kelsak, avvalambor bu o'rinda shayx Xalilulloh Badaxshoniy tarjimai holiga qaytish lozim bo'ladi. Xasanxo'ja Nisoriy (1512-1596) shayx Xalilulloh haqida "Muzakkiri ahbob"da shunday ma'lumot beradi: "Badaxshon viloyatidandir. Kubroviya silsilasi shayxi Husayn Xorazmiyning xizmatida shogird va murid bo'lgan Badaxshon hokimi temuriy Shoxrux Mirzo bin Ibrohim Mirzo bin Sulaymonshoh (vafoti 1588-yil) uning muridi bo'lgan...Mana, ancha yildirki shayx irshodlik yo'lida turib, toliblarni maqsad-matlubiga yetkazmoqdalar"[5.B.253-256.]. Nisoriy

Badaxshoniy bilan xat orqali mushoira qilganini aytsa-da, bu shayxning o'sha 1565-yilda qaerda yashayotganini aniq ko'rsatmaydi, ammo shayx nomini Buxoro shahridan tashqari yerlarda yashab, ijod qilayotgan shoirlar bobida keltiradi. "Nusxayi zeboiy Jahongir"dagi ma'lumotlar esa quyidagicha: "Shayx Xalilulloh Badaxshon viloyatining Maydon degan joyidan, shuning uchun Shayx Xalilulloh Maydoniy nisbati bilan taniilgan. Buxoroning Safidmun mahallasida xonaqohi bor edi... Hazrat shayx Xalilulloh 1002-hijriy (1593-94) yili vafot etdilar va Safidmunda dafn qilinganlar" (Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Safidmun qabristoni hozirgi kunda Hazrat Abdulloxo'ja Sipadmuniy (Safedmo'y) (871-952) qabristoni nomi bilan yuritiladi va unda xonaqoh hozir ham mavjud-R.Q.).

Ba'zi bir tadqiqotchilar arab tilidagi "Ashhar ul-lug'ot" asariga asoslanib, Yusuf Qorabog'iy xoki 1102-hijriy (1690) yili Badaxshonga ko'chirilib, ustoz Xalilulloh Badaxshoniyning o'sha yerdagi mozori yoniga ko'milgan, deyдилar. Biroq, mazkur yozma manba ma'lumoti bu ko'rinishda shubhali tuyuladi. Chunki, yuqorida ko'rganimizdek, Mutribiy yozishicha, shayx Xalilulloh Badaxshoniyning Safidmundagi qabri 1628-yilda, ya'ni vafotidan 35 yil so'ng ham o'z joyida bo'lgan. "Ashhar ul-lug'ot" ma'lumotining shubhali joyi shundaki, ushbu yerda, birinchidan, "shayx Xalilullohning xoki qachon Badaxshonga ko'chirilgan" va ikkinchidan "nega endi Yusuf Qorabog'iy xokini ham aynan Badaxshonga ko'chirish kerak bo'lgan" mazmunidagi savol paydo bo'ladi. Nazarimizda, bu yerda yozma manba muallifi qandaydir xatolikga yo'l qo'yan. Hazrat Mavlono Yusuf Qorabog'iy qadimgi Buxoro shahridan ikki chaqirimli masofadagi Sepulon qishlog'ida yashaganlar va shu yerda 1645-yil vafot qiladilar.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, aslida Yusuf Qorabog'iy xoki Safidmundagi qabristonda emas, balki undan 500-600 metr uzoqlikdagi masofada joylashgan (hozirgi Buxoro tumani Losha qishlog'i yo'li bo'yida, bu 6-kichik nohiya hududi-R.Q.) xalq orasida Hazrat Mavlono Yusuf Oxuni Kalon ziyoratgohi nomi bilan mashhur makondadir. Ushbu mozoriston ancha kichik bo'lib, undagi katta-kichik yettita qadimgi marmar toshli qablardan biri Hazrat Mavlono Yusuf, ikkinchisi o'g'illari Shayx Ya'qubning qablari sanaladi. Ayni shu kunlarda ham Mavlono Yusuf Qorabog'iy ziyoratgohi xalqimiz e'zozida bo'lib kelmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Qorabog'iy // Effektiv Tashabbuslar markazi analitika va xabarlar portali [http://manba:Aliev A. "Barda" gazetasi, 1991 yil, 2 noyabr. "Barda va bardalilar" \(Bibliografik ma'lumotlar kitobi, muallifi Xuraman Ismoilova\)-Baku, "Nargiz" nashriyoti, 2010,-448 sah.// azerbaijanli.org/az/page75 8.htm](http://manba:Aliev A. )

2. Ma'naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti, -T.: 1997.

3. Sadridin Salim Buxoriy. Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari. -Buxoro.: Durdona, 2012.

4. Buyuk siymolar, allomalar (Markaziy Osiyolik mashhur mutafakkirlar, donishmandlar va adiblar). 3-kitob. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti, -T.: 1997.

5. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi yashriyoti, 1993.

6. Nosiriddin al-Hanafi al-Hasan al-Buxoriy. Tuxfat az-zoirin. -T.: Splendid Idea, 2021.

7. Ismoil Bekjon. Yusuf Qorabog'iy qachon tavallud topgan? // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -T.: 2004-yil, 3-soh.

8. Alekperli F. Ozarbayjon tibbiyot tarixi (miloddan avvalgi 4-ming yillik-19-asr oxiri). // <http://myazerbaijan.org/index.php?p=history/43> (kirish sanasi 05/05/2024).

## **БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИДАН ГЕРМАНИЯГА ЎҚУВЧИ ВА ТАЛАБАЛАР ЮБОРИЛИШИНING ТЎСИҚ ВА МУАММОЛАРИ ХУСУСИДА**

*Rahmatov Mirojjon Mizropovich,  
BuxDU, mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchi.*

*Аннотация. Ушбу мақолада БХСР йилларида (1920-1924 йй) Германияга Москва (Россия) орқали ўқувчи ва талабалар жўнатиши билан боғлиқ айрим муаммолар ҳақида манбалар таҳлили орқали имкон қадар фикр-мулоҳаза билдирилади.*

*Таянч атамалар: БХСР, ўқувчи, талаба, Москва, ваколатхона, сағирхона, ўғил болалар, Бухоро варажаси, савод ўргатиши, қизлар мактаби, чет эл, чет эл паспорти, миллий таркиб, таълим.*

## **О ПРЕПЯТСТВИЯХ И ПРОБЛЕМАХ ОТПРАВКИ ШКОЛЬНИКОВ И СТУДЕНТОВ ИЗ БУХАРСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ РЕСПУБЛИКИ В ГЕРМАНИЮ**

*Рахматов Мирожжон Мизропович,  
БухГУ, независимый научный сотрудник*

*Аннотация. В этой статье на основе анализа источников дается как можно больше отзывов о некоторых проблемах, связанных с отправкой студентов в Германию через Москву (Россия) в годы существования БНСР(1920-1924).*

*Ключевые слова: БНСР, ученик, студент, Москва, представительство, детский сад, мальчики, бухарское село, обучение грамоте, женская школа, заграничный, заграничный паспорт, национальный состав, образование.*

## **ON THE OBSTACLES AND PROBLEMS OF SENDING SCHOOLCHILDREN AND STUDENTS FROM THE BUKHARAN PEOPLE'S SOVIET REPUBLIC TO GERMANY**

*Rakhmatov Mirozhon Mizropovich,  
BukhGU, independent research fellow*

*Abstract. This article provides as much feedback as possible through the analysis of sources about some problems related to the sending of students and students to Germany through Moscow (Russia) during the years of the BXSР (1920-1924).*

*Key terms: BXSР, pupil, student, Moscow, representative office, kindergarten, boys, Bukhara village, literacy training, girls' school, foreign, foreign passport, national composition, education.*

**Кириш.** Бухорода амирлик тартиби ағдарилгандан сўнг, унинг ўрнида тузилган БХСР ҳукумати (1920-1924 йиллар) истиқболни ўйлаб замонавий билимларга эга бўлган ўрта махсус ва олий маълумотли кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратди. Амирликдан мерос бўлиб қолган иқтисодий, маданий-маърифий қолоқликни тугатишда илм ва маърифатли, иқтисодчи, муҳандис, зироатчи ва таълим соҳаси мутахассислари зарур эди. Тарихий зарурат ва эҳттиёждан келиб чиқиб, Европанинг Германия сингари мамлақатларига ўқувчи ва талабалар жўнатиш масаласи долзарб қилиб қўйилди. Ўқувчи ва талабалар Россия Федерацияси (Москва) шаҳри орқали юборилиши мўлжалланди. Чунки БХСР ҳукумати раҳбари Файзулла Хўжаев 1921 йилнинг августида Россия ҳукумати аъзолари билан хорижга талаба юбориш учун келишув шартномасини имзолаган

эди.

Мақоланинг асосий қисми.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Москва орқали Германияга ўқиш учун юборилган ўқувчи ва талабаларни тўплаш, уларни хорижга сафарбар қилиш ишлари осон кечмаган. Бой бадавлат кишилар болаларини ўзларидан узоқлаштирмаслик мақсадида ёхуд иккичидан эса диний мутаассиблик қарашлари мавжудлиги сабабли кўп ҳолларда ўз фарзандларини хориж таълимига юбормасдилар. Шу сабабли ўқувчи ва талабаларни излаб топиш ва танлаш мураккаблик туғдириб ҳукумат уларни тўплаш ишини сағирхона (етимхона) ларда олиб борди.

“Бухоро ахбори” газетасида: “Мамлакат БХСР да 5-10 та ўғил болалар учун очирилган сағирхоналар бор. Бу сағирхоналар талаба фабрикаси кабидур. Москвага, Олмонияга, Туркияга юборилган талабаларнинг кўписи сағирхоналардан чиққон. Тужжор, савдогар, ҳатто мирзолар бўлса боласи ташқариға чиқса, йўқолиб қоладирғондек, бағрига босиб ўтирибдур. Четга юборар бўлсалар “Дод!” деб онаси, бибиси йиғлайдур. Шунга мажбур бўлган ҳукумат четга сағирхоналардан талаба танлаб юборадур.” деган фикрлар Келтирилганди.

БХСР ҳукумати талаба ва ўқувчиларнинг режада белгиланган тартибни тўплай олмаганлиги туфайли кўшнилари ҳисобланган Туркистон АССР ва Хоразм Халқ Совет Республикаси ҳудудларидан ҳам иқтидорли болаларни излашга мажбур бўлганди. Германиядаги Берлин университети зироат (деҳқончилик) факультетида таҳсил олган, кейинчалик шу олийгоҳнинг сиёсий факультетини ҳам тугаллаган Вали Қаюмхон (асли Тошентлик савдогарнинг ўғли, 1904 йил Тошкент, 1993 йил Германия, Дюсельдорф) хотирлашича Абдурауф Фитрат уни қидириб топиб Бухорога олиб келиш учун бўлажак талабалардан бири Саттор Жабборни юборган. Саттор Жаббор Вали Қаюмхонни қозоқларнинг Қозигурт қишлоғида (ҳозирги Туркистон вилояти) оддий аҳолига савод ўргатиб юрган ҳолатида топиб олган ва талабалар сафига кўшиилишига сабаб бўлган.

Юқорида келтирилган далилларга яна қуйидагиларни қўшиб қўйиш мумкин. Германияда ўқиш учун Москвага чет элга жўнаб кетиш учун юборилган болалар ва ёшларнинг барчаси ҳам соғлом эмасди.

“Бухоро ахбори” дан “Бухоро варажаси” (қасалликнинг энг кўп тарқалган тури) дегани талабанинг қони билан бирга Германияга борган. Шу боланинг касофатига талабалар тезгина немис болалари орасига кўшила олмаганлар. Касалхоналарга қўйилиб тажрибали докторлар қарамоғида даво этишга эҳтиёжи тифилган. “Бухороликларга чет элликларга қараган каби эмас, Германия фуқароси каби қараб муомала қилишга қарор берганлар. Германия маориф назорати махсус бир дўхтир тайин этиб, то болалар мактабларга мослашгунча хизмат этарга буюрган” деб келтирилган каби фикрдан воқиф бўлиш мумкин. Талабаларни хорижга юборишга масъул бўлган Мирзо Абдулвоҳид Бурҳонов, Абдурауф Фитрат, Қори Йўлдош Пўлотов, Отаулла Хўжаев, доктор Руссо Каменский кабилар ёшларнинг соғлиги масаласида ҳам қайғурганлари муҳимдир.

Айрим маълумотларда Германия ва Туркияга ўқиш учун юборилган талабалар 1920 йил сентябрда монархияга қарши тўнтаришдан сўнг, кўп ўтмай 1921 йилнинг бошларида Бухорода ташкил топган “Авлоди шухадо” (“Азобланган қаҳрамонларнинг болалари”) номли етим болаларнинг мактаби ўқувчилари бўлишган. Ушбу мактаб ўқувчилари амир тартибини ағдаришда иштирок этган ва жангларда ҳалок бўлган оила вакилларининг фарзандлари эди. Бу болалар қаровсиз қолгани туфайли мактаб-интернатга жалб этилиб БХСР ҳукумати томонидан моддий ва маънавий ҳимояга олинган эди. “Авлоди шухадо” мактаби

болаларининг анча қисми 1922 йилнинг ёзида Германия, Туркия, Россия, Озарбайжонга юборилганди.

Таъкидлаш жоизки БХСР дан хорижга юборилган ўқувчи ва талабалар орасида қиз болалар деярли йўқ эди. Биринчидан, Бухорода БХСР ҳукуматида дастлаб қизлар сағирхонаси (етимхонаси) йўқлиги, иккинчидан шарқ урф-одатлари ва асрий анъаналар асосида хотин-қизларга бўлган муносабат, учунчидан хотин-қизлар мактаби Бухоро шахрида нисбатан кеч, 1922 йил 25 июнда илк марта очилган эди. Тарихий маълумотларга кўра, БХСР да 3 та хотин-қизлар мактаби мавжуд бўлган. Бу мактабларнинг биринчиси йирик савдогар Убайдуллоҳўжа (1858-1912), иккинчиси Хўжа Порсо ҳовлисида, учинчиси Пўстиндўзон гузарида очилганди. Қизлар мактабига илк бор Ҳанифа Танишева, Бегим Юсупова, Ҳадя Юсупова, Фотима Ёқубова каби бир қатор жамоатчи муаллим аёллар сабоқ беришган.

Бу ўринда БХСР нинг, кейинчалик Ўзбекистон ССР нинг Германиядаги маориф вакили бўлиб фаолият юритган Олимжон Идрисий (татар) ҳақида, унинг БХСР ни Москвадаги ваколатхонаси орқали Москвада кўрган тадбирлари тўғрисида ҳам эслаб ўтиш ўринли бўларди. Олимжон Идрисий Россия Федерацияси маркази Москва шахрига талаба ва ўқувчиларни бошлаб борганда БХСР ваколатхонаси Германияга жўнаб кетиши керак бўлган талаба ва ўқувчиларнинг хорижий паспортини тайёрлаш билан банд бўлган. Шу ўринда Олимжон Идрисий ҳақида бир қадар кенгрок маълумот бериш зарурати бор деб ҳисоблаймиз. Олимжон Идрисий (1880-1957) Петропавловск (Оқмулла вилояти Қизил Жар) да таваллуд топган. 1904-1907 йилларда Бухоро мадрасаларидан бирида таълим олган ва 1908-1912 йилларда Истанбул (Туркия) да ўқиган.

1912 йилда Оренбург шахридаги Хусайния мадрасасида муддарислик қилган. Биринчи жаҳон уруши йилларида (1914-1918 йй) Германияга истиқомат қилиб Берлин яқинида жойлашган Винсдорф шахарчасидаги Россия мусулмон асирлари (1916 йил мусулмон асирлари бунёд этган) масжидида имом-хатиб бўлган. Россия ва Германия ўртасидаги Брес сулхидан кейин (1918 йил март) Москвага қайтган. Бир йил, асирликда сақланган ва рус агентига (айғоқчисига айланган). 1922-1926 йилларда БХСР, кейинчалик Ўзбекистон ССР нинг Германидаги маориф вакили бўлиб фаолият юритган. 1939-1946 йилларга қадар совет ҳукумати махсус хизматида жосуслик қилган. 1939-1946 йилларда Берлинда таржимон ва ўқитувчи бўлиб ишлаган. 1946-1952 йилларда Мисрда, 1952-1957 йилларда яъни вафотига қадар Саудия Арабистони ҳукумат идораларида таржимонлик қилган. Олимжон Идрисий БХСР нинг 44 нафар ўқувчи ва талабаларни (айрим манбаларда 50 та) 1922 йилда БХСР маорифи вакили сифатида ҳукумат аъзоси А.Бурхонов, Россия вакили Каминскийлар билан Германияга бошлаб борган. Ушбу талабалар орасидаги яккаю-ягона қиз, татар миллати вакиласи асли мирзонинг қизи Шамсулбанат Ширатхонова билан оила қурган ва ўғил фарзанд кўрган. Шамсулбанат Берлин университети тиббиёт факультетида ўқиган ва олий маълумотли врач дипломини олган. Олимжон Идрисий турли даврларда совет, немис, америка айғоқчиси вазибаларини бажарганлиги, Бухоро (Туркистон) лик ёшларни қатоғон бўлишида сабабчилардан бири эканлиги тадқиқотларда қайд этилган. Унинг БХСР матбуот органи ҳисобланган “Бухоро ахбори” да Туркияда босилган “Сиротул Мустақим” (“Тўғри йўл”) журналида бир қатор мақолалари эълон қилинган.

Архив ҳужжатларида маълум бўладики, 1922 йилда Берлин (Германия) га ўқиш учун жўнаб кетадиган БХСР ёшларига чет эл паспорти харажатлари учун маориф нозирлигидан Москвадаги Бухоро ваколатхонасига 225 олтин рубль юбориш сўралган. Ёхуд ушбу миқдордаги маблағ РСФСР ташқи ишлар вазирилик ҳисобига кредит билети сифатида олтин ҳисобидан ўтказиш сўралган.

Шу ўринда қайд этиш мумкинки Россия Федерацияси Маркази Москва шаҳрида БХСР ўқувчи ва талабари Германия жўнаб кетиши билан боғлиқ айрим тўсиқлар вужудга келган. Оттоулла Хўжаев (1980-1937) БХСР нинг Москвадаги ваколатхонасини бошқарган пайтда бу масалаларга вакил қилиб қўйилган Россия ваколатхонасини бошлиғи Фонштейндан чет эл (Германия) га талабалар жўнаб кетишидан олдин уларни тантанали намойиш (парад) ни уюштиришга розилик олгани ва бу тадбирни ўтказгани унинг муроса қилиш маданияти юқориллигидан далолат беради. Талабалар хорижга бир неча партияларда жўнаб кетишган. Айрим табиий ва ижтимоий оммиллар туфайли уларга бир муддат Москвада туриб, кутиб қолишларига тўғри келади. 1923 йил 9 майда Бухоро – Москва ваколатхонасига йўлланган “Ваколатли вакил ўртоқ Фонштейнга” сарлавҳали мактубда: “Йўлнинг эрозияси туфайли Москвага юборилган ўқувчилар (талабалар) алоқа тикланмагунча кета олмайдилар. Ўртоқ Ато Хўжаев (Оттоулла Хўжаев) сиздан ўқувчиларнинг йўл ҳақи учун тўланган пул маблағларини қайтариб бериш ёки келажакда ҳам худди шу пул эвазига ўқувчиларга саёҳат қилиш (сафар) қилиш ҳуқуқини бериш тўғрисида буйруқ беришингизни сўрайдилар” мазмунидаги фикрлар баён этилган. Ушбу далилнинг ўзиёқ Фонштейн измида бўлган ўқувчи ва талабаларни чет элга юбориш масаласида тегишли маблағларни сарфлашда Оттоулла Хўжаевга ишонч билдирилган, қабиладаги хулосага асос бўлади. Хуллас, БХСР нинг Ғарбий Европа давлатларидан бири Германия ўқувчи ва талабалар юборилиши осон кечмаган эди.

Хулоса. Амирлик ўрнида вужудга келган БХСР ҳукумати (1920-1924) учун хорижга ўқувчи ва талабалар юбориш ишлари сиртдан қараганда силлиқ бўлиб кўринади. Бироқ ўқувчи ва талабаларни танлашдан бошлаб, тоқим уларни ўқиш жойларига етиб борганларича ҳукумат олдида адоқсиз муаммолар вужудга келганига юқорида гувоҳ бўлинди. БХСР ҳукумати бу борада тузган махсус комиссия республика бўйлаб етимхона (сағирхона) лардан ўқувчи ва талабалар излади, юборилиши керак бўлган талабаларнинг анкетасини тайёрлаш, соғлигини тиббий кўриқдан ўтказиш, уларни қийим кечак билан таъминлаш, моддий таъминотини яратиш, йўл харажатлари учун маблағ ажратиш, чет эл паспортларини тайёрлаш, йўлда хавфсизликни таъминлаш дастлабки босқичда амалга ошириладиган ишлар кўлами бисёр эканлигидан далолат беради.

Германиянинг пойтахти Берлинга етиб борилганидан сўнг, амалга оширилиши керак бўлган вазифалар янада кенгайган. Ўқувчи ва талабаларни олти ой давомида тилни ўрганишлари учун немис оилаларига жойлаштириш уларга тайёрлов босқичи учун муаллимлар ёллаш, уларни тўлим мутахассисликлари бўйича Германиянинг турли шаҳарларига пансион, лицей, университетлар бўйлаб тарқатиш, ўқишларидан хабар олиб туриш ва ойлик стипендия билан таъминлаш қабиладар ҳукумат зиммасида эди. Юқоридаги вазифаларни адо этиш жараёнида кундалик кичик-кичик муаммо ва тўсиқлар ҳам келиб чиқар эди. Ўқувчи ва талабалар орасида касалланиб қолиш, имтихон (прим) топширишдаги тил тўсиғи ва ҳоказо. Юқоридаги тўсиқ муаммоларга қарамай 1922-1923 йилларда Германияга етиб борган, БХСР ўқувчи ва талабалар кириш имтихонларини мувоффақиятли топшириб, махсус мактаблар, лицей ҳамда дорилфунунларда юксак орзулар билан таълим ола бошлаганлар. Бухоро совет ҳоқимиятининг ноинсоний ва буюк давлатчилик сиёсати “умидли ғунчалар” ҳаётини кейинчалик дўзахга айлантirdи.

Мақола сўнгида бир қадар тадқиқ қилинган мавзу юзасидан келгусида шуғулланишни давом эттиришга қаратилган айрим мулохасалар билдириб ўтишни лозим топдим.



БХСР ҳукумати томонидан хорижга ўқиш учун юборилган “Авлоди шухода” (“Азобланган қаҳрамонларнинг болалари”) мактаби ҳамда сағирхона (етимхона) ларда таълим берган муаллим ва тарбиячилар тўғрисида маълумотлар тўплаш аҳамиятли бўларди. Қолаверса “Авлоди шухода” мактабида неча нафар ўқувчи таҳсил олган, уларнинг ижтимоий таркиби, ёшлари тўғрисида тўлиқ хабардор бўлиш ҳам фойдадан холи бўлмайди.

Германияга ўқиш учун юборилган ўқувчи ва талабаларнинг тўлиқ рўйхати, таржимаи ҳоллари, турфа кечган тарихий тақдирлари ҳақида асар ва мақолалар яратиш керак.

Хорижад таҳсил олган БХСР ўқувчи ва талабаларнинг электрон интернет веб-сайтига асос солиш ҳам келажак зиммассидадир.

Санаб ўтилган илмий вазифаларни ҳал этиш учун эса, 1920 йиллар Туркистон ва Бухоро маҳаллий матбуоти, Немис матбуоти материаллари, илмий муомалага киритилган архив ҳужжатлари, эсдалик ва хотиралар муҳим манбавий асос бўла олиши шубҳасиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

Аббосова С. Илм масканининг қисқа тарихи// Бухоро муаллими, 1999 йил 20 ноябрь.

Жамолова Д. Туркистон ва Шарқ мамлакатлари тараққий парварларининг ўзаро алоқалари (XIX аср охири XX аасрнинг биринчи чораги).-Т.:Фан; 2023.-240 бет.

Ҳайитов Ш. Раҳимов К. Бухоронинг хориждаги талабалари (XX асрнинг 20-йиллари).Бухоро.2003.-26 бет.

Турдиев Ш. Улар Германияда ўқиган эдилар. –Т.: Фан; 1991.-78 бет.

Ўзбекистон Миллий архиви; 53-фонд, 56-фанд

Бухоро вилоят давлат архиви; 546 –фонд.

Вали Қаюмхон . Қийратилган қисматлар// Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1992 йил 24- апрель.

Бухоро вилоят давлат архиви, 546-фонд,1-рўйхат,4 йиғма жилд,4,8-варақлар, Аббосова С. Илм маасканининг қисқа тарихи//Бухоро муаллими;1999 йил 20 ноябрь.

Германияда Бухоро талабаси//Бухоро ахбори;144-сон, 1923 йил , 17 март.

Ҳусенов Ю. Маърифат нурини сочини ссочганлар//Совет мактаби, 1967.-N9-Б.16-17; ЎЗМА,Р-53 фонд,1-рўйхат, 28 йиғма жилд, 24-варақ. 6.Р-56-фонд , 1-рўйхат ,38 йиғма жилд, 88-варақ.

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

### LAKUNALAR NAZARIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

*Alimova Maftuna Ravshanbek qizi,  
Andijon davlat chet tillari universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Ushbu maqola lakunalar nazariyasining asosiy tushunchalarini o'rganish, bu bo'shliqlar qanday paydo bo'lishini, ularning tasnifi va oqibatlarini o'rganishga qaratilgan. Lakunalar nazariyasini chuqur o'rganish orqali biz til, madaniyat va bilish o'rtasidagi murakkab munosabatlarni va turli til olamlari kesishganda yuzaga keladigan muammolarni yaxshiroq tushunishimiz mumkin.*

*Kalit so'zlar: lakunalar, lingvistik bo'shliqlar, madaniyatlararo muloqot, tarjima muammolari, madaniy farqlar, kognitiv ramkalar*

### BASIC CONCEPTS OF THE THEORY OF LACUNAS

*Alimova Maftuna Ravshanbek qizi,  
teacher of Andijan State University of Foreign Languages*

*Abstract. This article aims to study the basic concepts of the theory of lacunae, how these gaps appear, their classification and consequences. By delving into gap theory, we can better understand the complex relationships between language, culture, and cognition, and the challenges that arise when different linguistic worlds intersect.*

*Key words: lacunae, linguistic gaps, intercultural communication, translation problems, cultural differences, cognitive frameworks*

### ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ ТЕОРИИ ЛАКУН

*Алимова Мафтуна Равшанбек қизи,  
преподаватель Андижанского государственного университета иностранных  
языков*

*Аннотация. Целью данной статьи является изучение основных положений теории лакун, того, как появляются эти пробелы, их классификация и последствия. Углубляясь в теорию разрыва, мы можем лучше понять сложные взаимоотношения между языком, культурой и познанием, а также проблемы, которые возникают при пересечении разных языковых миров.*

*Ключевые слова: лакуны, лингвистические пробелы, межкультурная коммуникация, проблемы перевода, культурные различия, когнитивные рамки.*

*Kirish. Til shunchaki muloqot vositasi emas; so'zlovchilarning madaniyati, bilishi, dunyoqarashining ko'zgu sidir. Turli xil tildagi odamlar o'zaro munosabatda bo'lganda, ular ko'pincha bir tildagi ma'lum tushunchalar, iboralar yoki so'zlarning boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentiga ega bo'lmagan holatlarga duch kelishadi. Bunday holatlar «lakunalar» yoki lingvistik bo'shliqlar deb ataladi. Lakunalar nazariyasi tildagi ushbu yo'qliklarni o'rganadi va ular nima uchun paydo bo'lishini va ular turli tillarni shakllantiradigan madaniyatlar va kognitiv doiralar haqida nimani ochib berishini tushunish uchun tizimli yondashuvni taklif qiladi.*

*Lakunalar shunchaki leksik bo'shliqlar emas, balki jamiyatlarning madaniy va kognitiv tuzilmalari bilan chuqur bog'langan. Ular boshqa tilda mavjud bo'lgan aniq so'zlar, iboralar yoki hatto butun tushunchalarning yo'qligi sifatida namoyon bo'lishi*

mumkin. Bu bo'shliqlar ko'pincha turli madaniyatlar atrofidagi dunyoni idrok etish va tasniflashning o'ziga xos usullarini ta'kidlaydi. Misol uchun, bir madaniyat uchun markaziy bo'lgan ba'zi his-tuyg'ular, ijtimoiy amaliyotlar yoki tabiiy hodisalar boshqasiga mutlaqo begona bo'lishi mumkin, bu esa bo'shliqning mavjudligiga olib keladi.

Lakunani o'rganish tarjimashunoslik, madaniyatlararo muloqot va til o'rganish sohalarida ayniqsa muhimdir. Masalan, tarjimonlar maqsadli tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmagan so'z yoki tushunchaning ma'nosini etkazish yo'llarini topib, bu bo'shliqlarni o'rganishlari kerak. Xuddi shunday, madaniyatlararo muloqotda kamchiliklarni bilish tushunmovchiliklarning oldini olishga va madaniy xilma-xillikni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Lakunalar, lingvistik nuqtai nazardan, bir tilda boshqa tilda mavjud bo'lgan til birligining yo'qligini anglatadi. Bu birliklar bitta so'zdan butun tushunchalargacha bo'lishi mumkin. Lakunalar shunchaki leksik bo'shliqlar emas, balki ko'pincha lingvistik jamoalar o'rtasidagi madaniy va kognitiv farqlarga chuqur ildiz otgan.

Leksik lakunalar: Bular bir tildagi so'zning boshqa tilga bevosita tarjimasini bo'lmagan bo'shliqlardir. Misol uchun, ruscha «toska» (toska) so'zi ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmagan chuqur, g'amgin sog'inchni anglatadi.

Madaniylakunalar: Bular birmadaniyatdagikontseptsiya yoki amaliyotning boshqasida ekvivalenti bo'lmaganida yuzaga keladi. Masalan, nomukammallik va o'zgarmaslikni qabul qilishni o'zida mujassam etgan yaponcha «vabi-sabi» tushunchasining ko'pgina G'arb tillarida to'g'ridan-to'g'ri o'xshashi yo'q.

Kognitiv lakunalar: Bular kognitiv tuzilmalardagi bo'shliqlarni anglatadi, bu erda fikrlash yoki dunyoni tasniflash tillar orasida farq qiladi. Misol uchun, ba'zi tillarda turli xil qor turlari uchun bir nechta so'zlar mavjud bo'lib, ular boshqa tillarda mavjud bo'lmagan kognitiv tasnifni aks ettiradi.

Lacunae turli mezonlarga ko'ra tasniflanishi mumkin, jumladan ularning kelib chiqishi, tabiati va tilda faoliyat ko'rsatish darajasi.

Intralingual vs. Interlingual Lacunae-Til ichidagi bo'shliqlar bir tilda mavjud bo'lib, ko'pincha dialektal yoki ijtimoiy-alektal farqlarni aks ettiradi. Tillararo bo'shliqlar ikki xil til o'rtasida paydo bo'lib, ko'pincha madaniy va kognitiv nomutanosibliklarni ta'kidlaydi.

Mutlaq va nisbiy bo'shliqlar-mutlaq bo'shliqlar tushuncha yoki so'zning to'liq yo'qligiga ishora qiladi, nisbiy bo'shliqlar esa taxminiy ekvivalent mavjud bo'lgan qisman bo'shliqlarni bildiradi, lekin u asl ma'noni to'liq qamrab olmaydi.

Barqaror va dinamik lakunalar-Barqaror lakunalar vaqt o'tishi bilan doimiy bo'lib, chuqur ildiz otgan madaniy farqlarni aks ettiradi. Dinamik lakunalar tillar va madaniyatlar rivojlanishi bilan paydo bo'lishi yoki yo'qolishi mumkin.

Lakunalar mavjudligi tarjima va madaniyatlararo muloqotda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Tarjimonlar ko'pincha lakunalar ma'nosini ifodalash, qarz olish yoki yangi iboralar yaratish orqali etkazishning ijodiy usullarini topishlari kerak. Lakunani tushunish, shuningdek, tildan foydalanishni shakllantiradigan madaniy va kognitiv farqlar haqida xabardorlikni oshirish orqali madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi.

Tarjimadagi kamchiliklarni bartaraf etish strategiyalari atamani manba tilidan olish, tavsifiy tarjimalardan foydalanish yoki madaniy jihatdan o'xshash iboralarni topishni o'z ichiga oladi.

Madaniyatlararo kontekstlarda lacunae haqida xabardorlik tilga kiritilgan madaniy nuanslarni tan olish va hurmat qilish orqali tushunmovchiliklarning oldini oladi va yanada samarali muloqotga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Lakunalar nazariyasi tilshunoslikdagi

kontseptsiya sifatida turli tillar va madaniyatlarni taqqoslashda yuzaga keladigan bo'shliqlar va yo'qliklarni tushunishdagi roli uchun katta e'tiborni tortdi. Ushbu adabiyot sharhi lakuna nazariyasining rivojlanishi va qo'llanilishini o'rganadi, bu sohadagi asosiy hissalar va munozaralarni ta'kidlaydi.

Lacunae tushunchasi birinchi marta qarama-qarshi tilshunoslik sohasiga kiritilgan bo'lib, u erda Vinogradov (1984) kabi olimlar bir tildagi ayrim so'z yoki iboralarning boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti yo'qligini tushuntirish usuli sifatida lingvistik bo'shliqlar g'oyasini o'rgandilar. Vinogradovning ishi lakunalarni nafaqat leksik bo'shliqlar sifatida, balki chuqur madaniy va kognitiv farqlarning aksi sifatida tushunish uchun asos yaratdi.

Lakun nazariyasining dastlabki rivojlanishi Wierzbicka (1997) kabi tadqiqotchilar tomonidan yanada boyitilgan, ular tilning madaniy o'ziga xosligini va ba'zi tushunchalar til hamjamiyatining madaniy va kognitiv asoslari bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlagan. Wierzbicka madaniy kalit so'zlar bo'yicha ishi tilda ma'lum tushunchalarning yo'qligi ko'pincha madaniyatlar o'rtasidagi dunyoqarashdagi sezilarli farqlarni ko'rsatishini ta'kidladi.

Nazariya rivojlanar ekan, olimlar turli mezonlar asosida lakunalarni tasniflashga harakat qilishdi. Taniqli tasniflardan biri bu Kramsch (1998) tomonidan muhokama qilinganidek, intralingual va interlingual lakunalar o'rtasidagi farqdir. Til ichidagi bo'shliqlar bitta til ichidagi bo'shliqlarni bildiradi, ko'pincha mintaqaviy yoki ijtimoiy dialektal farqlarni aks ettiradi, tillararo bo'shliqlar esa ikki xil til o'rtasida yuzaga keladi va ko'pincha madaniy tafovutlar tufayli ko'proq aniqlanadi.

Yana bir muhim tasnif - mutlaq va nisbiy bo'shliqlar o'rtasidagi farq, Katan (2004) tomonidan o'rganilgan tushuncha. Mutlaq lakunalar bir tilda tushuncha yoki so'zning to'liq yo'qligini bildirsa, nisbiy bo'shliqlar taxminiy ekvivalent mavjudligini, lekin asl ma'noni to'liq qamrab olmaslikni bildiradi. Bu tasnif, ayniqsa, tarjimashunoslikda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarjimonlar ma'noni samarali etkazish uchun ushbu bo'shliqlarni yo'naltirishlari kerak.

Tarjimada nuqsonlar keltirib chiqaradigan muammolar tadqiqotning asosiy yo'nalishi bo'ldi. Nida (1964) va House (2015) kabi olimlar tarjimadagi kamchiliklarni bartaraf etishning turli strategiyalarini, jumladan, qarz olish, hisoblash va asl atamaning ma'nosini etkazish uchun tavsiflovchi iboralardan foydalanishni o'rgandilar. Ushbu strategiyalar maqsadli tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmagan lingvistik bo'shliqlarga duch kelganda tarjimonlar qo'llashlari kerak bo'lgan ijodiy echimlarni ta'kidlaydi.

Bundantashqari, Beykerning (1992) ishi tarjimadagi ekvivalentlik uchun lakunalarning oqibatlarini o'rganishda muhim rol o'ynadi. Beykerning tarjima ekvivalentligi tahlili shuni ko'rsatadiki, lakunalar ko'pincha so'zma-so'z tarjimaga e'tibor berishdan manba matnning kengroq madaniy va kognitiv kontekstini hisobga oladigan yanada dinamik yondashuvga o'tishni talab qiladi.

Tarjimadan tashqari, lakunalarni o'rganish ham madaniyatlararo muloqotda hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Gudykunst va Kim (2003) kommunikatorlarni madaniy farqlardan kelib chiqadigan tushunmovchiliklar potentsialiga ko'proq moslashtirish orqali lacunae haqida xabardorlik madaniyatlararo kompetentsiyani qanday oshirishi mumkinligini muhokama qiladi. Kommunikatorlar kamchiliklarni tan olish orqali o'zlarining tillari va yondashuvlarini madaniy tafovutlarni samaraliroq bartaraf etish uchun moslashtira oladilar.

Bundan tashqari, Hofstede (2001) tomonidan madaniy o'lchovlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar lakunalar chuqur madaniy qadriyatlar va kognitiv naqshlarni qanday aks ettirishini tushunish uchun kengroq asos yaratdi. Xofstedning ishi ba'zi

tushunchalar madaniyatning kollektiv psixikasida shunchalik chuqur ildiz otganligi, ularning boshqa tilda yo'qligi madaniyatlararo o'zaro ta'sirlarda jiddiy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin degan fikrni ta'kidlaydi.

Lakunalar nazariyasi ko'pchilik tomonidan qabul qilingan bo'lsa-da, u tanqidlarga ham duch keldi. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, lakunalarga e'tibor berish, inson bilishi va madaniyatining universal tomonlarini tan olish hisobiga farqlarga haddan tashqari e'tibor qaratishga olib kelishi mumkin. Boshqalar, masalan, Sapir (1929), lakunalar aloqaga to'sqinlik qiladi, degan deterministik nuqtai nazardan ehtiyot bo'lib, odamlar ijodkorlik va kontekst orqali til bo'shliqlarini engib o'tish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa. Lakunalar nazariyasi til, madaniyat va bilish o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur tushunish imkonini beradi. Tildagi bo'shliqlar yoki yo'qliklarni - ular leksik, madaniy yoki kognitiv bo'ladimi - o'rganib chiqib, bu nazariya turli lingvistik jamoalarning dunyo tajribasini idrok etish, tasniflash va ifodalashning o'ziga xos usullarini yoritadi. Ushbu bo'shliqlar shunchaki bo'shliqlar emas, balki bir jamiyatdan boshqasiga o'zgarib turadigan chuqur madaniy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar va kognitiv jarayonlarni aks ettiradi.

Lakunalar kontseptsiyasini tushunish, ayniqsa, tarjima, madaniyatlararo muloqot va til ta'limida juda muhimdir. Tarjimonlar uchun bu maqsad tilda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmagan ma'nolarni etkazishning ijodiy usullarini topish orqali madaniy va lingvistik tafovutlarni bartaraf etish uchun ham qiyin, ham imkoniyatdir. Madaniyatlararo muloqotda kamchiliklarni tan olish tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi va madaniy farqlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari, lakunalar nazariyasi tilni o'rganish va undan foydalanishda madaniy kontekstning muhimligini ta'kidlaydi. Bu bizga til oddiy so'zlar va qoidalar yig'indisi emas, balki so'zlovchilarning madaniyati va idrokiga chuqur singib ketgan jonli, rivojlanayotgan tizim ekanligini eslatib turadi. Shunday qilib, lakunalarni bilish inson tillari va ular ifodalovchi madaniyatlarining xilma-xilligi va murakkabligi haqidagi tushunchamizni boyitadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lakunalar nazariyasi tillar orasidagi bo'shliqlarni o'rganish, muloqotning madaniy va kognitiv o'lchovlari haqida tushuncha berish uchun qimmatli asosdir. Ushbu bo'shliqlarni tan olish va o'rganish orqali biz tillar va madaniyatlar bo'ylab muloqot qilish qobiliyatimizni kuchaytira olamiz, bu esa tobora globallashtirib borayotgan dunyomizda ko'proq tushunish va aloqani rivojlantirishimiz mumkin.

## SHAHODAT ISAXONOVANING “BIBIBIXONIM” ROMANIDA MALIKALAR OBRAZI

*Djalilova Durdona Zairxodja qizi,  
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyot universiteti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” tarixiy romanida Turon yurtining shon-shuhratli bosh malikasi Bibixonim va malikalar Tuman Og‘o, Ruhparvar Og‘o hamda kichik xonim To‘kalxonim hayotining yulduzli onlari barobarida qismat-u qadarning ayanchli evrilishlari va Shodimulk xotinning ayanchli qismati aks etgan. Maqolada kerakli adabiyotlardan foydalanilgan.*

*Kalit so‘zlar: tarixiy roman, malika, tarixiy shaxs, obraz, sohibqiron, shahzodalar, tarixiy voqelik, tarixiy haqiqat*

## РОМАН ШАХОДАТ ИСАХАНОВОЙ «БИБИБИХАНЫМ» — ОБРАЗ ПРИНЦЕСС

*Джалилова Дурдона Заирходжа қизи,  
Университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои,  
докторант*

*Аннотация: В данной статье в историческом романе Шаходат Исахановой «Бибиханым» рассказывается о знаменитой главной царице Туранской страны Бибиханым и принцессах Туман Аго, Рухпарвар Аго и маленькой госпоже Токалханым, а также о трагических перипетиях судьбы и трагических поворотах судьбы. Отражена судьба жены Шодимулка. В статье использована необходимая литература.*

*Ключевые слова: исторический роман, княгиня, историческоелицо, образ, хозяин, князя, историческая действительность, историческая действительность.*

## SHAHODAT ISAKHANOVA’S NOVEL «BIBIBIKHANIM» IS THE IMAGE OF PRINCESSES

*Djalilova Durdona Zairxodja qizi,  
Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature, PhD student*

*Abstract: In this article from the historical novel «Bibikhanim» by Shahodat Isakhanova, there is a word about Bibikhanim, the famous chief queen of the Turan country, and princesses Tuman Agha, Rukhparvar Agha, and Tokalkhanim, as well as about the tragic changes and tragic twists of fate. goes of fate. The fate of Shodimulk’s wife is reflected. The necessary literature is used in the article.*

*Key words: historical novel, princess, historical person, image, host, princes, historical reality, historical reality*

**Kirish.** Istiqlol yuksak ilohiy ne‘mat sifatida nafaqat turmush tarzimizga, balki madaniy –ma’naviy hayotimizga ham teran kirib bormoqda. Mamlakatimiz o‘zining ilmiy va iqsodiy-siyosiy salohiyatini ham dunyo hamjamiyati oldida tobora yuksaltirmoqda. Qadimdan ilm-u ma’rifatning beshigi sanalgan yurtimiz tarixini chuqurroq o‘rganish, ajdodlar ma’naviy merosini tiklash bugungi kunning dolzarb masalalaridan etib belgilandi. Jumladan, yangilanayotgan O‘zbekistonda tarix fanida ham ajdodlarimiz tarixini o‘rganish, ularga to‘g‘ri va xolis baho berish, shu asosida milliy qadriyatlarimizni tiklash o‘zining yangicha bosqichiga ko‘tarildi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bizning havas qilsa arziyidigan ulug‘ tariximiz bor. Havas qilsa

arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor”.

O'zbek adabiyotida xalqimiz tarixining eng shonli zarvaraqlarini teran badiiy tahlil qilishga bag'ishlangan bir qator yirik asarlar yaratilgan. Xalqimiz tarixining turfa bosqichlarini tasvirlash, millatimizning ijtimoiy va ma'naviy hayotida muhim ro'l o'ynagan iste'dod sohiblari shaxsiyatining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini ko'rsatib berish, tarixiy voqelik va shaxs munosabatini yoritish, shuningdek, davlatchiligimiz tarixi va milliy qadriyatlarimizning tarixiy-hayotiy asoslarini oydinlashtirish, o'zbek tarixiy romanlarining o'ziga xos milliy xususiyatlarini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili. Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o'tmishda sodir bo'lgan voqealar, yaqin yoki olis o'tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o'laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to'qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritish maqsadida to'qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arxiv materiallari, xotiralar va h.k.) asosida o'rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o'sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o'z xalqining tarixiy o'tmishiga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otish va shu yo'l bilan ma'rifatli avlodni tarbiyalash, zamondoshlarni tarixiy o'tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o'tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir.

Borliqdagi barcha narsa-hodisani (shu jumlada, insoniyatni ham) san'atkorona ko'z bilan ko'rish va san'atkorona qalb bilan idrok etish hamda shu asnodda ularni estetik ideal asosida qayta yaratish obraz deyiladi. Taniqli adabiyotshunos olim D. Quronovning “Adabiyot nazariyasi asoslari” kitobida obraz tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan aksidir, Albatta, bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarni topamiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliqdir”.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz tarixiy roman o'qish jarayonida ayollar obrazini ham ko'p o'rinlarda uchratamiz. Tarixiy romalarda temuriy malikalar obrazi XIV asr oxiri va XX asr boshlariga borib taqaladi. Moziydan xabar beruvchi tarixiy asarlarni varaqlar ekanmiz, ijtimoiy-siyosiy hayotda erkakalar bilan bir qatorda buyuk jasorat sohibalarining ismlari zikr etilishiga guvoh bo'lamiz. Ayollar orasidan shavkatli hukmdorlar, jamoat arboblari, olimalar, maslahatgo'ylar va shoirlar yetishib chiqqan. Davlat ishlarida o'z turmush o'rtog'i yoki farzandlari bilan yelkama-yelka davlat siyosatida ish olib borgan malikalar g'arbda barmoq bilan sanarli bo'lsa, sharqda esa bunday ayollarni ko'plab uchratish mumkin. Bunga misol tariqasida Temuriy malikalardan Bibixonim (ayrim o'rinlarda Saroy Mulkxonim nomi bilan keladi), Gavharshodbegim, Xadichabegim, Xonzodabegim, Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Qorako'zbekim, Arjumnand Bonu va boshqa temuriy malikalarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek adibalaridan Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” romani ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Tarixiy roman ikki qismdan iborat bo'lib, tarixiy voqelik va badiiy to'qimaning uyg'unligini aks etgan. Ushbu asarda ayollarning ko'plab nozik qirralari ochib berilgan-ki, bular tahlil va talqinga ehtiyoj uyg'otadi.

Asarning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda tasvirlanayotgan tarixiy davr

va sharoitda temuriyzodalarning ma'naviy-ahloqiy dunyoqarashiga kuchli ta'sir etuvchi asosiy kuch sifatida ayollar badiiy tasvir doirasida gavdalanadi va ma'lum darajada temuriylarning inqiroziga oid badiiy xulosa ham ayollar obrazlari vositasida bayon etiladi.

Shahodat Isaxonova "Turon malikalari" deb atalgan yangi asarning sahifalariga uzoq tarix sahnasida juda murakkab o'yinlar, vazifalar, maqsadlarni bajargan, tole' yo'llari tizza bo'yi qonli maydonlarda o'tgan tarixiy ishtirokchilarni olib kiradi. Yozuvchi ilgariroq bizga tanish bo'lgan va ko'p o'quvchilar tanib ulgurgan tarixiy qissa va romanlari kabi bu asarda ham hazrat Amir Temur zamonlariga aniqrog'i, hazrat vafotidan keyin ro'y bergan tahlikalar, talvasalar, sarosimalar bilan to'lib-toshgan benihoya ziddiyatli paytlarga murojaat qiladi. Asarning asosiy qahramonlari temuriy shahzodalar va malikalar obrazidir. Asarning bosh markazida Bibixonim obrazi turadi. Saroy Mulkxonim Chig'atoy ulusiga mansub mo'g'ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo'lib, 1341-yilda tug'ilgan. Qozonxon taxtdan azl etilib, qatl qilingan chog'da Saroy Mulkxonim hali besh yoshda edi. Saroy Mulkxonim balog'atga yetgach, 1355-yilda Movarounnahr hukmdori Amir Qozog'onning nabirasi Amir Husayn uni nikohiga kiritdi. 1370-yilda Sohibqiron Amir Temur jangda Amir Husaynni yengib, uni qatl qildirgach, Movarounnahr hukmronligini o'z qo'lga oladi. Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulkxonimni o'z nikohiga kiritgach, "Ko'ragon" unvoniga musharraf bo'ldi. Ko'ragon iborasi mo'g'ulcha so'z bo'lib, "kuyov" degan ma'noni ifodalaydi. Zero, Saroy Mulkxonim mo'g'ul xonlaridan birining qizi bo'lgani tufayli Sohibqiron Amir Temur mo'g'ul xonining kuyovi, ya'ni "Amir Temur Ko'ragon" nomini olgan edi. Sohibqiron Amir Temur Malika Saroy Mulkxonimni o'z nikohiga kiritgunga qadar, haramida boshqa xotinlari ham bor edi. Lekin xon avlodiga mansub Saroy Mulkxonim haramdagi barcha malikalardan ulug'rog'i hisoblanib, "katta xonim" yoxud "Bibixonim" degan unvonga noil bo'ladi. "Bibixonim" romani Amir Temurning Samarqandda barpo etgan bog'laridan biri "Bog'i Shamol" da boshlanib, Saroy Mulkxonimning ayanchli o'limi bilan tugaydi.

Tahlil va natijalar. Bibixonim obrazi asardagi eng muhimi, badiiy g'oyani yo'naltiruvchi xususiyatlari bilan boshqa obrazlardan ajralib turadi. Chunki, asardagi asosiy voqealar, ya'ni temuriylar saltanati osmonidagi qora bulutlar to'planishi bilan bog'liq voqealar bilan boshlangan ushbu asarda Bibixonim taqdiri markazda turadi. Malika juda zukko, oqila ayol sifatida romanda tasvirlanadi. Buyuk sohibqironning barcha harbiy yurushlarida malika unga hamrohlik qiladi. Oxirgi Xitoy safariga yurishiga malika ich-ichidan norozi bo'ladi, lekin hech qachon sohibqironni fikrini qaytarmagan malika umr yo'ldoshi bilan safarga o'tlanadi. Temur va uning askarlari O'troga kirib kelganda, sohibqironning tobi qochib qoladi. Yelvizakli joyda Amir Temur soch oldiradi. Kun sovuq, ayni qish chillasi kirgan mahal bo'ladi. Sohibqiron istmalab, betob bo'lib qoladi. Temurning betob bo'lgani butun Movarounnahrga yashin tezligida tarqaladi. Ayrim Temuriy shahzodalar qayg'uga tushsa, boshqalari saltanat taxtni bobosi o'lmasidan ko'z ostiga olishadi.

Namozga kirib ketgan Bibixonimning uzoqlayotganidan havotirlangan Suluvbikaning sabri tugadi, eshikni xiyol ochib, sekin mo'raladi. Bibixonim xonaning bir burchida, joynamozga muk tushganicha, xuddi qotirilgan haykal kabi bir nuqtaga tikilib o'tirar, faqatgina tasbeh o'girayotgan o'ng qo'lining bilinar-bilinmas harakatidan tilovat qilayotganini uqish mumkin edi. Fe'li mo'tadil, chehrasi ochiq, qarashlari issiq va mehrli malika eng qayg'uli damlarda ana shunday holatga tushardi. Malika sohibqironning o'limi yaqinligini ich-ichidan his qilari, mamlakat hukmdori vafotidan keyin yuzaga keladigan parokandalilar, temuriy shahzodalarning taxt uchun kurashishi, o'zaro ichki urushlarini bashorat qilari edi. Sohibqiron malika qo'lida vafot etadi. Hukmdorni vasiyatiga ko'ra,



taxt Pir Muhammad Mirzo loyiq ko'riladi. Amir Temur nabirasi Xalil Sultonni o'zgacha tarzda suyar, uning donoligi, mardligi, qurolni mohirona ishlata olishiga tan berar edi. Biroq Xalil Sultonning ahloqsiz xatti-harakatlari tufayli taxt amakisining o'g'liga nasib etdi. Bir noshud "cho'hra" ayolni deb taxtdan mosuvo qoldi.

Tarixchi Sharafuddin Ali yozishicha, Shodmulk xotun Samarqand shahrining quyi tabaqasiga mansub hunarmand oilasida dunyoga keladi. Amir Temurning suyuqli nabirasi Xalil Sulton Mirzo (Mironshoh Mirzoning o'g'li, 1366-1408) kunlardan bir kun shahar chetidagi bog' ko'chadan otda o'tib ketayotib, Shodmulkka ko'zi tushadi va uni sevib qoladi. Xalil Sulton Mirzo (1384-1411) jasoratli, harbiy salohiyatli va iste'dodli yigit bo'lgan. Balog'atga yetgach, uni aslzoda xonadon qiziga uylantirishgan. Undan bir o'g'li ham bor edi. Ammo Shodmulkni sevib qolgach, o'z zamonasining taomiliga qarshi o'laroq, shu qizga uylanadi. Tabiiyki, bunday "tengsiz" nikohga Temur boshliq butun avlod qarshi turishgan. Biroq Xalil Sulton Mirzoning qat'iy qarori g'olib chiqadi. Amir Temur avvalida qattiq g'azablangan bo'lsa-da, keyinchalik nabirasiga bo'lgan yuksak e'tiqodi tufayli uning gunohini kechiradi. Amir Temur vafotidan so'ng, mamlakatda toj-u taxt uchun ichki kurash avj oladi. Asarda tasvirlanishida, Pir Muhammad Mirzo Samarqanddan uzoqda bo'lganligi sababli, Xalil Sulton Mirzo vaziyatdan ayyorona usulda foydalanib, 1405-yil mart oyida Samarqand taxtiga o'tiradi. U saltanatni boshqarishda adolatni bosh mezon qilib, mamlakat ichki va tashqi ahvolini yaxshilash choralarini izlaydi. Lekin xotini Shodmulk begimning saltanat ishlariga faol aralashuvi natijasi o'laroq, arkoni davlat orasida ayrim noroziliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shodimulk o'zini Bibixonimdan ustun ko'radi.

Asarda Sohibqironning yana boshqa ayollari ham tasvirlangan. To'kal xonim, Tuman Og'o, Cho'lpon Malik, Ruhparvar Og'odir. Temur har bir ayoliga teng munosabatda bo'lishga harahat qilar va har bir ayoliga bog' barpo qildirgan edi.

Amir Temur saltanatining nufuzli kishilaridan bo'lmish Musoning qizi Tuman Og'o o'n ikki yoshida sohibqironga nikohlangan edi. Amir Muso Bibixonimning tog'asi bo'lganligi uchun Tuman Og'o malikaga jiyan o'rnida edi.

Asarda tasvirlanishicha, Sohibqiron ayollari uchun maxsus bog' qurdiradi. Bu bog'larning eng so'lim va ko'rklisi Tuman Og'oga hadya qilgan bog'i edi. Taqdirning o'yinlari tufayli, qismatning achchiq ko'rguliklari tufayli bu bog'ga ham Shodimulk begim egalik qiladi. Asarda tasvirlanishicha, bu bog' Bog'i Behisht nomi bilan ataladi. Bu bog'da turli xil nabodot va hayvonot olamiga mansub jonzoqlar bisyor edi.

Qator sarv daraxtlari bilan ihotalangan "Bog'i Dilkusho" hijriy 800-yili sohibqironga nikohlangan To'kal xonim sharafiga bunyod etilgan edi. Xon avlodidan bo'lmish To'kal xonim Oltin O'rda xoni Xizr Xo'jaxonning qizi ekanligi bois, Amir Temur uni Bibixonimdan keying o'rinda ko'rgan va "kichik xonim" unvonini bergandi.

Malikalar bog'da kezib yurganlarida, birdan "Babu" degan o'rgatilgan ajoyib maymunchaga duch kelishadi. Shodimulk bular endi bari meniki deb o'ylaydi, o'zini buyuk saltanat malikasi deb sezadi. Ajoyibotlarni tomosha qilisharkan, yozuvchi tomoshaga qo'shib, balki unga uyg'un va mos holda xonimlarni ichki dunyolari, xarakterlari, vaziyatni qanday qabul qilayotganlariga katta e'tibor beradi. Kutilmaganda maymun Shodimulkni tillaqoshini olib qochib ketadi. Necha yillardan beri Tuman Og'oning xizmatida bo'lgan bog'bon yangi malikaga yoqish uchun maymunni tutib kelib, bo'g'ib o'ldiradi. Maymuncha Shodimulkni chiroyli peshonasini bexos tilib yuboradi. Bu ham uning to'satdan balqigan yulduzi ko'p o'tmay fojiali so'nishidan bir ramz yanglig' darak beradi. Asarning asosiy voqealari Shodimulk va Xalil Mirzo tegrasida aylansa-da, lekin asarning ruhoniyyat markazida ulug' Bibixonim turadi. Barcha malikalardan qutilish uchun Shodimulkni qilmagan ishi qolmadi. Avvaliga ularni saroydan haydab, o'zi Bibixonimni ko'shkini egalladi. Sohibqironning suyuqli

ayollari Tuman Og‘o, Ruhparvar Og‘o hamda kichik xonim To‘kalxonimni vazir-u, qo‘mondonlarga xotinlikka tortiq etadi. Ruhparvar Og‘oday yosh, go‘zal malika necha bor o‘z joniga qasd etadi. Eshik og‘olari qutqarmaganlarida, o‘shanday go‘zal hurliqo ham allaqchon ,arshi a‘loga ravona bo‘lur erdi. To‘kalxonim ham Shodimulkni kanizi tomonidan zaharlanib o‘ldiriladi. Shodimulk xotun barcha malikalardan qutulishni reja qilgan edi. U asar davomida o‘z maqsadiga erishdi, biroq o‘zi ham asir tushib, ayanchli holatda vafot etdi.

Xulosa. Shunday qilib, o‘zbek adabiyotida ayol obrazi o‘zining qadimiy tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan obrazlar sirasiga kiradi. Ma‘lum bo‘ladiki, badiiy adabiyotdagi ayol obrazi o‘z ishtiroki bilan ijtimoiy-ma‘naviy hayotning eng muhim masalalarini yuzaga chiqarishda, badiiy g‘oya asosini belgilab berishda muhim obrazlar sirasiga kirishi bilan e‘tiborlidir.

Darhaqiqat, donishmand va mehribon momolar tarbiyasi Amir Temur avlodlari orasidan ulug‘ iste‘dodlar yetishib chiqishiga xizmat qiladigan bir an‘anaga aylangan edi. Saroymulkxonim tarbiyasida Shohruh Mirzo va Ulug‘bek, Eson Davlatbegim rahnamoligida Bobur Mirzo kamol topganligining o‘ziyoq fikrimizni tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasidan // Xalq so‘zi 2017-yil 4-avgust).

2. Fayziyev T. Temuriy malikalar. – Toshkent, 1994.3-bet

3. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent, 2018. 90-bet

4. Isaxonova Sh. Bibixonim – Toshkent, 2022. 5,116,469.-bet

## **OILA MULOQOTIDA AYOLLAR NUTQINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI**

*Egamberdiyeva Iroda Abduraximovna,  
Andijon Davlat chet tillari insitituti katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Mazkur maqola oilaviy muloqotda ayollar nutqining milliy-madaniy belgilarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda ayollar nutqida namoyon bo'ladigan milliy o'ziga xosliklar, an'analar va madaniy qadriyatlarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada turli millat va madaniyatlar doirasida ayollarning muloqot strategiyalari va uslublaridagi o'ziga xosliklar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari oilaviy muloqotda milliy-madaniy omillarni inobatga olishning ahamiyatini ta'kidlab, ayollar nutqining jamiyatdagi o'rni va ta'sirini oydinlashtiradi.*

*Kalit so'zlar: Ayollar nutqi, milliy-madaniy xususiyatlar, nutq madaniyati, an'ana va qadriyatlar, muloqot strategiyalari, jamiyatdagi ayollar roli.*

## **NATIONAL-CULTURAL CHARACTERISTICS OF WOMEN'S SPEECH IN FAMILY COMMUNICATION**

*Egamberdiyeva Iroda Abdurakhimovna,  
Senior teacher of Andijan State Institute of Foreign Languages*

*Abstract: This article is devoted to the analysis of national-cultural characteristics of women's speech in family communication. The role of national identities, traditions and cultural values manifested in women's speech is highlighted in the research. Also, the article examines the peculiarities of women's communication strategies and styles within different nations and cultures. The results of the research highlight the importance of taking national-cultural factors into account in family communication and clarify the role and influence of women's speech in society.*

*Key words: Women's speech, national-cultural characteristics, speech culture, traditions and values, communication strategies, women's role in society.*

## **НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЖЕНСКОЙ РЕЧИ В СЕМЕЙНОМ ОБЩЕНИИ**

*Эгамбердиева Ирода Абдурахимовна,  
Старший преподаватель Андиганского государственного института  
иностранных языков*

*Аннотация: Данная статья посвящена анализу национально-культурных особенностей женской речи в семейном общении. В исследовании подчеркивается роль национального самосознания, традиций и культурных ценностей, проявляющихся в женской речи. Также в статье рассматриваются особенности женских стратегий и стилей общения внутри разных народов и культур. Результаты исследования подчеркивают важность учета национально-культурных факторов в семейном общении и уточняют роль и влияние женской речи в обществе.*

*Ключевые слова: Женская речь, национально-культурные особенности, речевая культура, традиции и ценности, коммуникативные стратегии, роль женщины в обществе.*

XX-XXI asrlarda jinsni erkak va ayollarning faqat biologik hamda fiziologik xususiyatlari sifatida an'anaviy tushunish sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Ushbu

cheklangan talqin gender – rol xatti-harakatlarining murakkabligini tushunish uchun etarli emasligini isbotladi.

“Gender” tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilishi erkak va ayollar bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Bu ijtimoiy modellashtirish nazariyasining paydo bo‘lishini va ijtimoiy-madaniy amaliyotlar orqali jinsni qurishni belgilab berdi. Genderologiya sohasi paydo bo‘ldi, bu erkak va ayollar o‘rtasidagi munosabatlarni kulturologiya nuqtai nazaridan har tomonlama o‘rganishni talab qildi[1].

Tilshunoslar shaxsning yoshi, tug‘ilgan joyi, ma‘lumoti va kasbi kabi turli xil ijtimoiy omillarni hisobga olinishiga qaramay, zamonaviy rus tilini tadqiq qilishda jinsga e‘tibor berilmaydi. Gender tilshunosligi nisbatan yangi soha bo‘lib, jinsning tildan foydalanish va erkaklar hamda ayollar o‘rtasidagi muloqot shakllariga qanday ta‘sir qilishini o‘rganadi[2]. Tarixiy jihatdan ayollar nutqi erkaklarnikidan boshqacha qabul qilingan va ayollar nutqini erkaklarning go‘yoki “to‘g‘ri” nutqi bilan taqqoslaydigan maqol va matallarda salbiy stereotiplar saqlanib qolgan[3].

Erkak va ayol nutqini idrok etishdagi farqlar erkak mafkurasining inson ongiga keng tarqalgan ta‘siridan kelib chiqadi, bu ayollarning mantiqiyliqi, ratsionalligi va ob‘ektivligiga qaratilgan[4].

Ijtimoiy stereotip erkak va ayollarga xos xulq-atvor hamda nutqning muayyan shakllarini belgilaydi. Erkaklar harbiy va siyosiy tadbirlarda qatnashib, oilasini ta‘minlaydi, ayollar esa uy ishlari, bolalarni parvarish qilish va ta‘lim olish uchun javobgardir.

O‘z vazifasini bajarayotganda erkak va ayol o‘zining gender roliga mos keladigan turli xil xatti-harakatlarni namoyish etadi. Erkaklar amaliy yechimlarga e‘tibor qaratib, instrumental rol o‘ynashga moyildirlar, ayollar esa ekspressiv rolni qabul qilib, hissiy o‘zini namoyon qilish va hamdardlikni afzal ko‘rishadi[5].

O‘tgan asrda jamiyatda ro‘y bergan muhim o‘zgarishlarga, jumladan, ayollarning oila va jamiyat hayotidagi roli ortib borayotganiga qaramay, bu tilda to‘liq o‘z aksini topmayapti. Tadqiqotchi L.G.Smirnovaning ta‘kidlashicha, “gender rollarining lingvistik namoyishi, asosan, statik bo‘lib, an‘anaviy stereotiplarni aks ettiradi”[6].

Bu erkak va ayollar o‘rtasidagi an‘anaviy mehnat taqsimotini kuchaytiradigan va tildagi gender farqlaridan doimiy foydalanishda aks etadi. Til zamonaviy jamiyatdagi ayollarning o‘zgaruvchan ijtimoiy rol va hissasini to‘liq aks ettirmaydi. Erkak va ayol nutqi o‘rtasidagi farqlar tilning fonetik, leksik, sintaktik hamda stilistik sathlarida namoyon bo‘ladi. Talaffuzda ayol erkakdan ovozining tembri, nutq sur‘ati, pauzalarning tabiati va unilarning davomiyligi bilan farq qiladi. Ayollarda ko‘proq ekspressivlik va his-tuyg‘ularini ifoda etish ustuvorlik qiladi. Ular vokal intonatsiyalarining kengroq diapazonidan foydalanadilar, masalan, xohlagan paytda ovoz balandligini o‘zgartira oladilar. Yuqori ohang ko‘pincha ijobiy, past ohang esa salbiy kayfiyatni bildiradi. Ayollar nutqlarida nafas olish, labializatsiya (lablar ishtirokida tovushlarni talaffuz qilish) va nazalizatsiya (og‘iz va burun bilan nafas chiqarishda tovushlarni talaffuz qilish) kabi usullardan ham foydalanadilar. Aksincha, erkaklar o‘zlarining his-tuyg‘ularini baland ovozda ifoda etishda qiynaladilar. Ularda balandlik o‘zgarishini idrok etish qobiliyati kam rivojlangan, bu ularga ayol intonatsiyasining nozik tomonlarini idrok etishni qiyinlashtiradi. Ayol nutqi, odatda, ko‘proq ohangdor va tovush jihatidan xilma-xildir. Bundan tashqari, ayollarning nutqida erkaklarnikiga qaraganda kamroq pauza bo‘ladi.

E.A.Zemskaya “ayollar ko‘pincha turli xil ma‘nolarni yetkazish uchun intonatsiyaga tayanadilar, erkaklar esa shunga o‘xshash vaziyatlarda leksika va grammatikadan foydalanadilar”, deb ta‘kidlaydi. Erkak va ayollar turli tematik guruhlarining lug‘atidan foydalanadilar. Jumladan, ayollar bolalar, moda, kulinariya (oshpazlik) haqida, erkaklar

esa siyosat, texnologiya, sport, armiya va ish haqida ko'proq gapirishadi.

Ayollar nutqi odatda an'anaviyroq bo'ladi, chunki ular ko'pincha bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanishadi. Ularning nutqiga ko'proq e'tibor beradi va muloqotda to'g'rilikka intiladi. Aksincha, erkaklar muloqotda oddiyroq so'z birikmalaridan ko'proq foydalanadilar. Erkaklar his-tuyg'ularni ifoda etishda vazminlikni namoyon etishadi va qattiq yoki haddan tashqari hissiy ifodalardan qochishadi.

Ayollar muloqotda yumshoqroq bo'lib, boshqalarning his-tuyg'ularini ko'proq tinglashadi va o'z xatti-harakatlarini erkaklarnikiga qaraganda samaraliroq boshqaradilar. Boshqa tomondan, erkaklar suhbatlarda qat'iyatliroq bo'lishadi, ko'pincha munozaralarda ustunlik qilishadi va o'z niyatlarini to'g'ridan-to'g'ri, ba'zan tajovuzkor tarzda ifoda etishadi, shu bilan birga, xatti-harakatlarini kamroq nazorat qilishadi. Shuning uchun erkak va ayollarni turli xil aloqa uslublarining vakillari deb hisoblash mumkin[7].

Erkak va ayol nutqining sintaktik xususiyatlaridan biri erkakning ko'proq ishonchga ega bo'lgan kirish so'zlarni qo'llashi, ayol esa bu konstruksiyalardan ishonchsizlik bilan foydalanishi sanaladi. Nutqdagi gender farqlanishlarini o'rganuvchi tadqiqotchilar erkaklar kommunikativ harakati o'z shaxsini tasdiqlash, ijtimoiy vazifalarni bajarishga va bir maqsadga yo'naltirilgan, degan xulosaga kelishgan. Ayollar kommunikativ xulq-atvori, aksincha, ichki dunyo, aloqa qulayligi, beparvolik va o'z his-tuyg'ularini ifodalashga qaratilgan. Ayollar nutqiy vaziyatga moslashishga intilishsa, erkaklar atrof-muhitga faol ta'sir o'tkazib, rejalarini o'zgartirishga harakat qilishadi[8].

Til va kommunikatsiyaning gender jihatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Oilaviy muloqot sharoitida ayollar nutqini tahlil qilish alohida qiziqish uyg'otadi, chunki aynan shu o'rinda ma'lum bir jamiyatning an'ana, qadriyat va ijtimoiy me'yorlarini aks ettiruvchi milliy hamda madaniy xususiyatlar aniq namoyon bo'ladi[9].

Genderga xos nutq bo'yicha tadqiqotlar uzoq tarixga ega. Ushbu sohadagi birinchi ishlardan biri R.Lakoffning "Язык и место женщины"[10] ("Ayolning tili va joyi") asari hisoblanadi, unda ayol nutqining ba'zi xarakterli xususiyatlari ta'kidlangan. O'shandan beri turli madaniyatlarda olib borilgan ko'plab tadqiqotlar bu masala haqidagi tushunchani ancha kengaytirdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ayollar nutqining milliy va madaniy xususiyatlari statik emas, u o'zgarishi mumkin. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi:

a) globallashuvning ta'siri: globallashuv va madaniy almashinuv jarayonlari ayollar nutqidagi ba'zi an'anaviy farqlarni yumshatishga olib keladi[11];

b) ijtimoiy o'zgarishlar: ayollarning ijtimoiy rollaridagi o'zgarishlar, ta'lim va kasbiy bandlik darajasining oshishi ularning oilaviy kontekstdagi nutq xususiyatlariga ta'sir qiladi[12].

Oilaviy muloqotda ayollar nutqining milliy va madaniy xususiyatlarini o'rganish turli jamiyatlarda madaniy me'yor, gender rollari va ijtimoiy o'zgarishlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Biroq bu mavzuga ehtiyotkorlik bilan yondashish, stereotiplardan qochish va individual farqlarni hisobga olish muhimdir. Zamonaviy tadqiqotlar ma'ruzachilarning ma'lumoti, ijtimoiy mavqei, yoshi va individual xususiyatlari kabi omillarni hisobga olgan holda jinsga xos nutqni keng ijtimoiy-madaniy kontekstda ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Oilaviy muloqotda ayollar nutqining milliy va madaniy xususiyatlarini o'rganish fanlararo yondashuvni talab qiladigan murakkab hamda ko'p qirralidir. Tadqiqotchilar lingvistik, sotsiologik, antropologik va psixologik jihatlarini hisobga olishlari kerak. Muayyan umumiy qoidalarni aniqlash mumkin bo'lsa-da, mavjud bo'lgan muhim individual farqlarni hisobga olish muhimdir.

Til amaliyoti davom etayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va globallashuv tufayli doimiy

ravishda rivojlanib bormoqda, bu esa ushbu tadqiqot sohasini dinamik va dolzarb qiladi. Tadqiqotchilar oilaviy sharoitda ayol nutqining murakkabligini aniqlash uchun ushbu o'zgaruvchan modellarga e'tibor berishlari kerak.

Ayollarning oilaviy muloqotdagi nutqi nafaqat so'zlashuvchilarning individual xususiyatlarini, balki ma'lum bir jamiyatga xos bo'lgan madaniy me'yorlarni, ijtimoiy va gender rollarini ham aks ettiradi. Ushbu mavzuni o'rganish muloqotning ijtimoiy-madaniy jihatlari va lingvistik xulq-atvorning gender xususiyatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Oila muloqotida ayollar nutqiga xos xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Hissiy ekspressivlik. Ko'pgina madaniyatlarda ayollarning oilaviy kommunikatsiyadagi nutqi erkaklarnikiga qaraganda hissiy-ekspressivligi bilan ajralib turadi. Bu hissiy-emotsional bo'yoqli leksikadan, yuklama va undovlardan, kichraytirish-erkalash qo'shimchalaridan faol foydalanilganda namoyon bo'ladi.

2. Nutqning "yumshoqligi". Ayollar ko'pincha muloyim nutq shakllaridan foydalanadilar va potentsial ziddiyatli vaziyatlarni yumshatishga intilishadi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin: a) muloyim so'zlarni tez-tez ishlatish (iltimos, rahmat); b) bevosita ko'rsatmalar o'rniga bilvosita so'rovlardan foydalanish; c) noaniqlik yoki taxminni ifodalovchi kirish konstruktsiyalaridan foydalanish (menimcha, balki).

3. Tematik yo'nalish. Oilaviy muloqotda ayollar ko'proq quyidagi mavzularda gaplashishadi: a) bolalar tarbiyasi va ta'lim; b) oila a'zolarining salomatligi; c) maishiy masalalar va uy xo'jaligini tashkil etish; d) oila a'zolarining shaxslararo munosabatlari va hissiy holati.

4. So'roq konstruktsiyalaridan foydalanish. Ayollar savollardan nafaqat ma'lumot olish uchun, balki suhbatni davom ettirish, g'amxo'rlik va e'tiborni ko'rsatish, so'rov yoki istaklarning bilvosita ifodasi sifatida foydalanishadi.

5. Tafsilot va xususiyatlar. Voqea yoki vaziyatlarni tavsiflashda ayollar shaxslararo munosabatlarning kichik tafsilotlariga e'tibor berib, batafsilroq hamda aniqroq tavsif berishga moyildirlar.

6. Taqqoslash va metaforalardan foydalanish. Ma'juziy taqqoslash va metafora ayollar nutqida hissiy holat yoki shaxslararo munosabatlarni tasvirlashda uchraydi.

7. O'zaro tushunishga yo'naltirish. Oilaviy muloqotda ayollar ko'pincha o'zaro tushunish va uyg'unlikka erishishga intilishadi. Bu o'zini quyidagi holatlarda namoyon qiladi: a) tilning fatik funktsiyasidan faol foydalanishda; b) ziddiyatli vaziyatlarda murosaga intilishda; c) suhbatdoshni yaxshiroq tushunish uchun aniqlovchi savollardan tez-tez foydalanishda.

8. Til va noverbal muloqot. Garchi bu og'zaki nutq bilan bevosita bog'liq bo'lmas-da, ayollar ko'pincha noverbal muloqot vositalari (yuz ifodalari, jestikulyatsiya (mimika), taktik aloqa (teginish: qo'l berib so'rash, elkasiga yoki orqasiga qoqib qo'yish)dan foydalanishadi.

9. Bilvosita nutq harakatlaridan foydalanish. Ayollar o'z fikr va istaklarini ifoda etishning bilvosita usullariga ko'proq murojaat qilishadi. Chunki ko'pchilik hollarda fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifoda etish qo'pollik sifatida qabul qilinishi mumkin.

10. Nutqni suhbatdoshga moslashtirish. Ayollar ko'pincha o'z nutqlarini oiladagi suhbatdoshning yoshi va holatiga moslashtirishadi, turli xil aloqa registrilarini osongina almashtiradilar.

11. "Biz" olmoshidan foydalanish. Oilaviy masalalarni muhokama qilishda ayollar ko'pincha birlikda "men" o'rnida "biz" olmoshini ishlatib, oila va manfaatlar birligini ta'kidlaydilar.

12. O'zaro munosabatlarni muhokama qilish. Ayollarda oila ichidagi va tashqarisidagi shaxslararo munosabatlar haqida suhbatni boshlash hamda davom ettirish ehtimoli

ko'proq.

Ko'rinadiki, oilaviy muloqotda ayollar nutqining milliy va madaniy xususiyatlari gender rollari, madaniy me'yor va so'zlovchilarning individual xususiyatlari o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni aks ettiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu xususiyatlar universal emas va ayollarning madaniy kontekstiga, ijtimoiy mavqeiga va shaxsiy xususiyatlariga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy jamiyatda nutqdagi gender farqlarini yumshatish tendentsiyasi mavjud.

Ushbu xususiyatlarni o'rganish turli jamiyatlarda oilaviy munosabatlar dinamikasini, muloqotning madaniy me'yorlari va muloqotning gender jihatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu bilim nafaqat lingvistik va sotsiologik tadqiqotlarda, balki oilaviy psixologiya, madaniyatlararo aloqa va gender tadqiqotlari kabi amaliy sohalarda ham foydali bo'lishi mumkin.

Ushbu maqolada oilaviy muloqotda ayollar nutqining milliy-madaniy belgilarini tahlil qilish natijasida ayollar nutqida namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlar va ular orqali ifodalanadigan milliy an'analar, qadriyatlar hamda madaniy omillar o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollar nutqi oilaviy muloqotda milliy o'ziga xosliklarni saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, turli madaniy muhitlarda ayollar muloqot strategiyalari farqlanishi bilan birga, umumiy madaniy merosni uzatish va avlodlar o'rtasida bog'lanishni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun oilaviy muloqotda milliy-madaniy belgilarni inobatga olish va rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

Николаева Г.А. Национально-культурная специфика гендерных отношений: на материалах Республики Бурятия: Автореферат дисс. на соиск. учен. степ. канд. Культурологии. – Санкт-Петербург, 2013. – 24 с

Новикова И.Н., Хамидуллина Л. Ю. К вопросу об особенностях мужской и женской речи // Наука и современность. – 2013. – № 25. – С. 78-83.

Новикова И.Н., Хамидуллина Л.Ю. К вопросу об особенностях мужской и женской речи // Наука и современность. – 2013. – № 25. – С. 78-83.

Попова Е.А. Об особенностях речи мужчин и женщин // Русская речь. – 2007. – № 3. – С. 40-49.

Серова И.Г. Роль гендерной интерпретанты в высказывании: параметризация события // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2003. – Вып. 2. – С. 210-227.

Смирнова Л.Г. «Ветреная кокетка» и «прожженный делец». Гендерная специфика // Русская речь. – 2012. – № 2. – С. 59-67.

Попова Е.А. Об особенностях речи мужчин и женщин // Русская речь. – 2007. – № 3. – С. 40-49.

[электрон ресурс]// <https://novainfo.ru/article/2155>

Tannen D. You just do not understand: Women and Men in Conversation. – New York: Ballantine Books, 1990. – 330 p.

Lakoff R. Language and Woman's Place. New York: Harper & Row. – 1975. – 37

p.

Cameron D. Language, gender, and sexuality: Current issues and new directions. Applied Linguistics, - 2005. 26(4), 482-502.

Labov W. Principles of Linguistic Change, Volume 2: Social Factors. Blackwell. – 2001. – 592 p.

## “QISASI RABG’UZIY” ASARIDA SHAXSNING RUHIY HOLATI DOIRASIDA SHAKLLANGAN FRAZEOLOGIZMLAR

Farmonova Umida,  
Farg‘ona Davlat Universiteti o‘qituvchisi

*Annotatsiya/ Mazkur maqolada “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan frazeologik birliklarning shakllanish asoslari tahlil qilingan. Asardagi somatizmlar asosida hosil qilingan iboralar tahlil qilingan.*

*Kalit so‘zlar: frazeologizm, frazeologik birlik, frazema, leksema, somatizm.*

## PHRASEOLOGISMS FORMED WITHIN THE PERSONAL MENTAL STATE IN THE WORK «QISASI RABGUZI»

Farmonova Umida,  
Teacher of Fergana State University

*Abstract. This article analyzes the basis of formation of phraseological units used in «Qisasi Rabguzi». Phrases formed on the basis of somatisms in the work are analyzed.*

*Key words: phraseologism, phraseological unit, phrase, lexeme, somatism.*

## ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ, СФОРМИРОВАННЫЕ В РАМКАХ ЛИЧНОСТИ ПСИХИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «КИСАСИ РАБГУЗИ»

Фармонова Умида,  
Преподаватель Ферганского государственного университета

*Аннотация. В данной статье анализируются основы образования фразеологизмов, используемых в «Кисаси Рабгузи». Анализируются словосочетания, образованные на основе соматизмов в произведении.*

*Ключевые слова: фразеологизм, фразеологизм, словосочетание, лексема, соматизм.*

Frazeologizmlar kishilarning ruhiy holati, his-hayajoni, ichki kechinmalari, voqea-hodisalarga munosabatini obrazli, hissiy-ekspressiv jihatdan ifodalash zaruriyati asosida shakllangan til hodisasidir.

Ma‘lumki, iboralar badiiy asar qimmatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ijodkorlar iboralarni o‘z asarlarida qahramon xarakteri va hodisalarni ochishda ishlatadilar. Voqea-hodisalarni tasvirlashda o‘quvchiga hissiy zavq berishda ulardan mohirona foydalanadilar. Har qanday frazeologizm o‘sha xalqning turmush sharoiti, urf-odatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Ruhiy holatning murakkab tuzilishi frazeologik birliklarning majoziy ma‘nosida o‘z ifodasini topadi. Iboralar tasviri xissiyotlarni tavsiflashga asoslangan psixofiziologik tartib, rivojlanuvchi o‘zgarishlar, imo-ishoralar, yuz ifodalari, u yoki bu narsada bo‘lgan odamning subyektiv tajribalari, ruhiy holati orqali yuzaga chiqadi.

Ekspressivlik munosabati doim semantik xarakterga ega bo‘ladi. Ekspressivlikni bunday izohlash bimalol frazeologiyaga ham tadbiiq qilinishi mumkin, chunki „frazеologizmlar nominativ ma‘no va qo‘shimcha ottenkalarining ajralmas birligidan iborat bo‘lgan maxsus nutqiy figuralardir. Frazeologizmlarning ko‘pchiligi nutqda ma‘lum uslubiy maqsadlar, ayniqsa, ekspressivlik uchun xizmat qiladi“ [1]. Ko‘pgina frazemalarning semantik strukturasi kuchi kuchaytiruv semasi ularning ekspressivligini ko‘rsatishga vosita bo‘ladi. Bunday iboralarning ma‘nosini, semantik strukturasi



aniqlashda “juda, g‘oyat, kuchli, eng” kabi kuchaytiruv so‘zlaridan foydalaniladi. Masalan, quyidagi frazemalar kuchaytiruv semasiga ega, ular ekspressiv vazifa bajarishi bilan ajralib turadi: “oralaridan qil ham o‘tmaydi” - juda inoq; „tilni yoradi“ - ta‘mi nihoyatda shirin; „ichidan qirindi o‘tib ketdi“ - qattiq tashvishlandi; „yog‘ tushsa yalaguday“ - niqoyat darajada toza, ozoda; „ko‘ziga dunyo qorong‘ilashdi“ - qattiq xafa bo‘ldi; „o‘pkasi og‘ziga tiqilib“ - ortiq darajada hayajonlanib; „yuk ham bo‘lmaydi“ - nihoyatda oz, kam; „yutaman deydi“ - juda vahimali, ko‘rqinchli kabilar[2].

O‘zbek tili frazeologik sistemasida iboralarning katta guruhi faqat asosiy ma‘noni ifodalab qolmasdan, balki so‘zlovchining shodligi, g‘azabi, nafrati, o‘kinchi, qo‘rquvi, kinoyasi, jirkanishi singari emotsional muvosabatlarni ham ifodalab keladi.

“Qisasi Rabg‘uziy” asari muallifi payg‘ambarlar hayoti, shaxsiga tegishli yoxud uning atrofida yuz beradigan hodisa haqidagi mulohazalarining ishonchliligini va ijobiy yoki salbiy personajlarga nisbatan xulosasini tasdiqlashda iboralardan foydalangan.

So‘zlovchining voqelikka nisbatan subyektiv bahosi salbiy yoki ijobiy munosabatda bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz ham asarda ifodalangan iboralarni ijobiy va salbiy ottenkali frazeologizmlarga bo‘lib tahlil qilishga harakat qildik.

“Qisasi Rabg‘uziy” asarida qo‘llangan ijobiy ottenkali baho frazeologizmlar:

Kuchga to‘lmoq iborasi “jismoniy quvvati eng yuqori me‘yorga yetmoq” kabi ma‘noni bildiradi. Ushbu ibora asarda quvvat bo‘ldi shaklida ifodalangan. Ma‘lumki, hurmo mevasi o‘zining vitaminlarga boyligi, foydasi bilan mashhur. Asardan olingan misolda ana shu mevaning yashnab, ko‘rklanishi va bu mevadan tanavvul qilgan kishi kuchga to‘lib, ibodatda bardavom bo‘lishi majoziy ma‘no orqali ifodalangan. Bu ibora ijobiy ma‘no ottenkasiga ega bo‘lgan:

Islom hurmolari ko‘rklandi, islomga quvvat bo‘ldi.

Xush kelmoq iborasi “yoqmoq” ma‘nosini bildiradi. Asarda ushbu ibora xush keldi shaklida ifodalangan.

Oshliq yetilgandin so‘ng oshliq iyasi oshliqin olg‘ay, qo‘y iyasi qo‘yin olg‘ay”. Dovudg‘a bu xush keldi;

Rasul alyhis-salomg‘a bu so‘z xush keldi, aydi: “Yo Abu Bakr, bu so‘zung birla Nuh yalavochoqqa o‘xshayursen.

O‘zbek tilida kayf(i) chog‘ – kayf(i) chog‘ bo‘ldi (– kayf(i)ni chog‘ qilmoq iboralari ijobiy ma‘no ottenkali frazeologik birliklar turkumiga kiradi. Bu iboralarning kayf(i) xush - kayf(i) xush bo‘ldi singari variantdoshi; vaqt(i) chog‘ - dimog‘(i) chog‘ - ko‘ngil chog‘ kabi sinonimlari ham mavjud. Ushbu iboralar asarda vaqti xush bo‘lmish shaklida ifodalangan:

Varaqa sharob ichib vaqti xush bo‘lmishda Xadicha aydi: “Ey amm, bu yil bozirgonlarimiz yavloq asig‘ qilib keldilar.

Asarda umid berdi iborasi qo‘llangan bo‘lib, bu ibora bugungi kunda umid bog‘lamoq [voqe bo‘lar deb o‘ylamoq”] shaklida qo‘llaniladi:

Ujmohg‘a umid berdi, ezgulik birla o‘g‘ut berdi, erklik birla so‘zladi, qabul qilmadilar;

Ul elningdagi nur umidiga kelib erdim, emdi ul nurdan mahrum qoldim”, teb oh teyu ingranu otlanib yo‘lig‘a ketdi.

Oshiq bo‘ldi (sevmoq) –Oshiqi beqaror bo‘lmoq iborasi “shaydo bo‘lib, maftun bo‘lib, tinchligini yo‘qotmoq” kabi ma‘nolarni anglatadi:

Qizning ko‘zi bir yigitga tushdi, angar oshiq bo‘ldi. Yigitma anga oshiq bo‘ldi.

Badiiy uslubda faol qo‘llanilib muftalo bo‘lmoq iborasi mavjud. Ushbu ibora „duchor bo‘lmoq, chalinmoq“ kabi ma‘nolarni anglatadi. Asarda qo‘llangan muhabbatiga muftalo bo‘libtur iboradi „sevgi-muhabbatga duchor bo‘lmoq“ kabi ijobiy harakter kasb etgan:

Zulayhoning ko'nglinda uning mahabbatiga muhtalo bo'libtur, munglima molik Za'rga shifoati asig' qilmadi.

Murod(i)ga yetmoq iborasi "orzu-niyatining amalga oshuviga erishmoq" kabi ma'noni bildiradi. Asarda ushbu iboraning tarixiy sinonimi bo'lgan murodlar hosil bo'ldi iborasi qo'llangan. Murodlar hosil bo'ldi-murodiga yetmoq iborasi asarda ijobiy xarakter kasb etib, "Xadichaning orzusi amalga oshganligi" bilan ijobuy ottenkaga ega bo'lgan:

Otika birla Xadicha so'z kestilar, murodlar hosil bo'ldi. Abu Tolibg'a kelib so'z kestilar, murodlar hosil bo'ldi.

Mehri tushti iborasi "suyib qolmoq" kabi ma'noni ifodalaydi:

Mohir eran mehri tushti mehrini bergan telim, Mehri birla qoldi solim, yo'q enginda to'g' to'zi.

Rohat olmoq(yoki topmoq, qilmoq) iborasi 2 xil ma'no-munasabatlar orqali ifodalanadi: 1 lazzatlanmoq, huzur qilmoq; 2 huzur-halovat, farog'at, tinch va farovon hayot. Asarda qo'llangan rohat topg'il iborasi "qiyinchiliklarga sabr qilish orqali huzur-halovatli, tinch va farovon hayotga erishmoq) kabi ijobiy ma'no kasb etgan:

Taqi yetti yil bu emgakda sabr qilg'il. Andin so'ng rohat topg'il.

Asarda nusrat bermish (g'alaba, yutuq, zafar) iborasi qo'llangan bo'lib, "ustun kelmoq kuchli bo'lib chiqmoq" kabi ma'nolarni anglatadi. Iboraga sinonim bo'lib baland kelmoq - zo'r kelmoq - g'olib kelmoq kabi shakllari qo'llangan:

Bularg'a Haq taolo dushman uza doim nusrat bermish erdi.

"Qisasi Rabg'uziy" asarida qo'llangan salbiy ottenkali baho frazeologizmlar:

Zor yig'lamoq iborasi "qattiq yig'i-sig'i qilmoq, nola qilmoq" kabi ma'nolarni izohlab keladi. Bu ibora asarda Zor-zor yig'ladi

Kuna zor-zor yig'ladi, otasin sog'indi.

Asarda qo'llangan majruh bo'ldi iborasi "majruh bo'lmoq, jarohat olmoq; shikast topib, mayib, nogiron bo'lib qolmoq" kabi salbiy ma'noli iboralar qatorida qo'llaniladi:

O'tuz erda yigirma ikkisi halok bo'ldi, Abbos majruh bo'ldi.

Kuchdan qolmoq iborasi "jismoniy quvvati eng past me'yoriga yetmoq" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu ibora asarda kuchlari, quvvatlari qolmadi shaklida berilgan:

Qachon Ya'qub yalavoch o'g'lonlari o'g'ri otin eshittilar ersa kuchlari, quvvatlari qolmadi, mengizlari sarg'ardi, qo'rqtilar;

Luqmon aydi: "Ani tugal aytmoqg'a quvvatim yo'q.

Asarda yo'ldan ozdirdilar iborasi qo'llangan bo'lib, ushbu ibora lug'atda yo'ldan ozmoq - yo'ldan ozdirmoq [yomon yo'lga kirmoq, aynimoq. Sinonimi: yo'ldan toymoq - yo'ldan urmoq - yo'ldan chiqarmoq] shaklida ifodalangan:

Andog'kim Ibrohim yalavoch duosindin xabar berur va yorliqar: "Ey parvardigorim, ular (butlar) ko'p odamlarni yo'ldan ozdirdilar".

Masxara tutmoq qilmoq "mazax qilmoq - birovning ustidan kulmoq" kabi ma'nolarni ifodalaydi:

Ul mo'min yig'lab ayg'ay: Ilohiy, bu farishta mani masxara tutar.

Achchig'i keldi - achchig'i kelmoq iborasi "achchiqlanmoq" [Varianti: jahl(i) keldi - jahl(i)ni keltirmoq - qahr(i) keldi - qahr(i)ni keltirmoq - g'azab(i) keldi - g'azab(i)ni keltirmoq; Sinonimi: qon(i) qaynadi - qon(i)ni qaynatmoq - g'azabga kelmoq] ma'noni bildiradi:

Zulayhoning achchig'i keldi qo'pti, o'qutur enagasiga bordi, holini anga aytu berdi; Buxtnasrning achchig'i kelib kursini pora-pora qildi.

"O'bek tilining izohli lug'ati" da hasad qildi iborasi "hasad qilmoq - hasad bilan qaramoq, hasadli munosabatda bo'lmoq" kabi ma'nolarni izohlab kelgan:

Aymishlar, Tolut Dovudg'a hasad qildi;  
Kisro anga hasad qildi, bo'ynag'uluq qilg'ay teb qo'rqi.  
Ichi yonmoq iborasi "jahli chiqmoq, alami kelmoq" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ushbu ibiraning tarixiy variantdoshi bo'lgan chimni yondurmag'il iborasi qo'llangan:  
Man o'ngungda o'layin san ichimni yondurmag'il.  
G'azabi kelmoq iborasi bir necha salbiy ma'nolarni ifodalaydi: 1g'azablanmoq; 2 g'azab(i)ni keltirmoq; 3 achchig'(i) keldi; 4 g'azab(i)ni qaynatmoq; 5 g'azab(i) qaynadi kabi. Ushbi ibora asarda o'fkasi (g'azabi) keldi shaklida qo'llangan:  
Qobilning ofkasi keldi, aydi: "Men Hobilni o'turayin. Qiz yema, xalifaliq yema manga qolsun", teb;  
Malikning o'fkasi keldi, aydi: „Ey Abdulloh, sandin uyalib so'zlamas“, teb  
Ibrohimning ilkin tutib chiqardi.  
Fitna qobmoq iborasi (to'polon boshlanmoq) tarixiy ibora hisoblanib, asarda fitna qilmasmiz shaklida ifodalangan:  
Aydilar: "Biz fitna qilmasmiz, ko'kdin ingan moidadin yemak tilayurmiz".  
Umudin kesmoq iborasi badiiy uslubning tarixiy shakli bo'lib, "umidsiz bo'lmoq kabi ma'nolarni anglatadi:  
Nuh ani ko'rди, aning so'zin eshitdi, o'zindan umid kesdi;  
Olti yil qoldi zindonda uch ish birla mashg'ul bo'ldi, duo qildi, xalqdin umid kesti, taqi sabr qildi.  
Asardan olingan ojiz bo'ldilar iborasi „ilojsiz qolmoq“ kabi ma'noni bildiradi. Ushbu ibora bugungi kunda faollik darajasini yo'qotib, tarixiy iboralar qatariga kirgan:  
Hud payg'ambar duosi birla mavlo azza va jalla ularg'a uch yil yog'in izmadi, ojiz bo'ldilar;  
Qibtiy, bani Isroil bir yerdan suv olsalar, bani Isroil olg'an suv, qibtiy olg'an qon bo'lur erdi. Ojiz bo'ldilar.  
O'zbek tilida "turli o'y-xayollarga borib, telba bo'lish darajasida hayajonlanmoq" kabi ma'nolar orqali izohlanib, ifodalanigan vasvasaga tushmoq iborasi qo'llaniladi. Ushbu ibora asarda vasvasa qildi shaklida ifodalangan:  
Umar ani eshitib ahdni buzg'ali rag'bat qildi. Shayton vasvasa qildi. Muncha oltun, muncha tevadin mahrummu qolursen.  
Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlarning asosiy qismi kishilarning emotsional xususiyatini, xilma-xil qayfiyati(kuvonch, qayratlanish, ajablanish, kinoya, taxdid, loqaydlik, xafa bo'lish, ko'rquv, uyat kabilar)ni ifodalaydi. Asarda ana shunday xususiyatli iboralar juda ham ko'p miqdorni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда таракқиёти. — Самарқанд: СамДУ нашри, 2007. б. 26-62
2. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари (ўқув қўлланмаси). Самарқанд: 1998. 95-бет.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. — Т., 1978;
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. — Т., 1992;
4. Раҳматуллаев Ш. Лексикология билан фразеология //Ҳозирги ўзбек адабий тили. —Т., 1992. 49-186–бетлар;

## ISH HUJJATLARI MATNIGA QO‘YILADIGAN IMLOVIY VA USLUBIY TALABLAR

*Hamidova Bibigul Rabbimovna,  
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti*

*Annotatsiya. Mazkur maqola ish hujjatlari matniga qo‘yiladigan imloviy va uslubiy talablarni tahlil qiladi. Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirishi lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Maqolada hujjatlarning turiga, tiliga, mazmuniga, tayyorlanish xususiyatiga va qoidalariga qarab qo‘yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda har bir turkum hujjatlar uchun maxsus til talablar ham ko‘rib chiqiladi. Hujjatlarning mukammallik darajasi ular bilan ishlovchi kishilarning savodxonlik darajasi va davlat ishlarini yuritishdagi mavjud qoidalar bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.*

*Kalit so‘zlar: Hujjat, imlo qoidalari, tilning grammatik vositalari, ish qog‘ozlar, nutq madaniyati, til me‘yorlari, ariza, tilxat, orfografik me‘yor, alifbo.*

## ПРАВОВЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ТЕКСТУ РАБОЧИХ ДОКУМЕНТОВ

*Хамидова Бибигуль Раббимовна,  
магистрант Узбекско-Финляндского педагогического института*

*Аннотация. Данная статья анализирует орфографические и стилистические требования к тексту рабочих документов. Поскольку документы являются средствами выражения официальных отношений, они должны объективно отражать информацию. Поэтому в языке документов существуют определенные ограничения на использование слов и форм слов. В статье рассматриваются общие требования, предъявляемые к документам в зависимости от их типа, языка, содержания, особенностей подготовки и правил, а также специальные языковые требования для каждой категории документов. Подчеркивается, что уровень совершенства документов связан с уровнем грамотности людей, работающих с ними, и существующими традициями ведения государственных дел.*

*Ключевые слова: Документ, правила орфографии, грамматические средства языка, увлечения, культура речи, нормы языка, приложение, квитанция, орфографический стандарт, алфавит.*

## SPELLING AND STYLE REQUIREMENTS APPLIED TO THE TEXT OF WORKING DOCUMENTS

*Hamidova Bibigul Rabbimovna,  
Graduate student of Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute*

*Abstract. This article analyzes the orthographic and stylistic requirements for the text of work documents. Since documents are means of expressing official relations, they must objectively reflect information. Therefore, there are certain restrictions on the use of words and word forms in the language of documents. The article examines general requirements for documents depending on their type, language, content, preparation features, and rules, as well as specific language requirements for each category of documents. It emphasizes that the level of perfection of documents is related to the literacy level of the people working with them and the existing traditions of conducting*

state affairs.

*Key words: Document, spelling rules, grammatical tools of the language, hobbies, speech culture, language standards, application, receipt, orthographic standard, alphabet.*

Bo'lg'usi oliy ma'lumotli mutaxassis, ish yurituvchi, hujjatlar bilan bevosita ishlaydigan xodim oldida, Yuqorida ta'kidlanganidek, hujjat turlarini puxta o'rganish, ularni mantiqiy to'g'ri va aniq ma'lumotlar asosida shu sohaga doir leksik vositalardan unumli foydalangan holda tayyorlash, to'ldirish vazifasi turadi. Shuningdek, mamlakatimizda lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosining joriy etilishi va shu munosabat bilan yangi imlo qoidalarining ishlab chiqilganligi, amalda 1956-yildan buyon qo'llanib kelingan ayrim imlo qoidalarining eskirganligi yoki yangisi bilan almashtirilganligi, yangi imlo qoidalarining kiritilganligi, imkon qadar o'zbek tilining grammatik qonun-qoidalaridan samarali foydalangan holda uslubiy, imloviy va ishoraviy xatolarsiz hujjatlar tayyorlashni taqozo etadi. Kirill va lotin yozuvlariga asoslangan alifbolarda so'zlarning yozilishidagi ayrim farqlarni inobatga oladigan bo'lsak, bu hol barchamizdan hujjat tayyorlash ishiga alohida e'tibor bilan qarashimizni talab etadi: объект – obyekt, режиссёр – rejissor, концерт – konsern, акция – aksiya va hokazo kabi. Buni yangi imlo qoidalarini puxta o'rganish orqali chuqur o'zlashtirib olish mumkin.

Ma'lumki, kirill yozuvi asosidagi alifbomizda 33 harf va 2 ta belgi mavjud edi. Ular quyidagilar: Аа, Бб, Вв, Гг, Дд, Ее, Ёё, Жж, Зз, Ии, Кк, Лл, Мм, Нн, Оо, Пп, Рр, Сс, Тт, Уу, Фф, Хх, Цц, Чч, Шш, Ъъ, Ьь, Ээ, Юю, Яя, ѓ, <sup>ao</sup>, £¼, <sup>23</sup>. Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida esa 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasi mavjud bo'lib, ular quyidagi tartibda joylashgan: Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy, Zz, O'o', G'g', Shsh, Chch, Ngng.

An'anaviy imlo me'yorlarini saqlab qolgan holda lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bilan ish ko'radigan imlo ham o'z me'yoriy qoidalariga ega va bu me'yorlar yuqorida tilga olingan hujjatda o'z ifodasini topgan. Undagi qoidalarga amal qilish tilimizdan foydalanuvchilar uchun bundan keyin majburiy sanaladi va shu tarzda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida o'zbek tilining orfografik me'yori yo'lga qo'yiladi.

1995-yil 24-avgust 339-son qarori bilan Vazirlar Mahkamasi o'zbek tilining lotin imlosiga asoslangan yangi alifbo qoidalarini tasdiqladi. Ish qog'ozlari yangi alifboda qoidalarga rioya qilingan holda yoziladigan bo'ldi.

#### ISH HUJJATLARI MATNIGA QO'YILADIGAN USLUBIY TALABLAR

Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan oq uni me'yorashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlarini singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'lmagan.

Demak me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Afsuski, tildagi me'yoriy muammolarni, qiyinchiliklarni qisqa muddatlar ichida

hal qilishning imkoni yo‘q. Agar buning aksini aytsak, tilimizning amalda bo‘lish qonunlariga, bugungi real ijtimoiy hayotimizga zid fikr bo‘lishi mumkin edi. Bir tarixiy holatni eslaylik. 1989 yilda «O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida» qabul qilingan Qonunini katta quvonch bilan kutib oldik va uni amalda tatbiq etishga ishtiyoq bilan kirishdik. Ammo uning hamma moddalarini birdaniga va tezlikda bajarishning imkoni bo‘lmadi. O‘sha paytda qonuniy bo‘lmas-da, amaldagi ish yuritish tili rus tili ekanligi, bir qism o‘zbek millatiga mansub kishilarning sharoit taqozosi bilan rus tilida savod chiqarganligi, farzandlarini ham bog‘chalar va maktablarda ana shu tilda ta‘lim-tarbiya olishga jalb qilganligi ana shunday tabiiy to‘siqlardan bo‘lib turdi. Oqibatda ma‘lum muddat muomala jarayonida, rasmiy ish qog‘ozlarini yuritishda, turli darajadagi anjumanlarni o‘tkazishda rus tilidan foydalanishdagi mavjud an‘analar o‘z kuchini saqlab turdi. To‘g‘risini aytganda, oradan o‘n to‘rt yildan ortiq vaqt o‘tsa ham bu nuqsonlardan to‘laligicha qutila olgan emasmiz. O‘zbek tilidan foydalanishdagi qiyinchiliklarning ko‘plari bartaraf etilganligini, til amaliyotiga oid masalalarning bosqichma-bosqich hal bo‘lib borayotganini ham kuzatamiz. Harqalay o‘tgan vaqt mobaynidagi tildan foydalanish jarayoni bir narsani isbotladi - til me‘yoriy muammolarining ijobiy hal qilinishi vaqt degan hakamga ham bog‘liqligi ma‘lum bo‘ldi.

Til elementlarining ma‘lum bir me‘yorga keltirilishi, bir tomondan, til mutaxassislari tomonidan boshqarib borilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy ravishda ham yuz beradi. Ammo, fikrimizcha, bir narsa ma‘lum - tilning amalda bo‘lish holatlariga tazyiq o‘tkazib bo‘lmaydi. Lekin tegishli yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalar, tavsiyalar berilib borilishi zarur.

Ammo o‘zbek tili va nutqi madaniyati uchun olib borayotgan ishlarimiz talablar darajasida emas. Bu vazifalarni ijobiy hal qilish uchun adabiy til me‘yorini belgilashning amaliy jihati bilan jiddiy shug‘ullanishimiz kerak. Xo‘sh, me‘yorni belgilashning amaliy jihati nimadan iborat? Tadqiqotlar va kuzatishlar natijasida til elementlarida qanday mazmuniy va shakliy imkoniyatlar mavjudligi tahlil qilinadi, lingvistik imkoniyatlari ochib beriladi va ulardan nutq jarayonida foydalanish yo‘llari tavsiya qilinadi. Ma‘lum ma‘noda bu ham ularning me‘yorni belgilash va til birliklarining ishlatilishiga oid tavsiyalar berish degan gapdir.

Shu mazmunda til mutaxassislari, ziyolilar o‘zlarining to‘g‘ri maslahatlarini, tavsiyalarini berishlari, bu borada jonkuyarlik qilishlari mumkin. Buning ham ijobiy jihatlari ko‘p, albatta. Ammo hal qiluvchi gapni bu tildan foydalanuvchilar aytadi. Buning ustiga, har bir til elementining me‘yor holiga kelgunicha ma‘lum vaqt o‘tishi ham lozim bo‘lib qoladi.

Til birliklarining adabiy shaklda me‘yorlashuvida badiiy adabiyotning o‘rni ham alohida. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o‘z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, favqulodda original ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo‘lda ular yangi so‘z va iboralar yaratadilar. Yaratilgan birliklar o‘sha matnning o‘zida qolib ketaverishi, ommalashmasligi, adabiy tildan o‘rin olmasligi, bir so‘z bilan aytganda, tilda me‘yorlashmasligi mumkin. Ularning me‘yorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi.

Til tadqiqotchilarining tasdiqlashicha, davlatchilik darajasida, ya‘ni rasmiy muomalada tildan foydalanish uning me‘yorlashuvini, binobarin, adabiy tilning shakllanuvini tezlashtirgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, qayerda davlatchilik taraqqiy etgan, mustahkamlangan va bu davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va rivojlangan bo‘lsa, shu yerda tilning me‘yorlashuvi va madaniylashuvi ham tezroq amalga oshgan.

Har qanday til me‘yorlarini katta ikkita guruhga – umumiy va xususiy me‘yorlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Me‘yorga nisbatan qo‘llaniladigan umumiylik va xususiylilik til me‘yorlarining

faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. Shu ma'noda o'zbek umumxalq tilidagi barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid me'yorlarni xususiy me'yorlar sifatida qabul qilish mumkin.

Shunday qilib, bir tomondan, o'zbek tiliga tegishli bo'lgan barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor deb tushunamiz. Ikkinchi tomondan esa, qo'llanish doirasi chegaralanmagan hamda tilning hamma iste'molchilari va tildagi barcha vazifaviy uslublarni uchun baravar bo'lgan birliklar majmuini anglaymiz. «Umumiy norma tushunchasi o'zbek milliy tilining barcha ijtimoiy vazifaviy ko'rinishlari, nutq tiplari va uslublari uchun mushtarak bo'lgan vositalari tizimi ma'nosini ham anglatadi».

Xususiy me'yor ma'lum til umumiy me'yorlarining yashash shaklidir. Shunday ekan, yuqorida sanab o'tilgan o'zbek adabiy tili, lahja va shevalari hamda ijtimoiy tarmoqlarining me'yori xususiy me'yor sanaladi. Xususiy me'yorlarni yanada aniqroq tasavvur qiladigan bo'lsak, har bir shaxsning tildan foydalanish me'yori ham, o'zbek tilida mavjud bo'lgan beshta – rasmiy, ilmiy, ommabop, badiiy, so'zlashuv uslublari doirasida amal qiladigan me'yorlarni ham xususiy me'yorlar deb tushunishimizga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog'oz, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilarni ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: jumalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo'lishi. Bu uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llaniladi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo'laklarining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi: O'z lavozimini suiiste'mol qilganligi uchun M.Ahmedovga hayfsan e'lon qilinsin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – Toshkent, 2000.

Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlosi. internetdagi manzili: [www.samdu.uz/files/web/index.htm](http://www.samdu.uz/files/web/index.htm).

Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik. Uslubiy qo'llanma. Tuzuvchi: Boltayev M. – Samarqand: SamDU, 2007.

5. Mahmudov N. va bosh. Ish yuritish asoslari. – Toshkent: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

6. Sanaqulov U., Abdiyev M., Qurbonov A. O'zbek tilida ish yuritish asoslari. – Samarqand, 2014.

7. Абдиев М. Соҳавий терминологиянинг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004.

8. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2015.

9. To'xlijev N. Ish yuritish. – Toshkent, 2017.

10. Abdiyev M., Umarov Y. Ish yuritish. – Samarqand, 2018.

## “BOBURNOMA”DA MUALLIF OBRAZI

Karimova Yulduz,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

*Annotatsiya. Ushbu maqolada “Boburnoma”ning memuarligi Bobur Mirzoning nafaqat muallif-qahramon ekanligini, balki hikoyachi-qahramon maqomini ham belgilashi, aynan shu maqomga ko‘ra asardagi har qanday voqea-hodisa uning nigohi, tili va dilidan o‘tib ifodalanishi o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada ana o‘sha voqea-hodisalar talqinida muallifning qiyofasi, tabiati, ichki va tashqi dunyosiga xos detallar, chizgilar namoyon bo‘lib boraverishi tahlillar jarayonida ochib berilgan.*

*Kalit so‘zlar: muallif, matn, hikoyachi-qahramon, muallif-qahramon, Bobur Mirzo shaxsiyati, tarixiylik va badiiylik, asar strukturasi, kompozitsion izchillik.*

## PORTRAIT OF THE AUTHOR IN «BABURNAMA»

Karimova Yulduz,  
Associate Professor of Jizzakh State Pedagogical University

*Abstract. In this article, it is studied that the memoir «Boburnoma» defines Babur Mirzo not only as an author-hero, but also as a narrator-hero, and according to this status, any event in the work is expressed through his gaze, language and language. Also, in the analysis of these events, the author’s appearance, nature, inner and outer world details and lines are revealed in the analysis process.*

*Key words: author, text, narrator-hero, author-hero, personality of Babur Mirzo, historicity and artistry, structure of the work, compositional consistency.*

## ПОРТРЕТ АВТОРА В «БАБУРНАМЕ»

Каримова Юлдуз,  
Доцент Джизакского государственного педагогического университета

*Аннотация. В данной статье исследуется, что мемуар «Бобурнома» определяет Бабура Мирзо не только как автора-героя, но и как героя-рассказчика, и согласно этому статусу любое событие в произведении выражается через его взгляд, язык. и язык. Также при анализе этих событий в процессе анализа выявляются внешность, характер, детали и линии внутреннего и внешнего мира автора.*

*Ключевые слова: автор, текст, рассказчик-герой, автор-герой, личность Бабура Мирзо, историчность и художественность, структура произведения, композиционная последовательность.*

Rus adabiyotshunos olimi Mixail Baxtin: “Muallifning ijod jarayoni adabiy qadriyat o‘laroq faqat u tomondan idrok etilgan matndagina amalga oshadi, takomillashadi, intiho topadi. Muallif uchun matn yaratish ilmiy ijod, izlanish demakdir...”

Muallif o‘z ijodida sof adabiy qarshilikni, eski adabiy shakllarni, ko‘nikma va an‘analarni (bu, shubhasiz, mavjud) yengib o‘tib matn – butun bir adabiyot olamini yaratadi. Aynan shu yerda uni har bir so‘z, holat ifodasiga xizmat qiladigan ma‘nolar, ohorli shakllar, yangi uslublar yaratishiga undaydigan ilhomi, ijodiy shavqi uyg‘onadi”[1], – deydi.

Darhaqiqat, Bobur Mirzoning ilmiy ijodi, beorom izlanishlari mahsuli– “Boburnoma”ning ilk jumlasiyiq muallif Sharq, ayniqsa, Xuroson va Movarounnahr muarrirlari ijodiy an‘anaga aylangan paradigmani qabul qilmaganligini ko‘rsatadi.

Bobur Mirzo M.Baxtin ta‘kidlagan eski adabiy ko‘nikma bir necha boblarga jo



bo'ladigan Tangri madhi, payg'ambar, piri ustozlarga atalgan bag'ishlovlar mohiyatini o'zining islohotchi xarakteridan kelib chiqib "ravshan va pok alfoz bila" bir jumla, uch semiotik nuqtaga sig'dira oldi.

Bu o'rinda Bobur Mirzoning nafaqat amalda, hatto so'z so'zlashda, bayon ifodasida ham tadbirliligini shu bir jumlaning o'zidayoq ko'rish mumkin.

Bobur Mirzo qisqa bir jumlada o'zining imon-e'tiqodini, taqdir hukmiga rizoligini, hukmdorlik masnadida tanlagan yo'li, a'molini kitobxonga yetkaza olganini Mirzo Kenjabek shunday sharhlaydi: "Bu o'rinda muqaddas dinimizning eng go'zal va yuksak odobi podshohona tarzda uch nuqta bilan ifoda etilgan. 1. Allohning zikri inoyati. 2. Allohning Rasuli, koinotning sarvari hazrati Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallam shifoatlari. 3. Chahor yor: hazrati Abu Bakr Siddiq, hazrati Umar ul-Foruq, hazrati Usmon Zinnurayn, hazrati Ali al-Murtazo (roziyallohu anhum) himmatlari. 1-nuqta podshohlik nasib etgan Zotga shukronadir. Chunki Qur'oni karimning Baqara surasi 247-oyatida aytiladi (ma'nosi: Alloh mulkini (podshohlikni) O'zi xohlagan kishiga berur... 2-nuqta muallifning Rasululloh (alayhissalom) yo'llarida ekaniga ishoradir. 3-nuqta muallifning Chahor yorning davomchilari ekaniga ishoradir"[2].

Mirzo Kenjabek sharhlagan oldingi ikki nuqtani izohsiz qabul qilishimiz tabiiy. Uning "3-nuqta muallifning Chahor yorning davomchilari ekaniga ishoradir" degan fikrida hayotiy asos borligini alohida ta'kidlagimiz keladi.

Bobur Mirzo tomonidan tilga olingan "chahoryori bosafolarning himmati" e'tirofida katta bir tarixiy davr manzarasiga, Yaratganning buyuk bir missiyasini yelkasiga olgan sharafli insonlarning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyatiga ishora bor. Kitobxon necha yuz yillar ortga, xalifalik davriga qaytib, chahoryorlar: Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob hukmdorligidagi oqilona davlat boshqaruvini eslaydi.

Islom ravnaqi yo'lida bir necha bor olib borilgan janglarda oz sonli lashkarni mohirona boshqarib, dushman tarafning yuz mingli qo'shinini tor-mor qilgan bu mohir sarkardalar saltanat ishlarida ham aql va tadbir bilan ish yuritishni yaxshi bilganlar. Ular davlat boshqarishda: ma'muriy-huquqiy muassasalar, Maslahat kengashlarini tashkil etish, soliq-o'lpon tizimini joriy etish, bosib olingan yerlarni o'zboshimchalik bilan o'zlashtirishga barham berib, devon ro'yxatiga kiritish, sahoba va jangchilarga maosh to'lash, obodonchilik, masjidlar qurish, ularning qulayligini ta'minlash, chiroqlar o'rnatish kabi qator vazifalarni amalga oshirganlar. Chahoryorlarning davlatni adolat bilan boshqarishlarini hukmdor bo'lishlariga qaramay oddiy, kamtar hayot kechirishlarini – ularning buyuk himmatidan, azmu shijoatidan deb bilgan Bobur Mirzoning davlat boshqaruvida, insoniy-ijtimoiy faoliyatida bu sahobalarga nisbatan munosib vorisiylikni kuzatamiz.

Mirzo Kenjabek chahoryorlarni nomma-nom keltirar ekan, Umar ibn Xattobni laqabi bilan Umarul Foruq deya qayd etadi. Bu bejiz emas, albatta. Umar ibn Xattobga bu laqab u islomni oshkor qabul qilgandan keyin berilib, "haq bilan botilni ajratuvchi" degan ma'noni bildiradi. Zero, Bobur Mirzo faoliyatining hamma turlarida haq bilan botilni ajratish birinchi darajali bo'lgan.

Buyuk rus yozuvchisi Dostoyevskiy: "Gap hammasi hayotda, faqat hayotda – hayotni kashf qila borishda, tinimsiz va abadiy suratda kashf qila borishda"[3], – deydi.

Hayotning barcha manzil-marohillariga bosh surib, balandida yuksalib, pastiga yuz tuban tushib, so'qmoqlarida adashib, kengliklarida shukrona tuyib, uni zarramazarra kashf etishdan, tadqiq qilishdan charchamagan yana bir Bobur Mirzochalik sinchi bormikan?!

"Boburnoma" – kashfiyot mahsuli. Odam va olamning kashfnomasi. Olam, ma'rifatli dunyo o'z navbatida Bobur Mirzoni "Boburnoma"da kashf etdi. Adabiyotshunos Natan Mallayev "Boburnoma"da muallif tinmay, go'yoki abadiy suratda kashf etib

borgan ulkan hayot panoramasi hamda bu jarayonda uning oʻrni va mavqeyi haqida shunday deydi: “Kitobxon uni (Bobur Mirzoni – Y.K.) butun asar davomida koʻrib, kuzatib boradi, u butun hayot yoʻli, ish-amallari, kishilarga va voqealarga munosabati, dunyoqarashi, zavqi va didi, shodligi va qaygʻusi, gʻalabasi va magʻlubiyati, olqishi va ranjishi, saltanati va darbadarligi, qattiqqoʻllik siyosati va mushfiqligi, gʻazabi va marhamati, rohati va qoʻl ostidagi yigitlari bilan ochin-toʻqin, otliq va yayov, oyoq yalang va kulbasiz kechirgan kunlari, bilimi va donishmandligi, kuzatuvchanligi va mushohadasi va boshqa-boshqalar bilan mujassamlashadi, u goʻyo bir tarixiy romanning bosh qahramoni sifatida gʻavdalanadi”[4].

“Boburnoma”ning memuarligi asarda Bobur Mirzoning nafaqat muallif-qahramonligini, balki hikoyachi-qahramon maqomini ham belgilaydi. U aynan shu maqomiga koʻra asarning har bir joyida hoziru nozir.

“Birinchi shaxs nomidan hikoya qilingan asarlarda, odatda, qahramon nuqtai nazaridan oʻtmagan biror-bir voqea keltirilmaydi: har qanday obyektiv voqelik manzaralari ham qahramon tili va dili orqali ifodalanadi”[8], – deydi adabiyotshunos olim Erik Karimov.

Demak, “Boburnoma”da Bobur Mirzo tasvir etilgan voqealarning bavoysita yoki bevosita ishtirokchisi sifatida ularni koʻzidan, tilidan, dilidan oʻtkazib ifodalaydi. Bu esa asar strukturasi pishiqligini, kompozitsion izchillikni, asar yaxlitligini taʼminlaydi.

Adabiyotshunos olimlarimiz: “Bobur boshqa tarixiy shaxslarning shakl-shamoyili, xulq-atvori, nasl-nasabi va hokazolar bilan alohida-alohida tanishtirib boradi. Biroq “Boburnoma”da Boburning oʻzi haqida shu zaylda maxsus maʼlumotlar yoʻq”[8], – deya fikr bildirishadi.

Haqiqatan ham, Bobur Mirzo muallif sifatida shaxsan oʻzi haqida, yuqorida nazarda tutilgan, maxsus maʼlumot berib oʻtirishni nojoiz va ortiqcha deb biladi. Aslida maxsus maʼlumotsiz ham Bobur Mirzo “men”ini biz asarning ibtidosidan intihosigacha kuzatamiz, uning ijtimoiy, insoniy, axloqiy-maʼnaviy dunyosini kashf etib boraveramiz. Muallifning tashqi koʻrinishi, jussasi, jismoniy imkoniyatlari haqida oʻquvchiga ozmi-koʻpmi maʼlumot beradigan tasvirlarni esa “Boburnoma”dek ulkan soʻz sarhadida sochilib yotganini kuzatamiz, ular goʻyo Bobur Mirzo suratiga chizgilardek taassurot uygʻotadi.

“Muharram oyida Fargʻona viloyatidin Xuroson azmi bila Ilok yaylogʻigakim, Hisor viloyatining yayloqlaridindur, kelib tushtum. Ushbu yurtta yigirma uch yoshning ibtidosida yuzumga ustara qoʻydim” (102-b.), – deb yozadi Bobur Mirzo 1503-1504 yil voqealari tasvirida, 1528-yil voqealar bayonida: “Yakshanba kuni, oyning toʻrtida toʻqqiz kuroʻh kelib, Kaspiy parganalaridin Diydapur otliq parganada boshimni qirqtim. Ikki oy edikim, boshimni qirqmaydur edim”, – deya baʼzi paytlari sochini oʻstirib yurishi haqida maʼlumot beradi.

Shu tariqa ayrim voqealar, aksari janglar tafsilotida Bobur Mirzo oʻzi bilan bogʻliq shunday tasvirlarni keltiradiki, koʻz oʻngimizda muallifning – hikoyachi-qahramonning zohiriy qiyofasi tiniqlasha boradi.

Hindistonda 1528-yil voqealari tasvirida Bobur Mirzo Biban va Shayx Boyazidga qarshi Gang daryosi boʻyida harbiy harakatlar olib borgan. Oʻshal voqealar tasvirida Bobur Mirzo shunday yozadi: “Ushbu kun Gang daryosini qoʻl solib oʻttim. Bir qoʻlni sanadim, oʻttiz uch qoʻl bila oʻttim, yana tinmay oʻzub bu yuzga ham oʻttim. Bori daryolarni oʻzub, kechib edim. Gang daryosi qolib edi” (252-b.).

Movarounnahr, Kobul, Hindiston boʻylab kechgan sargashta hayotida oʻzi taʼkidlagandek, yoʻlida uchragan daryolarining barchasidan suzib oʻtgan Bobur Mirzo Gangdek ulkan daryoni ham qulochkashlab suzib oʻtib, uni oʻttiz uch quloch ekanligini aytadi. Agar bir quloch 1 metr 75 cm oʻlchov birligiga toʻgʻri kelsa, Bobur Mirzo bergan

ma'lumot soha olimlarining Gang daryosining uzunligi 2700 km, o'zani kengligi 400–600 (ba'zi joylarida 2 km) degan ilmiy ma'lumotga mos keladi.

Himolay tog'laridan boshlanib, Hind-Gang tekisligidan oqib o'tadigan bu daryo Bengal qo'ltig'i yaqinida Brahmaputra daryosi bilan qo'shib Hind ummoniga quyiladi. Brahmaputra daryosi bilan qo'shiganda Gang sersuvligi jihatidan yer sharining eng azim daryolari Amazonka va Kongodan keyin uchinchi o'rinda turadi"[5].

Gang daryosi haqida alohida to'xtalishimizning sababi – yana bir karra Bobur Mirzo jasoratini qayd etish.

Bobur Mirzoning chidam va jasoratini ko'rsatadigan "Boburnoma"da yana bir e'tiborli nuqta bor.

1501-1502-yillar voqealari bayonida Bobur Mirzo Xo'jand va Konibodom oralig'ida joylashgan, doimo kuchli shamol esib turadigan Hodarvesh dashtidan o'tayotib qattiq sovuqqa qoladi. Sovuqning zabti shu darajaga yetadiki, odamlar muzlab qolib, o'la boshlaydilar.

"Boburnoma"ning shu o'rnida keltirilgan ma'lumot ham o'quvchining Bobur Mirzo qiyofasi bilan bog'liq tasavvurini boyitadi: "Xo'jandning quyig'i kentlari Hashtiyak to'g'risi bila mutavajjih bo'lduk. Mahkam zarb sovuq edi. Bu navohida Hodarvesh yeli o'ksumas, hamisha tund qo'par. U martabada sovuq erdikim, o'shul ikki-uch kunda ikki-uch kishi bu orada sovuqning shiddatidin o'lub edi. Manga g'uslg'a ehtiyoj edi. Bir ariq suyidakim, yoqaalari qalin muz to'ngib edi, o'rtasi suvning tezligi jihatidin yax bog'lamaydur edi, bu suvg'a kirib g'usl qildim. O'n olti qatla suvga cho'mdim. Suvning sovuqlug'i xeyli ta'sir qildi (87-b.).

Bu ma'lumotlarni o'qib turib, oqila va mudabbira Eson Davlatbegim barpo etgan, soy bo'yida joylashgan, asosan valiahd Bobur Mirzo saboqlari, jangovar mashqlari o'tadigan "Sohili dildizo" chorbog'i ko'z oldimizga keladi.

Shijoati baland, yosh kuchi jism-u joniga sig'mayotgan Bobur Mirzoni ustoz to'xtatmaguncha qora terga botib, muttasil qilich chopgandan so'ng, albatta, soyning toshqin suvida suzish mashqini ham o'rinlatgan.

Ona daryo Ilamishning sollanib oqayotgan suvida beg'ubor, tashvishsiz onlarining sururidan zavq olib, baliqdek suzayotgan bolakay Bobur Mirzo o'sha damlarda kun kelib taqdir yozuviga ko'ra uzoq Hind tuprog'ida yer sharining azim daryosi Gangdan Boburshoh G'oziy bo'lib quloch otib o'tishini xayoliga keltirmagani aniq.

Text vorisi Bobur Mirzo bo'lajak hukmdor, fotih sifatida har qanday dushman bilan yuzma-yuz olishish, tik kelib jang olib borish ruhiyatini, jiddu jahdini sabot bilan o'zlashtirgan. Ayni paytda Bobur Mirzo yo'lida uchrashi mumkin bo'lgan tabiiy kuchlarni, to'siqlarni sarosimasiz yengib o'tish qaddini ham yaxshi egallaganini "Boburnoma"ning bir necha o'rinlarida kuzatishimiz mumkin. Xususan, Hirot-Kobul oralig'idagi ko'tali Zarrin dovonidagi kuchli qor bo'roni, 1506-1507 yillar voqealari bayonida Kobulda ro'y bergan dahshatli zilzila, Gang daryosi orolida yuz bergan jordan uchish voqealari Bobur Mirzoning jismonan kuchli, o'ta chaqqon va irodali shaxs ekanligini ko'rsatadigan muallif hayotining hayajonli manzaralaridir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "Boburnoma"da muallifning voqea-hodisalarga munosabati, bahosi "men" formasi orqali bayon qilinar ekan, bunday holatda "... muallif-hikoyachi tasvirlanayotgan olamning markazidan o'rin olgan qahramonlardan biri ("Boburnoma"da aynan markaziy qahramon – Y.K.) sifatida bir vaqtning o'zida ham asarning bayonchisi, ham ishtirokchisi bo'lib, nimani ko'rgan, boshidan kechirgan bo'lsa, o'shalarini hikoya qiladi. Biz uning qiyofasi, xarakteridan dalolat beruvchi detallarga ega bo'lamiz"[6], – deydi adabiyotshunos O'rol Nosirov.

"Boburnoma"dan keltirilgan quyidagi jordan uchish voqeasi orqali ham biz muallif qiyofasi, ruhiyat olamiga xos belgilarni, detallarni kashf etgandek bo'lamiz: "O'rdi

to‘g‘risi sabzaliq ulug‘ orol bor ekandur, kema bila o‘tub, ul orolni sayr qilib, bir paharda kelib kemaga kirdim. Otliq sayr qilurda daryo yoqasida g‘ofil borilg‘on jarning ustig‘a chiqqach, jar uchi, men filhol sakrab, o‘zimni yoqag‘a soldim, ot ham uchmadi. Agar men otning ustida bo‘lsam edi, g‘olibo bu edikim, ot bila – o‘q uchqay edim” (252-b.).

Umarshayx Mirzo fojiasi takrorlanishi mumkin bo‘lgan bu vaziyatdan voqif bo‘lgan o‘quvchi omon qolgan Bobur Mirzo shaxsiyatiga, uning kuchli ruhiyatiga yanada yaqinlashadi, uning yorqin xarakteriga xos eng jozib nuqtalarni kashf etadi.

Gang orollarining sohir, go‘zal tabiatiga maftun bo‘lib qolgan Bobur Mirzo oyog‘i ostidagi fojiani payqamay qoladi. Bunday paytda inson taqdirini lahzalar hal qiladi. Yorug‘lik tezligida onga kelgan to‘g‘ri qarorgina insonning aziz jonini saqlab qolishi mumkin bo‘ladi. Bobur Mirzo esa shu to‘g‘ri qarorni qabul qiladi.

Naq poyida turgan muqarrar o‘limdan ot bilan, ot ustida qochib ulgurib bo‘lmasligini yashin tezligida mulohaza qilgan Bobur Mirzo eng so‘nggi lahzalarda otdan chetga, xavfsiz joyga sakraydi. Bu oqilona qaror orqali Bobur Mirzo nafaqat o‘zini, balki otini ham qutqarib qoladi.

Jardan uchish voqeasi orqali o‘quvchi Bobur Mirzo xarakteriga xos bo‘lgan, uning hukmdorlik qiyofasini to‘ldirib turgan hushyorlik, vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, chapdastlik, dovyuraklik kabi xislatlarini kashf etadi.

Ingliz olimi Uilyam Erskin: “Boburshoh baquvvat gavdali, o‘rta bo‘ydan yuqoriroq, jismoniy harakat talab qiladigan o‘yinlarni yaxshi ko‘rar, o‘tkir mergan, mohir qilichboz edi. Juda ko‘p hollarda u shijoatini namoyish qilar va yakkama-yakka jangda raqibidan ustun chiqardi. Uning gavadasi shu darajada baquvvat ediki, aytishlaricha, ba‘zan har ikkala qo‘ltig‘iga ikki kishini qisib olib, qal‘a devori ustida aylanib yurar va shu tarzda yo‘ldagi to‘siqlardan o‘tar edi”[7], – deb yozadi.

Jismoniy kamolot jihatidan hukmdor, sarkarda sifatida hamisha qo‘l ostidagilarga ibrat, namuna bo‘lish Bobur Mirzoning rahbarlik tamoyillaridan biri bo‘lgan. Bu tamoyilda sobit turish uddasini yuqorida eslaganimizdek, Bobur Mirzo juda erta – bolalik chog‘laridanoq o‘zlashtirib, parvarishini esa butun hayoti davomida nazorat qildi.

Aytish mumkinki, eng qiyin paytlar: ham jismonan, ham qalban yolg‘iz qolib, muqarrar o‘limning sovuq nafasi yuziga urilganda ham Bobur Mirzoning ko‘nglida Ollohning hifzi himoyasiga umidvorlik, ikkinchi navbat o‘ziga, o‘zining jismoniy imkoniyatiga komil ishonch bo‘lgan.

Umumjahon e‘tirof etgan Bobur Mirzo xarakteridagi joziba, sharaf, ruhiyatidagi barqarorlik, muvozanat, favqulodda hayotsevarlik ildizlarini uning shaxsiyatidagi o‘ziga, o‘z aqli, mehnati, kuchiga ishonchdan, jismoniy barkamolligidan izlash o‘rinli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бахтин М.М. Автор и герой: к философским основам гуманитарных наук. – СПб.: Азбука, 2000.
2. М. Kenjabek. Zahiriddin Muhammad Bobur. Kulliyot. 4-jild. Boburnoma (Voqe‘oti Boburiy). Farg‘ona davri voqealari. – Toshkent: Zilol buloq, 2021.
3. Dostoyevskiy, Fyodor. Hayotiy hikmatlar va tanbehlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Mallayev, Natan. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Kafolat print company, 2021.
5. Советский энциклопедический словарь. – М.: Сов. энциклопедия, 1989.
6. Nosirov O‘rol. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – Toshkent: Fan, 1981.
7. Erskin Uilyam. Boburshoh hukmronligi davrida Hindiston tarixi // Xorijda boburshunoslik: (Tadqiqot, talqin va maqolalar. // Nashrga tayyorlovchi H. Boltaboyev. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2009.
8. Adabiy tur va janrlar. 3 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1991.

## “HAQIQAT” KONSEPTINING LEKSIK, KOGNITIV TADQIQIGA DOIR ANNOTATSIYA

Muminova Nasiba Solijon qizi,  
Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

*Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslik, konsept haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan, xususan, haqiqat konseptining o'ziga xos jihatlari, o'zbek va ingliz paremiyalarida haqiqat konseptining o'xshash hamda farqli jihatlari asoslovchi misollar qiyosiy tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, freym, paremiya, maqol, ibora, aforizmlar, assosatsiya, lug'aviy ma'no, etimologiya*

## О ЛЕКЦИЧЕСКОМ И КОГНИТИВНОМ ИЗУЧЕНИИ КОНСЕКТА “ИСТИНА”

Муминова Насиба Солижон қизи,  
Преподаватель Ташкентского университета прикладных наук

*Аннотация. В статье описывается когнитивная лингвистика, отзывы о концепте, в частности, проводится сравнительный анализ конкретных аспектов концепта реальност, сходных и отличающихся аспектов концепта реальност в узбекских и английских паремиях, приводятся обосновывающие примеры.*

*Ключевые слова: когнитивная лингвистика, концепт, фрейм, паремия, пословица, словосочетание, афоризмы, предположение, лекцическое значение, этимология*

## ON THE LEXICAL AND COGNITIVE STUDY OF THE CONCEPT OF “TRUTH”

Muminova Nasiba Solijon qizi,  
Teacher of Tashkent University of Applied Sciences

*Abstract. The article describes cognitive linguistics, reviews of the concert, in particular, a comparative analysis of specific aspects of the concept of reality, similar and different aspects of the concept of reality in Uzbek and English parodies is carried out, substantiating examples are given.*

*Keywords: cognitive linguistics, concept, frame, parody, proverb, phrase, aphorisms, assumption, lexical meaning, etymology*

Kirish. Kognitiv tilshunoslik, bu – tilshunoslik yo‘nalishi bo‘lib, uning diqqat markazida kognitiv mexanizm, kognitiv qurol (instrument), axborotni kodlash va qayta shakllantirishda muhim rol o‘ynovchi bilimlar tizimi sifatida talqin qilinadigan til turadi [1:53]. Binobarin, kognitiv tilshunoslikning asosiy muammosi – lisoniy kommunikatsiyaning bilimlar bilan ayriboshlash asoslari qolipini yaratishdir.

V.Humbolt til – inson hayoti va bilimini cho‘lg‘ab olgan ruhning eng muhim asosiy faoliyati ekanligini allaqochon ta’kidlagan edi. Va nihoyat, olimlar e’tibori aynan kognitiv tilshunoslikda tilning bilish sharti va quroli sifatidagi rolini aniqlashga yo‘naltiriladi. Har qanday til olamdagi qandaydir narsani ifodalab yaratuvchilik bilan shug‘ullanadi, chunki u shu tilda so‘zlovchi uchun dunyo manzarasini shakllantiradi.

Til yordamida qurilgan konseptual strukturalar shaxsning real tajribasiga qaraganda, ehtimoliy tajribasiga ko‘proq taalluqlidir [2, 114]. Bir tizimning turli konseptlari aynan bir lisoniy shakl bilan ifodalanishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, til ifoda vositalarining

bir narsa emasligini aks ettiradi. Biz odam va ot chopayapti, vaqt chopayapti, fikr chopayapti, hayot chopayapti deymiz. Ammo lisoniy ifodalar har qanday holatda ham muayyan konseptga (yoki uning qurilishiga) mos bo‘ladi. Shuning uchun lisoniy ifodani tushunish R.Pavilenis tomonidan uning semantik ob’ektlarning muayyan ko‘pligi terminlaridagi emas, balki ma’lum konseptual tizimdagi izohi sifatida qaraladi.

Insonning bilish faoliyati (kognitsiyani) uning olamda o‘z o‘rnini belgilay olish qobiliyatini rivojlantiruvchi hodisa sifatida qaramoq lozim. Bu faoliyat esa ob’ektlarni umumlashtirish va o‘zaro farqlash zaruriyati bilan chambarchas bog‘langan: konseptlar bunday ishlarning bajarilishini ta’minlash uchun yuzaga keladi. Konseptlarni aniqlash va tavsiflash uchun ayrim belgilarning o‘zaro ajralishi mumkinligi ham, harakatlarning ob’ektlar bilan munosabati ham, ularning oxirgi maqsadlari ham shunday harakatlarni baholay olish kerak bo‘ladi. Ammo kognitologlar bu omillarning rolini bilsalar-da, konseptlar qanday yuzaga keladi, degan savolga javob berolmaydilar va ko‘pincha, umumiy mulohazalar bilan cheklanadilar[4, 25].

Konsept tushunchasi kishining fikrlash jarayonlarida ishlatiladigan, tajriba va bilim, inson butun faoliyati hamda olamni bilishning qandaydir “kvantlari” ko‘rinishidagi jarayonlar natijalari mazmunini aks ettiradigan ma’nolar haqidagi tasavvurga javob bo‘ladi (Petrov 1979, 55; Xintikka 1980, 90-92).

Hozir tilshunoslikda konsept tushunchasiga yondoshuvning umumiy holatga asoslanadigan uch asosiy yo‘nalishini ko‘rsatish mumkin: konsept tushunchasi ifodalovchi birlik, ma’noning sinonimi. Birinchi yondoshuv (vakili Yu.S. Stepanov) konseptni o‘rganishda asosiy e’tibor kulturologik aspektga qaratadi. Chunki bunda butun madaniyat konseptlari va ular orasidagi munosabatlarning majmui sifatida tushuniladi. Binobarin, konsept – inson idrokiy olamidagi madaniyatning asosiy bo‘g‘ini. U konseptlarni evropa madaniyatining tarkibiy qismi sifatida taqdim etadi. Konseptlar jamoaviy lisoniy ongda markaziy o‘rin tutadi va shuning uchun ularni o‘rganish behad muammoga aylanadi.

V.N. Teliya ham «konsept – bu biz o‘zining ekstensiv holatida olingan ob’ekt haqida bilgan narsalarimiz, deb hisoblaydi. «Konsept» terminini bunday tushunish tilning rolini ikkinchi qatorga surib yuboradi. Aslida u yordamchi vosita – konsept madaniyati qaymog‘ining tillanish (tilga o‘tish) shaklidir. Konseptni tushunishga bo‘lgan ikkinchi yondoshuv (N.D.Arutyunova va uning maktabi), T.V.Buligina, A.D.Shmelev va boshqalar) lisoniy belgi ma’nosini konsept mazmunini shakllantirishning yagona vositasi sifatida talqin qiladi. Shunga yaqin fikrni N.F.Alefirenko ham bildirgan. U ham konseptga nisbatan semantik yondoshuv ma’qul ekanligini ta’kidlaydi va uni kognitiv semantikaning birligi sifatida tushunadi.

Uchinchi yondoshuv tarafdorlari D.S.Lixachev, Ye.S.Kubryakova va boshqalar. Ularning fikricha, konsept bevosita so‘z ma’nosi asosida paydo bo‘lmaydi, balki so‘z ma’nosining inson shaxsiy va hayotiy tajribasi bilan to‘qnashuvi hosilasidir, ya’ni konsept so‘zlar bilan borliq orasidagi vositadir.

Konsept, Ye.S.Kubryakovaga ko‘ra, – bu mental leksikonning xotiradagi tezkor mazmuniy birligi sifatida miyaning konseptual tizimi (Lingua mentalis), olam manzarasining inson ruhiyatida aks etishidir.

Ye.S.Kubryakova konsept tahlilida sensor jarayonlar tavsifida psixologiyadagi qo‘llaniladigan fan va figura tushunchalaridan foydalanishni asosli hisoblaydi. Fan va figuraning qarama-qarshi qo‘yilishi inson o‘zining butun bir bo‘lagi sifatida va muayyan fanda idrok etish hamda olamdagi boshqa barcha jism-narsalarni ham xuddi shunday tushunish bilan bog‘liq.

Shunday qilib, muallif til va uning kategoriyalari asosida insonning ko‘zga aniq

tashlanib turgan tajribasi va u faqat shu tajribaga murojaat qilish orqali mavhumroq sohalarga kirib borishi va o'zining bevosita kuzatishda berilmagan narsa-hodisa haqidagi tasavvurlarini hosil qila olishi mumkinligini asoslaydi.

“Haqiqat” konseptining lingvokognitiv va lingvokulturologik tahlili ushbu konseptning ma'lum bir jamiyat tili va madaniyatida qanday idrok etilishi, talqin qilinishi va ishlatilishini o'rganishni o'z ichiga oladi.

O'zbek tili izohli elektron lug'atlarida haqiqatga quyidagicha ta'rif beriladi:

HAQIQAT voqelikning kishi ongida to'g'ri aks etishi, bilimlarimizning obyektiv realikka mos kelishi. Haqiqat insonning borliqni bilishdagi asosiy maqsadlaridan biri. U asosan inson bilimlari bilan borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi munosabat masalasini o'z ichiga oladi. Antik davr mutafakkirlari (Epikur, Demokrit, Lukresiy) H. ni bilimlarimizning narsa va hodisalar mohiyatini ifodalashga mos kelishi sifatida tushunganlar. Bunday tushunish yangi davr faylasuflariga (F. Bekon, B. Spinoza, K. Gelvesiy, D. Didro, P. Golbax, M. V. Lomonosov, L. Feyerbax) ham xosdir.

Haqiqatning obyektiv, mutlaq, nisbiy shakllari bor. Amaliyot tasdiklagan har qanday bilim obyektiv Haqiqat dir. Bunda olamdagi narsa va hodisalar mohiyati inson ongiga bog'liq emas (H. mazmunan ob'ektiv, lekin shaklan inson tafakkuri faoliyatining natijasi sifatida sub'ektivdir). Borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi to'liq, aniq, mukammal bilimlar mutlaq H. dir. Nisbiy Haqiqat obyektiv Haqiqatning ba'zi tomonini, bo'lagini, qismini aks ettiruvchi bilimdir, u ob'ektni to'la, mukammal aks ettira olmaydi. Bilish nisbiy Haqiqat lardan mutlaq Haqiqatlar tomon rivojlanib boradi. Har qanday mutlaq Haqiqat nisbiy Haqiqat larning cheksiz rivojlanib bori-shidan vujudga keladi, har bir nisbiy Haqiqatda esa mutlaq Haqiqatning zarrasi mavjud bo'ladi. Ilmfan taraqqiyotida har bir yangi bosqich nisbiy Haqiqatlar sifatida mutlaq Haqiqatning mazmuniga yangi-yangi zarralar qo'shib boradi. Borliq bepoyon va cheksiz bo'lgani kabi, insonning uni bilishi ham cheksiz davom etadi. Haqiqat hamisha kon-kretdir, mavhum Haqiqat yo'q. Har bir bilimning haqiqatligi ma'lum joyga, vaqt va vaziyatga, kishi bili-shining imkoniyatiga va darajasiga bog'liq. Olam lisoniy manzarasining kommunikativ funksiyasi shaxslararo aloqa shaklidir. Shaxslararo muloqotning mohiyati tushunish va talqin qilishdir. “Tushunish tilning birligi yoki ijtimoiy rivojlanish darajalarining o'xshashligini, aqliy faoliyat birligini anglatadi. Bir millat lisoniy manzarasi doirasida tushunishga til orqali erishiladi, chunki u madaniy boyliklarni leksika, grammatika, idiomalar, maqollar, xalq og'zaki ijodi, badiiy va ilmiy adabiyotlarda yozma va og'zaki shakllarda saqlaydi. Shunday qilib, til madaniyatning milliy o'ziga xos tarkibiy qismidir”.

T/r	Ingliz tilida haqiqat haqida maqollar
1.	Honest people hate lies, but the words of wicked people are shameful and disgraceful
2.	What are worthless and wicked people like? They are constant liars (Proverbs 6:12).
3.	A soothing tongue is a tree of life, but perversion in it crushes the spirit (Proverbs 15:4).
4.	Anyone who thinks and speaks evil can expect to find nothing good - only disaster (Proverbs 17:20).
5.	A false witness that speaketh lies, and he that soweth discord among brethren (Proverbs 6:19).
6.	A false witness will not go unpunished, and a liar will be destroyed (Proverbs 19:9).
7.	What is desirable in a man is his kindness, and it is better to be a poor man than a liar (Proverbs 19:22).

Bilish jarayonida nisbiy va mut-laq Haqiqatlar nisbatini to'g'ri tushunmaslik, Haqiqatning konkretligini hisobga olmaslik bilish nazariyasida 2 ta yanglish qarash - dogmatizm va relyativizmga olib keladi. Haqiqat tushunchasi faqat gnoseologik masala emas, balki aksiologik jihatga ega. U "adolat", "yaxshilik", "go'zallik" tushunchalari kabi umuminsoniy qadriyat hisoblanadi [5,42].

Bunday holda, "haqiqat" tushunchasini tilshunoslik, kognitiv va madaniy yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilib, bir nechta asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Lingvokognitiv tahlil:

1. Kognitiv modellar: «haqiqat» konsepti lingvistik ongning kognitiv modellarida qanday tashkil etilganligi va uning madaniy kontekstdagi boshqa konseptlar bilan qanday aloqasi borligini o'rganish.

2. Metaforik konseptlar: "Haqiqat" konsepti bilan bog'liq metaforik obrazlarni tilda tahlil qilish, masalan, "nurli haqiqat", "achchiq haqiqat" va hokazo. haqiqat lisoniy ifodalarda aks etadi.

3. Kadrlar: "Haqiqat" tilga olinganda faollashadigan ramkalar va turli madaniy va lingvistik kontekstlarda ushbu konsept bilan qanday assotsiatsiyalar, stereotiplar va in'ikoslar bog'langanligini o'rganish.

Lingvomadaniy tahlil:

1. Madaniy kodlar: "Haqiqat" konsepti muayyan jamoa madaniyatining qadriyatlari, me'yorlari va munosabatlarini qanday aks ettirishi, shuningdek, uning tarixiy, diniy va ijtimoiy-madaniy jihatlar bilan bog'liqligini o'rganish.

2. Idiomalar va maqollar: Ushbu konseptning o'ziga xos idrokini tushunish uchun turli tillar va madaniyatlarda "haqiqat" tushunchasi bilan bog'liq idiomalar, maqollar va maqollarning qo'llanilishini tahlil qilish.

3. Semantik maydon: "Haqiqat" konsepti turli madaniy va lingvistik guruhlarda uyg'otadigan assotsiatsiyalar va bu tushunchaning lingvistik va madaniy ko'rinishlarida qanday ma'nolar aks etishini o'rganish.

Shunday qilib, "haqiqat" konseptini lingvokognitiv va lingvokulturologik tahlil qilish ushbu konseptning til kontekstidagi ma'nosini to'liq chuqurlashtirishga, uni madaniy xususiyatlar doirasida ko'rib chiqishga va lingvistik belgilar va madaniy tushunchalar o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga imkon beradi.

N.Mahmudov ham terminologiya masalasida to'xtalib, "ular haqida tilshunoslikda juda ko'p yozilgan bo'lishiga qaramasdan, hali-hamon ularning ayrimlari, masalan: "lisoniy shaxs", "konsept" terminlari talqinida bir xillikka erishilgan emas", deb yozadi. Bundan tashqari, "konsept" bilan "tushuncha"ni bir-biridan ajratish muammosi ham o'z echimini to'liq topgan, deb bo'lmaydi.

"Rus faylasuflari – S.A.Atanovskiy, U.I.Kukushkin, Ye.S.Markaryan tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuvning mohiyati quyidagilardan iborat: til va madaniyatning o'zaro aloqasi bir tomonlama harakat; chunki til voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa odam duch keladigan bu voqelikning ajralmas qismidir, til madaniyatning oddiy aksidir." Shunday qilib, V.A.Maslovaning ta'kidlashicha, "har bir til tashuvchisi ona tilida so'zlashuvchi bo'lganligi sababli, til belgilari madaniy belgilar funksiyasini bajarish qobiliyatiga ega bo'ladi va shu bilan madaniyatning asosiy parametrlarini namoyish qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham, aynan, til o'z so'zlovchilarining madaniy va milliy mentalitetini aks ettira oladi."

O'zbek tilida "Haqiqat" konseptini ifodalovchi lisoniy birliklar hali tahlil qilinmagan. Ayniqsa, paremiyalar bilan bog'liq holda o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.



T/r	O'zbek xalq maqollarida "haqiqat" tushunchasi
1.	Betga aytganning zahri yo'q.
2.	Boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri so'zla.
3.	Gap kelganda otangni ayama.
4.	Rost aytib zarar ko'rsang, oxiri foyda toparsan.
5.	Yolg'on yondirar, haqiqat qondirar
6	Haqiqat chirogini sundirip bo'lmas
6.	Haq gap tosh kesar.
7.	Haq gap haqiqdan qimmat.
8	Osmon baland, er qattiq
9	O'zngniki o'zagingni kesar
10	To'g'ri gap tuqqaniga yoqmaydi
11	Haqiqat osmonda, narvoni hamyonda
12	Haqiqatning yuzi yorug', qo'li uzun
13	Qingir ishning qiligi 40 yilda ham chiqadi
14	Haq joyda qaror topar, haq ishni xalq qo'llar
15	Haq nohaq bo'lmas, haq egilar hohaq sinar
16	Haqiqat o'tda ham kuymas, suvda ham chukmas
17	Haq haqqa chiqar, hohaqning buyni sinar
18	Haq o'tar haqlik yutar, haq hamisha
19	Adovat emas, adolat engar
20	Adolat qilichin kesgan qo'l og'rimas
21	Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yoruq.

Mazkur maqollar o'zbek xalqining haqiqat haqidagi tasavvurlarini ifoda etadi. Endi haqiqat haqida rivoyatlarning mohiyatiga ham to'xtalsak. Ingliz tilidagi ayrim matnlarda haqiqat obrazli ko'rsatiladi:

Truth walked into a village. The local inhabitants started cursing at him. Spewing epithets, they chased him out of the village.

Truth walked along the road to the next town. They spit at him and cursed and spewed epithets, driving him out of town.

6. A.Gover, T.Loukkola and H.Peterbauer 2019. Student-centred learning: approaches to quality assurance. [online] Eua.eu. Available at: <<https://www.eua.eu/resources/publications/884:the-quality-assurance-of-student-centredlearning-approaches-to-quality-assurance.html>> [Accessed 24 January

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI CHET TIL SIFATIDA O'RGANUVCHI O'QUVCHILARNING TO'GARAK MASHG'ULOTLARIGA "KITOBXONLAR KLUBI"NI JORIY ETISH

*Madaminova Gulzira Gulamkadirovna,  
ped.f.f.d (PhD). Andijon Davlat Pedagogika Instituti, (DSc) doktorant*

*Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilini chet til sifatida (EFL) o'rganayotgan umumta'lim maktab o'quvchilarining to'garak mashg'ulotlariga "Kitobxonlar klublari"ni kiritish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. Bunday integratsiyaning afzalliklari, jumladan, til malakasining oshishi, tanqidiy fikrlashning rivojlanishi va o'qish madaniyatining shakllanishi ko'rsatib o'tiladi. Amaliyotga tatbiq etish strategiyalari bilan bir qatorda, qisqa hikoyalar orqali xilma-xillikni o'rganishga qaratilgan namunaviy mashg'ulot rejasi taqdim etiladi. Natijada, Kitobxonlar klublarini integratsiya qilish o'quvchilar uchun til o'rganish va shaxsiy o'sishga kompleks yondashuvni taklif etadi.*

*Kalit so'zlar: to'garak mashg'ulotlari, til malakasi, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, madaniyat, jamoa tashkil qilish, qisqa hikoyalar.*

## ВНЕДРЕНИЕ «ЧИТАТЕЛЬСКОГО КЛУБА» В КРУЖКОВЫЕ ЗАНЯТИЯ УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ ШКОЛ, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ

*Мадаминова Гулзира Гуламкадировна,  
док.ф.п.н. (PhD). Андижанский государственный педагогический институт,  
(DSc) докторант*

*Аннотация: В данной статье поддерживается идея внедрение Читательских Клубов в кружковые деятельности учащихся средних школ, изучающих английский язык как иностранный. В нем подчеркиваются преимущества такой интеграции, включая повышение уровня владения языком, развитие критического мышления и развитие культуры чтения. Представлены практические стратегии реализации, а также примерный план действий, направленный на изучение разнообразия с помощью рассказов. В итоге, внедрение клубов читателей предлагает комплексный подход к изучению языка и личностному росту учащихся.*

*Ключевые слова: кружковые занятия, знание языка, навыки критического мышления, культура, формирование сообщества, рассказы.*

## INCORPORATING "READERS' CLUB" INTO EXTRACURRICULAR ACTIVITIES OF SECONDARY SCHOOL EFL LEARNERS

*Madaminova Gulzira Gulamkadirovna,  
PhD. Andijan State Pedagogical Institute, (DSc) doctoral student*

*Abstract: This article supports the idea of incorporating Readers' Clubs into extracurricular activities for secondary school students learning English as a Foreign Language (EFL). It highlights the benefits of such integration, including enhanced language proficiency, critical thinking development, and the cultivation of a reading culture. Practical implementation strategies are provided, alongside a sample activity plan focused on exploring diversity through short stories. Ultimately, integrating Readers' Clubs offers a comprehensive approach to language learning and personal growth for students.*

*Key words: Extracurricular activities, language proficiency, critical thinking skills, culture, community building, short stories.*



Kirish. Umumta'lim maktablari ta'limida, xususan, ingliz tilini chet til sifatida (EFL) o'rganish sohasida e'tibor ko'pincha an'anaviy ta'limga qaratiladi. Biroq, sinfdan tashqari faoliyatlar o'quvchilarga til o'zlashtirishga chuqurroq kirishish bilan birga, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va umr bo'yi o'qishga bo'lgan muhabbatni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Shunday faoliyatlardan biri – "Kitobxonlar klubi", ushbu maqsadlarga erishish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Ushbu maqolada "Kitobxonlar klubi"ni umumta'lim maktablari to'garak mashg'ulotlariga integratsiyalash, uning afzalliklari va amalga oshirish strategiyalari ko'rib chiqiladi.

Til o'rganishda to'garak mashg'ulotlarining ahamiyati: to'garak mashg'ulotlari sinf xonasidagi ta'limni to'ldiruvchi va muvozanatlovchi bo'lib, kompleks ta'limda muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilini chet til sifatida o'rganuvchi o'quvchilar uchun o'quv dasturidan tashqaridagi faoliyatlarda qatnashish, tilni haqiqiy hayotda ishlatish va madaniy muloqot qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, sinfdan tashqari mashg'ulotlar faol ishtirok, hamkorlik, muloqot va liderlik kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Kitobxonlar klubini ushbu faoliyatlarga integratsiya qilish, o'qishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi va til malakasini oshiradi.

Kitobxonlar klubini tushunish: Kitobxonlar klubi bu o'quvchilar norasmiy muhitda birgalikda adabiyot o'qish va muhokama qilish uchun tuzilgan platformadir. Bu o'quvchilarga turli janrlar, mualliflar va mavzularni o'rganishni rag'batlantirib, ularning adabiy doiralarini kengaytiradi. Guruh muhokamalari orqali o'quvchilar obrazlar, mavzular va syujetlarni tahlil qilib, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari va empatiyani rivojlantiradilar. Bundan tashqari, Kitobxonlar klublari til ravonligini oshirib, og'zaki ifoda va lug'at boyligini kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Kitobxonlar klubini ingliz tili to'garak mashg'ulotlariga integratsiyalashning afzalliklari:

Til malakasini oshirish: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Kitobxonlar klublarida qatnashish umumta'lim maktabi o'quvchilari orasida til malakasini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. C. G. Heather tomonidan olib borilgan tadqiqotda muntazam ravishda adabiyot haqida guruh muhokamalarida qatnashgan o'quvchilarda lug'at boyligi oshishi, tushunish ko'nikmalari yaxshilanishi va og'zaki ingliz tilida ravonlik ortishi aniqlangan [2; 23-24]. Haqiqiy matnlar bilan faol shug'ullanib, o'z fikr va mulohazalarini qo'llab-quvvatlovchi muhitda ifoda etish orqali o'quvchilar o'z lingvistik repertuarini kengaytirib, ingliz tilini chuqurroq tushunishga erishadilar.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Kitobxonlar klublari umumta'lim maktablari o'quvchilari orasida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qimmatli platforma sifatida tan olingan. Meta-tahlilga ko'ra, adabiy muhokamalarda ishtirok etish o'quvchilarni murakkab g'oyalarni tahlil qilish va baholashga, yashirin mavzular va motivlarni aniqlashga, matnga asoslangan dalillar asosida yaxshi o'ylangan dalillarni tuzishga undaydi. Hamkorlikda talqin qilish va tengdoshlar tomonidan boshqariladigan muhokamalar orqali o'quvchilar adabiyot haqida tanqidiy fikrlashni, taxminlarni savolga tutishni va tengdoshlari bilan mazmunli muloqotga kirishni o'rganadilar — bu ko'nikmalar nafaqat til o'rganish doirasida, balki akademik muvaffaqiyat va umr bo'yi o'qish uchun zarurdir [1; 54-56].

O'qish madaniyatini shakllantirish: Kitobxonlar klubini sinfdan tashqari faoliyatlarga integratsiyalashning asosiy maqsadlaridan biri umumta'lim maktablari o'quvchilari orasida o'qish madaniyatini shakllantirishdir. Kitobxonlar klublarining o'qishga muhabbat uyg'otish va adabiyot bilan shug'ullanish uchun ichki motivatsiyani rivojlantirishdagi roli ham muhimdir. O'quvchilarga turli janrlar, mualliflar va mavzularni

o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish orqali Kitobxonlar klublari qiziqishni uyg'otadi, tasavvurni kuchaytiradi va o'qish odatini shakllantiradi — bu savodxonlik rivojlanishi va shaxsiy rivojlanishning asosiy komponentidir [4; 47-49].

Hamjamiyat qurish: Kitobxonlar klublari umumta'lim muhitida qo'llab-quvvatlovchi hamjamiyatlar yaratish uchun katalizator vazifasini bajaradi. D. Millerning fikriga ko'ra, Kitobxonlar klublarida qatnashish adabiyotga bo'lgan umumiy qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilar o'rtasida o'zaro bog'lanish va do'stlik tuyg'usini rivojlantiradi. Hamkorlikda o'qish tajribalari orqali o'quvchilar empatiya rivojlantiradi, munosabatlarni mustahkamlaydi va tengdoshlari va o'qituvchilari bilan mazmunli aloqalarni o'rnatadilar. Kitobxonlar klublarida shakllangan hamjamiyat tuyg'usi o'quvchilarni qadrli, hurmatli va o'zini erkin ifoda etishga undaydigan qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlaydi—bu esa keng qamrovli ta'lim va ijtimoiy-emotsional rivojlanishning muhim jihati hisoblanadi [3;83-85].

Kitobxonlar klubini amaliyotga joriy etish strategiyalari:

Klubni tashkil etish: Avval o'quvchilar qiziqishini baholab, kitob o'qishga ishtiyoqi bor a'zolari jalb qilish kerak. Klub faoliyatini nazorat qilish va yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun mas'ul maslahatchisini tayinlash tavsiya etiladi.

O'qish materialini tanlash: Har xil qiziqish va o'qish darajalariga mos keladigan turli yoshga mos adabiyotlarni tanlash tavsiya etiladi. Turli talab va istaklarga mos kelishi uchun klassik va zamonaviy asarlarni kiritishni hisobga olish muhim.

Yig'ilishlarni tashkil etish: Klub a'zolari belgilangan o'qish materiallari haqida muhokama qilish uchun muntazam yig'ilishlar rejalashtirilishi zarur. Muhokamar va bahslarni o'tkazish jarayonida faol ishtirokchilarni rag'batlantirish ahamiyatli.

Qo'shimcha mashg'ulotlar kiritish: Muhokama qilingan asar rollarini ijro etish, ijodiy yozish mashqlari yoki o'rganilayotgan adabiyotga oid multimedia taqdimotlari kabi qiziqarli mashg'ulotlar bilan boyitish klubni yanada samarali va qiziqarli tarzda olib borishga sabab bo'ladi.

Hamkorlikni rivojlantirish: Guruh loyihalarini topshirish yoki mualliflar tashrifi, kitob yarmarkalari yoki hikoya qilish sessiyalari kabi adabiy tadbirlarni tashkil etish orqali hamkorlikda o'rganishni rag'batlantirish mumkin.

Resurslarni taqdim etish: O'quvchilar klubda o'qishlari uchun kitoblarni olish yoki yuklab olishlari mumkin bo'lgan yaxshi jihozlangan kutubxonaga yoki raqamli resurslarga kirish imkoniyatini ta'minlash muhim. Bundan tashqari, muhokama qo'llanmalari yoki yig'ilishlardan tashqarida doimiy muloqot uchun onlayn forumlar kabi qo'shimcha materiallarni taqdim etish kerak.

Qisqa hikoyalar orqali «Kitobxonlar klubi» faoliyat rejasini amalga oshirish:

Maqsadlar:

O'quvchilarni qisqa hikoyalar orqali xilma-xillik va madaniy qarashlar haqida mazmunli muhokamalarga jalb etish;

Klub a'zolarining til bilimi, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va empatiyasini rivojlantirish.

Kerakli materiallar:

Turli madaniy kelib chiqishlarga oid qisqa hikoyalarni tanlab olish (masalan, Jhumpa Lahiri tomonidan yozilgan «The Interpreter of Maladies,» Alice Walker tomonidan yozilgan «Everyday Use,» Fumiko Enchi tomonidan yozilgan «The Lost Decade»);

Xilma-xillik, madaniy meros mavzulariga oid muhokama savollari;

Eslatma va tahlil yozish uchun kerakli materiallar.

Mashg'ulot jadvali

Kirish (10 daqiqa): O'quvchilarni «Kitobxonlar klubi» yig'ilishiga xush kelibsiz

deb kutib olish va kunlik mavzuni tanishtirish: «Qisqa hikoyalar orqali xilma-xillikni o'rganish.» Adabiyotdagi xilma-xillikning ahamiyati va turli madaniy qarashlarni tushunishdagi ahamiyati haqida qisqacha muhokama qilish. Muhokama uchun tanlangan qisqa hikoyalar haqida umumiy ma'lumot berish va ularning nusxalarini klub a'zolariga tarqatish.

**O'qish (20 daqiqa):** O'quvchilarga belgilangan qisqa hikoyalarni mustaqil ravishda o'qish uchun taxminan 15-20 daqiqa vaqt beriladi. O'quvchilarga matnni belgilash, muhim parchalarning tagiga chizish, savollar yozish yoki shaxsiy mulohazalarni yozish orqali annotatsiya qilishni tavsiya etiladi.

**Muhokama va tahlil (30 daqiqa):** Har bir qisqa hikoya bo'yicha asosiy mavzular, personajlar va madaniy elementlarga e'tibor qaratgan holda guruh muhokamasini olib borish. Tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish va faol ishtirok etishni ta'minlash uchun ochiq savollar tuzish. Namunaviy savollar quyidagicha bo'lishi mumkin: Qahramonlarning madaniy kelib chiqishlari ularning qarashlari va harakatlariga qanday ta'sir qiladi? Hikoyadan qanday mavzular yoki xabarlar kelib chiqadi? Ular haqiqiy dunyo tajribalariga qanday bog'lanadi? Muallif hikoyaning xabarini yetkazish uchun til va tasvirlarni qanday ishlatadi? O'quvchilarga o'z talqinlari, tushunchalari va matnga shaxsiy bog'lanishlarini bo'lishishga imkoniyat berish va turli nuqtai nazarlarga hurmat bilan yondashish kerak.

**Ijodiy javob (20 daqiqa):** O'quvchilarni qisqa hikoyalarda o'rganilgan mavzularga ijodiy javob berish faoliyatiga jalb qilish kerak. Ijodiy javob variantlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin: Personajlardan birining nuqtai nazaridan reflektiv kundalik yozish. Hikoyalarning mohiyatini aks ettiruvchi vizual san'at asarlarini (masalan, illyustratsiyalar, kollajlar) yaratish. O'quvchilarga o'z ijodiy javoblarini individual ravishda yoki kichik guruhlarda ishlab chiqish uchun vaqt ajratish.

**Bo'lishish va mulohaza (15 daqiqa):** O'quvchilarni o'z ijodiy javoblarini guruh bilan baham ko'rishga taklif qilish kerak, bu og'zaki taqdimotlar, o'qishlar yoki namoyishlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Adabiyot orqali xilma-xillikni o'rganish tajribasi bo'yicha mulohaza yurituvchi muhokamani tashkil qilish kerak bo'ladi.

Mulohaza savollariga misollar:

Qisqa hikoyalarni o'qish va muhokama qilishdan qanday tushunchalar oldingiz? Hikoyalar xilma-xillik va madaniy qarashlar haqidagi tushunchangizni qanday o'zgartirdi yoki kengaytirdi?

Hikoyalarda o'rganilgan mavzular bilan o'z tajribangiz yoki kuzatishlaringiz o'rtasida qanday bog'lanishlar qilishingiz mumkin?

O'quvchilarga xilma-xillik haqidagi yangi tushunchalarini kundalik hayotlarida va boshqalar bilan muloqotda qanday qo'llashlari mumkinligini ko'rib chiqishga undang.

**Xulosa (5 daqiqa):** O'quvchilarga "Kitobxonlar klubi" yig'ilishida ishtirok etgani va qo'shgan hissalarini uchun minnatdorchilik bildirilishi muhim. O'quvchilarni turli janrlarga asoslangan adabiyotlarni o'rganishda davom etishga va madaniy xilma-xillik haqida suhbatlashishga undash kerak. O'quvchilarga kelgusi "Kitobxonlar klubi" yig'ilishi va yaqinlashib kelayotgan mashg'ulot yoki tadbirlar haqida eslatib o'tish kerak.

Bu "Kitobxonlar klubi" yig'ilishi uchun namunaviy mashg'ulot rejasini taqdim etadi. O'quvchilarning o'zlarining guruhlaridagi ishtirokchilar soni, yoshi, darajasi va qiziqishlariga qarab o'z rejalarini tuzishlari mumkin.

Xulosa

"Kitobxonlar klubi"ni umumta'lim maktablari ingliz tili o'rganuvchi o'quvchilari uchun sinfdan tashqari to'garak mashg'uloti sifatida integratsiya qilish til o'rganish va shaxsiy rivojlanish uchun ko'p qirrali yondashuvni taklif etadi. O'quvchilarni mazmunli adabiy tadqiqot va munozaraga jalb qilish orqali, "Kitobxonlar klubi" til bilimi, tanqidiy

fikrlash qobiliyatlari va o‘qishga bo‘lgan doimiy qiziqishni rivojlantiradi. O‘qituvchilar klub faoliyatini amalga oshirish va undagi faol ishtirokni ta’minlash orqali o‘quvchilarni akademik va ijodiy jihatdan rivojlanishiga ko‘maklashadilar, ularni ilmiy izlanishlari va kelgusi faoliyatlarida muvaffaqiyatga tayyorlaydigan boy muhit yaratishlariga zamin yaratadilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

Araujo J. J., Babino A., Cossa N., Johnson R. D. Engaging all Readers through Explorations of Literacy, Language, and Culture // Association of Literacy Educators and Researchers Yearbook. 2018. Vol. 40.

Heather C. G. Exploring High School Students’ Attitudes Towards Reading: Master’s Thesis. EIU, 2019. URL: <https://thekeep.eiu.edu/theses/4407>.

Miller, D. The Book Whisperer: Awakening the Inner Reader in Every Child. 1st ed. Wiley, 2010. URL: <http://www.perlego.com/book/1009094/the-book-whisperer-awakening-the-inner-reader-in-every-child-pdf>.

Miller, D., Kelley, S. Reading in the Wild: The Book Whisperer’s Keys to Cultivating Lifelong Reading Habits. San Francisco: Jossey-Bass, 2014.

## **OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA ZOOLOGIYA FANINI O'QITISHDA DIFFERENSIALLASHTIRISH VA INDIYIDUALLASHTIRISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

*Mamaniyazova Xolida Ruzikulovna,  
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti O'quv uslubiy boshqarma  
uslubchisi*

*ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida Zoologiya fanini o'qitishda foydalaniladigan differensiallashtirish va individuallashtirish texnologiyasi haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: gomogen, geterogen, gomogen, konsepsiya, axborot texnologiyalari, ta'lim - tarbiya, reproduktiv, produktiv, o'qitish metodlari*

## **ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ И ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЗООЛОГИИ В ВУЗАХ**

*Маманиязова Халида Рузикуловна,  
Навоийский государственный горно-технологический университет, дизайнер  
учебно-методического отдела*

*Аннотация. В данной статье изложены сведения о технологии дифференциации и индивидуализации, используемой при преподавании зоологии в высших учебных заведениях.*

*Ключевые слова: гомогенный, гетерогенный, гомогенный, понятие, информационные технологии, образование, репродуктивный, продуктивный, методы обучения.*

## **USE OF DIFFERENTIATION AND INDIVIDUALIZATION TECHNOLOGY IN TEACHING ZOOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS**

*Mamaniyazova Khalida Ruzikulovna,  
Navoi State University of Mining and Technologies, designer of the Educational  
Methodology Department*

*Abstract. This article provides information about the technology of differentiation and individualization used in teaching zoology in higher educational institutions.*

*Key words: homogeneous, heterogeneous, homogeneous, concept, information technology, education, reproductive, productive, teaching methods.*

**KIRISH.** Ma'lumki, ta'lim jarayoni talabalarning bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yo'g'rilgan o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligi sanaladi. Boshqacha aytganda, ta'lim mazmunining o'qitish metodlari yordamida o'zlashtirilishiga erishishdir. Jumlaan differensiallashtirish va individuallashtirish texnologiyasi haqida fikr yuritir ekanmiz, dastlab Differensiallashtirish haqida ma'lumot bersak, differensia lotincha («difference») so'zidan olingan bo'lib, u yaxlit narsani turli darajadagi shakl va bo'limlarga ajratish ma'nosini beradi.

Ta'limni differensiallashtirish:

1. O'quvchilarni o'quv jarayoni uchun ahamiyatli bo'lgan xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratib tashkil etiladigan o'quv jarayonining ma'lum bir shakli;

2. O 'quv jarayonini tashkil etish didaktik tizimining bir qismi bo'lib, unda tahsil oluvchilarning har xil darajadagi guruhlarida maxsus o'qitish jarayoni tashkil etilishini ta'minlaydi.

**MUHOKAMAVANATIJALAR.** Differensial ta'lim texnologiyasi o'quv jarayonining muayyan qismining didaktik maqsadini amalga oshirishga imkon beradigan mazmun, vosita, metod va shakllarining majmuasidir.

Bu texnologiyaning asosiy mohiyati o'qitish jarayonini tabaqalashtirish ustuvor jihati bo'lib, unda har bir shaxsning imkoniyati va qobiliyatiga yarasha o'qitish, o'quvchilarni har xil guruhlarda ishlashga o'rgatish sanaladi.

O'qitishning barcha shaklida differensiallashtirish uchraydi, tabaqalashtirish mavjud, shu sababli mazkur texnologiya ta'lim jarayoniga «singib» ketuvchi texnologiya sanaladi.

Mazkur texnologiyaning afzalliklari:

1. O'qituvchi talabalarni egallagan bilimi, o'zlashtirish sur'atini e'tiborga olgan holda yordam berish imkoniyati vujudga keladi.

2. Talabalarining tahsil olish sur'ati va bilimlami o'zlashtirish sifati ortadi.

3. Shaxsda mavjud «Men» konsepsiyasining darajasi ortadi, bilimi kuchli talabalarining o'zlarining qobiliyatlarini namoyon qilish, o'lashtirishi past bo'lgan talabalarda bilish quvonchiga ega bo'lishiga olib keladi.

4. Talabalarining tahsil olishga bo'lgan qiziqishi, ehtiyoji ortadi.

5. Talabalarining har xil tabaqadagi (gomogen, geterogen) kichik guruhlarda ishlashiga imkon yaratiladi.

Biologiya o'qituvchisi o'qitishni differensiallashtirish uchun muayyan bir mavzu bo'yicha uch xil darajadagi:

A — ijodiy, B — izlanish, C — reproduktiv xarakterdagi o'quv topshiriqlarini tuzadi.

Bu o'quv topshiriqlarda ikkita yo'nalish nazarda tutiladi:

1. Talabalarining muayyan darajadagi bilim, ko'nikma va malakalami egallashi;

2. Talabalarining tahsil olishdagi mustaqilligini ta'minlash;

O'qituvchi A, B, C variantdagi o'quv topshiriqlarini tuzishda izchillikka amal qilishi kerak.

A — variantdagi o'quv topshiriqlari o'rtacha o'zlashtiradigan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, u talabalarining DTS bilan me'yorlangan bilim va ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ushbu o'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalarda e'tiborni nimalarga qaratish kerakligi, qanday xulosa chiqarish yo'llari aniq belgilab qo'yilishi lozim.

B — variantdagi o'quv topshiriqlarini tuzishda o'qituvchi talabalarining o'quv va aqliy faoliyat usullaridan foydalanishini nazarda tutgan holda, DTS bilan me'yorlangan bilim va ko'nikmalarni egallashdan tashqari shaxsning mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida muammoli va mantiqiy xarakterdagi topshiriqlarni kiritadi.

C — variantdagi o'quv topshiriqlari talabalarining avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlarni egallashlariga imkon yaratadi. Talabalar mavzu bo'yicha berilgan o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtiradilar. Shuningdek, talabalarining mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirilishiga zamin tayyorlaydi.

O'qitishni demokratizatsiyalashtirish talabalariga muvofiq talabalarga o'quv topshiriqlarini tanlash huquqi beriladi. Shu tariqa har bir talabaning o'z imkoniyati va qobiliyatiga yarasha rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur texnologiyada bilimlarni nazorat qilish va baholash individual tarzda bajarilgan o'quv topshiriqlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Shuni qayd etish kerakki, tabaqalashtirilgan yondashuvda, o'quv topshiriqlarini

tuzishda talabalarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv material asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchi biologiyadan DTS ning mazmuni bilan yaqindan tanishishi, talabalarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan minimum va maksimum talablarni yaxshi bilishi lozim.

Talabalarning mavzu bo'yicha o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar "V" ko'nikmalar asos bo'lib, qisman izlanishli va ijodiy topshiriqlar bilimlarni rivojlantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi, ya'ni o'qitish jarayonini har bir qatnashchisi uchun qiziqarli va foydali bo'lishi, shaxsning rivojlanishiga imkon yaratadi.

Zoologiyani o'qitishda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish uchun o'qituvchi:

1. O'quv fani bo'yicha o'quv materiallarini qism (blok)larga ajratishi, har bir qism bo'yicha talabalar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialining minimum va maksimum hajmi, talabalarning bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan minimum va maksimum talablarni yaxshi bilishi lozim;

2. Muayyan mavzular bo'yicha qiyinchiligi turli darajadagi o'quv topshiriqlarini tuzishi;

3. Talabalarning har xil darajadagi kichik guruhlarda ishlashini tashkil etish va boshqarish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim. Differensiallashtirilgan ta'limda har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hisobga olinadi. Shu sababli o'qitishni differensiallashtirish individuallashtirilgan ta'limni taqozo etadi.

Individuallashtirilgan ta'lim — o'qitish shakli, o'qitish jarayonini tashkil etishning modeli bo'lib, u quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

1. O'qituvchi har bir talaba bilan individual ishlaydi;

2. Har bir talaba o'zining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlariga mos holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini bajaradi, ya'ni o'qitish vositalari (darslik, ko'rgazmali va didaktik materiallar, kompyuter) bilan yakka tartibda ishlaydi.

Individual ta'limning asosiy afzalligi, talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish, ta'lim mazmuni, vositalari va metodlarini tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari va sur'ati hisobga olinganligi sababli mazkur jarayonni jadallashtirish, ularning o'quv topshiriqlarini bajarishda mo'ljalni to'g'ri olishi va tezroq moslashishi, o'z imkoniyatlari darajasida bilim va ko'nikmalarni egallashlariga imkon yaratish hisoblanadi.

O'qituvchi talabalar bilan individual ishlaganda ularning har bir harakati, bilimlarni o'zlashtirish borasida qo'ygan har bir qadami, o'quv faoliyatidagi yutuq, kamchiliklar va yetishmovchiliklarni aniqlash, ularga barham berish choralarini qo'llash, yutuqlar uchun rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu talabalarni doimo o'zgarib turadigan o'qitish jarayoniga moslashishi, pirovard natijada o'z imkoniyatlari darajasida o'quv materialini kam vaqt sarflab o'zlashtirishi, o'ziga qulay metod va uslublardan foydalanib ko'zlangan maqsadga erishishiga yordam beradi. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi individual yondashishni talab etadi.

Individual yondashuv — metodning tamoyillaridan biri bo'lib, unda o'qituvchi talabalarning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda, individual model asosida o'quv faoliyatini tashkil etadi va ular bilan muloqotda yuksak madaniyatni namoyon qiladi, hamkorlikka kirishadi. Darsda vujudga kelgan qulay psixologik-pedagogik muhit hamma talabalarning, shu jumladan, har bir talabaning o'z imkoniyati darajasida rivojlanishiga asos bo'ladi. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasining quyidagi xususiyatlari mavjud:

1. O'qituvchi talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish, o'qitish mazmuni, vositalari, metodlari va uslublarini tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olishi;

2. Individual o'qitishni tashkil etishning o'quv-metodik, pedagogikpsixologik, tashkiliy va boshqarish yo'llarini belgilashi lozim.

Shunday qilib, o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi deyilganda, o'qitishning individual shakli va yondashuvi ustuvor bo'ladigan texnologiya tushuniladi. Mazkur texnologiya yaxlit pedagogik jarayonga singib ketuvchi texnologiya bo'lib, uning ustuvorligi talabalarga shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda individualyondashuv sanaladi.

Zoologiyani o'qitishda individuallashtirish texnologiyasidan dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlar, ekskursiyalarda foydalanish tavsiya etiladi. O'qitish samaradorligi talabalarning darsdan tashqari ishlarini talab darajasida tashkil etilishiga bog'liq.

Talabalarning darsdan tashqari ishlari mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarish, muayyan mavzular bo'yicha kuzatish va tajriba o'tkazish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari ustida mustaqil ishlash kabilami o'z ichiga oladi.

Talabalarning fan asoslarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishlariga erishish, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, ko'rgazmali vositalar yordamida mustaqil ishlarini tashkil etish, belgilangan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, o'quvchilarning qiziqishlari va bilimlari o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlari, mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kasbga yo'llash, o'qishni unumli jismoniy va aqliy mehnat bilan uzviy

bog'lash maqsadida umumiy biologiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkaziladi.

XULOSA. Zoologiya fanini o'qitishning samaradorligi dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlar, ekskursiyalar, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlar, talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda tashkil etilishiga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Ibodova Mahfuza Namozovna Conceptual framework for the use of integrative technologies for teaching biological sciences in academic lyceums European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 11 No. 4, 2023 ISSN 2056-5852

2.Ibodova Mahfuza Namozovna «Improving the methodology of using electronic educational resources in improving the effectiveness of teaching the subject “zoology» in pedagogical higher educational institutions.» Open Access Repository 4.3 (2023): 21-25.

3.Ibodova, Mahfuza Namozovna. «Akademik litseylarda biologiya fanini oqitishning interfaol va muammoli izlanish metodlaridan foydalanish texnologiyasi.» Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.4-2 (2023): 125-131.

4.Ibodova Mahfuza Namozovna «Biologiyani oqitishning interfaol va muammoli izlanish metodlari.» pedagogos jurnali 11.2 (2022): 12-21.

5.Ibodova Mahfuza Namozovna «Effectiveness of independent work in the educational process.»Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 11.10 (2021): 322-326.

6.Ibodova Mahfuza Namozovna «A Forming the basic competencies of pupils by using of self-study assignments.» педагогика и психология в информационном (2018):

7.J.O.Tolipova “Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar” Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho'lpon” – 2011 y.

8.IbodovaMahfuzaNamozovnaBiologiyafaninio'qitishdaintegrativ-binarmashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(11), November, 2023 417



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI RAHBARLARIDA AHLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

*Mirzayeva Husnida Dilshodbek qizi,  
Qo'qon universiteti Ta'lim muassasalarining boshqaruvi yo'nalishi magistranti*

*Qo'chqarova Feruza Maxammadqosimovna,  
p.f.b.f.d. (PhD), Andijon davlat universiteti pedagogika kafedrasi professori*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida axloqiy sifatlarni shakllantirish masalalari yoritib berilgan. Mualliflar rahbarlarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish muhimligini ta'kidlaydilar. Maqolada rahbarlarning axloqiy fazilatlarini, jumladan, adolat, halollik, mas'uliyat va rahm-shafqat kabi sifatlarning pedagogik jarayonga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, axloqiy fazilatlarini shakllantirishda samarali yondashuvlar, metodik tavsiyalar va amaliyotga tatbiq etish usullari bayon etiladi. Axloqiy sifatlarning rivojlanishi rahbarlarning boshqaruv qarorlarini adolatli qabul qilishiga va ta'lim muassasasida ijobiy muhit yaratishga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu maqola rahbarlar axloqiy fazilatlarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini ochib beradi va ularni samarali boshqaruvga yo'naltiradi.*

*Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida ahloqiy sifatlarni shakllantirish, shaxsiy rivojlanish, kasbiy rivojlanish, jamiyat bilan aloqalar.*

## FORMATION OF MORAL QUALITIES IN THE HEADS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

*Mirzaeva Khusnida Dilshodbek-kizi,  
Master's student, Direction of Management of educational institutions, Kokand  
University*

*Kuchkarova Feruza Makhammadkosimovna,  
Doctor of Philosophy (PhD), Professor of the Department of Pedagogy, Andijan  
State University*

*Abstract. This article covers the issues of developing moral qualities in the heads of preschool educational organizations. The authors emphasize the importance of improving the quality and effectiveness of the educational process by developing moral qualities of leaders. The article analyzes the influence of moral qualities of leaders, including fairness, honesty, responsibility and compassion, on the pedagogical process. It also describes effective approaches to the development of moral qualities, methodological recommendations and methods of implementation. It is shown that the development of moral qualities helps managers make fair management decisions and creates a positive atmosphere in the educational institution. This article reveals the socio-pedagogical significance of the formation of moral qualities of leaders and directs them to effective management.*

*Keywords: formation of moral qualities in the leaders of preschool educational organizations, personal development, professional development, relations with society.*

## ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У РУКОВОДИТЕЛЕЙ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Мирзаева Хуснида Дилишодбек-кызы,  
Магистрант направления «Менеджмент образовательных учреждений»  
Кокандского Университета

Кучкарова Феруза Махаммадкосимовна,  
д.ф.п.н. (PhD), профессор кафедры педагогики Андижанского  
государственного университета

*Аннотация:* В данной статье освещаются вопросы формирования нравственных качеств у руководителей дошкольных образовательных организаций. Авторы подчеркивают важность повышения качества и эффективности образовательного процесса за счет развития моральных качеств лидеров. В статье анализируется влияние моральных качеств лидеров, в том числе справедливости, честности, ответственности и сострадания, на педагогический процесс. Также описаны эффективные подходы к формированию нравственных качеств, методические рекомендации и способы реализации. Показано, что развитие моральных качеств помогает руководителям принимать справедливые управленческие решения и создает положительную атмосферу в образовательном учреждении. Данная статья раскрывает социально-педагогическую значимость формирования моральных качеств лидеров и направляет их на эффективное управление.

*Ключевые слова:* формирование нравственных качеств у руководителей дошкольных образовательных организаций, личностное развитие, профессиональное развитие, отношения с обществом.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” asarida yoshlarga zamonaviy bilim berish, mustahkam pozitsiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash lozimligi, ularni ma’naviy ma’rifiy sohadagi ishlarni susaytirmay yangi bosqichga ko‘tarish zarurligi ta’kidlandi [1].

Demokratik jamiyat va bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxs, ish beruvchi va davlat manfaatlari tez-tez to‘qnash kelganda, bo‘lajak mutaxassislar tanqidiy fikr yuritadilar. Muhit, an’analar va tajribalarni birlashtirishga, ta’sir qilishga qodir mamlakat va jamiyat taraqqiyotiga yo‘naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi va natijalari to‘g‘risida. Ahloqiy sifat ko‘nikmalariga ega bo‘lish ularni amaliy ishlarga tayyorlaydi va hayotdagi o‘zgarishlarni taxmin qilish va hisobga olish qobiliyati iqtisod, texnologiya va ishlab chiqarishni boshqarishdagi o‘zgarishlarda ko‘rinadi.

Ta’lim tizimining ma’naviy-axloqiy mazmunini yanada kuchaytirish, o‘quvchi yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqlol g‘oyasini, xalqimizning yuksak ma’naviyati va insonparvarlik an’analariga sadoqat tuyg‘usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo‘lgan g‘oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirishda tarixiy ma’lumotlardan o‘z o‘rnida foydalanish bizningcha maqsadga muvofiq.

«Agar lochin oyog‘ini oltin zanjir bilan bog‘lansa, - deya yozilgan edi «Navro‘znoma» asarida-u ovda jasur va shiddatkor bo‘ladi» [2]. Nega biz yoshlar o‘zimizning shaxsiy fazilatlar omborimizni oltinga teng insoniy hislatlar bilan to‘ldirmaymiz, toki ular hayot deb atalgan mardu maydonda g‘alabaga erishishimizga yordam bersin. Odatda, borlaridan ham unumli foydalanmaymiz. Ijобiy hislatlar yong‘in xavfsizligi burchagida

doimiy turadigan o't o'chirgich uskunasi emaski, faqat eng so'nggi lahzada undan foydalangani. Ular qushga qanot, vertolyotga parraklar misoli insonga hamisha zarur.

Tarbiyaviy axloqiy sifatlar to'g'risida shuni tavsiya etgan bo'lardikki, yoshlar uni ongiga «mixlab olib», ular ustidan xo'jayin bo'lsin. Inson ongi hamisha sub'ektiv mohiyatga egadir[3]. XX asr boshlarida g'arbda bir kecha kunduzda qanday qilib 24 soat yashash mumkinligi haqida bosh qotirilgan. Zamon shiddati kosmik kemalaru yorug'lik tezligi kabi jadal rivojlanayotganda, vaqtimizni ijtimoiy tarmoqning turli foydasiz shov-shuvlaru-yu, mobil telefonning «mo'jiza»lariga sarflasak... Achinarlisi shundagi ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy videolavhalar, fotosuratlar va yozuvlarga yoshlar ona o'rdak ketidan jo'jalari misol birin-ketin hech qanday e'tirozsiz ergashmoqda.

Inson har qanday sohada bo'lishidan qat'i nazar shijoat va g'ayrat bilan harakat qilmog'i lozim. Shu o'rinda buyuk alloma az - Zamaxshariy hazratlarining «Niyat qilingan ishlar pishmagan go'sht misoli binobarin har qanday ishni komil niyat-u, qattiq ixlos bilan qilish lozim», - degan fikrlari bizni o'ylashga, mulohaza chiqarishga undaydi[4]. Komillikka erishishga yo'l - bu go'yo sayohatga chiqishga o'xshaydi. Xazinalar orolini topish uchun albatta yo'nalish xartasi tuzilishi zarur, qayoqqa borishini bilmagan o'spirin yo'ldan adashishi hech gap emas. Bu borada biz ustozmurabbiylar o'rni beqiyosdir.

Muallim kim deya so'ralganda turli xil ta'rif va tasriflar aytiladi. Ustoz- bu huddi iyul oyi bug'doyzorga to'plangan chumchuqlar kabi doim o'quvchi e'tiborida bo'lishga loyiq pedagog. Bu go'zal ta'rifga mos har bir ustozmurabbiylar ta'lim jarayonida zamonaviy bilimlar berish chog'ida milliylik, xalqimizga muhabbat tuyg'ularini yanada oshirishda axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ishlarni bajarishi lozim, deb bilamiz.

«Navro'znoma» asarida hikoyat qilinishicha, «No'shirinravon Bobak Orizdan so'radilar: Jangovar odamlardan qaysi biri mashhurroq?» U javob berdi: «O'q va yoy sohiblari», - dedi va ma'nosini tushuntirdi. «Ular shunday bo'lishlari kerakki, butun badanlari yurak, yurakning hammasi - qo'l, qo'llari - yoy va butun yoylari - o'q»[5] bo'lishi kerak deydi. Biz bu satrlarni bugungi kunga moslab, yoshlar shunday bo'lishlari yuraklari - mehr - muhabbatga to'lib huddi qo'llari kabi kuchli va baquvvat, paylari yoy kabi ravon va mustahkam, o'qlari huddi aqlday to'g'ri va muvofiq bo'lishi kerak. Bilim va tarbiya olish jarayonida har jihatga alohida e'tibor, diqqat bilan yondashishi lozim. Ma'lumotni suvga yozgan kabi eslab qolish yaxshi emasligini tushunishi talab etiladi.

Ahloqiy sifat va ularning psixologiyasini o'zgartirishga, bozor iqtisodiyotiga moslashishga, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi va kasbiy malakani rivojlantiradi. Ahloqiy sifatni shakllantirish fikrlash, mutaxassisligidan qat'i nazar, zamonaviy rahbarlar uchun zarur, lekin menejerlar uchun ayniqsa muhimdir; o'qituvchilar, psixologlar, siyosatshunoslar, shifokorlar, marketologlar, muhandislar, chunki ularning kasbiy faoliyati sohasida muhim ahamiyatga ega. Fikrlash samarali yechimlarni ishlab chiqishga hissa qo'shadi, Masalan, g'oyalar va yangi texnologiyalarni yaratish. Shuning uchun, kelajakda ta'limning ustuvor vazifalari, bizningcha, rivojlanishdir konstruktiv ahloq va o'z-o'zini ahloqiy sifatlarini rivojlantirib, samarali vosita sifatida fikrlash, o'z-o'zini bilish va voqelik hodisalarini baholash.

Z.Freyd izdoshlari (Frankfurt maktabi, Adorno, Fromm) hokimiyatga intiluvchi va avtoritor xususiyatlarni yoqlovchi alohida shaxslarning turini aniqlanadi. Bu turdagi shaxslar nosog'lom jamiyatlarda shakllanadi va ommaviy hadiksirash va asabiylik, tushkun holatlarga sabab bo'ladi. Bu turdagi liderlar rahbar darajasiga erishsa, o'z hukumronligini xodimlarga majburiy o'tkazish, ularning xuquqlarini buzishga harakat qiladi[6].

Insoning lider bo'lishga intilishiga nima majbur qiladi? Liderlarning vujudga kelish mexanizmi, xususiyatlari va yo'nalishlarining sub'ektiv jihatlari Z. Freydning psixoanalitik nazariyasi aniqlik kiritadi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, liderlik asosida

ongsiz ravishdagi hissiyotlarga berilish yotadi. Insonda rahbarlik va liderlik mavqeiga ega bo'lish o'zini noqulay sezish, ojizlik va uquvsizlik kabi holatlarni yengishga imkon beradi.


Maktabgacha ta'lim muassasalari, mamlakatimizning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim bo'g'in hisoblanadi. Bu muassasalar rahbarlar va o'qituvchilar orqali o'quvchilarga bilim va ma'rifatni olib boradilar. Rahbarlar o'quvchilarga maslahat berish, ularni yaxshi tarbiyalash va ularning ahloqiy sifatlarini shakllantirishda katta vazifalarga ega. Bu esa, rahbarlarning ahloqiy sifatlarini shakllantirish strategiyasini kritik ahamiyatga ega qiladi.

Ahloqiy sifatlar, insonning o'zida yashaydigan qadriyatlar, qarashlar va xulqiy xususiyatlaridir. Rahbarlar uchun ahloqiy sifatlar, o'quvchilar bilan munosabatlarda yaxshi munosabat va tajribaga ega bo'lish, sabr, adolat va insafni o'rganish, o'quvchilarga qo'llash va ularni kengaytirishga yordam berishni o'z ichiga oladi. Ahloqiy sifatlar, rahbarlarga o'quvchilar bilan o'rtasida sog'liqni saqlash, o'qitish jarayonini yaxshilash, va o'quvchilarning shaxsiy va jamiyatiy rivojlanishiga yordam berishda katta o'rin egallaydi.

Rahbarlar uchun ahloqiy sifatlarini shakllantirish strategiyasi, ularning o'quvchilarga yaxshi namoyon bo'lishi, ular bilan o'rtasida sog'liqni saqlash, va o'quvchilarning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga yordam berishni maqsad qilishi kerak. Bu strategiya, rahbarlarga o'quvchilar bilan o'rtasida ishonch va qabul qilishni kuchaytirish, ularning o'zlariga ishonch ko'rsatish va ularning o'zlarini o'zlashtirishini o'rgatishga yordam beradi.

Ahloqiy sifatlarini shakllantirish strategiyasining bir qismi, rahbarlarga o'quvchilarga qarshi adolat va insofni o'rganishni ta'lim etishdir. Adolat va insof, rahbarlar va o'qituvchilar uchun katta sifatlar hisoblanadi, chunki bu sifatlar o'quvchilarni barobardoshligi va insongina munosabatlarni ta'minlashga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida ahloqiy sifatlarini shakllantirish juda muhim masala. Chunki rahbarning shaxsiy fazilatlarini jamoaga, xodimlarga va eng muhimi, tarbiyalanuvchilarga bevosita ta'sir qiladi.



### 1. Shaxsiy rivojlanish:

Doimiy o'z-o'zini tarbiyalash: Rahbar o'z ustida tinimsiz ishlashi, kamchiliklarini bartaraf etishga va ijobiy fazilatlarini yanada rivojlantirishga intilishi kerak.

Axloqiy bilimlarni oshirish: Rahbar axloq, etika, pedagogika, psixologiya sohalaridagi bilimlarini muntazam ravishda boyitib borishi lozim.

Ijobiy muhit yaratish: Rahbar o'zini o'rab turgan muhitga ham e'tibor qaratishi, ijobiy fikrlaydigan, axloqiy qadriyatlarga ega insonlar bilan muloqotda bo'lishi maqsadga muvofiq.

### 2. Kasbiy faoliyat:

O'rnak bo'lish: Rahbar o'zining xatti-harakati, so'zlari va qarorlari bilan xodimlar va tarbiyalanuvchilarga o'rnak bo'lishi, ularni to'g'rilikka, adolatga, xushmuomalalikka o'rgatishi kerak.

Adolatli munosabat: Rahbar barchaga nisbatan adolatli bo'lishi, hech kimni ajratmasligi, xolis va hosiyatli bo'lishi lozim.

Mas'uliyatli qarorlar qabul qilish: Rahbar har bir qarorni qabul qilishda uning oqibatlarini puxta o'ylab ko'rishi, jamoa manfaatlarini hamda axloqiy me'yorlarni ustuvor deb bilishi kerak.

### 3. Jamiyat bilan aloqalar:

Ota-onalar bilan hamkorlik: Rahbar ota-onalar bilan yaqin aloqada bo'lishi, ularning fikrlarini tinglashi va birgalikda tarbiya masalalarini hal qilishga intilishi kerak.

Ijtimoiy faollik: Rahbar jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o'zining bilim va tajribasini boshqalar bilan baham ko'rishi, atrofdagilarga ijobiy ta'sir o'tkazishga harakat qilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, rahbarning ahloqiy qiyofasi qanchalik yuksak bo'lsa, u boshqalarga shunchalik ijobiy ta'sir ko'rsatadi va jamiyatimizda sog'lom muhitni

shakllantirishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

Umar Xayyom. Navro‘znoma. - T.: «Mehnat», 1990. -23-b.

Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: «Fan», 2006. 99-b.

Abu-l Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. - T.: «Kamalak», 1992, 51-b.

Umar Xayyom. Navro‘znoma. – T.: «Mehnat», 1990. - 37-b

Формичев И.А, Исследование систем управления. Учебник. -М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К”, 2013 -348 с.

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI VA IJTIMOY JIHATDAN XAVFLI AHVOLDA BO'LGAN VOYAGA YETMAGANLARNING OILASI O'RTASIDAGI HAMKORLIK MUAMMOLARI

Nazarova Ra'no Sidiq qizi,  
"Oila va gender" ilmiy-tadqiqoti instituti doktoranti

*Annotatsiya. Bugungi kunda oila va ta'lim muassasasining samarali hamkorligini ta'minlash muhim vazifalar qatorida sanab o'tiladi. Bolaning kelgusi muvaffaqiyatlari uni doim qo'llab-quvvatlaydigan oila va maktabning o'zaro uyg'un faoliyatiga asoslanishi barchaga ma'lum. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada tomonlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, avvalo, mavjud muammolarni o'rganish zaruratidan kelib chiqib, tadqiqot natijalari tahlil qilindi.*

*Kalit so'zlar: ijtimoiy hayfli ahvolda bo'lgan bolalar, ta'lim tizimida hamkorlik, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishda oila va ta'lim muassasasi hamkorligi, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish.*

## ПРОБЛЕМЫ СОТРУДНИЧЕСТВА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ С СЕМЬЯМИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ГРУППЫ СОЦИАЛЬНОГО РИСКА

Назарова Рано Сидик кизи,  
Докторант НИИ «Семья и гендер»

*Аннотация. Сегодня обеспечение эффективного сотрудничества семьи и образовательного учреждения является одной из важных задач. Всем известно, что будущие успехи ребенка основаны на гармоничной деятельности семьи и школы, которая всегда его поддерживает. С этой точки зрения в данной статье, в целях развития сотрудничества между сторонами, прежде всего, исходя из необходимости изучения существующих проблем, были проанализированы результаты исследования.*

*Ключевые слова: дети, находящиеся в социально опасной ситуации, сотрудничество в системе образования, сотрудничество семьи и образовательного учреждения в профилактике правонарушений несовершеннолетних, профилактика безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних.*

## PROBLEMS OF COOPERATION BETWEEN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND THE FAMILIES OF MINORS IN THE SOCIAL RISK GROUP

Nazarova Ra'no Sidik kizi,  
Doctoral student of the Research Institute "Family and Gender"

*Abstract. Today, great attention is paid to ensuring effective cooperation between the family and the educational institution. The future success of the child is based on the harmonious activities of the family and the school, which will always support him. From this point of view, this article analyzed the results of the research based on the need to study the existing problems in order to develop cooperation between the parties.*

*Key words: children in a socially dangerous situation, cooperation in the education system, cooperation between family and educational institution in the prevention of juvenile delinquency, prevention of lack of control and delinquency among minors.*

**KIRISH.** Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan har qanday g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar oila va ta‘lim muassasalarida ta‘lim-tarbiya jarayonlarida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar mavjudligini anglatadi. Ushbu ikki institut boladagi dastlabki o‘zgarishlarni darrov payqaydi va erta aralashuv maqsadida chora ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Agar ushbu ikki institut hamkorlikda profilaktik, tuzatish va yordam berish amallarini samarali tashkil eta olsa, bola xulqidagi dastlabki o‘zgarishlarni qiyinchiliksiz va salbiy oqibatlarsiz tuzatish imkoni yuzaga keladi.

Har qanday pedagogik jarayon bolaning individual xususiyatlarini va unga bevosita ta‘sir etuvchi oilasidagi muhitning o‘ziga xosligini inobatga olib, tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi. Shunga ko‘ra, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligini oldini olishga mo‘ljallangan normativ hujjatlarda doimo oila va ta‘lim muassasasining hamkorligi masalasi bayon etiladi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalari” (Ar-Riyod boshqaruv prinsplari) ning 22- bandida “ta‘lim tizimi ota-onalar, mahalliy jamoat tashkilotlari va yoshlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi idoralar bilan hamkorlikda ishlashga intilishi kerak” ligi bayon etilgan. Shuningdek, mazkur hujjatning 24-bandida ta‘lim tizimlari ijtimoiy xavf ostida bo‘lgan yoshlarga alohida e‘tibor qaratishi zarurligi e‘tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunning 5-moddasida voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasiga doir faoliyatning asosiy prinsplari qatorida “oilani qo‘llab-quvvatlash va u bilan o‘zaro hamkorlik qilish” prinsipi ham belgilab berilgan. Mazkur qoidalar profilaktik tadbirlarni tashkil etishda oila va ta‘lim muassasasining bir mexanizm asosida o‘zaro uyg‘unlikda ishlashini taqozo etmoqda. Shuningdek, mazkur qonunning 3-moddasida “ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan” tushunchasi keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra “voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan yoxud uni ta‘minlash, tarbiyalash va unga ta‘lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo‘lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan” nazarda tutiladi.

Ta‘lim tizimida hamkorlik - oila va ta‘lim muassasasi o‘rtasidagi aniqlangan o‘zaro munosabatlarning sistemasi sifatida, o‘quvchilarning rivojlanishi, tarbiyasi va ta‘limida, ikkala tomon manfaatdorligi asosida shakllangan, teng huquqli sub’ektlarning birgalikdagi harakatidir.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishda oila va ta‘lim muassasasi hamkorligi – voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ta‘lim muassasasi hamda oilaning hamkorlikdagi profilaktik choralarni amalga oshirish jarayonidir.

Voyaga yetmaganlar bilan profilaktik ishlarni tashkil etish murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Bu sohadagi aniq va dastlabki vazifa erta profilaktikani amalga oshirish bo‘lib, bu bolalarning normal rivojlanishini ta‘minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish, ulardagi inqirozli vaziyatlarni o‘z vaqtida aniqlash va samarali chora-tadbirlar rejalashtirishni qamrab oladi.

Данные исследования изучают влияния образовательных платформ на преподавания и обучения, интеграция ОП в образовательную систему, и их влияние на успеваемость учеников. Изучения мирового опыта является очень важным для предотвращение возможных ошибок в применении образовательных платформ, и даёт возможность внедрения более эффективных методов повышения навыков использования образовательных платформ учителей школ. В целях достижения высокой результативности, при выборе изучаемых (а в дальнейшем применяемых) опытов и стран, мы обрати внимание на две основные показателя. Первое из котрых, качество и уровень школьной образовательной системы, который в основном определяется результатами международных оценочных систем, базовым из которых является PISA. И вторым индикатором выбрали, показатели по качеству и количеству высщих образовательных учреждений, который частично можно обределить рейтингами вузов страны в мире.

По результатам PISA-2022 и 2018 лидируют следующие страны: Сингапур, Китай, Япония, Южная Корея, Гонконг (Китай), Эстония, Канада, Ирландия, Швейцария, Австрналия, Финляндия, Великобритания. А такие мировые денжавы как США, Швеция, Германия, Нидерланды, Франция, Россия вошли в триатку лучших. По данным представленным Time Higher Education 100 самых лучших университетов мира распреждены по страна следующим образом: в списке лидирует США где количество топовых вузов составила 36. Второе место в списке досталось Китаю который отстоёт от своего предшественника в 3 раза с

показателем 12, топовую тройку закругляет Великобритания отставая на один (11 вузов). Последующие места занимают такие страны как: ФРГ(8), Нидерландия(6), Австралия(6), Франция(4), Канада(3), Швейцария(3), Корея(3), Швеция(2), Сингапур (2), Япония (2), Россия и Бельгия имея по одному вузу в топе, завершают список. Одна в списке топ 200 лучших вузов мира, добавились такие страны как Дания, Норвегия, Греция, Ирландия, Италия, Австрия, Индия, Финляндия [6]. Не сомненно для достижения таких результатов, образовательная система этих стран выбрали путь умного образования (Smart education). Умное образование позволяет применять новейшие технологии с использованием образовательных платформ включающий набор инструментов, с применением методов эффективной предоставления образовательных услуг. Эти Smart технологии достаточны для того, чтобы преобразовать процессы преподавания и обучения [9].

Методика: Для более глубокого понимания преимуществ образовательной системы этих стран, как и какие образовательные платформы они используют для улучшения образования в своих школах, мы проведём их подробный (качественный и количественный) анализ и SWOT-анализ. Анализ также включает краткий анализ преимуществ и недостатков национальных образовательных платформ этих стран (если они имеются). А также анализ более используемых инструментов образовательных платформ. Исследование основывается на результаты контент анализа эмпирических исследований учёных разных стран и статистических данных. Для того чтоб определить образовательную систему каких стран мы можем сказать более эффективным, авторская оценка по балловой системе, на основе вышеприведённых показателей (По результатам PISA школьников этих стран, и количеству ВУЗов входящий в топ 200 по оценкам Time Higher Education). По каждому из двух показателей даётся максимум 100 баллов по каждой стране занявшие первые места, и для каждого последующего места даётся на 5 баллов меньше чем предыдущая. Однако для удобства подсчёта, странам стоящие ниже 15 место но не ниже 20 - го даётся 20 баллов, а от 21-го до 30 по 10 баллов. Мы будем считать не высоко-эффективной образовательную систему тех стран который получили менее 100 баллов в результате суммирования обеих показателей. Соответственно в таблице не учитываются те страны которые имеют ниже 30 место по одному из двух показателей. Для более точного определения уровня образования в Китае показатели PISA разных регионов Китая суммируем и оцениваем среднеарифметические показатели.

### Оценка эффективности образовательных систем, стран мира.

по результатам	Страна	Балл	результатам Time Higher	Страна	Балл
1	Сингапур	100	1	США	100
2	Китай	95	2	Великобритания	95
3	Япония	90	3	Германия	90
4	Южная Корея	85	4	Нидерландия	85
5	Эстония	80	5	Австралия	80
6	Канада	75	6	Франция	75
7	Ирландия	70	7	Канада	70
8	Нидерландия	65	8	Швейцария	65
9	Швейцария	60	9	Южная Карея	60
10	Бельгия	55	10	Швеция	55
11	Великобритания	50	11	Сингапур	50
12	Австрия	45	12	Япония	45
13	Австралия	40	13	Россия	40
14	Словения	35	14	Бельгия	35
15	Финляндия	30	15	Дания	30
16	Латвия	20	16	Норвегия	20
18	Новая Зеландия	20	17	Греция	20
19	Германия	20	18	Ирландия	20
20	Франция	20	19	Италия	20
23	Италия	10	20	Австрия	20
26	США	10	21	Китай	10

По результатам анализа страны набрали следующие баллы и места:

Сингапур - 150; 2.Нидерландия - 150; 3.Великобритания-145; 4.Канада-145; 5.Япония-135; 6.Южная Корея-135; 7.Швейцария-125; 8.Австралия-120; 9. США-110; 10.Германия 110; 11.Китай-105, Франция-100. Остальные страны из таблицы выше: Ирландия, Бельгия, Эстония, Швеция, Россия, Австрия, Словения, Финляндия, Дания, Латвия, Новая Зеландия, Италия, Ирландия - набрали менее 100 баллов. По этой причине образовательные системы и образовательные платформы этих стран не будут рассматриваться, за исключением России и Финляндии по факту взаимосвязанности образовательной системы.

И первая страна изучаемая нами это США, лидирующий академическому образованию, хотя по результатам PISA он вошёл в тридцатку лидеров, и по результатам анализа набрал 110 баллов. Страна является экономическим лидером в мире. Что говорит о высоком уровне экономико - географического образования в стране. В США более половины школьников в классе ежедневно используют ноутбуки или стационарные компьютеры. [5]. В 2018 г. наиболее часто используемыми обучающими материалами США оказались обучающие видео, образовательные приложения (платформы) и научные веб-сайты. [1]. В школах США используются разнообразные для поддержки учебного процесса, организации дистанционного обучения и улучшения взаимодействия между учениками, учителями и родителями. К часто используемым LMS платформам относятся Google Classroom, Canvas, Moodle, Schoology. Для организации дистанционного обучения в США используется Microsoft Teams, Zoom, Edmodo. Khan Academy, IXL, Discovery Education - являются базой бесплатных учебных ресурсов (онлайн курсы, видео уроки, интерактивные упражнения) по разным предметам для школьников. Интерактивные инструменты: Kahoot, Quizlet, Nearpod. Административные системы PowerSchool и Skyward. MagicBox - это поставщик передовых технологий с различными инструментами, помогающими революционную инновацию для улучшения соотношения учителей и учеников в школах, в послепандемийной дефиците учителей в США. Данная платформа хорошо настраивается для управления обучением и оснащено функциями создания уроков, управления учениками, оценивания и их анализ. Кроме того модули разработки уроков учитывают нормативные требования SCORM, WCAG, COPPA и FERPA. Использование образовательных платформ в школах США активно развивается, помогая создать более гибкие и современные условия для обучения и взаимодействия всех материалов учебного процесса. Для этого используются самые передовые технологии в том числе искусственный интеллект, виртуальная и дополнительная реальность.

Сингапур является страной с самым высоким результатом PISA в мире; занимает первое место в мире по развитию информационных технологий; занимает третье место в мире по доходам населения (Forbes); Сингапур уже на раннем этапе своего развития выбрал путь интеллектуальной модернизации. А сектор образования была нацелена на создание условий для воспитания и обучении конкурентоспособных профессионалов, которые должны быть способны адаптироваться к различным жизненным и культурным условиям[13]. При таких условиях образовательные платформы в сингапуре играют важную роль. И для это была создана национальная LMS система - STS; национальная база учебных ресурсов e-Resources и NLB e Resources; административная система - School Admin Systems; специализированные образовательные платформы STEM.org, The Learning Lab. Кроме того сингапурские

школы используют такие международные интерактивные инструменты как Kahoot, Quizlet, Nearpod. Использование национальных образовательных платформ, даёт преимущество интеграции с государственными учебными планами и стандартов. Сингапур активно развивает использование образовательных платформ, что поддерживает высокий уровень и качество образование.

Нидерландия набрав 150 баллов занял в списке 2 место. По мнению автора система образования Нидерландии правомерно получила данное место. Так как система школьного образование высокомодернизированная, и считается одним из самых интерактивных в мире. А в этом решающий роль играют образовательные платформы. Образовательные платформы используемые в нидерландских школах, обладают рядом преимуществ и особенностей, которые делают их эффективными инструментами в образовательном процессе. Во-первых персонализированность образовательных платформ. Такие национальные образовательные платформы как Snappet и Gynzy, дают возможность адаптировать учебные материалы под собственные интересы каждого ученика, и их освоение по личному темпу. Это помогает более глубокому пониманию материалов и улучшает академические результаты особенно при быстрой обратной связи. Во-вторых, платформы предлагают интерактивные задания и игры что делает урок более интересным и увлекательным. К примеру платформа Gynzy предоставляет учителям готовые интерактивные уроки, которые помогают им делать урок более динамичным. В-третьих, данные платформы хорошо интегрируются с такими LMS платформами как Moodle и Itslearning, что позволяют учителям отслеживать успеваемость, оценивать и обеспечить их поддержкой в режиме реального времени. В-четвёртых, в школах часто особенно в начальных школах Нидерландии пользуются такими игровыми платформами как Classcraft. Которые учебный процесс превращает в игру, где участники зарабатывают бали и достигают новых уровней, что добавляет им мотивацию. Благодаря высокой степени автономии каждая школа может настроить, и адаптировать эти платформы под свои требования, и в то-же время двуязычность (английский и нидерландский) и соответствии этих платформ с государственными образовательными стандартами помогает учебным заведениям избегать дестандартизации учебных целей. Но при этом высока значение учительских навыков по эффективному применению образовательных платформ[8].

Третье место в нашем списке заняла образовательная система Великобритании набрав 145 баллов. Великобритания это страна науки и образования, колыбель великим учёным и педагогам. В Великобритании активно используются разнообразные учебные платформы в школах для улучшения качество обучения и облегчения доступа к ресурсам. К примеру в Английских школах часто используются такие образовательные платформы как Google Classroom который, хорошо интегрируется с такими сервисами как Google Docs, Sheets, Slides, и образует полноценную платформу. Microsoft Teams аналог Google Classroom, и хорошо интегрируется с инструментами Microsoft Office. Кроме того используются платформы Moodle-для управления курсов; Edmodo-как инструмент для коммуникации между учителями, учениками и их родителями; BBC Bitesize и OAK Nacional Academy-национальная платформы с готовыми уроками и материалами (видеоуроки, презентации, интерактивные задания) для школ интегрирование с учебными планами[9].

**Заключение:**

Исходя из проведённого исследования даже в самых эффективных образовательных системах, с использованием самых интерактивных образовательных платформ, в достижение высоких результатов, решающую

роль играет навыки учителей использования и рационального внедрения их в учебный процесс. При правильном внедрении, образовательные платформы могут приносить пользу ученикам, учителям и школам. Образовательные платформы обычно наиболее эффективны, когда учителя используют стратегии обучения, ориентированные на учащихся. Там где образовательные платформы просто используется для переноса традиционных методов обучения в онлайн-среду, это ограничит потенциальные преимущества для большинства учащихся.

#### Литературы:

Вишнёва Л.М. Российский и зарубежный опыт в электронном обучении// Научные записки молодых исследователей №2 2019 с. 27-36

2. Груздева М.Л., Феофанова Т.Д. Возможности использования цифровых платформ в образовании. *Modern high technologies* №6, 2022 с 104-108

3. Ефанов А.А. и др. *Вестник РУДН. Серия: Социология*. 2020. Т.20 №2 С.382-393

4. Жук А.И., Минич О.А., Стратегия подготовки педагогических кадров для развития электронного образования// *Адукацыя I* выхаванне.-2018. №2 -с 3-9

5. Портал статистики по данным исследования рынка и бизнес-аналитике Statista. [Электронный ресурс.] Режим доступа: <https://www.statista.com/statistics/548097/student-interest-academic-performance-analytics/> (дата обращения: 10.08.2024)

6. Рейтинг университетов мира Times Higher Education [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://www.timeshighereducation.com> (дата обращения: 10.08.2024)

7. Структура ИКТ - компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО [электронный ресурс]. - 2011.- Режим доступа: <http://ru.iite.unesco.org/publications/3214694/> - Дата обращение 05.08.2024

#### Зарубежные литературы:

Сао Yuting. The role of digital technology in schools in France *Journal of Artificial Intelligence Practice* (2024) vol 7 №1 Canada DOI: 10.23977/jaip.2024.070113

Doniel Rodriguez-Segura(2020) *Educational Technology in Developing Countries: A Systematic Review* [Электронный ресурс] Режим доступа: [http://curry.virginia.edu/default/files/EdPolicyWorks\\_files/72\\_Edtech\\_in\\_Developing\\_Countries.pdf](http://curry.virginia.edu/default/files/EdPolicyWorks_files/72_Edtech_in_Developing_Countries.pdf) (дата обращения: 10.08.2024)

Fogaty W., Riddle S., Lovell M., Wilson B. (2018). *Indigenous Education and Literacy Policy in Australia: Bringing Learning Back to the Debate*. *The Australian Journal of Indigenous Education*, 47(2), Article 2 [Интернет ресурс] Режим доступа: <https://doi.org/10.1177/0004867417700275> (дата обращения: 10.08.2024)

## TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING TANQIDIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH MODELI

*Nigmatova Mo'tabarxon Xusanovna,  
Qo'qon universiteti Ta'lim muassasalarining boshqaruvi yo'nalishi magistranti*

*Qo'chqarova Feruza Maxammadqosimovna,  
p.f.b.f.d. (PhD), Andijon davlat universiteti pedagogika kafedrasida professori*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim muassasalari rahbarlarining tanqidiy tafakkurini shakllantirish modeli, uning dolzarbligi, ijtimoiy-pedagogik zaruriyati hamda ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritib berilgan. Mualliflar ta'lim rahbarlarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ta'lim tizimining samaradorligini oshirish masalalarini tahlil qiladilar. Maqolada tanqidiy tafakkur shakllanish jarayonini boshqarish, rahbarlarning qaror qabul qilish qobiliyatlarini kuchaytirish va ularning innovatsion yondashuvlarini rivojlantirish usullari bayon etilgan. Shuningdek, ushbu modelning amaliyotga tatbiq etilishi, rahbarlar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqola rahbarlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratadi.*

*Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, ta'lim muassasalari rahbarlarining tanqidiy tafakkurini shakllantirish modeli, bilimlarni o'zlashtirish, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish, metakognitiv xabardorlik.*

## THE MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN LEADERS OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*Nigmatova Mo'tabarxon Xusanovna,  
Master's student, Direction of Management of educational institutions, Kokand University*

*Kuchkarova Feruza Makhammadkosimovna,  
Doctor of Philosophy (PhD), Professor of the Department of Pedagogy, Andijan State University*

*Abstract. This article highlights the model of critical thinking formation in heads of educational institutions, its relevance, social and pedagogical necessity and significance in the educational process. The authors analyze the issues of increasing the efficiency of the educational system by developing critical thinking skills in educational leaders. The article describes the methods of managing the process of critical thinking formation, enhancing the decision-making ability of leaders and developing their innovative approaches. It also considers the practical implementation of this model, the possibilities of introducing effective approaches to the development of critical thinking in leaders. The article focuses on improving the quality of the educational process and ensuring the efficiency of management by developing the critical thinking of leaders.*

*Keywords: critical thinking, model of formation of critical thinking of leaders of educational institutions, acquisition of knowledge, development of cognitive abilities, metacognitive awareness.*

## МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Нигматова Мотабархан Хусановна,  
Магистрант направления «Менеджмент образовательных учреждений»  
Кокандского Университета

Кучкарова Феруза Махаммадкосимовна,  
д.ф.п.н. (PhD), профессор кафедры педагогики Андиганского  
государственного университета

*Аннотация. В данной статье освещена модель формирования критического мышления руководителей образовательных учреждений, ее актуальность, социально-педагогическая необходимость и значение в образовательном процессе. Авторы анализируют вопросы повышения эффективности образовательной системы за счет развития навыков критического мышления у руководителей образования. В статье описаны методы управления процессом формирования критического мышления, усиления способности лидеров принимать решения и развития их инновационных подходов. Также рассмотрены практическая реализация данной модели, возможности внедрения эффективных подходов к развитию критического мышления у лидеров. В статье уделяется внимание вопросам повышения качества образовательного процесса и обеспечения эффективности управления путем развития критического мышления лидеров.*

*Ключевые слова: критическое мышление, модель формирования критического мышления руководителей образовательных учреждений, приобретение знаний, развитие познавательных способностей, метакогнитивное сознание.*

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyatning turli sohalarida ro'yu berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mehnat bozorini isloh qilishni belgilaydi, ta'lim muassasalari rahbarlari zamonaviy kasbiy sharoitlarga moslashtirish muammolarini hal qilish bilan bog'liq ijtimoiy-kasbiy masalalarning keng doirasiga to'xtalib o'tadi. Bugungi kunda ta'lim muassasalari rahbarlaridan yangi kasbiy fikrlash, yuqori harakatchanlik, kompetentsiya, bag'rikenglik talab etiladi.

Bu talablar birinchi navbatda ehtiyoj bilan bog'liq ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi bo'lgan tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish. Faqat yetarlicha yuqori darajada shakllangan ta'lim muassasalari rahbarlarining tanqidiy fikrlashlari uchun istiqbollari ochiladi transformatsiyani talab qiladigan kasbiy faoliyat ta'lim muassasalari rahbarlarini mustaqil, ijodiy va tanqidiy shaxs sifatida rivojlantirish ishbilarmonlik o'zaro munosabatlari va hamkorlik ko'nikmalari va ko'nikmalariga ega bo'lgan fikrlaydigan faoliyat sub'ekti, ishlab chiqarish muammolarini hal qilishda nostandart yondashuvlar. Ta'lim muassasalari rahbarlari doimiy o'z-o'zini rivojlantirish, innovatsiyalar, xilma-xillik uchun yaxshi tayyorlangan bo'lishi kerak maqsadlarga erishish yo'llari, mustaqil qarorlar qabul qilish, kollegiallik, tashabbuskorlik va moslashuvchanlik.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish bosqichlari[1] ni aniqlashga urinishlar mavjud:

1) birinchi va eng muhim bosqich - bu tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega va bir xil aqliy qobiliyatlarni rivojlantiradigan o'qituvchini tayyorlash.

2) bunday rivojlanish zaruriyati motivlarini shakllantirish sifat;



3) talabalarning maxsus mantiqiy tizimni egallashi operatsiyalar va harakatlar;  
4) talabalarga ushbu operatsiyalar bo'yicha bilimlarni (ya'ni ko'nikmalarni) ta'lim faoliyatida va tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda qo'llashga o'rgatish;

5) tizimli o'qitish, faoliyatni sozlash, tanqidiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun individual mashqlarni mashq qilish va fikrlash.

Jamoa a'zolari shakllanishning uchta asosiy bosqichidan o'tadilar tanqidiy fikrlash: qiyinchilik, tushunish va mulohaza yuritish bosqichlari[2]. Biroq, bizning fikrimizcha, to'rtinchi bosqich ham zarur - umumlashtirish va baholash.

Tanqidiy shakllantirish bo'yicha ta'limni tashkil etishning jamoaviy shaklida fikrlash o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish rejasini

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim shaxsiyatning axloqiy fazilatlarini - qat'iyatlilik, fidoyilik, kognitiv faollik va mustaqillikni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim, tarbiya, mehnat, kommunikativ va boshqa faoliyat turlari ta'lim mazmuniga aylanib, o'z chegarasidan chiqib, faoliyatga aylanadi axloqiy[3].

«Tanqidiy fikrlash» texnologiyasi mutaxassisning intellektual va hissiy faoliyatini faollashtirib, shaxsiyatini mehnat jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.[4]


Ta'limni tashkil etishning jamoaviy shaklida universitet talabalarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish bosqichlari va usullarini o'rganish asosida ta'lim muassasa rahbarlarining tanqidiy fikrlashini shakllantirish modelining varianti keltirilgan (4-rasm).

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish maqsadlari:

- ta'lim muassasa rahbarlarining mantiqiy, muammoli, ijodiy fikrlash;
- ta'lim muassasa rahbarlariga asosiy mantiqiy tushunchalarni o'rgatish: lug'at - inkor - tanqid - tanqidiylik - o'z-o'zini tanqid qilish - bahs zikr qilish - isbotlash - rad etish - baholash - o'zini o'zi qadrlash qiymatni baholash;
- ta'lim muassasa rahbarlarida tolerant xarakterga ega bo'lgan tanqidiy mulohazalar ko'rinishida tanqidiy mulohaza yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ta'lim muassasa rahbarlarining tanqidiy mantiqiy xatolarni aniqlashga o'rgatish hodisalar, xatti skoy baholash. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik shartlari:
  - tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlash. jamoa a'zolarining yoshi va individual xususiyatlari; talabalarning to'plangan tajribasi.
  - tanqidiy mushakning shakllanish darajasini aniqlash jamoa a'zolari.

#### TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH MODELI

Tanqidiy fikrlash ta'lim muassasalari rahbarlari uchun muhim ko'nikma bo'lib, ularga murakkab muammolarni hal qilish, ongli qarorlar qabul qilish va ijobiy o'zgarishlarni boshlash imkonini beradi. Ta'lim yetakchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish nazariya, amaliyot va mulohazalarni mujassamlashtirgan tizimli yondashuvni talab qiladi. Ta'lim muassasalari rahbarlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish modelini taqdim etadi, asosiy tarkibiy qismlar, strategiyalar va ta'lim rahbarlarida ushbu muhim qobiliyatni rivojlantirish bo'yicha fikrlarni ko'rsatadi. (1-rasm)



**MODELNING TARKIBIY QISMLARI:** Ta'lim muassasalari rahbarlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish modeli tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va oshirish uchun birgalikda ishlaydigan bir nechta asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlarga quyidagilar kiradi:

1. **Bilimlarni o'zlashtirish:** Ta'lim rahbarlari tanqidiy fikrlashni samarali amalga oshirish uchun o'z sohalarida kuchli bilimga ega bo'lishi kerak. Ushbu komponent qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish uchun ta'lim nazariyasi, tadqiqot usullari, siyosat tahlili va boshqa tegishli sohalarida tajribaga ega bo'lishni o'z ichiga oladi.

2. **Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish:** Tanqidiy fikrlash tahlil qilish, baholash, sharhlash va xulosa chiqarish kabi o'ziga xos kognitiv qobiliyatlarni talab qiladi. Ta'lim rahbarlari ushbu ko'nikmalarni amaliyot, fikr-mulohaza va ta'limning murakkab masalalari haqida tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun rivojlantirishlari kerak.

3. **Metakognitiv xabardorlik:** metatanish o'z fikrlash jarayonlarini aks ettirish va tartibga solish qobiliyatini anglatadi. Ta'lim rahbarlari o'zlarining fikrlashlarini kuzatish, noto'g'ri va taxminlarni aniqlash va fikr-mulohazalar va yangi ma'lumotlarga asoslangan muammolarni hal qilishda o'z yondashuvlarini o'zgartirish uchun metakognitiv xabardorlikni rivojlantirishlari kerak.

4. **Muammolarni hal qilish strategiyalari:** Samarali tanqidiy fikrlovchilar ta'limdagi muammolarni hal qilish uchun bir qator muammolarni hal qilish strategiyalaridan foydalanadilar. Modelning ushbu komponenti yetakchilarning muammolarni aniqlash, yechimlarni ishlab chiqish, variantlarni baholash va istalgan natijalarga erishish uchun samarali strategiyalarni

amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

**MODELNI AMALGA OSHIRISH STRATEGIYALARI:** Ta'lim muassasalari rahbarlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish modelini amalga oshirish individual rivojlanish, tashkiliy yordam va doimiy ta'lim imkoniyatlarini birlashtirgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Ta'lim rahbarlarida tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bir nechta strategiyalardan foydalanish mumkin:

1. Kasbiy rivojlanish: Ta'lim muassasalari tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini taklif qilishlari mumkin, masalan, seminarlar, seminarlar va kurslar. Bu dasturlar yetakchilarga kognitiv ko'nikmalarini oshirish, yangi bilimlarni olish va qo'llab-quvvatlovchi muhitda tanqidiy fikrlashni mashq qilish imkoniyatlarini taqdim etishi mumkin.

2. Mentorlik va murabbiylik: Mentorlik va murabbiylik munosabatlari tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga intilayotgan rahbarlar uchun qimmatli bo'lishi mumkin. Tajribali murabbiylar rahbarlar murakkab muammolarni hal qilishda va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini yaxshilashda yo'l-yo'riq, fikr-mulohaza va yordam berishlari mumkin.

3. Hamkorlikda o'rganish: Ta'lim rahbarlari tengdoshlar bilan muloqot qilish, istiqbollarni almashish va umumiy muammolarni hal qilish uchun birgalikda ishlashni o'z ichiga olgan hamkorlikda o'rganish tajribasidan foyda olishlari mumkin. Birgalikda o'rganish tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydigan izlanish, muloqot va innovatsiya madaniyatini rivojlantiradi.

4. Reflektiv amaliyot: Reflektiv amaliyot yetakchilar uchun o'z fikrlash jarayonlari va tarfakashliklarini chuqurroq tushunishlari uchun zarurdir. Rahbarlar qarorlar qabul qilish, muammolarni hal qilish va muloqot qilish amaliyotlari haqida muntazam ravishda fikr yuritish orqali takomillashtirilishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlashlari va vaqt o'tishi bilan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini yaxshilashlari mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ta'lim muassasalari rahbarlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish modelini muvaffaqiyatli amalga oshirish bir nechta omillarni diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi:

1. Tashkilot madaniyati: Ta'lim muassasasi madaniyati yetakchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash yoki oldini olishda muhim rol o'ynaydi. So'rov, intellektual qiziqish va ochiq muloqotni qadrlaydigan institutlar tanqidiy fikrlashning rivojlanishi uchun qulay muhitni yaratish ehtimoli ko'proq.

2. Resurslarni taqsimlash: Ta'lim muassasalari yetakchilarga o'zlarining tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiruvchi kasbiy rivojlanish va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun vaqt, moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlash kabi resurslarni ajratishi kerak. Rahbarlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga sarmoya kiritish uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun zarurdir.

3. Baholash va fikr-mulohazalar: Muntazam baholash va fikr-mulohaza yuritish yetakchilar uchun tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi muvaffaqiyatlarini baholashda muhim ahamiyatga ega. Tashkilotlar etakchilarga taqdim etish uchun baholash vositalarini, o'zaro baholashlarni va o'z-o'zini baholashni amalga oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Векслер М. Критическое мышление: дис. ... канд. психол. наук / М. Векслер. – Киев, 1973.

Тягло А.В. Критическое мышление: проблема мирового образования 21 века / А.В. Тягло, Т.С. Воропай. – Харьков: Университет внутренних дел, 1999. – 285 с.

Белоусова А.Б. Интеллектуальный потенциал общества и развитие мышления учащихся и студентов: сб. науч. тр. / А.Б. Белоусова. – Казань, 2001. – 497 с.

Шаюсупова А. А., Хайдарова Р. А. Формирование педагогической компетентности преподавателя языкового вуза в системе непрерывного образования // Бюллетень науки и практики. – 2019. – Т. 5. – №. 6.

## MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA KASBIY RIVOJLANISH KUNLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Rahmonova Gulhayo Saidjon qizi,  
A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

*Annotatsiya. Ijtimoiy hayotning boshqa sohalari singari, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi ham doimiy rivojlanishni talab qilmoqda. Buning sababi, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar hajmining tez sur'atda o'sishi, shuningdek, «bilimlar o'zgarishi oralig'idagi davrning» tez qisqarishidir. Shu nuqtai nazardan, malaka oshirish tizimi har qanday ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy va texnologik yangiliklarga tez moslashishi, psixologik va pedagogik fan hamda amaliyot yutuqlariga tayanishi, doimo kelajakka yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mazkur maqola davriylikka asoslangan malaka oshirish va "hayot davomida o'qish" tamoyiliga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining o'zaro integratsiyasi: sabablar, oqibatlar va kutilayotgan natijalar samarasiga bag'ishlanadi.*

*Kalit so'zlar: malaka oshirish, davriy malaka oshirish, "hayot davomida o'qish" tamoyili, uzluksiz kasbiy ta'lim, kasbiy rivojlanish kunlari, kasbiy rivojlanish soatlari*

## ORGANIZING AND MANAGING PROFESSIONAL DEVELOPMENT DAYS IN THE TRAINING SYSTEM

Rahmonova Gulhayo Saidjon qizi,  
Doctoral student of the National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

*Abstract. Like other areas of social life, the system of professional development of pedagogic personnel requires constant development. This is due to the rapid growth of the volume of professionally relevant information, as well as the rapid reduction of the «time between changes in knowledge». From this point of view, the training system should quickly adapt to any positive socio-economic, scientific and technological innovations, rely on the achievements of psychological and pedagogical science and practice, and always be future-oriented. This article is devoted to the mutual integration of the continuous professional development system based on the periodic training and the «lifelong learning» principle: causes, consequences and expected results.*

*Key words: professional development, periodic professional development, «lifelong learning» principle, continuing professional education, professional development days, professional development hours*

## ОРГАНИЗАЦИЯ И ПРОВЕДЕНИЕ ДНЕЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В СИСТЕМЕ ОБУЧЕНИЯ

Рахмонова Гулҳаё Саиджон қизи,  
Докторант Национального института педагогического мастерства имени А. Авлони

*Аннотация. Как и другие сферы общественной жизни, система профессионального развития педагогических кадров требует постоянного развития. Это связано с быстрым ростом объема профессионально значимой информации, а также быстрым сокращением «времени между изменениями знаний». С этой точки зрения система обучения должна быстро адаптироваться к любым позитивным социально-экономическим, научно-техническим новациям,*

*опираться на достижения психолого-педагогической науки и практики и всегда быть ориентированной на будущее. Данная статья посвящена взаимной интеграции системы непрерывного профессионального развития на основе периодического обучения и принципа «обучения на протяжении всей жизни»: причины, последствия и ожидаемые результаты.*

*Ключевые слова: повышение квалификации, периодическое повышение квалификации, принцип «обучения на протяжении всей жизни», непрерывное профессиональное образование, дни повышения квалификации, часы повышения квалификации.*

Kirish. Ta'lim tizimidagi yangi islohotlar, ta'lim tizimiga yangicha o'qitish texnologiyalarini jadallik bilan kirib kelishi, Milliy o'quv dasturining yaratilishi, shunga mos ravishda maktab o'quv darsliklarining yangilanishi maktab o'qituvchilari va rahbar xodimlarining malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojini o'zgarishiga sabab bo'ldi. Ehtiyojlar dinamikasi 5 yillik davriylikka asoslangan 144 soatlik malaka oshirish kurslarini "hayot davomida o'qish" tamoyiliga asoslangan va har yil 36 soatlik kurslarda malaka oshirishni ko'zda tutuvchi "uzluksiz kasbiy rivojlanish" tizimiga transformatsiya qilish zaruratini keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-son Farmoni [1], 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108-son Farmoni [2] va 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4963-son Qarorlarida [3] xalq ta'limi tizimidagi islohotlarni yanada takomillashtirish va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Respublikamizda pedagog xodimlarning malakasini oshirish tizimli ravishda o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab yo'lga qo'yilgan. Mazkur faoliyat tarixi va uning rivojlanish bosqichlari mamlakatimiz olimlari J.G'. Yo'ldoshev [4] va H.Q. Yo'ldoshevlarning [5], shuningdek, MDH olimlari N.A. Lukina, E.M. Nikitin, P.V. Xudominskiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. A.B. Radjiyev [6] tadqiqotida esa pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi rivojlanish bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari batafsil yoritilgan. M.A. Yuldashev [7] tadqiqotlarida pedagoglar malakasini oshirish tizimida ta'lim sifatini ta'minlash muammolari tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Maqolani tayyorlashda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

Nazariy darajada — tadqiqot muammolari bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish; ishtirokchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish; tizimlar va ta'lim jarayonlarini, o'qituvchi va ishtirokchilarning malaka oshirish tizimidagi o'quv faoliyatini modellashtirish;

Empirik darajada — pedagogik tajriba; kuzatuv usullari, so'rovnomalalar, testlar, so'rovlar, ma'lumotlarni qayta ishlashning statistik usullari.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining (keyingi o'rinlarda pedagog xodimlar) malaka saviyasi ular kasbiy faoliyatini baholashning sifat mezonlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda mazkur xodimlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish majburiyati qonun yo'li bilan mustahkamlab

qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori [3] ijrosini ta'minlash maqsadida A. Avloniy milliy-tadqiqot instituti tomonidan pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish hamda kredit-modul tizimiga asoslangan "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi (<https://onlinedu.uz>) yaratildi va shu yildan boshlab pedagog xodimlarni uzluksiz malakasini oshirish jarayonlarida mazkur platformadan foydalanish yo'lga qo'yildi [8].

5 yillik davriylikka asoslangan 144 soatlik malaka oshirish kurslarining "hayot davomida o'qish" tamoyiliga asoslangan har yilgi 36 soatlik kurslarga o'zgarishi o'z navbatida o'quv reja va o'quv dasturlarini tubdan qayta ishlash zaruratini keltirib chiqardi. Yangilangan o'quv reja va o'quv dasturlari mazmunan pedagoglarning kasbiy faoliyatidagi qiyinchiliklar, kompetentlik darajasidagi bo'shliqlar, shaxsiy va kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlari asosida takomillashtirib borildi.

So'ngi o'n yil mobaynida malaka oshirish davriyligi bilan kechgan islohotlardan to'plangan amaliy tajribalarga tayangan holda "davriylikka asoslangan malaka oshirishning" "hayot davomida o'qish" tamoyiliga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimiga integratsiya qilinishi malaka oshirish jarayonlarini sifat va samaradorlik jihatidan yangi cho'qqiga olib chiqishi mumkin. Pedagog xodimlarning malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlar dinamikasi (yoki malaka oshirish jarayonidan kutuvlar o'zgarishi) tizimda yangi islohotlarni amalga oshirish uchun sabab bo'ladi.

Tadqiqotimiz davomida o'tkazilgan so'rovnomalar orqali 2023-yilda "Uzluksiz kasbiy ta'lim" platformasida malaka oshirgan pedagoglarda quyidagi ehtiyojlar yuqori ekanligi aniqlandi:

Pedagoglar (foizlarda)	EHTIYOJLAR
58 %	Zamonaviy o'qitish usullari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish
42 %	O'qitish jarayonida psixologik yondoshuv ko'nikmalarini takomillashtirish
31 %	O'qitishda fanlararo integratsiyani ta'minlash usullari haqida yangi bilimlarga ega bo'lish
84 %	Milliy o'quv dasturi loyihasi asosida maktab darsliklariga kiritilgan yangi mavzularni o'qitish metodikasi haqida bilimlarga ega bo'lish
28 %	Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsiga bo'lgan yondoshuvni o'zgartirish orqali ularda o'qishga bo'lgan motivatsiyani uyg'otish ko'nikmasi
39 %	Ta'limi rivojlangan mamlakatlarning (Finlandiya, Yaponiya) o'qitish tizimi haqida bilimlarga ega bo'lish va ularni milliy ta'limda qo'llay olish ko'nikmalarini egallash
24 %	Kasbiy mobillikni rivojlantirish
87 %	Fan doirasida darslikdagi mavzularni samarali o'qitish metodikasini o'rganish va dars jarayoniga tatbiqini kuzatish
11 %	Boshqa ehtiyojlar

Natijalar shuni ko'rsatadiki, aksariyat pedagoglar fani doirasida darslikdagi har bir mavzuni o'quvchilarga yetkazib berishning samarali metodlarini o'rganish va "tirik bilimlar" orqali dars jarayonini boyitishga ehtiyoj sezishadi. Lekin bunday ehtiyojlarni malaka oshirish o'quv kurslari orqali qondirishning iloji yo'q, chunki o'quv dasturlari malaka oshirish mazmuni va sifatiga qo'yilgan Davlat talablari doirasida tuziladi va undagi mavzular soni aniq belgilangan (cheklangan) bo'ladi.

Kasbiy rivojlanish kunlari va kasbiy rivojlanish soatlarini tashkil etish va boshqarish Ta'limi rivojlangan mamlakatlar tajribalariga tayanib aytish mumkinki, pedagog xodimlar ehtiyojlariga asoslangan holda malakasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida "Kasbiy rivojlanish kunlari" va "Kasbiy rivojlanish soatlarini" tashkil etish muqobil yechim bo'ladi.

Kasbiy rivojlanish kunlari pedagoglarni yangi pedagogik usullar bilan tanishtirish, ularning ilmiy-metodik bilimlarini boyitish va amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish

uchun mo'ljallangan maxsus kunlar bo'lib, fanlar kesimida har oyda 2 marta, haftaning aniq belgilangan kunlari tayanch maktablarida tashkil etiladi. Kasbiy rivojlanish kunlari davomida mentor-o'qituvchilar tomonidan ilmiy-metodik faoliyatlar va yangi pedagogik usullar bo'yicha trening mashg'ulotlar olib boriladi. Kasbiy rivojlanish kunlari va Kasbiy rivojlanish soatlari tadbirlarini tashkil etish uchun mentor-o'qituvchilar fanlar kesimida malakali pedagoglar orasidan tanlanadi va ular uchun alohida tayyorlov kurslari tashkil etiladi.

Kasbiy rivojlanish soatlari barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy qilinadi. Bunda fan metodika birlashmalari va mentor-o'qituvchilar tomonidan o'qituvchilarning darslari tahlil qilinadi va kasbiy rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kasbiy rivojlanish kunlari malaka oshirish mashg'ulotlari aniq reja-dastur bo'yicha mentor-o'qituvchilar tomonidan olib boriladi. Bunda respublika, viloyat va tuman miqyosida ta'lim va fanga doir yangiliklar sharhlanadi, mavzular kesimida o'qitishning samarali usul va vositalari bo'yicha muzokaralar olib boriladi. Mazkur jarayon pedagoglar o'rtasida bilim va tajriba almashish orqali o'z-o'zini rivojlantirish bilan ahamiyatlidir.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Kasbiy rivojlanish kunlari tadbirlarini o'tkazish tartibi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan ikki oy muddatda tasdiqlanadi.

Kasbiy rivojlanish kunlari tadbirlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

Kasbiy rivojlanish kunlari o'quv reja-dasturining zamonaviy ta'lim talablariga mos kelishi va pedagoglar ehtiyoji asosida yaratilishi;

Olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlari mazmuni va o'quv dasturida keltirilgan mavzu bir-biriga mos kelishi, mazmun bevosita ta'lim maqsadiga va pedagoglar mutaxassisligiga yo'naltirilgan bo'lishi, mavzular ketma-ketligi bir-birini to'ldirgan holda maktab darsliklari bo'yicha tartiblanishi;

Mentor-o'qituvchilar tumandagi (shahar) malakali o'qituvchilar orasidan saralab olinishi;

Mentor-o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayonini tanlanma vositalar, pedagogik texnologiyalar va metodlar, o'qitishning umumiy va xususiy tamoyillari asosida tashkil qilishi;

Pedagog xodimlar kasbiy rivojlanish kunlari tadbirlarini tashkil etilishi maqsadi va vazifalari, bu kunlardagi o'quv mashg'ulotlari kasbiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etishini chuqur anglashlari va faol qatnashishlari muhimdir.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.11.2020 yildagi PF-6108-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.01.2021 yildagi PQ-4963-son

Йўлдошев Ж.Ф. Таълим янгилаши йўлида. – Тошкент, Ўқитувчи, 2000.

Йўлдошев Х.Қ. Таълим йўналишида малака ошириш тизimini такомиллаштириш омиллари // Халқ таълими журнали. – 2006. – №1. – 7-11-б.

Раджиев А.Б. Халқ таълими тизимида раҳбар ходимларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни бошқариш самарадорлигини ошириш (умумтаълим мактаб директорлари мисолида). Дис-2021/169-79

Юлдашев М.А. Халқ таълими ходимларининг малакасини оширишда таълим сифати менежментини такомиллаштириш. Дис-107/2016

Rahmonova Gulhayo Saidjon Qizi. "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi va unda ta'lim sifatini boshqarish. Science and innovation, vol. 1, no. JSSR, 2022, pp. 5-10.



## **ONA TILI TA'LIM MAZMUNIDA MUSTAQIL VA O'QUV TOPSHIRIQLARINI METODIK TAKOMILLASHTIRISH VAZIFALARI**

*Rasulova Gulbahor Kerimbayevna,  
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsent v.b.*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va jahon tilshunosligida o'rganilishi, undagi metodik xususiyatlar, ularning turlari, mustaqil ta'lim va uning vazifasi, xususan, tilshunoslik fanlarini o'qitishda matn va lug'at ustida ishlash bilan bog'liq muammolar, shuningdek, ularning oliy ta'lim miqyosida tadqiqi masalalari o'rganilgan. Jumladan, mustaqil ta'limning keng imkoniyatlari tilshunoslik fanlari orqali, muhimligi yorqin misollar tahlili orqali bayon qilingan.*

*Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, tilshunoslik, o'qitish metodikasi, nutqiy kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, o'quv topshiriqlari.*

## **TASKS OF METHODOLOGICAL IMPROVEMENT OF INDEPENDENT AND STUDY TASKS IN MOTHER LANGUAGE EDUCATIONAL CONTENT**

*Rasulova Gulbahor Kerimbaevna,  
Tashkent University of Applied Sciences associate professor, etc.*

*Abstract. In this article, it is studied in Uzbek and world linguistics, its methodological features, their types, independent education and its task, in particular, problems related to working on text and vocabulary in teaching linguistics, as well as their Research issues at the level of higher education have been studied. In particular, the wide possibilities of independent education are explained through the linguistic sciences, and its importance is explained through the analysis of vivid examples.*

*Key words: independent education, linguistics, teaching methodology, speech competence, pedagogical technologies, educational tasks.*

## **ЗАДАЧИ МЕТОДИЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ И УЧЕБНЫХ ЗАДАЧ НА РОЖДНОМ ЯЗЫКЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО СОДЕРЖАНИЯ**

*Расулова Гульбахор Керимбаевна,  
и.о доцент Ташкентского университета прикладных наук*

*Аннотация. В данной статье изучается узбекское и мировое языкознание, его методические особенности, их виды, самостоятельное обучение и его задачи, в частности, проблемы, связанные с работой над текстом и лексикой в преподавании языкознания, а также вопросы их исследования на уровне высшего образования. В частности, посредством лингвистических наук объясняются широкие возможности самостоятельного образования, а его важность поясняется посредством анализа ярких примеров.*

*Ключевые слова: самостоятельное образование, языкознание, методика обучения, речевая компетентность, педагогические технологии, учебные задачи.*

Tilshunoslik fanlari, ona tili o'qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida lingivistik kompetensiyalarni shakllantirish nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. oliy ta'lim tizimida modul-kredit tizimiga o'tish jarayonlari kechmoqda. Bunga tayyor bo'lish uchun talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Talabalarda ona tilidan

(ular tining tashuvchilari bo'lgani uchun) ba'zi ko'nikmalargina shakllantiriladi, asosan, ulardagi mavjud ko'nikmalar rivojlantiriladi. Bu mas'uliyatli vazifani, albatta, takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari orqali amalga oshirish mumkin. Shu ma'noda oliy ta'limda ona tilidna o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ona tili o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Sh.Yusupova va N.Yuldasheva kabilar o'z tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov, M.Saidov va N.Alavuddinovalar esa ona tili o'qitish orqali mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. Shuningdek, uzluksiz ta'limda ona tilidan til sathlarini o'qitish metodikasi bo'yicha ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan, jumladan, T.Yusupova gapning bosh bo'laklarini o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Mazkur maqola mazmunidan bugungi kunda davlat tili ta'limida keng foydalanish mumkin.

Pedagogika sohasida A.Hamroev ona tili ta'limida ta'lim oluvchining ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilgan. Bu borada metodist K.Mavlonovanning "Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi tadqiqot ishini alohida ta'kidlash lozim. Olim tomonidan ona tili ta'limining bugungi yondashuvlariga mos ravishda eng murakkab bo'lib turgan matn ustida ishlash, uni o'qiy olish, tushuna olish va, eng muhimi, matn yarata olish ko'nikmalarini adabiyot fani bilan integratsiya qilgan holda rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir I.A.Allayorov, O.R.Roziqov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov I.E.Davronovlar tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, uning faolligi va mustaqilligini tarbiyalash muammolari ham o'rganilgan. Oliy ta'lim tizimida "Hozirgi o'zbek adabiy tili" "O'zbek tili" fanlarini o'qitishda "Orfografiya" va "Orfoepiya" bo'limlari nutqiy malaka bilan bevosita aloqador bo'lganligi bois ularni o'qitish vositalari ham bir-biriga chambarchas bog'liq. G'.Hamroyev to'g'ri ta'kidlaganida ek, mashq va topshiriq atamalariga o'zgacha yondashish zarur. Darslik va qo'llanmalarda ko'p uchraydigan "mashq", "topshiriq" atamaları o'zaro uyadoshlik hosil qilsa-da, ular orasida sinonimik munosabat yo'q. Biroq kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, uzoq yillardan beri amalda bo'lgan qator darslik va qo'llanmalarda mazkur ikki tushunchaning berilishida chalkashlik, birining o'rnida boshqasining qo'llanilishi kabi holatlarni ko'rish mumkin: "333-mashq. Berilgan she'riy misradagi so'zlarni unli va undoshga ajrating.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir".

"2-topshiriq. Gapni aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli birikmalarga ajrating".

Keltirilgan misollardan ham ko'rinib turibdiki, darsliklarda mashq va topshiriqlarning berilishi, mazmuni bir-biridan farqlanmaydi. Ikkalasida ham "ajrating" topshirig'i berilmoqda. Yangi mazmunda yaratilgan "O'zbek tili" darsligida o'quv topshiriqlariga yangicha yangicha yondashilgan. Unda talabalarga ko'proq topshiriqlar berilgan. Buning yana bir muhim tomoni shuki, talabaga mustaqil bajarish uchun aniq topshiriq beriladi. Amaldagi aksariyat darsliklarda mustaqil mashg'ulot sifatida savollar beriladi. Uni talaba qisqa fursatda bajarib qo'yishi, amaliy ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. 1- topshiriq: a) matnni o'qing, matn mazmunini to'liq tinglab tushuning; b) matndagi tayanch so'z va iboralarni ajratib yozing; d) matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalang. 2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling: Ma'muriy [boshqaruvga, ma'muriyatga aloqador] - ma'muriyatga doir. Ma'muriyat yo'li bilan amalga oshiriladigan. Ma'muriy hudud. Viloyat [ chekka joy, o'lka] - mamlakatning bir va undan ortiq shaharlarini o'z

ichiga oladigan yirik ma'muriy-hududiy bo'linma. O'zbekistonning 12 viloyati. Hudud - ma'lum chek-chegaraga ega bo'lgan, chegara bilan o'ralgan yer; ma'lum davlat, viloyatga tegishli bo'lgan yer, maydon. O'zbekiston hududi. Sanoat [ishlab chiqarish] - xalq xo'jaligining xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini qazib olish, ishlab chiqarish vositalarini va keng iste'mol mollarini yaratish. Yengil sanoat. Oziq-ovqat sanoati. Soha - inson faoliyati, ilm-fan, madaniyat va boshqalarning har bir tarmog'i. Sanoat sohalari. Qishloq xo'jaligining yetakchi sohalari.

Darsliklarni tahlilga tortganimizda uning yutuq tomoni shundaki, o'quv topshiriqlari, o'quv materiali talabalarning ixtisoslik yo'nalishlariga moslangan. Darslikning mazkur qismida mashq namunalarini berilmagan. Umuman, har bir mashg'ulotda mavzuga aloqador mashq, albatta, bo'lishi lozim. Endi "O'zbek tili o'qitish metodikasi" darsliklari mazmuniga to'xtalamiz. Unda o'quv topshiriqlaridan qanday foydalanilishi, mazmuni, shakli, tarkibini ko'rib chiqamiz. Oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari uchun tayyorlangan Ona tili o'qitish metodikasi darsligi mazmunida quyidagi o'quv topshiriqlaridan foydalanilgan: 2012 yilda nashr etilgan mazkur darslikda talabalarni baholash bo'yicha ham talabalar – bo'lajak mutaxassislariga yaxshi tavsiyalar, baholash mezonini sifatida xizmat qiluvchi o'quv material berilgan. O'quv topshiriqlari tuzishda asosan quyidagi mezonlarga tayanish kerak: Tayyorlov sinflarning ta'lim mazmuni va tashkil etish muddati bir xil bo'lm asa-da, lekin bu davrda bolalarning nutqiy tayyorgarligini o'rganish uchun quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi:

1. O'qish ko'nikmasini aniqlash. a) so'zni sidirg'a o'qiydi; b) bo'g'inlab o'qiydi; d) harflab o'qiydi (noto'g'ri o'qish); e) anchagina harflarni biladi, lekin o'qishni bilmaydi; f) ayrim harflarni taniydi.

2. Yozuv ko'nikmasi. a) hamma harfni yozishni biladi, so'z yozadi (bosma yoki yozma); b) ayrim harflarnigina yozishni biladi (bosma yoki yozma); d) yozishni um um an bilmaydi.

3. Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi. a) so'zni bo'g'inlarga bo'lmadi; b) so'z yoki bo'g'indagi tovushni ajratadi; d) hamma tovushni to'g'ri talaffuz qiladi; e) ayrim tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi (qaysi tovushlar ckani hisobga olinadi); f) nutqining baland yoki pastligi, diksiyasiga e'tibor qaratiladi.

4. Og'zaki bog'lanishli nutqi. She'mi yoddan o'qish. a) 3 ta yoki undan ortiq she'rni biladi, uni zavqlanib aytadi; b) 1—2 ta she'rni biladi, aytishga uyaladi; d) birorta she'rni yoddan o'qishni bilmaydi.

5. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Ertak aytish. a) bir yoki bir nechta ertakni biladi va aytib bera oladi; b) ertakni biladi va uni aytishga harakat qiladi, lekin ayta olmaydi; d) ertak aytishni bilmaydi, o'rganishga ham harakat qilmaydi.

6. Og'zaki bog'lanishli nutqi. Fikr bayon qilish (Rasmda nimalar ko'rayotganingni aytib ber). a) 20 so'zdan ortiq bog'lanishli hikoya, bir necha gap tuza oladi; b) 10 tadan 20 tagacha so'z, bir necha gap tuza oladi; d) 10 tagacha so'z bilan bog'lanishli nutq tarzida javob qaytara oladi; e) 3-4 so'z bilan qisqa javob bera oladi. Oliy ta'limda, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so'ng ham talaba va o'qituvchining shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o'quv materiallarining, xususan, o'quv topshiriqlarning tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Darslik turli xil qo'shimcha vositalar – antologiyalar, mashq va topshiriqlar to'plamlari, lug'atlar, ma'lumotnomalar, darsdan tashqari o'qish uchun kitoblar, atlaslar, tarixiy-geografik xaritalar va boshqalar bilan bog'liq bo'lishi to'ldirilishi kerak. Zamonaviy darsliklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'quv materialini yanada kengaytirilgan rejada beradi, o'quv topshiriqlar orqali eng yangi ma'lumotlar, ma'lumotnoma xarakteridagi ma'lumotlar bilan kengaytiriladi. Darslik bilan ishlashda talabalar qo'shimcha adabiyotlar yordamida tahlil qilish, tanqid qilish, to'ldirish,

ularni taqdim etish uslubi va o'rganilayotgan matnni o'zgartirishni o'rganadilar.

O'quv topshiriqlari orqali ona tili o'qitishga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish; ona til o'qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va pedagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish; ona tili ta'limda o'zbek etnolingvistikaning so'nggi yutuqlaridan foydalanish. Amaldagi dastur va darsliklar talabalarni ona tili ta'limi maqsadiga muvofiq muvofiq izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma'lumotlar bazasi emas, balki talabaga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanishni o'rgatadigan o'quv topshiriqlari tashkil etmog'i lozim. Chunki oliy ta'lim tizimi maqsad faqat tilshunos tayyorlash emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishdir. Talabada nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish, lug'at va matn asosida milliy tili, milliy ma'naviyatni talaba tafakkuriga singdirish, o'z talabasini turli nutq vaziyatlariga tayyorlash, ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalash texnologiyasini ona tili ta'limiga samarali joriy qilish asosiy masalalardan biridir. Oliy ta'limda, odatda, muayyan o'quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so'ng ham talaba va o'qituvchining shu o'quv predmeti bo'yicha bilim berish hamda ma'lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darsliklardagi o'quv materiallarining, xususan, o'quv topshiriqlarning tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Oliy ta'limda joriy etilayotgan yangi modul tizimining asosiy qismi ham baholash va mustaqil ishlashga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlaridir.

Shu o'rinda – mashq usullari – talabaning real amaliy harakatlarini ta'minlovchi, uning ichki munosabatini mujassamlashtiruvchi, munosabatni moddiylashtiruvchi, ikkinchisiga ko'rinadigan ta'sirlar turidir. Mashq va topshiriqlar yordamida talabalarining faolligi tashkil etiladi va uning ijobiy motivlari (ishtiyoq) (topshiriqlar, talablar, musobaqalar shaklida alohida va guruh faoliyati uchun turli xil vazifalar, namunalar va misollar ko'rsatish, muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratish) rag'batlantiriladi.

Ijodiy tafakkur sohiblarini tarbiyalovchi darsning asosini fikrlashga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlari tashkil qiladi. Bunday zamonaviy dars javob berishi kerak bo'lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Eng yangi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta'lim jarayoni savol-javob asosida dars tashkil qilish.

2. Darsni o'quv topshiriqlaridan o'rinli va maqsadli foydalangan holda amalga tashkil qilish.

3. Talabalarining bilish faoliyati uchun tegishli bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga o'quv topshiriqlari ishlab chiqish.

4. Savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo bog'lanishlarni e'tiborda tutish.

Ma'lumki, har bir dars uch maqsadga erishishga qaratilgan: o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirish. Ona tili ta'limida, asosan, grammatik bilimlarni rivojlantirish nazarda tutildi, To'g'ri, grammatikasiz dars ham, darslik ham bo'lmaydi, biroq me'yorida bo'lishi kerak. Til o'rganishni murakkab jarayonga aylantirib qo'yanmiz, kabi malakalar alohida masala, nega ona tili o'qituvchilarining bilimi past baholanmoqda, chunki biz noto'g'ri o'lchayapmiz. Maktab o'qituvchisidan fan tilshunosning bilim va ko'nikmasini so'ralmaydi, aslida olimlar ham tilshunoslikning kichkina bir sohasini biladi xolos. O'qituvchidan lingvistikaning hamma sohasini bilishni talab qilish noto'g'ri, albatta.

Bugun talabaga OTMga kirish uchun ona tili grammatikasidan taqdim etilayotgan test savollariga tadqiqotchi, tilshunoslar ham qoniqarli javob bera olmaydi, chunki o'quv topshiriqlari noto'g'ri shakllantirilgan.

Aslida, grammatika qoidalar emas, ona tilida matn bilan ishlashga o'tish, so'zning matndagi

ma'no tovlanishlarini, talaffuzi va yozilishini, matn muallifi aslida nima demoqchiligini anglashga olib boruvchi savol va topshiriqlar tizimini yaratish, talabning adabiyotga mehr qo'yishini ta'minlaydi, ona tilining bo'y-u bastini ko'radi. Grammatik nazariyalar – qoliplardir, ona tili ularga sig'maydi. Biz tilning nutqiy imkoniyatlarini ko'rsatib berishimiz kerak, bu imkoniyatlar grammatika bilan o'lchanmaydi.

Xulosa o'rnida, shuni aytish mumkinki, o'zbek tili o'qitish metodikasi zamon talablariga javob berishi uchun barcha diqqatni nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratish lozim. Bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilari o'z talabalariga tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini hosil qilishni o'rgatishi lozim. Buning uchun har bir bo'lajak o'qituvchi matn ustida ishlashni bilishi, bir fikrni turli shakllarda bera olishni o'rganishi, eng asosiysi, o'quv topshiriqlarini farqlay olishi, ulardan mashg'ulotlar davomida samarali foydalana olishi lozim. Oliy ta'lim tizimida o'quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, topshiriq turlari, savol va topshiriqlarning vazifaviy farqlanishlari, mashqlarning ona tili, davlat tili o'qitish metodikalaridagi o'rni, tuzilgan o'quv topshiriqlarining tanlangan mavzu, shuningdek ta'lim maqsadiga mosligi, bo'lajak mutaxassislarining topshiriq tuzish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqish masalalari haqida fikr yuritilgan. Kredit-modulga asoslangan ta'lim tizimining ona tili o'qitish metodikasida o'quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, xususan, oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili o'qitish metodikasi mashg'ulotlarida bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarini tayyorlashga mo'ljallangan o'quv adabiyotlarida savol, mashq va topshiriqlarning berilishi tahliliy o'rganildi, shuningdek, o'quv topshiriqlarini pedagogik vapragsmatik jihatdan takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilindi. Ona tili o'qitish metodikasida o'quv topshiriqlaridan foydalanishning mavjud holati, xususan, oliy o'quv yurtlarida o'zbek tili o'qitish metodikasi mashg'ulotlarida bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarini tayyorlashga mo'ljallangan o'quv adabiyotlarida savol, mashq va topshiriqlarning berilishi tahliliy o'rganildi, shuningdek, keyingi yillarda o'quv topshiriqlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga qisman munosabat bildirildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupova Sh. Ona tili ta'limi samaradorligini oshirish va ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish: ped. fan. nom-di diss. TDPI. –T., 1998.– 137 b.
2. Yuldasheva N. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida lug'aviy sinonimlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi: ped.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilan diss.–T., 2002. –123b.
3. Gulyamov A. Metodika razvitiya uchebno - poznovatelnoy aktivnosti uchащixsya v protsesse prepodovaniya rodnogo (uzbekskogo) yazыka: Dis. dok. ped. nauk. –T.: TGPI, 1991. – 37 b.
4. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref. TDPU. –Toshkent, 2000.– 25 b.
5. Alavuddinova N. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi: ped. fan. nom-di diss. avtoref. TDPU. – T., 2008.– 24 b.
6. Yusupova T. Uzluksiz ta'lim tizimi asosida maktabda o'quvchilarga bosh bo'laklarni o'rgatish: ped. fan. nom-di diss. avtoref. TDPI. –T., 1998.– 22 b.
7. <http://uza.uz/oz/education/-uvchini-mayib-ilayetgan-k-rinmas-va-samarasiz-milliardlar-14-11-2019>
8. Hamroyev A.R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish. Pedagogika fanlari doktori (Dsc) ilm. darajasini olish uchun yozilgan diss. –Toshkent, 2020. –242 b.

## DIZARTRIYALI BOLALAR NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Raxmatova Dilnavoz A'zam qizi,  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Kishilar o'rtasidagi muomalaning asosiy vositasi nutq hisoblanadi. Inson nutq yordamida o'z fikrini, his tuyg'ularini izhor qiladi, hamda boshqalarning hissiyotlarini bilib oladi. Demak, nutq faoliyati aloqa o'rnatish vositasidir. Inson nutqi tovushlari muayyan ahamiyatga egadir. Dizartriya – nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Dizartriyada nutqning leksik – grammatik tomonining buzilishi asosiy buzilish hisoblanmaydi. Bunda nutqning tovush tomonidan buzilishi yetakchi o'rinda turadi. Dizartriyali bolalar nutqi manqalangan, noaniq bo'ladi. Nutqning sur'ati, ravonligi, pauzaning buzilishi, tovushlarni, so'zlarni oxirgi jumlagacha gapirmaslik, so'zlarni nutqda tashlab ketish hollari dizartriya uchun harakterlidir.*

*Kalit so'zlar: Dizartriya, nut, muloqot, olimlar, falajlik, nuqson, tekshirish, psevdobulbar, serebral, monologik nutq, tonus, tovush, talaffuz, giperkinez, bola, harakat, lab, nafas.*

## ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ ДЕТЕЙ С ДИЗАРТРИЕЙ

*Рахматова Дилнавоз Аъзам қизи,  
Преподаватель Ташкентского государственного педагогического  
университета имени Низами*

*Аннотация: Речь является основным средством общения между людьми. Человек использует речь для выражения своих мыслей и чувств, а также мыслей других людей. знает его чувства. Итак, речевая деятельность – это средство общения. Особое значение имеют звуки человеческой речи. Дизартрия – нарушение произношения, обусловленное органическим нарушением иннервации речевого аппарата. Нарушение лексико-грамматической стороны речи при дизартрии не считается основным нарушением. При этом искажение речи звуком находится на лидирующей позиции. Речь детей с дизартрией невнятная и неясная. Дизартрия характеризуется быстротой и беглостью речи, нарушением пауз, непроговариванием звуков и слов до последнего предложения, пропусками слов в речи.*

*Ключевые слова: Дизартрия, орех, общение, ученые, паралич, дефект, осмотр, псевдобульбарный, мозговой, монологическая речь, тон, звук, произношение, гиперкинез, ребенок, движение, губа, дыхание.*

## CHARACTERISTICS OF THE SPEECH OF CHILDREN WITH DYSARTHRIA

*Raxmatova Dilnavoz A'zam qizi,  
Teacher of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

*Abstract: Speech is the main means of communication between people. A person uses speech to express his thoughts and feelings, as well as those of others knows his feelings. So, speech activity is a means of communication. The sounds of human speech are of particular importance. Dysarthria is a pronunciation disorder due to an organic disorder of the innervation of the speech apparatus. Disruption of the lexical-grammatical aspect of speech in dysarthria is not considered the main disorder. In this case, the distortion*

*of speech by sound is in the leading position. Speech of children with dysarthria is slurred and unclear. Dysarthria is characterized by the speed and fluency of speech, the violation of pauses, not saying sounds and words until the last sentence, dropping words in speech.*

*Keywords: Dysarthria, nut, communication, scientists, paralysis, defect, examination, pseudobulbar; cerebral, monologic speech, tone, sound, pronunciation, hyperkinesis, child, movement, lip, breath.*

Dizartriya – bolalar serebral falajining bir belgisi hisoblanadi.

K.N.Vittorf, M.V.Ippalitova, M.V.Litvak, Ye.M.Mastyukova, M.B.Eyidinova va Ye.N.Pravdinalardan iborat mualliflar jamoasi o'zlarining ilmiy tekshirish ishlarida dizartriya bolalar serebral falajining bir belgisi ekanligini tasdiqlaydilar. Chet el tadqiqotchilari serebral falaji bolalarda faqatgina harakat – tayanch a'zolarida kamchiliklar kuzatilmagan, balki ularning nutqida ko'pincha turli xil buzilishlar kuzatilishini ta'kidlaydilar. Mualliflar serebral falajli bolalarning nutq kamchiliklarini o'rganishda 1-bosqichdayoq ularning borligini qayd qilgan. Keyinchalik tadqiqotchilar faqatgina nutqiy nuqsonlar borligi haqida ta'kidlamagan, nutqiy rivojlanishning orqada qolish mexanizmlarini aniqlashga o'tdilar.

N.Gutsman bolalar serebral falajida tekshiruvlar o'tkazib, birinchi bo'lib nutqiy nuqsonlarning psevdobulbar falajga bog'liq ekanligini ko'rsatib berdi. A.Oppengeym ikkita psevdobulbar falajli bolalarni tekshirib, ularning nutqida hamda umumiy motorikasida atetoidli giperkinezlar mavjudligini ma'lum qiladi.

Bolalar serebral falajini tekshirishning keyingi bosqichida psevdobulbar alomatlarni ajratib, ularning sababi miyadagi turli xil jarohatlar ekanini tushuntiradilar.

Keyinchalik bolalar serebral falajida nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha o'tkazilgan ko'p yillik tadqiqotlar natijasida ularning nutqiy patologiyasida dizartriya asosiy nuqson hisoblanishi aniqlandi.

Ko'pchilik dizartriya bolalarda monologik nutqining o'ziga xos shakllanganligi kuzatiladi, predmetlar va harakatlarni ifodalash uchun bir xil so'zlardan foydalanish, atoqli so'zlarning nutqda yo'qligi, umumlashgan tushunchalarning shakllanmaganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa ularda predmetlarning belgisi va sifatini bildiruvi so'zlar, shuningdek ularga bog'liq turli harakatlar cheklangan bo'ladi. Bunday o'ziga xoslik bolalardagi asosiy kasallik bo'lgan – harakat buzilishlari bilan bog'liq, bu bolalarning erkin harakatlanishi va predmetlar bilan harakat qilishga to'sqinlik qiladi, ularning tashqi muhit bilan muloqatini cheklaydi.

Ko'pchilik dizartriya bolalar o'qitishning boshida iborali nutqdan foydalaniladi. Bolalarda fe'llarni o'zlik shaklda, turli xil zamonlarda to'g'ri qo'llay olmaslik, ravishlardan foydalanishda qiyinchiliklar kuzatiladi.

Dizartriya bolalarda nutqni tushunishning rivojlanishi o'ziga xos kechadi. Bu ko'p ma'noli so'zlarni yetarlicha tushunmaslikda, sinonimlar, antonimlar, sifatdosh va ravishdoshning ma'nosini farqlashdagi qiyinchiliklarda namoyon bo'ladi.

Dizartriya bolalar og'zaki nutqini har tomonlama rivojlantirish asosiy fanlar bo'yicha dastur materiallarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. So'z boyligining kambag'alligi alohida grammatik shakllar va iboralarni tushunmaslik, o'quv matnlari, arifmetik masalalar, badiiy asarlarni anglashda qiyinchilik tug'diradi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tovshular talaffuzining buzilishi ko'pchilik holarda psevdobulbar dizartriya bilan bog'liq. Psevdobulbar dizartriya bosh miya qobig'idan stvol nervlarining yadrolariga boradigan harakat qobiq yadroli yo'llarning jarohatlanishidan kelib chiqadi. Psevdobulbar dizartriya artikulyatsion nutq apparatida mushaklar tonusining oshishi yoki pasayishi xarakterlidir. Artikulyatsion nutq apparatining

harakatchanligini tekshirish bir nechta bolalar guruhini ajratish imkonini berdi. Birinchi guruhdagi bolalarda so‘lak oqishi, lab, til muskullari harakatlarining tezligi, hajmi va amplitudasining pasayishi, ovoz kuchi, nutqiy nafas olish va chiqarishning pasayishi kuzatilgan. Bosh miya nervlari innervatsiyasining susayishi turlicha, ko‘pincha tilning yonboshga harakati, til uchini yuqori labga ko‘tarish susaygan. Nutq vaqtida nafas olish bolalarda qiyin, bu nutqiy nafasning ravonligini pasaytirgan va nutqda majburiy to‘htilishlarni yuzaga keltirgan.

Nutq vaqtida bolalarda ovoz past, yomon modulyatsiya bilan bo‘lgan. Nutqdan tashqari holatda – affektiv reaksiyalarda bolalarda qichqirish akustik jihatdan yanada yaxshi, ovoz toza va jarangli bo‘lgan.

Artikulyatsion nutq apparati muskullari harakatlari quyidagi xususiyatlarga ega edi:

1. Harakatga kirishish va boshqa harakatga o‘tish odatda silliq kechadi.
2. Harakatga kirishish boshda va oyoq – qo‘llarda yaqqol namoyon bo‘lmagan sinkineziyalarni keltirib chiqaradi.
3. Harakatlar ixtiyoriy urinishlarda butunlay bo‘lmasligi mumkin, lekin shartli reflektorlik aktlarda bo‘ladi.
4. Harakatlar hajmi to‘liq emas, amplituda har doim pasaygan harakatlar assimetrik.
5. Passiv harakatlar oson kechadi.
6. Harakatlar takrorlanganda so‘lak oqishi birdagina ko‘payadi.

Bolalarning fonetik topshiriqlarni bajarishi tekshirilganda, berilgan vazifalarning ko‘pchiligini bajara olmadilar. Bolalarda deyarli barcha tovushlarni talaffuz etish sustligi kuzatiladi. Tovushlar differentsiatsiyasida ko‘plab xatolar aniqlangan.

Ushbu guruh bolalari nutqiy muloqotda qiynaladi, deyarli ularning barchasi yuklamdan tez charchaydi, ularning nutqiy faolligi xar doim ham namoyon bo‘lmaydi. Bolalarning nutqiy muloqati yengil darajada bo‘lgan, ular savollarni kam berishgan, ayniqsa bilib olish, o‘rganish xarakteridagi savollarni kam berishgan.

Nutqiy reaksiya izlari tez o‘chib ketgan, ularga materialni qayta – qayta tushuntirish zarur bo‘lgan, monologik nutqi barcha mavzular bo‘yicha keng bo‘lmagan, asosan, matkabning maishiy sharoiti bilan chegaralangan.

Pseudobulbar dizartriyaning ikkinchi guruhiga kiruvchi bolalarda, asosan, artikulyatsion apparat muskullarida falajlar bo‘ladi. Bu bolalarda til oldi tovushlaridagi buzilishlar bilan birgalikda lab tovushlari, yetarlicha kuchni talab qiladigan, ayniqsa, lab – lab tovushlari (p,b,m), shuningdek unli tovushlar, ayniqsa til belchasining yetarlicha yuqoriga ko‘tarilishini talab qiladigan (i,u) tovushlarida kamchiliklar kuzatiladi. Yumshoq tanglaydagi falajlanish sababli harakatlarning birdaniga cheklanish aniqlangan, shuning uchun bola barcha tovushlarni burunli ohangda talaffuz qilgan. Nutq sekin, past, yomon shakllangan.

BSF spastik shaklidagi bolalar maxsus maktablarida o‘quvchilar orasida tovushlar talaffuzidagi buzilishlar asosida kinestetik idrok va artikulyatsion nutq apparati muskullari harakatining yetishmovchiligi yotadigan bolalar guruhi ajratiladi. Tovushlarning talaffuzi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda artikulyatsiya o‘rniga ko‘ra yaqin bo‘lgan tovushlar talaffuzi buziladi. Tovushlar talaffuzining xarakterili xususiyatlaridan biri affrikatlarni buzib talaffuz qilish va almashtirish hisoblanadi. Ushbu tovushlarni talaffuz qilayotganda bolalar tovushlarni qismlarga bo‘lib yuboradilar.

Tovushlarni buzib talaffuz qilish va almashtirish har doim ham namoyon bo‘lmaydi. Masalan, berilgan tovushlarni talaffuz qilish uchun til va lab harakatlarini mustaqil bajarishga qiynalsa, bola bu tovushlarni ko‘ruv analizatoridan foydalanish asosida to‘g‘ri hosil qilishi mumkin. Yana shunisi ham aniqlanganki, tovushlar alohida ma’nosiz bo‘g‘inlarga nisbatan, so‘zlarda to‘g‘riroq talaffuz qilinishi mumkin. Ushbu guruhdagi



bolalarda har doim ham tovushlarni talaffuz qilishda ovoz ishtirok etmaydi.

Serebral falaji bolalarning spastik shaklida artikulyatsion apparat muskullarining nozik harakatlarida, ayniqsa tilning harakatlarida kamchiliklar aniqlangan. Shuning uchun ularda til oldi tovushlarining qo'pol buzilganligi kuzatiladi. Deyarli ushbu guruh bolalarning talaffuzida 1,r tovshular yo'q.

Serebral falajning giperkinetik shaklidagi bolalar tekshirilganda, ularning barchasida dizartriya ko'rinishdagi nutq buzilishi aniqlangan. Nutqning talaffuz tomonining buzilishlarida ularda asosan artikulyatsion apparat muskullarida giperkinezlar borligi aniqlangan.

Nutqiy motorikada giperkinezlar har doim ham umumiy motorikadagidek intesiv sodir bo'lmasada, giperkinezlarning xarakteri bir xil. Nutq apparatida giperkinezlarning namoyon bo'lishi darajasi faqatgina emotsional yuklamaga emas, balki nutqiy muloqatning davomiyligiga bog'liq. Nutqiy muskullarda giperkinezlarning quyidagi turlari farqlanadi. Xoreiformli, atetoidli xoreatetodli. Atetodli giperkinezlarda nutqiy jarayon kuchli buzilgan bo'ladi, bolalar nutqini maxsuseshitish, qaytaso'rashlarsiz tushunib bo'lmaydi. Xoreiformli giperkinezda bolalar nutq apparati muskullarining harakatchanligi aniqlanadigan barcha topshiriqlarni bajarar olganlar. Giperkinezlarning intensivligi harakatlarni bajarish imkoniyatiga unchalik ta'sir qilmagan. Tabiiyki, bajarish sifati buzilgan, lekin harakatlar amplitudasi va hajmi to'liqligicha saqlangan. Sof xoreiformli giperkinezda bolalar barcha artikulyatsion holatlarni va tovushlarning differensial artikulyatsion belgilarini hosil qila olganlar, shuning uchun biz ularda harflarni almashtirish va tushirib qoldirish hollarini kuzatmadik. Atetoidli giperkinezlar doimo boshni bukish, patki jag', til, lab harakatlarida yuzaga kelgan. Yuqori mimik muskullarda qosh osti va ko'zning aylana muskullarining majburiy harakatlari kuzatilgan qoshlar ko'tarilib ozgina surilgan, xuddi og'riq sezayotgandek ajablanish kuzatilgan. Ixtiyoriy nutqiy o'rinishlarda giperkinezlar kuchaydi, bu ikkilamchi sifatida nutqiy muloqat apparati muskullari harakatining xarakteri quyidagi xususiyatlarga ega.

1. Harakatlarning tezligi giperkinez xarakteriga bog'liq, atetoidli giperkinezda nutqqa kirishning yashirin davri ma'lum darajada ko'payadi, xoriekda esa u norma darajasida bo'ladi.

2. Atetoidli giperkinezda bir qator harakatlarni qilish imkoni bo'lmaydi, lekin o'quvchi har doim harakatlarni uzoq vaqt davomida bo'lsada, yaxshiroq qilishga harakat qiladi. Til uchuni yuqori labga ko'tarish harakatlari bo'lmaydi. Xoreiformli giperkinezda harakatlar bir muncha qiyin, lekin uddalasa bo'ladi.

3. Artikulyatsion harakatlarni bajarishda giperkinezlarning ko'payish kuzatiladi.

4. Xoreiformli giperkinezda harakatlar amplitudasi doimiy emas, atetoidli giperkinezda amplituda to'liq emas.

5. Harakatlarning fiksatsiyasi juda chegaralangan, serebral falajning giperkinetik shaklida tovshular talaffuzi buzilishlari yuzaga kelishining asosiy sababi nutqiy muskullar tonusidagi buzilishlar hisoblanadi.

Ekstrapiramidali dizartriyada mushaklar tonusning o'zgaruvchan xarakteri, uning tashqi ta'sirlarga, ixtiyoriy harakatlarga, o'quvchining emotsional holatiga, tana va bosh holatiga bog'liqligi ushbu bolalarda tovshular talaffuzining buzilishi xususiyatlarini belgiladi. Nutqiy mushaklarning tinch holatida distoniya bilan birgalikda artikulyatsion holatlarni ushlab turishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi, gapirishga urinishda esa artikulyatsion mushaklarda tonusning ko'tarilishi kuzatiladi.

Tonik mushak buzilishlari nafas mushaklariga, hiqildoq mushaklariga tarqalishi mumkin, bu esa ushbu bolalarda ovoz va nafas buzilishlarining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Shuning uchun ovozning ixtiyoriy hosil bo'lishi har doim qiyinchilik bilan kechadi.

Tovushlar talaffuzining keyingi xususiyati emotsional – harakat innervatsiyasining

buzilishi hisoblanadi, bu nutqning prosodik tomonidagi buzilishlarda namoyon bo‘ladi. Bunda faqat artikulyatsiya emas, nutq tempi, ritmi, tez yoki sekin gaprish imkoniyati, ohangdorligi buziladi. Nutqning emotsional ohangi yo‘qoladi, nutq monoton, manqalangan, bir xil bo‘lib qoladi. Iborali nutq davomida uning doimiy to‘xtab qolishi yuz beradi.

Ushbu bolalarda ovoz uzuq – yuluq bo‘ladi, xoriek giprekinezda titraydi, atetoidli giperkinezda qisilgan va bo‘g‘iq bo‘ladi. Nutqning tempi xoriek giprkinezda biroz saqlangan, atetoidli giperkinezda esa juda ham sekinlashgan bo‘ladi. Atetoidli giperkinezda nutq ohangdorligining yo‘qligi natijasida ovozning tuslanishi ro‘y bermaydi.

Serebral falajning giprekinetik shaklidagi o‘quvchilarda nutqning tovshu talaffuzi tomonidan buzilishlarning asosiy xususiyatlaridan biri qo‘yilgan tovshuni nutqqa kiritish va mustahkamlashdagi qiyinchilik hisoblanadi. Bu bir artikulyatsion holatdan ikkinchi artikulyatsion holatga o‘tish, bir tovushdan ikkinchi tovushga o‘tish hamda bir so‘zdan ikkinchi so‘zga o‘tishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq. Serebral falajlangan o‘quvchilar nutqidagi aniqlangan o‘ziga xos xususiyatlar nutqiy rivojlanishdagi kamchiliklarni korreksiyalash bo‘yicha chora– tadbirlarning kompleks tizimini amalga oshirish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘uxati

- Анохин П.К. Очерки по физиологии функциональных систем. М., 1985  
 Аюпова М.Ю. “Коррекцион ишлар методикаси” маъруза матни. Т.: 2001.  
 Аюпова М.Ю. Логопедия. - Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2007.  
 Бадалян Л.О. Детская невропатология. М., 1985  
 Беккер К.П., Совак М. Логопедия. Москва. Просвещение 1981  
 Белова-давид Нарушение речи у дошкольников. М. Владос 2001  
 Винарская Е.Н., Пулатова А.М. Дизартрия и ее топико-диагностическое значение в клинике очаговых поражений мозга. Ташкент, 1983  
 Ипполитова М.В., Бабенкова Р.Д., Мастюкова Е.М. Воспитание детей с серебралными параличом в семе (пособие для родителей и воспитателей). М., 1980

## INTERNET MULOQOTDA GENDER TENGLIGIGA ERISHISH

*Raxmonova Barnoxon Odilovna,  
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasini  
mudiri*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning yangi sohalardan biri bo'lgan genderlingvistikaning ahamiyatli jihatlaridan biri internet tarmog'ida gender xususiyatlar erkak va ayolning internet muloqoti bo'yicha tahlil, ular o'rtasidagi leksik jihatlar gendertengligiga erishish haqida fikr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: Internet, ijtimoiy tarmoq, raqamli bo'shliq, ommaviy nutq, axborot, foydalanuvchi, gendergenderlingvistika, leksik jihatlar.*

## ДОСТИЖЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ИНТЕРНЕТ-КОММУНИКАЦИЯХ

*Рахмонова Барнохан Одилевна,  
Старший преподаватель кафедры методики преподавания языков  
АВПИМОММ*

*Аннотация: В данной статье одним из важных аспектов гендерной лингвистики, которая является одной из новых областей современной лингвистики, является анализ гендерных особенностей мужского и женского интернет-общения в сети Интернет, а также рассматриваются лексические аспекты между ними. добиться гендерного равенства.*

*Ключевые слова: Интернет, социальная сеть, цифровое пространство, публичная речь, информация, пользователь, гendergenderлингвистика, лексические аспекты.*

## ACHIEVING GENDER EQUALITY IN INTERNET COMMUNICATION

*Rakhmonova Barnokhan Odilovna,  
Senior teacher of the Department of Language Teaching Methodology at  
AVPYMOMM*

*Abstract: In this article, one of the important aspects of gender linguistics, which is one of the new fields of modern linguistics, is the analysis of gender characteristics of male and female Internet communication on the Internet, and the lexical aspects between them are considered to achieve gender equality.*

*Key words: Internet, social network, digital space, public speech, information, user, gendergenderlinguistics, lexical aspects.*

KIRISH Muloqot kishilik jamiyati mavjudligining zaruriy shartlaridan biridir. Muloqot insonlar o'rtasidagi his tug'ularni, fikrlarni, g'oyalarni, istak-xohishlarni bayon qilish uchun qo'llanuvchi eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Muloqot jarayoni tilshunoslik, psixologiya, tarix, mantiq, pedagogika va boshqa ayrim fanlarning ajralmas qismi sifatida dunyo ilm-fanida o'rganilib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR Internet-muloqotda gender tengligi tilshunoslik va kommunikatsiya tadqiqotlari sohasidagi taniqli tadqiqotchi Syuzan Herringning "Kompyuter vositachiligidagi aloqadagi gender farqlariga sharh" nomli maqolasida gender raqamli muhitda muloqotga qanday ta'sir qilishini, shu jumladan muloqot uslublaridagi farqlar va onlayn gender tengligiga ta'sirini o'rganadi. Yana bir

muhim ish - bir nechta mualliflar, jumladan Judit Donat va boshqalarning onlayn o‘zaro munosabatlardagi gender farqlari va raqamli makonlarda gender tengligi uchun kengroq ta’sirlarni o‘rganadigan “Genderlangan Internet: Gender va Internetni o‘rganish”. Ushbu maqolalar onlayn muloqotda genderning murakkab dinamikasini tushunishga asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi[1;4].

**MUHOKAMA VA NATIJALAR** Muloqot deb ataluvchi murakkab ijtimoiy jarayonda erkak va ayollar nutqi ham o‘z o‘rniga ega. Fikrimizning tasdig‘iq sifatida keyingi yillarda tilshunoslik ilmida katta qiziqish bilan o‘rganilayotgan soha gendertilshunoslikni misol sifatida keltirishimiz kifoya. Gendertilshunoslik asosan g‘arb tilshunosligida ko‘p tadqiq qilinayotgan soha hisoblanadi. Keyingi yillarda mamlakatimiz tilshunos va sotsialog olimlari tomonidan ham ushbu sohani o‘rganish jadallik bilan o‘sayotganining guvohi bo‘lyapmiz. Oldinlari olimlar tomonidan gendertilshunoslik sohasiga uncha katta e’tibor qaratilmagan. Lekin vaqt o‘tishi bilan ushbu soha olimlar fikrini o‘ziga tortdi va turli paradigmalarda o‘rganila boshladi. Gendertilshunoslik dastlab XX asr so‘nggi yillarida g‘arb tilshunoslik ilmida va keyinchalik sharqda o‘rganila boshlandi. “Gender” tushunchasi ingliz tiliga lotin tilidagi genus so‘zidan o‘tgan bo‘lib, “jins” degan ma’noni anglatadi [2]. Jins va gender tushunchalarini farqlash borasidagi birinchi urinish 1968-yili Kaliforniya universiteti professori Robert Stoller tomonidan amalga oshirildi. Gender lingvistikada ayollar va erkaklarning bir-biridan kommunikativ jihatdan qanday farq qilinishi chuqur o‘rganiladi. Umuman olganda, ikki xil jins vakillarining nutqida juda katta farq bo‘ladi.

Raqamli bo‘shliqlar ommaviy nutq, professional imkoniyatlar va ijtimoiy o‘zaro ta’sirga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatayotganligi sababli, Internet aloqasida gender tengligi juda muhim masala. Internetning muloqotni demokratlashtirish potentsialiga qaramay, gender nomutanosibliklari turli shakllarda saqlanib qolmoqda, bu erkaklar va ayollarning onlayn aloqalariga ta’sir qiladi. Ushbu tengsizliklarni bartaraf etish vakillik, ta’qib qilish, kirish va tizimli tarafkashlik muammolarini hal qilishni o‘z ichiga oladi[3].

1. Vakillik va ko‘rinish. Onlayn platformalarda vakillik gender tengligiga erishish uchun juda muhimdir. Tarixiy jihatdan, ayollar ko‘plab raqamli makonlarda, jumladan, texnologik sohalarda va onlayn forumlarda kam namoyon bo‘lgan. Bunday vakillikning yetishmasligi gender stereotiplarini davom ettirishi va ta’sirchan munozaralarda ayollarning ko‘rinishini cheklashi mumkin. Texnik rollarda gender xilma-xilligini targ‘ib qilish va ayollar ovozi raqamli ommaviy axborot vositalarida teng darajada ifodalanishini ta’minlash bu nomutanosiblikni muvozanatlashda yordam beradi.

2. Onlayn ta’qib va xavfsizlik. Ayollar nomutanosib ravishda onlayn ta’qib va zo‘ravonlikdan ta’sirlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayol foydalanuvchilar maqsadli ta’qiblar, jumladan tahdidlar va kiber ta’qiblarga duch kelishadi, bu ularning onlayn munozaralardagi ishtirokiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu muammoni hal qilish ta’qiblarga qarshi siyosatni kuchaytirishni, hisobot berish mexanizmlarini yaxshilashni va xavfsizroq onlayn muhitni rivojlantirishni talab qiladi. Onlayn zo‘ravonlik qurbonlarini qo‘llab-quvvatlash tizimlari va resurslari yanada adolatli raqamli makonni rivojlantirish uchun ham muhimdir.

3. Kirish va raqamli savodxonlik. Texnologiyalardan foydalanish va raqamli savodxonlik ko‘nikmalaridagi gender nomutanosibligi internet muloqotidagi tengsizlikka hissa qo‘shishi mumkin. Ba’zi hududlarda ayollar erkaklarnikiga nisbatan texnologiya va internetdan kamroq foydalanishlari mumkin, bu ularning onlayn aloqa qilish qobiliyatiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, ayollar ta’lim va ijtimoiy omillar tufayli ilg‘or raqamli ko‘nikmalarga ega bo‘lishda to‘siqlarga duch kelishlari mumkin. Ayollarning raqamli savodxonligini oshirish va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash

tashabbuslari ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi[4].

4. Algoritmilar va platformalardagi tarafkashlik. Algoritmik tarafkashlik onlayn gender tengligiga ta'sir qiluvchi yana bir muhim muammodir. Ko'pgina ijtimoiy media platformalari va qidiruv tizimlari tasodifan erkaklar tomonidan yaratilgan tarkibni yoqtirishi yoki mavjud gender tarafkashliklarini kuchaytirishi mumkin bo'lgan algoritmilaridan foydalanadi. Masalan, algoritmilar erkaklar ustunlik qiladigan mavzularga ustunlik berishi yoki gender stereotiplarini davom ettirishi mumkin. Ushbu noqulaylikni bartaraf etish adolatli vakillikni ta'minlash uchun algoritmilarni qayta ishlab chiqishni va kontentni moderatsiya qilishda genderga asoslangan noto'g'rilikni kamaytirish uchun faol ishlashni o'z ichiga oladi.

5. Siyosat va advokatlik. Samarali siyosat va advokatlik internet aloqalarida gender tengligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hukumatlar, tashkilotlar va texnologiya kompaniyalari genderga asoslangan kamsitish va ta'qibga qarshi kurash siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun hamkorlik qilishi kerak. Targ'ibot harakatlari, shuningdek, gender muammolari haqida onlayn xabardorlikni oshirishi va adolatli amaliyotlarni qo'llab-quvvatlovchi islohotlarga undashi mumkin[5].

6. Imkoniyatlarni oshirish va ishtirok etish. Raqamli makonlarni shakllantirishda ayollarga faol ishtirok etish huquqini berish tenglikka erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Ayollarni texnologiya kompaniyalarida, onlayn hamjamiyatlarda va kontent yaratishda yetakchi rollarda ishtirok etishga undash yanada inklyuziv amaliyot va istiqbollarni rivojlantirishga yordam beradi. Ayollarning texnologiya va raqamli ommaviy axborot vositalariga jalb etilishiga yordam beruvchi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash muvozanatli va adolatli onlayn muhitni yaratish uchun juda muhimdir.

Xulosa. Internet-muloqotda gender tengligi ko'p qirrali muammo bo'lib, vakillik, ta'qib, kirish, tarafkashlik va siyosatni hal qilish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladi. Inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi raqamli muhitni qo'llab-quvvatlab, biz erkaklar ham, ayollar ham internetda qatnashish, hissa qo'shish va rivojlanish uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashga yordam bera olamiz. Internet rivojlanishda davom etar ekan, gender tengligiga doimiy sodiqlik adolatli va adolatli raqamli dunyoni yaratish uchun muhim bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Danet, Brenda. 1998. «Text as mask: Gender and identity on the Internet.» In S. Jones (ed.), *Cybersociety 2.0*, 129-158. Thousand Oaks, CA: Sage.

Grossman, Wendy M. 1997. *Net wars* New York: NYU Press. <http://www.nyupress.nyu.edu/netwars.html>

Hafner, Katie & Matthew Lyon. 1996. *Where Wizards Stay Up Late: The Origins of the Internet*. New York: Simon & Schuster.

Herring, Susan C. 1993. «Gender and democracy in computer-mediated communication.» *Electronic Journal of Communication* 3 (2). <http://www.cios.org/www/ejc/v3n293.htm>. Reprinted (1996) in R. Kling (ed.), *Computerization and Controversy*, 2nd edition, 476-489. New York: Academic Press.

Herring, Susan C. 1994. «Politeness in computer culture: Why women thank and men flame.» In M. Bucholtz, A. Liang and L. Sutton (eds.), *Cultural Performances: Proceedings of the Third Berkeley Women and Language Conference*, 278-94. Berkeley: Berkeley Women and Language

## ISLOM DINI VA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA OILAVIY BAXT TUSHUNCHASINING TALQINI

Rasuleva Naima Ziyautdinovna,  
PhD, Profi University, O'zbekiston

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Islom dini va Sharq mutafakkirlarining asarlarida oilaviy baxt tushunchasining talqini yoritilgan. Qur'on va hadislar asosida oilaviy baxt tushunchasi, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning oilaviy munosabatlar haqidagi tavsiyalari, hamda Sharq mutafakkirlarining oilaviy baxtga oid qarashlari tahlil qilingan. Maqolada oilaviy baxtga erishish yo'llari, er-xotin munosabatlarining ahamiyati va zamonaviy oilaviy qadriyatlarining ahamiyati haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: oilaviy baxt, Islom dini, Sharq mutafakkirlari, Qur'on, hadis, oila, er-xotin munosabatlari.*

## FAMILY VIOLENCE AND HOW TO FIGHT IT?

Rasuleva Naima Ziyautdinovna,  
PhD, Profi University, Uzbekistan

*Abstract. This article explores the concept of family happiness as depicted in Islamic teachings and the works of Eastern philosophers. The analysis focuses on the concept of family happiness in the Qur'an and Hadiths, along with the Prophet Muhammad's (PBUH) advice on family relations. The paper also examines the philosophical perspectives of Eastern thinkers on family happiness and the role of the family.*

*Keywords: family happiness, Islam, Eastern philosophers, Qur'an, Hadith, family, marital relations*

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИИ СЕМЕЙНОГО СЧАСТЬЯ В ТРУДАХ ИСЛАМСКОЙ РЕЛИГИИ И ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Расулева Наима Зияутдиновна,  
PhD, Profi University, Узбекистан

*Аннотация. В данной статье рассматривается трактовка понятия семейного счастья в трудах восточных мыслителей и в исламе. Основное внимание уделяется анализу понятий семейного счастья в Коране и хадисах, а также взглядам Пророка Мухаммада (с.а.в.) на семейные отношения. Исследуются также философские воззрения восточных мыслителей на семейное счастье и роль семьи.*

*Ключевые слова: семейное счастье, ислам, восточные мыслители, Коран, хадисы, семья, отношения супругов.*

Oilaviy baxt inson hayotining muhim qadriyatlaridan biri bo'lib, har bir insonning shaxsiy farovonligi va jamiyatdagi barqarorlik uchun katta ahamiyatga ega. Oilaviy baxt nafaqat er-xotin munosabatlarining muvaffaqiyatli bo'lishida, balki farzandlar tarbiyasi, ijtimoiy munosabatlar va insonlarning umumiy hayot sifatida ham o'z aksini topadi. Oilaviy baxtga erishish yo'llari va uning saqlanishi har bir jamiyatda turlicha talqin qilinadi, ammo bu tushuncha insoniyatning umumiy baxt va farovonlik istaklarini ifoda etadi.

Islom dini va Sharq mutafakkirlarining asarlarida oilaviy baxt tushunchasi alohida o'rin tutadi. Islomda oilaviy baxt Allohning buyruqlariga rioya qilish, oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan hurmati, mehr-oqibat va mas'uliyatli munosabatlarda namoyon bo'ladi. Qur'on va Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi va

oilaviy mas'uliyatlar haqida ko'plab ko'rsatmalar berilgan. Oilaviy baxt, Islomga ko'ra, er va xotin o'rtasidagi teng huquq va vazifalar, halol muloqot va o'zaro yordam orqali saqlanadi.

Sharq mutafakkirlari, jumladan Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy kabi olimlar ham oilaviy baxtning ahamiyatini alohida ta'kidlab, oila qadriyatlarini va oiladagi tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi rolini chuqur o'rganganlar. Ular oilani jamiyatning poydevori sifatida ko'rib, oilaviy baxtni insonning ruhiy va ma'naviy yuksalishining negizi deb hisoblaydilar. Sharq falsafasida oilaviy baxt nafaqat moddiy farovonlik, balki ruhiy uyg'unlik va ma'naviy qadriyatlarning rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Bu mutafakkirlar oilaviy baxtga erishishda mehr-oqibat, halollik, sabr-toqat va muvozanatli hayot kechirishni tavsiya etadilar.

Qur'on va Hadislarda oilaviy baxt tushunchasi. Islom dini oilaviy baxtga katta ahamiyat beradi va uni er va xotinning o'zaro hurmati, mas'uliyati va Allohga itoat qilish orqali saqlanishi kerakligini ta'kidlaydi. Qur'onda oilani himoya qilish, mehr-oqibatli munosabatlarni saqlash va farzand tarbiyasiga e'tibor berish alohida ko'rsatib o'tilgan. Qur'ondagi oyatlar oilani muqaddas va mustahkam bog' deb tasvirlaydi va er-xotin munosabatlarini mehr-oqibat va hamjihatlik asosida saqlashni buyuradi. Masalan, Qur'onda shunday deyilgan: "Erlaringiz sizlar uchun kiyimdirlar, sizlar ham ular uchun kiyimsiz" (Baqara, 187). Bu oyat er-xotin bir-birining himoyachisi, qo'llab-quvvatlovchisi ekanligini ifodalaydi.

Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning oila va oilaviy baxt haqidagi tavsiyalari. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning oila va oilaviy munosabatlar haqidagi hadislarida ham oilaviy baxtga alohida e'tibor qaratilgan. Rasululloh (s.a.v.) oilaviy munosabatlarda er-xotin bir-biriga yengillik, rahmat va muhabbat ko'rsatishi kerakligini ta'kidlagan. Bir hadisda shunday deyilgan: "Sizlarning yaxshingiz – o'z ahli (oilasiga) yaxshilik qiladiganlaringizdir. Men esa oilamga yaxshilik qiladiganlardanman" (Ibn Moja, Nikoh, 50). Ushbu hadisdan ko'rinib turibdiki, oilaviy munosabatlarda yaxshilik qilish, mehr ko'rsatish va bir-biriga yordam berish eng muhim fazilatlar hisoblanadi.

Oiladagi er va xotinning huquqlari va mas'uliyatlari. Islomda er va xotin o'rtasidagi munosabatlar tenglik, hurmat va mas'uliyat asosida qurilishi kerak. Qur'on va hadislar er va xotinning huquqlari va mas'uliyatlarini aniq belgilab bergan. Erning vazifasi o'z oilasini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularni himoya qilish va ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir. Xotin esa eriga itoat qilish, oilaviy tartib va farzand tarbiyasiga e'tibor qaratishi lozim. Qur'onda er va xotinning bir-biriga nisbatan burchlari alohida ko'rsatilib, har ikki tomon ham bir-biriga mehr-oqibat va hurmatda bo'lishi kerakligi ta'kidlangan.

Islom oilaviy munosabatlarni muqaddas deb biladi va bu munosabatlarning tinch, mustahkam va barqaror bo'lishi uchun har ikki tomonning mas'uliyatli bo'lishini talab qiladi. Er-xotin bir-biriga g'amxo'rlik ko'rsatishi, o'zaro mas'uliyatlarini anglab yetishi, bolalarini tarbiya qilishda birgalikda harakat qilishi orqali oilaviy baxtga erishadi. Bu jihatlar Islomda oilani jamiyatning eng muhim qismi sifatida ko'rilishiga sabab bo'ladi.

Sharq mutafakkirlari, jumladan, Al-Farobiy, Ibn Sino, Al-G'azzoliy kabi ulug' olimlar asarlarida oilaviy baxt muhim mavzulardan biri bo'lgan. Bu mutafakkirlar oilani nafaqat shaxsiy farovonlik, balki jamiyatning barqarorligi va rivoji uchun asosiy omil deb bilganlar. Ularning asarlarida oila tuzilishi, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, farzand tarbiyasi va oilaviy qadriyatlar alohida o'rin tutadi.

Al-Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida oilani jamiyatning kichik modeli sifatida ko'rib, oilaviy baxtga erishish uchun bilim, ma'rifat va mehr-oqibat muhimligini ta'kidlagan. U oilani jamiyatning asosiy hujayrasi sifatida tasvirlab, oila a'zolarining har biri o'z vazifalarini to'g'ri bajarishi lozimligini uqtiradi. Al-Farobiyning qarashlariga ko'ra, oilaviy munosabatlarda hurmat, hamjihatlik va oqilona boshqaruv muhim o'rin tutadi.

Ibn Sino esa oila haqida "Tib qonunlari" asarida to'xtalib, oilaviy sog'lom muhitning jismoniy va ruhiy salomatlikka ta'siri haqida so'z yuritgan. Ibn Sinoga ko'ra, oilaviy baxt nafaqat moddiy farovonlik, balki ruhiy uyg'unlik, tarbiya va axloqiy qadriyatlar bilan ham

bog'liqdir. Uning qarashlariga ko'ra, oila a'zolarining bir-biriga g'amxo'rlik qilishi, o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash oilaviy baxtning asosiy omillaridan biridir.

Al-G'azzoliy o'zining "Ihya Ulum ad-Din" asarida oilani saqlash va unga hurmat bilan munosabatda bo'lishning ahamiyatiga e'tibor qaratgan. U oilaviy munosabatlarni diniy va axloqiy qadriyatlar bilan mustahkamlashni tavsiya etadi. Al-G'azzoliyning fikriga ko'ra, oila Allohning in'omi bo'lib, bu munosabatlar mehr-oqibat, sabr-toqat va o'zaro mas'uliyat orqali mustahkamlanadi. Uning qarashlari oila a'zolarining har biri o'z vazifasini bajarish orqali jamiyatga xizmat qilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Sharq falsafasida oilaning roli va ahamiyati. Sharq falsafasida oila jamiyatning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Mutafakkirlar oilani jamiyatning poydevori, insoniy qadriyatlar va tarbiyaning asosi sifatida ko'radilar. Sharq falsafasi oila orqali insonning ruhiy va ma'naviy yuksalishini ta'minlashga qaratilgan. Oilaning roli nafaqat farzand tarbiyasi bilan cheklanib qolmay, balki insonning ma'naviy kamolotiga ham hissa qo'shadi. Sharq mutafakkirlari oilaviy baxtga erishishning asosiy omili sifatida er-xotin o'rtasidagi hamjihatlik, hurmat, mehr-oqibat va tarbiyani ko'rsatganlar.

Sharq falsafasida oila axloqiy qadriyatlarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Oila nafaqat shaxsiy baxt va farovonlik, balki jamiyatning umumiy barqarorligi uchun ham zarurdir. Sharq mutafakkirlari oila va jamiyatni bir-biriga chambarchas bog'liq tushunchalar deb bilib, oilaviy qadriyatlarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini alohida ta'kidlaydilar. Shu sababli, Sharq falsafasida oila qadriyatlari har doim diqqat markazida bo'lib kelgan va ular jamiyatning ma'naviy va axloqiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan.

Islomda va Sharq falsafasida oilaviy baxtga erishish uchun tavsiyalar. Islom dini va Sharq falsafasi oilaviy baxtni saqlash uchun o'ziga xos tavsiyalar beradi. Qur'on va hadislar oilani muqaddas birlik sifatida qadrlaydi va baxtli oila qurish uchun bir qator ko'rsatmalarni taqdim etadi. Islomda oilaviy baxtga erishish uchun asosiy omillar orasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat, sabr-toqat, va muloqot muhim hisoblanadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) oilaviy munosabatlarda muvozanat, adolat va o'zaro hurmatni saqlashni tavsiya etganlar. Hadislar orqali Rasululloh (s.a.v.) er-xotin bir-birini qo'llab-quvvatlashi, yomon kayfiyatni kechirish, va bir-birining kamchiliklariga ko'z yumish kerakligini uqtirganlar.

Sharq falsafasida esa oilaviy baxt nafaqat shaxsiy farovonlik, balki jamiyatning barqarorligi va ruhiy muvozanatni saqlash uchun ham muhimdir. Sharq mutafakkirlari oilani jamiyatning asosiy hujayrasi deb bilib, oilaviy baxtga erishish uchun muvozanatli hayot, o'zaro tushuncha, va bir-biriga bo'lgan ishonchni saqlash zarurligini ta'kidlaydilar. Sharq falsafasi oilaviy qadriyatlarni saqlashda mehr-oqibat va sabr-toqatning ahamiyatini qayd etadi.

Oilaviy muammolarni hal qilish usullari va psixologik yondashuvlar. Oilaviy munosabatlarda muammolar yuzaga kelishi tabiiydir va ularni hal qilish yo'llari oilaviy baxtning saqlanishida katta rol o'ynaydi. Islomda va Sharq falsafasida oilaviy muammolarni hal qilishda sabr-toqatli bo'lish, bir-birini tushunishga intilish va maslahatlarga amal qilish tavsiya etiladi. Qur'on oilaviy nizolarni hal qilishda o'zaro maslahatlarga tayanish va kelishuvga erishishni buyuradi. Sharq falsafasida esa muammolarni hal qilishda sabr, muloqot va kompromiss yo'llari qo'llaniladi.

Psixologik yondashuvlarga ko'ra, oilaviy muammolarni hal qilishda o'zaro muloqot, empatiya, va hissiy qoniqishni ta'minlash zarurdir. Oilaviy munosabatlarda muloqot yetishmasligi, tushunmovchilik va his-tuyg'ularni boshqara olmaslik muammolarni chuqurlashtirishi mumkin. Shu sababli, oilaviy muammolarni hal qilishda ochiq muloqot, his-tuyg'ularni ifodalash va muammolarga birgalikda yechim topish muhimdir.

Bundan tashqari, psixologik maslahatlar, terapiya va oilaviy maslahatlashuvlar ham oilaviy baxtga erishishda muhim rol o'ynaydi. Oilaviy muammolarni professional yordam orqali hal qilish, muammolarni ijobiy hal etish yo'llarini topishda yordam beradi. Shu sababli, oilada



tinchlik, tushuncha va baxtni saqlash uchun muammolarni o'z vaqtida hal qilish va zarur bo'lganda psixologik yordamga murojaat qilish tavsiya etiladi.

Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash uchun bir-biriga ko'proq vaqt ajratish, birgalikda sifatli vaqt o'tkazish, va o'zaro minnatdorlikni ifodalash ham muhim omillardandir. Bu usullar oiladagi o'zaro ishonch va sevgini mustahkamlashga, shuningdek, oilaviy baxtni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yuqorida bayon etilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Islom dini va Sharq mutafakkirlari asarlarida oilaviy baxt tushunchasi o'ta ahamiyatli mavzu sifatida qaraladi. Qur'on va hadislar oilaviy munosabatlarning muqaddasligini ta'kidlab, er va xotin o'rtasidagi hurmat, mehr-oqibat, va o'zaro mas'uliyatni saqlashni tavsiya etadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning oilaviy baxtga oid tavsiyalari er-xotin o'rtasidagi hamjihatlik, muvozanat, va bir-biriga bo'lgan hurmatni mustahkamlashga qaratilgan. Bu ko'rsatmalar oilaviy munosabatlarda tinchlik va baxt-saodatni ta'minlash uchun muhim asosdir.

Sharq mutafakkirlari esa oilani jamiyatning poydevori sifatida ko'rib, oilaviy baxtni insonning ruhiy va ma'naviy yuksalishining negizi deb hisoblaganlar. Ularning asarlarida oilaning qadriyatlar tizimi, oila a'zolarining o'zaro hurmati va muvozanatli munosabatlar oilaviy baxtning poydevori sifatida tasvirlanadi. Bu mutafakkirlar oilaviy baxtga erishishda mehr-oqibat, sabr-toqat va axloqiy qadriyatlarining ahamiyatini alohida ta'kidlashadi.

Islom dini va Sharq falsafasi nafaqat oilaviy baxtni ta'minlash yo'llarini ko'rsatib beradi, balki uni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan qadriyatlarni ham ochib beradi. O'zaro muloqot, sabr-toqat, empatiya, va o'zaro hurmat oiladagi baxt-saodatning muhim tarkibiy qismlaridir. Sharq falsafasi va Islomning qadimiy ta'limotlari zamonaviy oila hayotida ham dolzarb bo'lib, oilaviy qadriyatlarni saqlashda muhim yo'riqnoma hisoblanadi.

Shunday qilib, Islom va Sharq mutafakkirlarining qarashlari oilaviy baxtga erishish uchun ruhiy, ma'naviy va axloqiy jihatlarga e'tibor berishni talab qiladi. Ularning tavsiyalari oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, farovon va baxtli oila qurish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy hayotda ham bu qadriyatlar oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va baxtli hayotni ta'minlash uchun zarur omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Qur'on, Islomning muqaddas kitobi.

Davronbek, K. (2021). theory of knowledge in the tretise of al-gazali "al-kistasu-lmustakim"(right scales). *The Light of Islam*, 2021(3), 15-22.

Ismailovana, X. N. (2023). Ibn Sino Hayotiga BIR Nazar. amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali, 2(12), 537-543.

Ganiyev, E. (2024). markaziy osiyo mutafakkirlari asarlarida inson huquqlari. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 3(4), 36-42.

Сулаймонов, Ж. (2021). абдурахмон ибн халдуннинг тамаддун тараққиёти ҳақидаги қарашларида жамият таҳлили. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 451-455.

Шарипов, М. Л. (2020). марказий осие мутафаккирларининг илмий мероси, уларнинг илм-фан ҳамда жаҳон цивилизацияси тараққиётидаги роли ва аҳамияти. *Science and Education*, 1(Special Issue 1), 157-172.

О'rolov, S. (2023). imom al-buxoriy hazratlari madaniy merosi. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 3, No. 1, pp. 189-193)*.

## **SIRTQI TA'LIM SHAKLIDA ELEKTRON TA'LIM TIZIMINI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

*Sadullayev Ibrat Shuxratovich,  
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,  
Buxoro davlat Pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrasida o'qituvchisi  
<https://orcid.org/0000-0001-5425-8566>*

*Annotatsiya: Tadqiqot davrida oliy ta'lim muassasalari sirtqi ta'lim shaklida elektron ta'lim tizimini joriy etish jarayonining nazariy asoslariga tayangan holda tajriba – sinov ishlarining tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu maqolada "Oliy ta'lim muassasalari sirtqi ta'lim shaklida elektron ta'lim tizimini joriy qilish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishi doirasida Buxoro davlat Pedagogika institutida o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili keltirilgan. Tajriba-sinov ishlari jarayonida olingan natijalarga asoslanib tadqiqot samaradorligini aniqlashda K.Pirsonning  $\chi^2$  (xi kvadrat) mezonidan foydalanildi.*

*Kalit so'zlar: Sirtqi ta'lim, elektron ta'lim, tajriba-sinov,  $\chi^2$  (xi kvadrat), ta'limda axborot texnologiyalari, loyihaga asoslangan ta'lim.*

## **МЕТОД ОРГАНИЗАЦИИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМЕ ЗАОЧНОЙ ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ**

*Садуллаев Ибрат Шухратович,  
Докторант Бухарского государственного университета,  
Преподаватель кафедры Точных наук Бухарский государственный педагогический институт*

*Аннотация: В период исследования особое внимание уделялось организации экспериментально-испытательных работ по теоретическим основам процесса внедрения электронной системы образования в форме заочной формы обучения в высших учебных заведениях. В данной статье представлен анализ результатов педагогических экспериментов, проведенных в Бухарском государственном педагогическом институте в рамках диссертационной работы на тему «Совершенствование методики внедрения электронной системы образования в форме заочного обучения в высших учебных заведениях». Для определения эффективности исследования на основе результатов, полученных в ходе экспериментальной работы, использовался критерий  $\chi^2$  (хи квадрат)*

*К. Пирсона.*

*Ключевые слова: Заочное образование, электронное обучение, эксперимент-апробация,  $\chi^2$  (квадрат хи), информационные технологии в образовании, проектное образование.*

## METHOD OF ORGANIZING EXPERIMENTAL WORK TO INCREASE THE EFFICIENCY OF IMPLEMENTING AN ELECTRONIC EDUCATION SYSTEM IN THE FORM OF CORRESPONDENCE LEARNING

*Sadullaev Ibrat Shukhratovich,*

*Doctoral student of Bukhara State University,*

*Teacher of the department of Exact Sciences Bukhara State Pedagogical Institute*

*Abstract: During the research period, special attention was paid to the organization of experimental and test work on the theoretical foundations of the process of implementing an electronic education system in the form of correspondence courses in higher education institutions. This article presents an analysis of the results of pedagogical experiments conducted at the Bukhara State Pedagogical Institute as part of the dissertation on the topic «Improving the methodology for implementing an electronic education system in the form of correspondence courses in higher education institutions». To determine the effectiveness of the study based on the results obtained during the experimental work, the  $\chi^2$  (xi square) criterion of K. Pearson was used.*

*Keywords: Correspondence education, e-learning, experiment-testing,  $\chi^2$  (xi square), information technologies in education, project-based education.*

**Kirish:** Bugungi jadal rivojlanayotgan dunyoda virtual olam, masofaviy ofislar, bulutli texnologiyalar, onlayn amaliyotlar, o'ta sezgir qurilmalar va sun'iy intellekt kabi texnologiyalardagi yutuqlar keng tarqalmoqda. Yangi innovatsion yechimlarni topish uchun ushbu texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Jahon tajribasini chuqur anglay oladigan, soha rivojiga o'z hissasini qo'shish orqali o'z Vatanga sadoqatini namoyon eta oladigan, taraqqiyotning turli bosqichlarida o'z bilim va ko'nikmalari bilan mamlakatimiz taraqqiyotini qo'llab-quvvatlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifaga aylanmoqda. Hozirgi kunda AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Singapur, Xitoy va Fransiya kabi rivojlangan davlatlar zamonaviy bilimlarni innovatsion usullarda yetkazish uchun ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etishga e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, OTM sirtqi ta'lim shaklida o'quv jarayonlarini zamonaviy elektron ta'lim tizimi imkoniyatlaridan foydalangan holda tashkil qilish masalasi hamda mavjud tizimni moslashuvchan metodikalar bilan takomillashtirish kun tartibiga chiqmoqda. Sirtqi ta'lim shaklini bosqichma-bosqich masofaviy shaklga o'tkazish borasidagi islohotlar ham bu muammoning dolzarb ekanligidan dalolat beradi [1].

Xalqaro tadqiqotlarda oliy ta'lim sifatini oshirishga asosiy e'tibor ta'lim mazmunini yangilash va takomillashtirish hamda o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga qaratiladi. Universitet talabalarining kasbiy rivojlanishini oshirish uchun fanlarni o'qitishning izchil va mantiqiy tizimini tashkil etuvchi ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish, fanlararo yondashuvlarni o'zida mujassamlashtirgan, talabalarining mantiqiy tafakkurini oshirish uchun uslubiy shart-sharoitlarni yaratish zarur. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarning o'z sohasi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun faqat maxsus bilimlarni egallashning o'zi yetarli emasligini e'tirof etib, talabalarni kasbga tayyorlashda jamoaviy ish muhimligini ta'kidlamogda [2].

Mamlakatimizda oliy ta'limni takomillashtirishda ta'lim jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-

5847-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079- sonli "Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar 60-sonli 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmonlari hamda shu sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tajriba sinovi muayyan darajada xizmat qiladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi: Tajriba – sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – OTMlari sirtqi ta'lim shaklida elektron ta'lim tizimini joriy etish imkonini beruvchi pedagogik shart-sharoitlar va vositalardan samarali foydalanish darajasini aniqlashdan iborat.

Tajriba-sinov ishlarining vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

1. OTM sirtqi ta'lim shaklida zamonaviy elektron ta'lim tizimini joriy etish metodikasini takomillashtirish ishlarini tahlil qilish orqali ushbu mavzuning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati hamda dolzarb muammo ekanligini asoslash;

2. OTM sirtqi ta'lim shaklida zamonaviy elektron ta'lim tizimini joriy etish metodikasini takomillashtirish jarayonida ta'limda axborot texnologiyalari fani misolida o'quv faoliyati mazmunini yorituvchi o'quv-me'yoriy hujjatlarni (DTS, o'quv reja, fan dasturi va boshqalar) o'rganish, nazariy ma'lumotlarni o'rganish va umumlashtirish;

2. Anketa so'rovlari yordamida sirtqi ta'lim shaklida dars beruvchi professor-o'qituvchilar hamda sirtqi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalar elektron ta'lim tizimi orqali o'quv jarayonlarini tashkil etish jarayonida kasbiy bilimlar ahamiyatini bilish haqidagi ma'lumotlarni aniqlash;

3. O'quv jarayonida zamonaviy elektron ta'lim tizimidan foydalanish darajasini belgilovchi indikatorlar asosida o'qitish metodlarini takomillashtirish modeli va moslashuvchan ta'lim muhitini yaratuvchi didaktik vositalar ishlab chiqish;

4. Talabalarning hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikalarini aniqlash;

5. Tadqiqotchilik protseduralari strukturasi, kuzatish shakllari va o'quvchilarning "Ta'limda axborot texnologiyalari" faniga doir bilimlarni o'zlashtirganliklarini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

6. Sirtqi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llash va kompyuter savodxonligi borasidagi dastlabki bilim darajasini aniqlash;

7. Taklif etilayotgan "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish metodikasining hamda tajriba-sinov ishchi dasturi samaradorlik darajasini o'rganish;

8. Tajriba - sinov ishini yakunlash va natijalarni qayta ishlash;

11. O'quv qo'llanma va tavsiyanomalarni tajriba-sinovdan o'tkazish;

12. Tajriba-sinov maydonlarini aniqlash;

13. Tajriba-sinov ishlari yakunidagi ko'rsatkichlarni o'zaro qiyoslash asosida xulosa chiqarish. Testlar, anketalar, so'rovnomalar, test-anketalar namunalari, suhbatlar mavzularini ishlab chiqish, tegishli miqdorda ko'paytirish, o'qituvchi va o'quvchilarga tarqatish. Tajriba-sinov mashg'ulotlari loyihasi, o'quv mashg'uloti ishlanmalari, metodik tavsiyalar ishlab chiqish, mashg'ulotlar jarayonida bevosita ishtirokchi sifatida qatnashish. Nazorat va tajriba guruhlariga loyihalangan o'quv mashg'ulotlari o'tkazilishi bo'yicha tavsiyalar berish. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich – o'rganuvchi bosqich (2021–2022 o'quv yili).

Tadqiqot muammosining ilmiy-nazariy, ilmiy–uslubiy asoslari o'rganildi; tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi;

tadqiqot obyekti va uning ko'rsatkichlari hamda unga mos mezonlar nazariy manbalardan tahlil qilinib o'rganildi;

Oliy ta'lim muassasalari sirtqi ta'lim shaklida zamonaviy elektron ta'lim tizimini joriy etish metodikasini takomillashtirish mohiyati, innovatsion yondashuv yordamida o'rganish jarayoni, didaktik ta'minotini takomillashtirish omillarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or ish tajribalari o'rganildi, aniqlovchi tajriba-sinovlar o'tkazildi, o'quv dasturi va darsliklar tadqiqot mavzusi nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

OTM sirtqi ta'lim shaklida zamonaviy elektron ta'lim tizimini joriy etish metodikasini takomillashtirish zaruriyati ilmiy-nazariy jihatdan aniqlandi, ishchi farazlar shakllantirildi.

Yuqoridagi jarayonlar tadqiqotning maqsadi, obykti, predmeti, ilmiy farazi va vazifalarini aniqlashga imkon berdi hamda bu orqali tadqiqot muammosining zarurligi asoslandi.

Ikkinchi bosqich – amalga oshirish bosqich (2022–2023 o'quv yili).

Tanlab olingan oliy ta'lim muassasalarida “Ta'limda axborot texnologiyalari” fanini ishchi dasturlari tahlil qilindi va takomillashtirish mazmuni ishlab chiqildi [9].

Oliy ta'lim muassasalari sirtqi ta'lim shaklida zamonaviy elektron ta'lim tizimini joriy etish metodikasini takomillashtirish prinsipini ishlab chiqildi va oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etildi.

Tadqiqotning ishchi farazi, maqsad va vazifalari amalga oshirildi.

Uchinchi bosqich – tajriba-sinov bosqichi (2023–2024 o'quv yili).

“Ta'limda axborot texnologiyalari” fanini o'qitishda o'quv jarayoniga moslashuvchan, loyihaga asoslangan o'qitishni qo'llab quvvatlovchi dasturiy tizimdan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi.

O'rganilayotgan muammoning dolzarbligi, ishlab chiqilgan tamoyillarning tatbiqini metodik asoslash bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

Muhokama. Ta'limda axborot texnologiyalari fanini o'qitishda dasturlash muhitidan foydalanish imkoniyati tinglovchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali baholandi.

Dars samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodikani sinovdan o'tkazish ishlari olib borildi. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari “Ta'limda axborot texnologiyalari” fani misolida o'quv jarayonini loyihaga asoslangan o'qitishni qo'llab quvvatlovchi dasturiy muhit orqali o'qitish bo'yicha natijalar umumlashtirildi, xulosalar amaliy jihatdan tekshirib ko'rildi, olingan natijalar matematik-statistika metodlari yordamida tahlil qilindi [4].

“Ta'limda axborot texnologiyalari” fani mashg'ulotlari bo'yicha o'quvchilarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarida qanday aks etganligini aniqlash maqsadida o'quvchilar o'rtasida tajriba-sinov o'tkazildi. Bundan maqsad izlanish bo'yicha tajriba-sinov natijalarini o'rganish va ularni amaliy jihatdan tasdiqlash edi.

Tajriba-sinov guruhlarida mashg'ulotlar elektron ta'lim tizimi hamda loyihaga asoslangan o'qitishni qo'llab quvvatlovchi dasturiy ta'minot yordamida, nazorat guruhlarida esa an'anaviy metodika bilan olib borildi. Tajriba va nazorat guruhida o'tkazilgan natijalar 5 baholik reyting tizimida baholandi [5,6].

Oliy ta'lim muassasalari sirtqi ta'lim shaklida “Ta'limda axborot texnologiyalari” fanini o'qitishda ta'lim samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari amalga oshirish uchun Buxoro davlat pedagogika instituti, Qarshi davlat universiteti va Urganch davlat pedagogika institutlari tanlab olindi. Sirtqi ta'lim shaklida tahsil oluvchi jami

512 nafar talabalari (respondentlar) va 42 nafar professor-o'qituvchi ishtirokida amalga oshirildi

(1-jadvalga qarang).

Pedagogik eksperiment uch bosqichda amalga oshirildi ya'ni qayd qiluvchi, izlanishli hamda o'rgatuvchi.

## 1-jadval.

**Oliy ta'lim muassasalaridan tajriba-sinov ishida ishtirok etgan o'qituvchi va o'quvchilar soni**

№	Ta'lim muassasasi nomi	Ishtirok etganlar soni	
		Talabalar	O'quvchilar
1	Buxoro davlat pedagogika instituti	215	21
2	Urganch davlat pedagogika instituti	182	12
3	Qarshi davlat universiteti	126	9
<b>Jami:</b>		<b>523</b>	<b>42</b>

Tajriba-sinov ishlarining tasdiqlovchi, aniqlovchi bosqichida tajriba-sinov ishlari yakunlanib xulosalandi. Testlar, anketalar, so'rovnomalar, test-anketalar namunalari, suhbatlar mavzulari ishlab chiqildi, tegishli miqdorda ko'paytirildi, professor-o'qituvchi va talabalarga tarqatildi. Tajriba-sinov mashg'ulotlari loyihasi, o'quv mashg'ulotlari ishlanmalari, metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Jarayonda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashish va kuzatishlar asosida nazorat va tajriba guruhlarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Oliy ta'lim muassasalari ta'limda axborot texnologiyalari fani bo'yicha tayyorlangan o'quv materiallari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi va olingan natijalar umumlashtirildi. Tajriba-sinov ishlarining tajriba yakunidagi ko'rsatkichlarini o'zaro qiyoslash asosida yakuniy xulosa chiqarildi.

Tajriba-sinov yakunida test va yozma ishlar o'tkazildi. Talabalar bilimni baholashda o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzish, uni ta'lim jarayoniga qo'llash samaradorligini ko'rsatish maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan test va nazorat ishlari natijalarini hisoblash qulay bo'lish uchun 100 ballik reyting tizimidan 5 baholik tizimga o'tkazildi.

Tajriba-sinov jarayonida dasturlash muhiti asosida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanidan o'quvchilarning bilimni baholash mezonlari ishlab chiqildi (2-jadval).

Loyihaga asoslangan o'qitish asosida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanidan talabalarning bilimni baholash mezonlari

**Loyihaga asoslangan o'qitish asosida "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanidan talabalarning bilimini baholash mezonlari**

**2-jadval.**

T/p	Baholash darajalari	Baholashning tasniflanishi
1.	<b>Reproduktiv</b>	loyihaga asoslangan o'qitish bo'yicha tasavvurga ega emas hamda mavzu mazmunini to'liq tushunmagan; kompyuterda ishlash qobiliyati kam hamda o'z fikrini bayon eta olmaydi; axborot texnologiyalaridan foydalanishda xatoliklarga yo'l qo'yadi; axborot texnologiyalariga doir atama va tushunchalarni noto'g'ri talqin qiladi hamda vazifasini tushunmaydi.
2.	<b>Produktiv</b>	loyihaga asoslangan o'qitish bo'yicha qisman tasavvurga ega hamda mavzu mazmunini to'liq tushunmagan; mustaqil ravishda axborot texnologiyalaridan foydalanganda xatoliklarga yo'l qo'yadi; berilgan topshiriqni o'qituvchi yordami bilan bajara oladi; nazariy ma'lumotlarni tushunadi, lekin o'z fikrini to'liq bayon eta olmaydi; o'qituvchi tushuntirgan namunaga o'xshash dasturni tuza oladi, mustaqil bajara olmaydi.
3.	<b>Qisman izlanuvchan</b>	loyihaga asoslangan o'qitish bo'yicha tasavvurga ega hamda tegishli tushuncha va amallarni biladi; axborot texnologiyalaridan foydalanishda xatolikka yo'l qo'ymaydi, natijani ham oladi lekin mantiqiy xatolikka yo'l qo'yadi; o'ziga yuklatilgan vazifani bajarishda kichik xatolikka yo'l qo'yib, o'qituvchi fikridan tezkorlik bilan xatolikni tuzata oladi; o'z fikrini qisman bayon etadi.
4.	<b>Kreativ</b>	loyihaga asoslangan o'qitish bo'yicha to'liq tasavvurga ega hamda tegishli atama, buyruqlarni bajara oladi; kompyuterda ishlash ko'nikmasi rivojlangan va berilgan dasturlash muhitida ishlay oladi; berilgan vazifani bajarib, to'liq natija olib biladi; o'qituvchi tomonidan belgilangan vazifani dasturlash muhiti orqali mustaqil bajara oladi; ta'limda jarayonida axborot texnologiyalaridan qo'llay oladi, shuningdek, ular imkoniyatlaridan foydalana oladi; mantiqiy fikrlash qobiliyati to'la rivojlangan; o'qituvchi tomonidan berilgan nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llay oladi.

Tajriba-sinov boshlanishida bilim darajalarining yaqinligi mezoni asosida oliy ta'lim muassasalari sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan guruhlaridan tanlanma usul bilan tajriba-sinov uchun tajriba guruhlarida 262 nafar, nazorat guruhlarida 261 nafar qatnashchining natijalari tahlil qilindi (3-jadvalga qarang).

#### Tajriba-sinov va nazorat guruhlarini o'quvchilar soni

Guruhlar	O'quv yillari			Jami o'quvchilar soni
	2021-2022	2022-2023	2023-2024	
Tajriba-sinov guruhi	26	54	182	262
Nazorat guruhi	28	53	180	261

Talabalarining Ta'limda axborot texnologiyalari faniga doir bilimlarini shakllanganligini quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha aniqladik (4-jadvalga qarang):

#### 4-jadval.

#### Talabalarining Ta'limda axborot texnologiyalari faniga doir bilimlarini shakllanganligini ko'rsatkichlari va ularga mos natijalar

T/p	Talabalarining Ta'limda axborot texnologiyalari faniga doir bilimlarini shakllanganligini KO'RSATKICHLARI	Natija (% his.)
1.	Ta'limda axborot texnologiyalari haqidagi boshlang'ich tushunchalarini egallaganligi	92,6
2.	Operatsion tizimlar va ularning turlari haqidagi tushunchalarini egallaganligi	71,6
3.	Multimedaning asosiy tushunchalari va audio va video axborotlar bilan ishlashga doir bilimlarni egallaganligi	66,4
4.	Office dasturlar paketi tarkibi bilan tanishganligi va amalda qo'llash qobiliyati	75,5
5.	Virtual laboratoriyalar bilan ishlash vositalari bilan tanish ekanligi	72,4
6.	Axborotlarni himoyalashning texnik va dasturiy vositalar haqidagi bilimlarni egallaganligi	86,2
7.	Xizmat ko'rsatuvchi dastur va utilitalardan foydalanishni o'rganganligi	77,8

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, talabalar o'zida mavjud bilimlarni amalda tadbiq qila oladi, tahlil va xulosalar chiqarishda yangi o'ziga xos yo'nalishlarni kashf etadi.

Natijalar. Pedagogik tadqiqotlarda taklif etilayotgan metodikaning samaradorligi tajriba-sinov ishlari yakunida qayd etilgan ko'rsatkichlarni o'zaro qiyoslash orqali asoslandi. Natijalarni qayta tahlil etishga oid matematik-statistik metodlarda ilgari surilayotgan g'oyaga ko'ra, qayta tahlil aynan tajriba va nazorat guruhlarini tajriba-sinovi qatnashayotgan talabalarining tajriba yakunidagi ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni belgilash orqali tadqiqot samaradorligiga baho berildi. Ana shu maqsadda tajriba va nazorat guruhlarini talabalarining birinchi bosqich yakuniy ko'rsatkichlari bilan ikkinchi bosqich ko'rsatkichlari o'zaro qiyoslandi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodikani samaradorligi tajriba-sinovlar oxirida keltirilgan qiymatlar o'zaro taqqoslash bilan asoslandi. Olingan natijalarni matematik-statistik metodlardan foydalangan holda qayta tahlil qilish, tajriba hamda nazorat guruhi tajriba-sinovi ishtirok etgan talabalarining tajriba so'ngidagi qiymatlari orasidagi farqni ko'rsatish orqali tadqiqot samaradorligi aniqlandi. Aynan mana shu farqni ko'rsatishda K. Pirsonning



$\chi^2$  (xi kvadrat) mezonidan foydalanildi.  $\chi^2$  (xi kvadrat) mezoniga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki bosqich yakuniy ko'rsatkichlari bilan ikkinchi, uchinchi va yakuniy bosqich natijalari o'zaro qiyoslandi.

Ushbu qiyoslashni bajarishda  $H_0$  gipoteza sifatida tajriba va nazorat guruhlaridagi kuzatuv davrida baholash turlari bo'yicha kutilayotgan ehtimollik teng deb olinadi.  $H_1$  esa muqobil gipotezada teng emas deb olindi. Ya'ni  $H_0$  – tajriba va nazorat guruhlarida tajriba-sinov o'tkazilgandan keyin talabalarning bilim darajalarida katta o'zgarish sezilmaydi.  $H_1$  – tajriba va nazorat guruhlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi.

Avvalo empirik qiymatni kritik qiymat bilan taqqoslash uchun ahamiyatlik darajasi  $\alpha$  ni aniqlashtirib olamiz. Odatda, ahamiyatlik darajasi ( $\alpha$  bilan belgilanadi) 0,05, 0,01, 0,001 ga teng ishlatiladi. Pedagogik tadqiqotlarda ular odatda 0,05 bilan cheklanadi, ya'ni taxminan, xato qilish ehtimoli 5% dan oshmaydi. Shundan so'ng ishonchlik ayirmasi yoki farqi  $1-\alpha$  hisoblaniladi. Ushbu holatda  $1-0,05 = 0,95$  (ya'ni 95% ishonchligi darajasi) ni tashkil qiladi.  $\chi^2$  ning  $\alpha = 0,05$  bo'lgandagi kritik qiymati keltirilgan (5-jadvalga qarang).

**5-jadval.**

f	1	2	3	4	5	6	7
$\chi^2_{0,05}$	3.841	5.991	7.815	9.488	11,07	12.592	14.067

5-jadvalda keltirilgan  $f$  – erkinlik darajalari sonini aniqlaydi. Erkinlik darajalari sonini quyidagi formula bilan aniqlaymiz:  $f = (r - 1) \times (c - 1)$ . Bunga ko'ra,  $r$  – jadval qatorlari soni,  $c$  – jadval ustunlari soni. Bizni tajribada 2 qator ( $r = 2$ ) va 4 ustun ( $c = 4$ ) bo'lgan sakkiz maydonli (5-jadvalga qarang) jadval uchun erkinlik darajalari soni  $f_{2 \times 4} = (2 - 1) \times (4 - 1) = 3$  ga teng bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, (5-jadvalga qarang) erkinlik darajasi  $f(3) = 7,815$  ga teng bo'ladi. Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan talabalar haqidagi dastlabki ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (6-jadvalga qarang).

**Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan talabalarning dastlabki natijalari**

**6-jadval.**

Ta'lim muassasasi nomi	Guruhlar	Talabalar soni	Baholar			
			"2"	"3"	"4"	"5"
Buxoro davlat pedagogika instituti	Tajriba	108	9	47	42	10
	Nazorat	107	15	53	35	4

Talabalarning dastlabki natijalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, sirtqi ta'lim shaklida dars mashg'ulotlari an'anaviy shaklda olib borilganda talabalarning o'zlashtirish darajasi 41% ni tashkil etadi. Sirtqi ta'lim shaklida tahsil oluvchi ta'lim yo'nalishlaridan tanlab olingan guruhlarda "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda elektron ta'lim tizimi imkoniyatlaridan foydalanish metodikasining samaradorligini aniqlashda yozma topshiriqlar va testlardan foydalanildi hamda talabalarning bilim darajasining yakuniy tahlil natijalari quyidagicha keltirildi (7-jadvalga qarang).


**Talabalarning tajriba-sinov yakunidagi natijalari**

**7-jadval.**

Ta'lim Muassasasi nomi	Guruhlar	Talabalar soni	Baholar			
			"2"	"3"	"4"	"5"
Buxoro davlat pedagogika instituti	Tajriba	108	5	30	54	19
	Nazorat	107	12	46	39	10

Yuqoridagi olingan natijalarga asosan har bir mintaqa uchun alohi-alohida empirik qiymatlar tekshirilib, tahlil qilindi. Tadqiqot ishi olib borilgan Buxoro davlat pedagogika instituti sirtqi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalardan shakllantirilgan tajriba va nazorat guruhlarida o'tkazilgan testlar hamda yozma topshiriqlar natijalaridan (6-jadvalga qarang) foydalanib diagrammasi hosil qilindi (1-rasmga qarang). Tanlangan guruhlarda "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda elektron ta'lim tizimi imkoniyatlaridan foydalanish uchun taklif etilgan metodika hamda ishlab chiqilgan darslik hamda elektron o'quv qo'llanma talabalarining tajriba-sinov guruhlarida "a'lo" bahoga o'zlashtirish darajasi 17,5% ga (nazorat guruhiga nisbatan 8,1% ko'p), "yaxshi" bahoga o'zlashtirish esa 50% ga (nazorat guruhiga nisbatan 13,5% ko'p) o'sgan. "Qoniqarli" bahoga o'zlashtirish 27,7% (nazorat guruhiga nisbatan 15,2%) ga kamaygan. "Qoniqarsiz" bahoga o'zlashtirish esa 4,6% (nazorat guruhiga nisbatan 6,6%)ga kamaygan. Bundan tajriba-sinov guruhlarida "qoniqarli" hamda "qoniqarsiz" bahoga o'zlashtirgan talabalarlar soni nazorat guruhlariga nisbatan kamayganligini ko'rish mumkin, ya'ni "Ta'limda axborot texnologiyalari" nomli darslik hamda elektron o'quv qo'llanma asosida o'quv mashg'ulotlarini olib borish ma'lum ma'noda talabalar faolligini oshirdi desak yanglishmagan bo'lamiz [7,8].

### Tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish natijalari



**1-rasm. Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalarining diagrammasi**

Quyida tajriba va nazorat guruhlarini uchun empirik qiymatlarni topamiz. Tajriba guruhi ko'rsatkichlarini  $m_i$ , shunga mos talabalar sonlarini  $M_i$  bilan belgilaymiz. Aynan ushbu kattaliklarni nazorat guruhi uchun  $n_i, N_i$  deb belgilaymiz.

$$\chi^2_{emp} = N \cdot M \cdot \sum_{i=1}^L \frac{\left(\frac{n_i}{N} - \frac{m_i}{M}\right)^2}{\frac{n_i + m_i}{N + M}}$$

Ushbu formulani hisoblashda talabalarining tajriba-sinov yakunidagi natijalari (7-jadvalga qarang) qiymatlaridan foydalanamiz.

$$\begin{aligned} \chi^2_{emp} &= 108 \cdot 107 \cdot \left[ \frac{\left(\frac{5}{108} - \frac{12}{107}\right)^2}{\frac{5 + 12}{108 + 107}} + \frac{\left(\frac{30}{108} - \frac{46}{107}\right)^2}{\frac{30 + 46}{108 + 107}} + \frac{\left(\frac{54}{108} - \frac{39}{107}\right)^2}{\frac{54 + 39}{108 + 107}} + \frac{\left(\frac{19}{108} - \frac{10}{107}\right)^2}{\frac{19 + 10}{108 + 107}} \right] = \\ &= 11556 \cdot [0,0002550970 + 0,0003045153 + 0,0001974629 + 0,0002345161] \\ &= 11556 \cdot 0,0009915913 = 11,458829010 \end{aligned}$$

$\chi^2$  ning  $\alpha = 0,05$  bo'lgandagi kritik qiymatiga (5-jadvalga qarang) asosan erkinlik darajasi  $f(3) = 7,815$  ga teng ekanligidan kelib chiqib,  $\chi^2_{0,05} = 7,815$  kritik qiymatni qabul qilamiz.  $\chi^2_{emp} \geq \chi^2_{0,05}$  noqat'iy tengsizlik o'rinli bo'ladi, ya'ni  $11,458 \geq 7,815$  olingan empirik qiymat kritik qiymatdan katta ekanligi kelib chiqadi. Bundan ko'rinadiki,  $H_1$  gipotezani qabul qilish mumkin va tavsiya qilinayotgan metodika samarali ekanligi tasdiqlandi.

Endilikda tajriba-sinovning tajriba va nazorat guruhlaridagi samaradorlik ko'rsatkichini va o'rta arifmetik qiymatlarini quyidagi formulalar orqali topamiz. Bunda tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish baholarining o'rta arifmetigini mos ravishda  $\bar{x}$  va  $\bar{y}$  deb belgilab olamiz.

O'rta arifmetik qiymatlar:

$$\begin{aligned} \bar{x} &= \frac{1}{M} \cdot \sum_{i=1}^4 M_i \cdot m_i = \frac{1}{108} \cdot [2 \cdot 5 + 3 \cdot 30 + 4 \cdot 54 + 5 \cdot 19] = \frac{411}{108} = 3,805 \\ \bar{y} &= \frac{1}{N} \cdot \sum_{j=1}^4 N_j \cdot n_j = \frac{1}{107} \cdot [2 \cdot 12 + 3 \cdot 46 + 4 \cdot 39 + 5 \cdot 10] = \frac{368}{107} = 3,439 \end{aligned}$$

Samaradorlik ko'rsatkichi:

$$\eta = \frac{\bar{x}}{\bar{y}} = \frac{3,805}{3,439} = 1,106$$

**Xulosa.** Ushbu aniqlangan qiymatlardan tajriba sinov guruhidagi ko'rsatkichlar

nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan 10,6 % ga yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Tanlangan guruhlarda elektron ta'lim tizimi orqali loyiga asoslangan o'qitish imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha taklif etilgan metodik ishlanmalar va "Ta'limda axborot texnologiyalari" nomli darslik hamda elektron o'quv qo'llanma asosida o'quv mashg'ulotlarini olib borish dars sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon sirtqi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalar yuqori salohiyatga ega ekanligi, elektron ta'lim tizimidan foydalanish, loyiha asosida o'qitishni qo'llab quvvatlovchi dasturiy ta'minotni qo'llash jarayonlariga doir bilimlar shakllanganligi, axborot texnologiyalariga qiziquvchanligi hamda o'z natijalariga erishish uchun izlanuvchanligi bilan izohlanadi. Bu esa talabalarning kelajakdagi faoliyatida haqiqiy qobiliyatli yetuk kadr bo'lishlariga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Shuxratovich, S. I. (2024). PROJECT-BASED LEARNING IN HIGHER EDUCATION: ENHANCING STUDENT ENGAGEMENT AND OUTCOMES. Conferencea, 3-9.

Shuxratovich, S. I. (2024, July). the importance of didactic tools in the implementation of modern electronic education systems. in E Conference Zone (pp. 1-7).

Sadullayev Ibrat. (2023). oliy ta'lim muassalari sirtqi ta'lim shaklida elektron ta'lim tizimini joriy etish jtimoiy-pedagogik muammo sifatida. Innovations in Technology and Science Education, 2(16), 497–504. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/2139>

Sadullayev, I. (2022). lms moodle tizimining ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali, 2(2).

Садуллаев, И. Ш., & Абдурахмонов, А. А. У. (2021). электронные информационные образовательные ресурсы как фактор обеспечения качества образования. Вестник науки и образования, (8-3 (111)), 71-73.

Sadullayev, I. (2022). SIRTQI talimda talabalarning ozlashtirish monitoringini olib borish. Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali, 2(2).

Садуллаев, И. Ш., & Зарипов, Н. Н. (2015). Персональная учебная среда учащегося в режиме дистанционного обучения. Международна научна школа «Парадигма». Лято, (8), 227-232.

Sh, Sadullayev I., and N. N. Zaripov. «OTM boshqaruv samaradorligini va ta'lim jarayoni sifatini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish yollari.» Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti jurnali (2015): 170-174.

I.Sh.Sadullayev, M.R.Jo'rayeva, N.Sh.Shadiyeva, D.P.Mirzoyev, A.A.Jumayev. Ta'limda axborot texnologiyalari. Elektron o'quv qo'llanma. Buxoro. 2022 y.

Sirtqi ta'lim shaklida elektron ta'lim tizimini joriy etish samaradorligini oshirishda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi

## **INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARGA IKKINCHI XORIJIY TILNI O'QITISHDA KOREYA TA'LIM DASTURIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

*Saidova Moxinur Murodovna,  
BuxDU tayanch doktoranti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarining xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish orqali ularning dunyoqarashini, kommunikativligini, madaniyatlararo tushunchalarini kengaytirishga erishish, til bilish darajasini oshirishda xalqaro o'quv dasturlaridan samarali foydalanish, bu borada fan o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirishga va integrativ yondashuvlarga yo'naltirilgan ta'lim usullarini qo'llashning samaradorligi va ahamiyati, koreys tili o'qitiladigan o'zbek maktablari va Janubiy Koreyadagi maktablar o'rtasida tuzilgan hamkorlik dasturlarining imkoniyatlari haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: koreys tili, dunyoqarash, kommunikativlik, qardosh maktablar, globallashtirish, madaniyatlararo tushunish, tanqidiy fikrlash, xalqaro tajribalar, integratsiya, innovatsiya, metod, til bilish darajasi, pedagogik mahorat, kasbiy kompetentlik*

## **ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОРЕЙСКОЙ ПРОГРАММЫ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ КАК ВТОРОМ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

*Саидова Мохинур Муродовна,  
Базовый докторант БухГУ*

*Аннотация. В данной статье рассказывается о путях повышения интереса учащихся общеобразовательных школ к изучению иностранного языка, достижения расширения их мировоззрения, коммуникативности, межкультурного взаимопонимания и эффективного использования международных учебных программ для повышения уровня языковых знаний, а также обсуждаются эффективность и важность использования методов обучения, ориентированных на интегративные подходы и развитие педагогических навыков учителей, возможности программ сотрудничества между узбекскими школами с преподаванием корейского языка и школами Южной Кореи.*

*Ключевые слова. корейский язык, мировоззрение, коммуникативность, школы-побратимы, глобализированное общество, межкультурное понимание, критическое мышление, международный опыт, интеграция, инновации, метод, владение языком, педагогическое мастерство, профессиональная компетентность.*

## **THE IMPORTANCE OF USING THE KOREAN CURRICULUM IN TEACHING STUDENTS AS A SECOND FOREIGN LANGUAGE BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH**

*Saidova Mokhinur Murodovna,  
Basic doctoral student of BukhSU*

*Abstract. This article talks about ways to increase the interest of secondary school students in learning a foreign language, achieving expansion of their worldview, communication, intercultural understanding and effective use of international curricula to improve the level of language knowledge, and also discusses the effectiveness and importance of using teaching methods focused on integrative approaches and*

*development of teachers' pedagogical skills, opportunities for cooperation programs between Uzbek schools teaching the Korean language and schools in South Korea.*

*Key words. Korean language, worldview, communication, sister schools, globalized society, intercultural understanding, critical thinking, international experience, integration, innovation, method, language proficiency, pedagogical skills, professional competence.*

**KIRISH.** Yildan yilga O'zbekiston ta'lim tizimi xalqarolashuv tendensiyasi tomon yuzlanmoqda. Chunki bir paytlar xalqlarni bir-biridan ajratib turgan chegaralar hozirgi kunda yo'qolib, davlatlar tobora bir-biriga bog'lanib bormoqda. Endilikda turli millat va madaniyatlardan maqsadli ravishda foydalana oladigan bir nechta tillarni biladigan raqobatbardosh global fuqarolarni yetishtirish zamon talabiga aylanmoqda. Ular uchun ta'lim va karyera imkoniyatlari kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator chora-tadbirlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2024 yildagi PQ-53-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.05.2021 yildagi 312-son va hz) ko'rilmoqda. Natijada, internatsional ta'lim barcha maktablarning kundalik hayotida siyosat va amaliyotida esa haqiqatga aylanganligini tan olsak, mubolag'a bo'lmaydi.

Maktab o'quvchilari uchun xalqaro ta'lim tajribasini oshirish, shu orqali ularni o'zaro bog'liq, globallashgan dunyoda faol ishtirok etishga tayyorlash, ularga 21-asr ko'nikmalarini taqdim etish, ularni tanqidiy fikrlash, texnologiyalardan samarali foydalanish va xilma-xillikni qadrlashga o'rgatish ta'lim tizimining xalqarolashuvidagi asosiy shartlardan biridir.

Ushbu maqsadga erishishning bir yo'li bitta xorijiy tilni o'qitish bilan chegaralanmasdan, ikkinchi xorijiy tilni o'qitishdadir. Ushbu maqolada ikkinchi xorijiy til sifatida koreys tili o'qitiladigan maktablarda integrativ yondashuv asosida Koreya ta'lim dasturidan foydalanish ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, koreys tili o'qitiladigan o'zbek maktablari va Janubiy Koreyadagi maktablar o'rtasida tuzilgan hamkorlik dasturlarining imkoniyatlari haqida so'z boradi. Bunday hamkorliklar Koreya ta'lim dasturi bilan yaqindan tanishish va undan foydalanishda ramziy ko'priklar vazifasini bajaradi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI.

Viktoriya shtatining Ta'lim va tarbiya departamenti tomonidan 2015 yil Sharqiy Melbrunda chet tili o'qitishga qaratilgan bir qator tadqiqotlarida xorijiy maktab bilan hamkorlik eng samarali yo'llaridan biri ekanligi va u quyidagi maqsadlarga qaratilgan bo'lishi mumkinligi aniqlandi:

- o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish
- o'quvchilarning madaniyatlararo tushunchalarini rivojlantirish
- o'quvchilarning til o'rganish darajasini oshirish
- butun maktab xalqarolashtirish dasturiga hissa qo'shish
- o'qituvchilar salohiyatini oshirish

Bunda agar qardosh maktabning tili sizning maktabingizning ona tili bo'lsa, qardosh maktablari hamkorligi maktabingizdagi til dasturini yaxshilashi mumkin.

Bu haqiqatan ham o'quvchilarimizga ta'limni tugatgandan so'ng ularni kutayotgan global imkoniyatlarni tushunishga va ularga tayyorlanishga yordam berish uchun hayotda bir marta beriladigan imkoniyatdir (Cath Green). "An'anaviy sinfnings chegaralari orasida devorlar mavjud. O'qituvchilar globallashgan jamiyatda tajribaviy o'rganish, madaniy almashinuv va o'zaro tushunish muhimligini targ'ib qilishsa-da, ular o'qitadigan darslar odatda sinf xonasi bo'lgan suv o'tkazmaydigan quti bilan chegaralanadi. Qutidan chiqib

ketishning bir yo'li boshqa mamlakatdagi maktab yoki sinf bilan hamkorlik qilishdadir. Bunda ikkala maktablar talabalarga madaniy tajriba taqdim etish va ularning ta'limini xalqaro miqyosda ta'minlash uchun bir qator usullarda birgalikda ishlaydi", deb ta'kidlaydi "Improving Literacy & Language" jurnali yordamchi muharriri K.Bivona.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy maktablar dasturidan foydalanish respublika maktablarida tillarni o'rganishga ustuvor ahamiyat berishda asosiy mexanizmlardan biri bo'lib xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida nafaqat o'quvchilar, balki butun ta'lim muassasi va o'qituvchilari uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

#### METODLAR.

Janubiy Koreya bilan o'zbek maktablari hamkorligi asosida Koreya ta'lim dasturidan foydalanish o'rta ta'lim maktablarining umumiy rivojlanishida, o'qituvchi salohiyatini o'stirishda va o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va til o'rganish darajasini oshirishda o'rni qay darajada ekanligini niqalash uchun quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Talim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish. Respublika bo'yicha Janubiy Koreya maktablari bilan hamkorlik qilib kelayotgan koreys tili ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitiladigan maktablar soni, ular orasida olib borilayotgan ishlar holati, xususan bunda koreys ta'lim dasturidan foydalanish haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish uchun Toshkentdagi Koreya ta'lim markazi hujjatlari o'rganib chiqildi va tahlil qilindi.

Intervyu. Keyingi bosqichda koreys tili o'qitiladigan va Janubiy Koreya maktabi bilan faol hamkorlik ishlarini olib botayotgan umumta'lim muassasalari direktor va koreys tili o'qituvchilaridan intervyu olindi. Ulardan bu kabi hamkorlik maktab va maktab o'quvchilariga qanday ta'sir o'tkazayotgani va ularning rivojlanishiga qanday hissa qo'shayotganligi, ikki qardosh maktab orasida qanday loyihalar olib borilayotgani va Koreya ta'lim dasturi o'quvchilarning til o'rganish ishtiyoqiga ko'rsatayotgan ta'siri haqida intervyu olindi.

So'rovnoma. Ikki maktab hamkorligi samarali rovojlanganligining dalili sifatida, o'zbek o'quvchilari Janubiy Koreyaga, koreys o'quvchilari esa O'zbekistonga ta'lim sayohatini amalga oshirishganligini inobatga olgan holda, Janubiy Koreyaga borib kelgan o'zbek o'quvchilaridan Google Form platformasi orqali so'rovnoma o'tkazildi. Unda o'quvchilar bu hamkorlik orqali nimalarni o'rgana olishganligi 100% lik shkalada aniqlandi.

Kuzatish. Intervyu doirasida maktablar orasida davomiy zum orqali 45 daqiqalik darslar olib borilishi aniqlanganligi sabab, shunday darslarning mazmuni, jarayoni va koreys ta'lim dasturi bilan yaqindan tanishish maqsadida kuzatish metodi orqali darslarda qatnashildi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish. Darslarda qatnashib bo'lgandan so'ng, yig'ilgan barcha ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi, intervyudan olingan ma'lumotlar esa mavzular bo'yicha kodlanib, tematik tahlil qilindi.

#### NATIJALAR

Talim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish natijalari. Toshkentdagi Koreya ta'lim markazi har ikkala tomon davlatlari maktablari uchun ishonarli muassasa bo'lgani uchun qardosh maktablar dasturining tez, unumdor va samarali amalga oshishiga xizmat qildi. Bu kabi hamkorlikning amalga oshishi rejasi 2022-yilda tuzilgan bo'lib, uni yanada jiddiyroq targ'ib etish va amaliy yordamni ko'rsatish 2023-yildan jadal boshlangan. Ushbu loyiha 2023-yilda amalga oshirilgach, hozirda ikki mamlakatdagi 30 ga yaqin ta'lim muassasasi o'rtasida qardoshlik aloqalari va almashinuvlar olib borilmoqda. Jumladan, har ikkala tomondan qatnashish ko'rsatgichi quyidagish (1-jadvalga qarang):


1-jadval

Turi	Umumta'lim mussasalar	Oliy ta'lim muassasalar	Jami
Koreya tomoni	40 ta	4 ta	44 ta
O'zbekiston tomoni	29 ta	3 ta	32 ta

Intervyuning natijalari. O'zbekiston tomonidan shunday qardosh, boshqacha qilib aytganda, opa-singil, aka-uka munosabatlariga kirishishda faollik ko'rsatgan maktablardan biri Buxoro shahrining koreys tiliga ixtisoslashtirilgan 42-sonli maktabligi aniqlandi. Maktab direktori va koreys tili o'qituvchilaridan olingan intervyuga ko'ra, maktab Janubiy Koreya Daegu shahrining Daegon yuqori maktabi bilan 2023-2024-o'quv yilidan boshlab faol hamkorlik qilib kelmoqdalar. Buning natijasi o'laroq, ikki maktab tanlangan yuqori sinf o'quvchilari (5 nafar) orasida doimiy zum darslari olib borilgan. Unda, asosan, ikkala davlatning madaniyatini o'rganishga ustuvor ahamiyat berilganligi ta'kidlandi. Hamkorlik faqat shu yerda to'xtamasdan, o'zbek o'quvchilarining 2023-yil oktyabr oyida ikki haftalik ta'lim sayohatiga borib kelishi bilan davom etgan.

So'rovnoma natijalari. So'rovnomada qatnashgan 5 nafar o'quvchi koreys maktabi bilan olib borilgan darslar va shaxsan tashrifidan so'ng dunyoqarashlarida qanday o'zgarish bo'lganini quyidagi 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval



Kuzatish natijalari. Zum platformasi orqali o'rkazilgan ikki davlat maktablari darslari qiziqarli tarzda o'tkazilishiga guvoh bo'lindi. Janubiy Koreyaga qilingan ta'lim sayohatidan oldin har ikki taraf o'quvchilari Koreya ta'lim dasturi bo'yicha bir-biriga o'yin tarzda o'zini tanishtirishi, o'z mamlakati milliy o'yinlari va taomlari haqida taqdimot olib borishi kerak edi. Janubiy Koreyaliklarning 2024-yil may oyida Buxoroga ta'lim sayohatidan oldingi darslarda o'zbek madaniyati, O'zbekistonda rioya qilish kerak bo'lgan qoidalar haqida, sayohatdan keyin esa O'zbekiston, jumladan, Buxoro haqida o'z tassurotlari haqida bo'lishishgan.



Ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari. Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, Buxoronig 42-maktabi va Daegu shahrining Daegon yuqori maktabi o'rtasidagi qardoshlik aloqalari yanada rivojlanib, davomiy hamkorlikka ulandi va hatto ikki tomon o'rtasida hamkorlik kelishuvi memorandumini (MOU – memorandum of understanding) tuzildi. Unga ko'ra, ta'lim yo'nalishidagi rivolanish orqali o'smirlarning xalqaro bilim almashinuvi va umumiy madaniyatni kengaytirishni yo'lga qo'yish maqsadida quyidagi shartlar asosida hamkorlik shartnomasini imzolaganlar:

1. Tomonlar hamkorligi orqali koreys tili va kreativ ta'limi bo'yicha tajriba almashish va kengaytirish

2. Madaniy tajriba almashinuvini rivolantirish maqsadida har bir tomonlar orasida umumiy madaniyat mazmunidagi ta'lim va treninglar

3. Kengaytirilgan dasturlar bo'yicha hamkorlik

4. Kelajakdagi yo'lga qo'yilishi mumkin bo'lgan boshqa dasturlar

#### MUHOKAMA

Yuqorida ko'rsatilgan tadqiqot metodlari va ularning natijalari shuni ko'rsatdiki, qardosh maktablar hamkorligi orqali Koreya ta'lim dasturidan foydalanish o'quvchilarning xalqaro bilim almashinuvi va umumiy madaniyat haqidagi bilimlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Undagi integrativ yondashuv u nafaqat o'quvchilarga, balki, maktab xodimlari va jamoasi uchun ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi (3-jadvalga qarang):

**3-jadval**

O'quvchilar uchun	Maktab xodimlari uchun	Maktab jamoasi uchun
*Mamajonov Shuxratjon Asqarovich,  
Farg'ona davlat universiteti dotsenti, p.f.n*

*Abstract. The article analyzes the concept of integration, considers the issues of developing students' scientific literacy by teaching a topic selected in the 7th grade chemistry course, using interdisciplinary integration based on an integrated approach to teaching chemistry. detail.*

*Key words: integration, integrated education, interdisciplinary connection, laboratory, interdisciplinary competence, independent thinking.*



Mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida o'quv dasturlari va darsliklarini takomillashtirish borasida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish, umumta'lim maktablarida ushbu fanlarni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash, ushbu yo'nalishlarga malakali o'qituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 12 – avgustdagi “Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 48-05 – sonli qarori ushbu soxada dasturulamal bo'lib xizmat qiladi [1].

Zamonaviy ta'lim jarayonida fanlararo bog'lanish, fanlararo integratsiya tushunchalari muxim rol o'ynaydi. Ushbu tushunchani ta'lim jarayoniga kirib kelishi xaqida to'xtaladigan bo'lsak, quyidagilarni keltirib o'tish o'rinli bo'ladi.

O'tgan asrning 80-yillari boshlari bilan bog'liq «integratsiya», «integral», «integralizm» kabi tushunchalar zamonaviy pedagogikaning ilmiy apparatiga mustahkam kirib kelgan tushunchalar bo'lsada, ular didaktik tizimlar nazariyasi va tizimli yondashuvni rivojlantirishga, ta'lim muammosini aniqlashga qaratilganligini aks ettiradi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, «integratsiya» tushunchasining mohiyati aslida bir nechta elementlarni (tushunchalar, hodisalar, umumiy qonunlar haqidagi g'oyalar) va ular o'rtasida o'zaro bog'liq munosabatlar tizimini o'rnatish, shu asosda sub'yektiv idrokga asoslangan o'z nuqtai nazarini yaratish hamda yaxlitlikning yangi darajasini aks ettiruvchi, tizimli va har biri alohida sub'yektga xos bo'lgan ong holatining bilish sub'yekti sifatidagi ongida birlashtirish asosida qisqartirildi.

1996-yilgacha pedagogika nazariyasida «integratsiya» tushunchasining eng ko'p keltirilgan (umumiy) tushunchasi 1981-yilda I.D.Zverev va V.N.Maksimova tomonidan ishlab chiqilgan tushunchalar edi. Mualliflar «integratsiya bu uzviy bog'langan, birlashgan, yaxlitlikni yaratish jarayoni va natijasidir», – degan tushunchani asos qilib oldilar. Ta'limda u turli «fanlarning ilmiy tushunchalari va usullarini umumiy ilmiy tushunchalar va bilish usullariga birlashtirish, fanlararo ta'lim muammolarini ochishda fan asoslarini birlashtirish va umumlashtirish orqali amalga oshiriladi». “Pedagogika ensiklopediya” lug'atida, “integratsiya”-“turli qism va elementlarni bir butunlikga birlashtirish jarayoni” sifatida tarif berilgan [2].

#### Integratsiyalashgan ta'limning afzalliklari

Ta'lim jarayonida tahsil oluvchilarni mustaqil ta'limini rivojlantirish, mustaqil bilim olishga bo'lgan intilishini rag'batlantirish, fanlarni qisqartirish hisobiga ularni bo'sh vaqtini muvofiqlashtirish borasida fanlararo integratsiya bugungi kun talabi.

Ta'limga integratsion tizimni kiritish yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarni mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga, noan'anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kimyoni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish – integratsiya natijasida:

O'quvchilarda fanlararo kompetensiya rivojlantiriladi;

Mantiqiy fikrlash yuzaga keladi;

Kimyodan bilim va malakalarni puxta egallash o'quvchilarning boshqa fanlar bo'yicha olingan bilim va malakalarida kimyoni o'qitishda qanchalik foydalana bilishiga, ya'ni fanlararo bog'lanishning qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tadqiqotlarimiz davomida o'quvchilarda tabiiy – ilmiy savodxonlikni shakllantirishda fanlararo integratsiyaga, yani mavzular mazmunini tushuntirishda tabiiy fanlar tarkibiga kiruvchi biologiya, geografiya, ekologiya fanlari

bilan birgalikda o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni va ekologik tarbiyani shakllantirishga aloxida etibor qaratdik. Masalan, 7 – sinf kimyo darsida “Suvning inson va tabiatdagi ahamiyati” mavzusini tushuntirishda shartli ravshda sinf o'quvchilarini 4 ta laboratoriyaga ajratdik. Bunda:

1 – guruh kimyo laboratoriyasi vazifalari quyidagilardan iborat bo'ldi: suvning kimyoviy tarkibi, xossalari va ahamiyatini o'rganib, boshqa guruh a'zolariga bu boradagi ma'lumotlarni yetkazishdi.

2 – guruh Biologiya laboratoriyasi vazifalari: tabiat va inson uchun suvning ahamiyati xaqidagi mavzuni batafsil o'rganishdi va taqdimot shaklida sinf jamoasiga yetkazishdi.

3 – guruh Geografiya laboratoriyasi vazifalari: suvning tabiatda tarqalishi xaqidagi ma'lumotlarni batafsil o'rganishdi va qolgan guruh o'quvchilariga tayyorlagan ma'lumotlarini ko'rgazmali vositalar asosida yetkazishdi.

4 – guruh Ekologiya laboratoriyasi vazifalari: suvning ifloslanishi oqibatlarini, uni keltirib chiqaruvchi omillar, ularni oldini olish va bartaraf etish borasidagi ma'lumotlarni o'rganishdi va u asosida tayyorlangan ma'lumotlarni video rolik shaklida sinf jamoasiga yetkazishdi.

5 – guruh Iqtisod laboratoriyasi vazifalari: sanoat, xo'jalik va turmushda suvning sarfi, uning iqtisodiy taxlili yani sanoat, xo'jalik va turmushda suvdan oqilona foydalanish va uni isrof qilish oqibatlarini bo'yicha qiyosiy jadvallar asosida o'quvchilarga tayyorlagan ma'lumotlarini tushuntirib berishdi.

6 – guruh Tarbiya laboratoriyasi vazifalari: suvning inson hayotidagi o'rni, suvni tejash masalalariga oid ma'lumotlarni o'rganishdi va u asosida tayyorlagan taqdimotlarini o'quvchilarga yetkazishdi. Ushbu laboratoriyalar va ularning vazifalari quyidagi rasmda muxtasar xolda bayon qilingan.



Bunday integratsiyalashgan xolda kimyo fanlaridan mavzularni o'qitishga yondashuv o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, kimyo fanini cheksiz imkoniyatlarini tushunib yetishga, boshqa fanlarni kimyo fanini o'rganishga tadbiq qilish mumkinligiga ishonch xosil qilindi. Guruhlarda ma'lumotlarni qidirib topish, AKT dan foydalanish malakalari, bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlash, boshqalarni fikrlarini eshitish, taxlil qilish, mustaqil fikr yuritish, o'z fikrini ximoya qilish, tayyorlangan ma'lumotlarni boshqalarga yetkazishda notiqlik, auditoriyani boshqarish, liderlik xususiyatlari shakllandi. Eng asosiysi, bunday yondashuv o'quvchilarda tabiiy-ilmii savodxonlikni shakllantirishga xizmat qilganligi, bitta dars davomida kimyoviy, biologik, geografik, ekologik, iqtisodiy va tarbiyaviy bilimlar shakllanganligi, amaliy

hayot bilan bog'langanligi, fanlararo bog'lanish-integratsiya amalga oshirilganligi muxim ahamyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4805-sonli qarori.

Sh.A.Mamajonov "Talabalarda ekologik bilimlarni singdirishda-fanlararo integratsiya davr talabi" Uzluksiz ta'lim ilmiy-uslubiy jurnali 2023-yil 5-son 17-22 betlar.

Sh.A.Mamajonov va boshqalar "Kimyoni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" elektron o'quv qo'llanma Farg'ona 2024.

I. X., Mamajonov Sh.A. Kimyo darslarida tabiiy-ilmii savodxonlikni shakllantirishda fanlararo integratsiya – muhim omil

## OPTIKA FANI MAVZULARINI KOLLOBRATIV TA'LIM ASOSIDA O'QITISHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALARI

*Xolmetov Shavkat,*

*Toshkent shaxar Yunusobod t. 265 - umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Ushbu tadqiqot fizikaning murakkab va mavhum bo'limi bo'lgan optikani o'qitish va o'qitishga hamkorlikdagi ta'lim strategiyalarining ta'sirini o'rganadi. Aralash metodli tadqiqot loyihasi orqali tadqiqot hamkorlikda o'rganish samaradorligini an'anaviy ma'ruzaga asoslangan ta'lim bilan solishtiradi. Oldindan va keyingi testlardan olingan miqdoriy ma'lumotlar hamkorlikdagi guruhda sezilarli o'rganish yutuqlarini ko'rsatadi, bu sinfdagi kuzatuvlar, talabalar intervyulari va guruhlarining o'zaro ta'sirini tahlil qilish natijasida olingan sifatli tushunchalar bilan tasdiqlanadi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, hamkorlikdagi ta'lim nafaqat akademik natijalarni yaxshilaydi, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Guruh dinamikasi va ishtiroki bilan bog'liq muammolar muhokama qilinadi, optika ta'limida hamkorlikda o'rganishni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

*Kalit so'zlar: hamkorlikdagi ta'lim, optika, fizika ta'limi, tengdoshlarga o'qitish, muammoli ta'lim, guruh dinamikasi, tanqidiy fikrlash, stem ta'limi, faol o'rganish, talabalarning faolligi.*

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ ОПТИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ НА ОСНОВЕ СОВМЕСТНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Холметов Шавкат,*

*г.Ташкент Юнусабад г.Ташкент. 265 – учитель общеобразовательной школы.*

*Аннотация. В этом исследовании рассматривается влияние стратегий совместного обучения на преподавание и изучение оптики, сложной и Аннотацияной отрасли физики. Благодаря использованию смешанных методов исследование сравнивает эффективность совместного обучения с традиционным обучением на основе лекций. Количественные данные до и после тестов указывают на значительный прогресс в обучении в совместной группе, что подтверждается качественной информацией из наблюдений в классе, интервью со студентами и анализа группового взаимодействия. Результаты показывают, что совместное обучение не только улучшает академическую успеваемость, но и развивает критическое мышление, навыки решения проблем и командной работы. Обсуждаются вопросы, связанные с групповой динамикой и участием, и даются рекомендации по оптимизации совместного обучения в оптическом образовании.*

*Ключевые слова: совместное обучение, оптика, физическое образование, взаимное обучение, проблемное обучение, групповая динамика, критическое мышление, базовое обучение, активное обучение, вовлечение учащихся.*

## PEDAGOGICAL STRATEGIES OF TEACHING OPTICS SUBJECTS BASED ON COLLABORATIVE EDUCATION

*Kholmetov Shavkat,*

*a teacher of a general education school 265 Tashkent city Yunusabad.*

*Abstract. This study examines the effects of cooperative learning strategies on the*

*teaching and learning of optics, a complex and abstract branch of physics. Through a mixed-methods research design, the study compares the effectiveness of collaborative learning with traditional lecture-based instruction. Quantitative data from pre- and post-tests indicate significant learning gains in the collaborative group, supported by qualitative insights from classroom observations, student interviews, and analysis of group interactions. Findings show that cooperative learning not only improves academic performance, but also develops critical thinking, problem-solving, and teamwork skills. Issues related to group dynamics and participation are discussed, and recommendations are made for optimizing cooperative learning in optical education.*

*Keywords: cooperative learning, optics, physics education, peer teaching, problem-based learning, group dynamics, critical thinking, stem learning, active learning, student engagement.*

Kirish. Fizikaning asosiy bo'limi bo'lgan optika yorug'lik va uning materiya bilan o'zaro ta'sirini o'rganish bilan shug'ullanadi. U aks ettirish va sinishi kabi asosiy hodisalardan to'lqinlar aralashuvi, diffraksiya va qutblanish kabi murakkabroq mavzulargacha bo'lgan keng tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tushunchalar nafaqat fizikani tushunish uchun asosiy, balki turli xil texnologik ilovalarda, jumladan optikaga asoslangan asboblarda, telekommunikatsiyalar va hatto tibbiy tasvirlashda ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, optikani o'qitish va o'rganish uning printsiplarining mavhum tabiati va matematik qat'iylik tufayli qiyin bo'lishi mumkin.

Fizika ta'limida, xususan, optikada o'qitishning an'anaviy usullari ko'pincha ma'ruza asosida o'qitishga tayangan, bunda o'qituvchi bilimning asosiy manbai bo'lib, talabalar esa passiv ma'lumot oladilar. Ushbu usul faktik bilimlarni uzatishda samarali bo'lishi mumkin bo'lsa-da, u ko'pincha chuqur tushunish, tanqidiy fikrlash va kontseptsiyalarni real vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini targ'ib qilishda etishmaydi. Bundan tashqari, u o'quvchilarning turli xil o'rganish ehtiyojlari va uslublarini etarli darajada qondirmaydi, bu esa mavzuni o'zlashtirishga va yuzaki tushunishga olib keladi.

Bundan farqli o'laroq, hamkorlikdagi ta'lim yanada faolroq va o'quvchiga yo'naltirilgan ta'limga o'tishni anglatadi. Ijtimoiy konstruktivistik nazariyaga asoslanib, hamkorlikdagi ta'lim o'quv jarayonida ijtimoiy o'zaro ta'sirning rolini ta'kidlaydi. Bu o'quvchilarni guruhlariga bo'linib muammolarni yechish, tajribalar o'tkazish va munozaralarga kirishish, shu orqali jamoaviy sa'y-harakatlar orqali bilimlarni qurishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv nafaqat optika kabi murakkab mavzularni tushunishni kuchaytiradi, balki muloqot, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Ushbu maqolaning maqsadi hamkorlikdagi ta'limga asoslangan optika fanlarini o'qitishning pedagogik strategiyalarini o'rganishdir. Optika o'quv dasturiga hamkorlikda o'rganish usullarini integratsiyalash orqali o'qituvchilar yanada qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratishi mumkin. Ushbu maqolada optikani o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan turli xil hamkorlik strategiyalari muhokama qilinadi, ushbu yondashuvlarning afzalliklari va qiyinchiliklari ko'rib chiqiladi va ularni amalga oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Ushbu tadqiqot orqali maqola fizika ta'limini takomillashtirish bo'yicha davom etayotgan nutqqa hissa qo'shish va o'qituvchilarga optika bo'yicha talabalarning o'rganish natijalarini oshirish bo'yicha qimmatli tushunchalarni taqdim etishni maqsad qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Murakkab ilmiy fanlarni o'qitishda hamkorlikdagi ta'lim strategiyalarining samaradorligi turli fanlar, jumladan, fizika bo'yicha ham keng o'rganilgan. Ushbu adabiyot sharhi hamkorlikda o'qitish metodologiyasi, ularning optika ta'limida talabalar

natijalariga ta'siri va ularni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik asoslar bo'yicha mavjud tadqiqotlarni o'rganadi. Ko'rib chiqish bir necha asosiy yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilgan: hamkorlikda o'rganishning nazariy asoslari, fan ta'limidagi hamkorlik strategiyalarining afzalliklari, optikani o'qitishda o'ziga xos ilovalar va ushbu yondashuvlar bilan bog'liq muammolar va mulohazalar.

Birgalikda o'rganish ta'limning ijtimoiy konstruktivistik nazariyasiga asoslanadi, bu bilimlar ijtimoiy o'zaro ta'sir va umumiy tajribalar orqali shakllantiriladi (Vygotskiy, 1978). Ushbu paradigma kognitiv rivojlanishdagi hamkorlikning rolini ta'kidlab, o'quvchilar tengdoshlari bilan muammolarni hal qilish va tushunchalarni muhokama qilishda chuqurroq tushunishga erishishlarini taklif qiladi. Vygotskiyning proksimal rivojlanish zonasi (ZPD) kontsepsiyasi o'quvchilar ko'proq bilimli boshqalar bilan hamkorlik qilish orqali o'zlarining shaxsiy imkoniyatlaridan tashqariga qanday o'tishlari mumkinligini ta'kidlaydi.

Vygotskiyning ishiga asoslanib, Jonson va Jonson (1989) ijobiy o'zaro bog'liqlik, individual javobgarlik, rag'batlantiruvchi o'zaro ta'sir, ijtimoiy ko'nikmalar va guruhlarni qayta ishlash kabi muhim elementlarni belgilab beruvchi hamkorlikda o'rganish modelini ishlab chiqdilar. Ushbu komponentlar o'quvchilar birgalikdagi o'quv maqsadlari sari shaxslararo kompetensiyalarni rivojlantirishda birgalikda ishlaydigan tizimli muhitni yaratadi.

Slavin (1995) talabalar jamoalari - muvaffaqiyat bo'limlari (STAD) va jamoalar - o'yinlar - turnir (TGT) modellarini joriy qilish orqali nazariy asosga qo'shimcha hissa qo'shdi va tuzilgan guruh faoliyati akademik muvaffaqiyat va motivatsiyani qanday oshirishi mumkinligini ko'rsatdi. Ushbu modellar ta'lim kontekstlarida keng qo'llanilgan va moslashtirilgan bo'lib, turli fanlar, jumladan, fizika va optika bo'yicha hamkorlik strategiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Fan ta'limida hamkorlikda o'qitishning afzalliklari

Tadqiqotlar doimiy ravishda hamkorlikda o'rganish yondashuvlari fan ta'limida katta foyda keltirishini ko'rsatdi. Freeman va boshqalar. (2014) 225 ta tadqiqotning meta-tahlilini o'tkazdi va faol o'rganish strategiyalari, jumladan, hamkorlik usullari talabalarning samaradorligini oshirishga va STEM kurslarida an'anaviy ma'ruzalarga nisbatan muvaffaqiyatsizlik darajasini kamaytirishga olib keldi.

Fizika ta'limi kontekstida Heller va boshqalar. (1992) kooperativ guruhlarda muammolarni hal qilish talabalarning kontseptual tushunchalarini va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishini ko'rsatdi. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, guruhlarda ishlaydigan o'quvchilar individual ishlaganlarga qaraganda mulohazalarni ifodalash, noto'g'ri tushunchalarga qarshi turish va tushunchalarni murakkab muammolarga qo'llash qobiliyatiga ega.

Bundan tashqari, hamkorlikda o'rganish tanqidiy fikrlash va yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Gokhale (1995) birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanadigan o'quvchilar individual ta'lim sharoitlariga qaraganda yuqori darajadagi tanqidiy fikrlash qobiliyatini namoyon etishini aniqladi. Bu, ayniqsa, murakkab hodisalarni tushunish uchun mavhum tushunchalar va analitik mulohazalarni birlashtirishni talab qiladigan optika ta'limida ayniqsa dolzarbdir.

Hamkorlikda o'rganish ham o'quvchilarning faolligiga va motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Springer va boshqalar. (1999) ta'kidlaganidek, kichik guruhlarda o'qitishda ishtirok etayotgan o'quvchilar o'zlarining ta'lim tajribalaridan yuqori darajada qiziqish va qoniqish bildirishgan. Ushbu faollik optika kabi qiyin mavzularda e'tibor va harakatni davom ettirish uchun zarurdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Optika fanlarini o'qitishda hamkorlikdagi ta'lim strategiyalarining samaradorligini o'rganish bo'yicha tadqiqot metodologiyasi sifat va miqdoriy yondashuvlar orqali har tomonlama tahlil qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu bo'limda tadqiqot dizayni, ishtirokchilar, ma'lumotlarni yig'ish usullari va tadqiqotda qo'llaniladigan ma'lumotlarni tahlil qilish usullari ko'rsatilgan.

Ushbu tadqiqot hamkorlikdagi ta'limning talabalarning optika bo'yicha o'rganishiga ta'sirini keng tushunish uchun miqdoriy va sifat yondashuvlarini birlashtirgan aralash usullar tadqiqot dizaynidan foydalanadi. Miqdoriy komponent talabalarning ta'lim natijalarini o'lchash uchun oldingi va keyingi testlarni o'z ichiga oladi, sifat komponenti esa sinfdagi kuzatishlar, o'quvchilar bilan suhbatlar va hamkorlikda o'rganish dinamikasini o'rganish uchun guruhlarining o'zaro munosabatlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot ikkita universitetda optika bo'yicha bakalavriat kurslarida tahsil olayotgan talabalarni o'z ichiga oladi. Jami 120 nafar talaba ishtirok etdi, ulardan 60 nafari eksperimental guruhda (hamkorlikdagi ta'lim) va 60 nafari nazorat guruhida (an'anaviy ma'ruza asosida o'qitish). Talabalar turli akademik qobiliyatlar va kelib chiqishining vakillik aralashmasini ta'minlash uchun maqsadli tanlab olish yordamida tanlandi. Bundan tashqari, hamkorlikdagi o'quv mashg'ulotlarini osonlashtirish va qo'llaniladigan o'qitish strategiyalari bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirish uchun optikani o'qitish tajribasiga ega 10 nafar fizika o'qituvchisi tanlab olindi.

Hamkorlikdagi ta'lim samaradorligini miqdoriy baholash uchun eksperimental va nazorat guruhlariga oldingi va keyingi testlar o'tkazildi. Bu testlar o'quvchilarning sinishi, diffraksiya va qutblanish kabi asosiy optika tushunchalarini tushunishlarini o'lchash uchun mo'ljallangan. Dastlabki test kursning boshida boshlang'ich darajani o'rnatish uchun o'tkazildi, keyingi test esa o'quv yutuqlarini baholash uchun kurs oxirida o'tkazildi.

Tahlil va natijalar. Tahlil va natijalar bo'limida hamkorlikdagi ta'lim strategiyalarining o'quvchilarning optika tushunchalarini tushunishlariga ta'siriga e'tibor qaratilib, tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Natijalar ikkita asosiy bo'limga ajratilgan: testdan oldingi va keyingi ballarning miqdoriy tahlili va sinfdagi kuzatuvlarning sifat tahlili, o'quvchilar suhbatlari va guruhlarining o'zaro ta'siri.

Birlamchi miqdoriy ma'lumotlar eksperimental guruhga (hamkorlikdagi ta'lim) va nazorat guruhiga (an'anaviy ma'ruzaga asoslangan ta'lim) o'tkazilgan oldingi va keyingi testlardan olingan. Sinovlar talabalarning asosiy optik tushunchalarni, jumladan, sinishi, diffraksiya va qutblanishni tushunishlarini baholadi.

Sinovdan oldingi natijalar: Eksperimental guruh va nazorat guruhi uchun o'rtacha testdan oldingi ballar o'xshash edi, bu ikki guruh o'rtasidagi boshlang'ich bilimlarda sezilarli farq yo'qligini ko'rsatdi. Eksperimental guruh uchun testdan oldingi o'rtacha ball 45,2% ni, nazorat guruhida esa 46,1% ni tashkil etdi.

Testdan keyingi natijalar: hamkorlikdagi ta'lim strategiyalarini amalga oshirgandan so'ng, eksperimental guruh optika tushunchalarini tushunishda sezilarli yaxshilanishni ko'rsatdi. Eksperimental guruh uchun testdan keyingi o'rtacha ball nazorat guruhi uchun 61,4% ga nisbatan 78,3% ni tashkil etdi. Eksperimental guruhdagi yaxshilanish statistik ahamiyatga ega bo'lib, p-qiymati 0,01 dan kam bo'lib, hamkorlikdagi ta'lim yondashuvi talabalarning ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi.

Ta'lim yutuqlari: Eksperimental guruh uchun o'rtacha o'rganish yutuqlari (testdan oldingi va testdan keyingi ballar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan) 33,1 foiz punktini tashkil etdi, nazorat guruhi esa 15,3 foiz punktini ko'rsatdi. Ikki guruh o'rtasidagi ta'lim yutuqlaridagi farqning ta'sir hajmi (Koen d) 0,87 ni tashkil etdi, bu hamkorlikdagi ta'lim strategiyalarining talabalarning optikani o'rganishiga katta ta'sirini ko'rsatadi.

Statistik tahlil har bir guruh ichidagi testdan oldingi va keyingi ballarni solishtirish

uchun juftlashtirilgan namunaviy t-testlarni va eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasidagi testdan keyingi ballarni solishtirish uchun mustaqil t-testlarini o'z ichiga oladi.

Juftlangan namuna T-testlari: Eksperimental guruh uchun juftlashtirilgan namuna t-testi testdan oldingi va keyingi test ballari o'rtasida sezilarli farqni ko'rsatdi ( $t = 10,67$ ,  $p < 0,001$ ). Xuddi shunday, nazorat guruhi ham sezilarli yaxshilanishni ko'rsatdi, garchi ta'sir kamroq aniq bo'lsa ham ( $t = 5,29$ ,  $p < 0,01$ ).

Mustaqil namunali T-testlar: Eksperimental va nazorat guruhlari o'rtasidagi testdan keyingi ballarni solishtirgan mustaqil namunali t-testi hamkorlikdagi o'quv muhitidagi o'quvchilar o'z tengdoshlari an'anaviy o'quv jarayonida o'z tengdoshlaridan ustun bo'lganligini tasdiqlovchi muhim farqni aniqladi ( $t = 4.72$ ,  $p < 0.01$ ).

Ushbutadqiqot natijalar talabalarning murakkab optika tushunchalarini tushunishlarini kuchaytirishda hamkorlikdagi ta'lim samaradorligini ta'kidlaydi. Eksperimental guruhda kuzatilgan muhim o'rganish yutuqlari hamkorlikdagi strategiyalar an'anaviy ma'ruzaga asoslangan usullarga nisbatan yaxshiroq akademik natijalarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, sifatli ma'lumotlar hamkorlikda o'rganish bilimlarni shakllantirishni osonlashtiradigan mexanizmlar, jumladan tengdoshlarni o'qitish, rollarni taqsimlash va konstruktiv ziddiyat haqida qimmatli tushunchalarni beradi.

Biroq, guruh dinamikasida aniqlangan muammolar o'qituvchilar hamkorlikda o'rganishning afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun guruh faoliyatini diqqat bilan tuzish va ularga yordam berishlari kerakligini ko'rsatadi. Kelajakdagi tadqiqotlar guruhlarning birlashishini yaxshilash va talabalarning teng ishtirokini ta'minlash strategiyalarini o'rganishi mumkin.

Optika fanlarini o'qitishda hamkorlikdagi ta'lim strategiyalarining integratsiyalashuvi o'quvchilarning murakkab ilmiy tushunchalar bilan tushunish va faolligini oshirish uchun kuchli yondashuvni taklif qiladi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hamkorlikdagi o'quv muhitida ishtirok etadigan talabalar nafaqat yuqori akademik natijalarga erishadilar, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va jamoalarda samarali ishlash qobiliyatini rivojlantiradilar. Nazorat guruhiga nisbatan eksperimental guruhda kuzatilgan sezilarli o'rganish yutuqlari optika kontekstida hamkorlikdagi ta'lim samaradorligining kuchli dalillarini beradi.

Sifatli tahlil hamkorlikda o'rganish dinamik va interaktiv sinf muhitini qanday ta'minlashini ochib berish orqali ushbu topilmalarni yanada qo'llab-quvvatlaydi. Talabalar material bilan chuqurroq shug'ullanishdi, o'rtoqlarning ko'rsatmalaridan foyda olishdi va guruh muhokamalari va muammolarni hal qilish faoliyati orqali bilimlarni qurishdi. Shu bilan birga, tadqiqot guruh dinamikasi va ishtiroki bilan bog'liq muammolarni ham ta'kidlab, hamkorlik strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish o'qituvchilar tomonidan ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va yordam berishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, hamkorlikdagi ta'lim strategiyalari optikani o'qitish va o'rganishni takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishidir. Ushbu yondashuvlarni o'zlashtirgan holda, o'qituvchilar talabalarga nafaqat optika fanining nozik tomonlarini o'zlashtirishga yordam berishlari, balki ularning akademik va professional kelajagida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

Cakir, M. (2008). Constructivist Approaches to Learning in Science and Their Implications for Science Pedagogy: A Literature Review. *International Journal of Environmental and Science Education*, 3(4), 193-206.



Crouch, C. H., & Mazur, E. (2001). Peer Instruction: Ten years of experience and results. *American Journal of Physics*, 69(9), 970-977.

Gokhale, A. A. (1995). Collaborative Learning Enhances Critical Thinking. *Journal of Technology Education*, 7(1), 22-30.

Heller, P., Keith, R., & Anderson, S. (1992). Teaching problem solving through cooperative grouping. Part 1: Group versus individual problem solving. *American Journal of Physics*, 60(7), 627-636.

Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn? *Educational Psychology Review*, 16(3), 235-266.

Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (2014). Cooperative Learning: Improving University Instruction by Basing Practice on Validated Theory. *Journal on Excellence in College Teaching*, 25(4), 85-118.

Mazur, E. (1997). *Peer Instruction: A User's Manual*. Prentice Hall.

Springer, L., Stanne, M. E., & Donovan, S. S. (1999). Effects of Small-Group Learning on Undergraduates in Science, Mathematics, Engineering, and Technology: A Meta-Analysis. *Review of Educational Research*, 69(1), 21-51.

## MOBILLIK TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI

*Xidoyatova Nargiza Sadiqjonovna,  
Yunusobod tumani 5-sonli maktab direktori, Toshkent, O'zbekiston*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik-psixologik adabiyotlar asosida mobillikning turli shakllari, ularning mazmuni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda mobillikning shaxsiy, akademik, kasbiy va ijtimoiy-madaniy shakllari, shuningdek, kognitiv mobillikning tanqidiy tafakkur va ijodiy faoliyatni rivojlantirishdagi o'rnini ko'rsatib berilgan.*

*Kalit so'zlar: mobillik, shaxsiy mobillik, akademik mobillik, kasbiy mobillik, kognitiv mobillik.*

## ПОНЯТИЕ МОБИЛЬНОСТИ И ЕЕ ВИДЫ

*Хидоятова Наргиза Садикжановна,  
Директор школы №5 Юнусабадского района, г.Ташкент, Узбекистан*

*Аннотация. В статье на основе педагогической и психологической литературы проанализированы различные формы мобильности, их содержание и значение. В исследовании рассмотрены личностная, академическая, профессиональная и социально-культурная мобильность, а также роль когнитивной мобильности в развитии критического мышления и творческой деятельности.*

*Ключевые слова: мобильность, личная мобильность, академическая мобильность, профессиональная мобильность, когнитивная мобильность.*

## THE CONCEPT OF MOBILITY AND ITS TYPES

*Nargiza Sadikjanovna Khidoyatova,  
Director of School No. 5 of Yunusabad district, Tashkent, Uzbekistan*

*Abstract. This article analyzes different forms of mobility based on pedagogical and psychological literature, examining their content and significance. The study highlights personal, academic, professional, and socio-cultural mobility, as well as the role of cognitive mobility in fostering critical thinking and creative activities.*

*Keywords: mobility, personal mobility, academic mobility, professional mobility, cognitive mobility.*

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantirishi", shuningdek, davlat tomonidan "yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga" [1] e'tibor qaratilgan. Qomusimizda belgilangan ushbu bandlar o'quvchi-yoshlarni har tomonlama rivojlantirish, intellektual salohiyatlarini oshirish va ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu qoidalar o'quvchilarning ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishiga rag'batlantiradi va ulardan moslashuvchanlik, doimiy o'zgarishlarga tayyorlik, hamda mobillik kabi zaruriy sifatlarni shakllantirishni talab qiladi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga ko'ra, mobillik quyidagi shakllarga ajratiladi: shaxsiy, kognitiv (bilishga oid), akademik, kasbiy (professional), kommunikativ, ijtimoiy, madaniy, ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy. Bu turlar har birining o'ziga xos xususiyatlari va

ta'lim jarayonidagi ahamiyati bilan ajralib turadi.

P.A.Sorokin "ijtimoiy mobillik deganda shaxs yoki ijtimoiy voqelikka oid har qanday o'zgarishlarni, ya'ni inson faoliyati bilan yaratilgan, o'zgartirilgan, bir ijtimoiy pozitsiyadan ikkinchisiga o'tishga doir jarayonni tushunadi" [2]. Olim shaxsning ijtimoiy makonda harakatlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni tahlil qilib quyidagi ikki shartga e'tibor qaratadi: 1) mashg'ulotning (kasbning) butun guruhning omon qolishi va faoliyati uchun ahamiyatligi; 2) kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zaruriy aql-zakovat darajasiga egalik [2].

P. Sorokin ijtimoiy mobillikni bir necha turlarga ajratadi:

Vertikal va gorizontol mobillik. Gorizontol mobillik shaxsning bir ijtimoiy guruhdan boshqa, lekin bir xil darajadagi guruhga o'tishini ifodalaydi. Bu jarayon shaxsning diniy e'tiqodi, davlat fuqaroligi, millati, kasbi, oilaviy ahvoli va boshqa ijtimoiy atributlari o'zgarishi bilan bog'liq. Vertikal mobillik esa shaxsning ijtimoiy maqomini yuqoriga ko'tarilishi yoki pastga tushishini anglatadi.

Individual va guruhli mobillik. Ijtimoiy pozitsiyaning yuqoriga yoki pastga o'zgarishi individual va guruhli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ixtiyoriy va jamiyatdagi tarkibiy o'zgarishlar mobilligi. Bu turdagi mobillik jamiyatdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq [2].

Shuningdek, ijtimoiy mobillik tushunchasi bilan bir qatorda «kasbiy mobillik» tushunchasi ham ilmiy adabiyotlarda ko'p uchraydi. Z. Bagisheva va L. Amirova tadqiqotlarida kasbiy mobillik kasbiy kompetensiyaning bir qismi sifatida qaralsa [3], E. Giddens va V. Yadov tadqiqotlarida bu tushuncha subyektning faoliyati, jamiyat va shaxs taraqqiyotiga hissa qo'shish bilan bog'liq [4].

Mobillik tushunchasining bir turi sifatida kognitiv mobillik ham muhim o'rin tutadi. Ilmiy izlanishlarda kognitiv mobillik shaxsning kognitiv faolligi, intellektual moslashuvchanligi, yangi bilim va tajribalarni izlab topishga moyilligi, tadqiqot faoliyatiga qiziqishi, ijodiy fikrlash va harakat qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu tushuncha tanqidiy fikrlash qobiliyati, o'z pozitsiyasini shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish va bu qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi tarkibiy qismlarni ham qamrab oladi [8].

Kognitiv mobillik shaxsning intellektual barqarorligini ham ta'minlaydi, ya'ni muammoli vaziyatlarda tez va samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu qobiliyat, ayniqsa, muammoli vaziyatlarda ijodiy va innovatsion yechimlar topish uchun zarurdir. Kognitiv mobillikning tarkibiy qismlari o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki ular shaxsning yangi bilimlarni o'zlashtirish, ular asosida tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

Kognitiv mobillik, shuningdek, o'quvchilarda izlanish va tadqiqot faoliyatini olib borishga bo'lgan intilishlarni kuchaytiradi. Bu mobillik turining rivojlanishi talabalar va yosh mutaxassislarining tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, kognitiv mobillikka ega shaxslar murakkab masalalarni hal qilishda muvaffaqiyatga erishishadi, innovatsion qarorlar qabul qilishda faol bo'lishadi va o'z bilimlarini amaliyotda samarali qo'llashadi.

Kognitiv mobillikni rivojlantirish shaxsning faqat bilim olish bilan cheklanib qolmasdan, ularni amaliyotda qo'llashga qaratilgan faoliyatlarda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu esa zamonaviy jamiyatda muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, kognitiv mobillik shaxsning bilim va qobiliyatlarini amaliyotga yo'naltirish, muammolarni samarali hal qilish va doimiy o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim kognitiv sifatdir.

A.N.Sheremet madaniy mobillikni "shaxs tomonidan etnik guruhning madaniy an'analarini tabiiy ravishda idrok etish, ko'p madaniyatli plyuralizm tamoyiliga amal qilish asnosida madaniy qadriyatlarni anglash, yangi madaniy qadriyatlarni yaratishga intilishi, ularni jahon

madaniyati asarlari bilan solishtirishdan iborat madaniy xabardorlikni anglatadi” [5] deb izohlaydi.

Shuningdek, L.V.Goryunovning ilmiy izlanishlarida ta’lim jarayoniga nisbatan madaniy mobillik tushunchasi qo’llanganda “ijodkorlik, mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlash, voqealarni refleksiv anglay olish, yangi vaziyatlarda nostandart yechimlarni topish, o’zgarishlarning tabiati va borishini oldindan bilish qobiliyati” tushunilishi ta’kidlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda “ijtimoiy-madaniy mobillik” tushunchasi jamiyat va madaniyatning dinamik xususiyatlarini aks ettiradi. I.V. Vasilenko ijtimoiy-madaniy mobillikni “atrof-muhitga moslashish yoki unga faol ta’sir ko’rsatish uchun zarur bo’lgan subyektiv harakatchanlik darajasini ta’minlovchi ijtimoiy subyektlarning ichki hayotiy elementlarining yig’indisi” deb ta’riflaydi. Bu tushuncha shunga ishora qiladiki, inson o’z atrofidagi madaniy va ijtimoiy o’zgarishlarga interaktiv va faol javob berishi zarur.

Ijtimoiy-madaniy mobillik insonning o’zining ijtimoiy va madaniy muhitiga moslashuvchanlik qobiliyati, yangi madaniy qadriyatlar va an’analarni qabul qilish, yoki o’ziga xos madaniy qiymatlar va qarashlarni joriy qilish imkoniyatlarini o’z ichiga oladi. Bu mobillik turi insonning jamiyatdagi o’zgarishlarga faol adaptatsiya qilishini va shu o’zgarishlarga ta’sir ko’rsatishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy-madaniy mobillik zamonaviy jamiyatdagi murakkab munosabatlarni anglab yetishda muhim omildir. Bu mobillik faoliyati orqali inson o’z qadriyatlarini va madaniy ko’nikmalarini yangilash, kengaytirish va o’zlashtirishga intiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy mobillik insonning jamiyat va madaniyatdagi o’rnini mustahkamlaydi, uning ijtimoiy rolini kengaytiradi hamda u jamiyatda faol ishtirokchi sifatida namoyon bo’lishini ta’minlaydi [6].

Shuningdek, pedagogik-psixologik adabiyotlarda ijtimoiy-madaniy mobillik shaxsning ichki harakatchanligi sifatida talqin qilinib, o’zida ijtimoiy, shaxsiy, biologik omillar hamda faol va passiv komponentlar majmui sifatida anglashiladi. Bunda passiv komponent shaxsning vaziyatga moslashuvini nazarda tutsa, faol komponent esa maqsadni belgilash, vaziyatlarni tahlil qilish, muammolarni hal qilish, ijobiy o’zgarishlarni yuzaga chiqarishni ifodalaydi.

Pedagogika fani doirasida B.Skinner, N.M.Talanchuk kabi olimlar shaxsning tarbiyaviy mobilligini tadqiq etib, ushbu hodisani “o’quvchilarning o’qituvchi bilan o’zaro munosabatida uning tarbiyaviy ta’siriga adekvatligi, maqsad va vazifalarga muvofiq shakllanishga tayyorligi va qobiliyatini ifodalovchi yaxlit va dinamik holati” [9] sifatida qiladilar.

Tarbiyaviy faoliyatga oid mobillik o’quvchi shaxsning yaxlit holati sifatida anglashilib, bunda har bir tarkibiy qism zanjirli reaksiyani yuzaga keltirishi bilan xususiyatlanadi. Ya’ni ta’lim oluvchi shaxsning pozitsiyasi tarbiyaviy ta’sirni idrok etish, o’qituvchi bilan o’zaro munosabatda adekvat bo’lishga tayyorligini aks ettiradi.

Geografik mobillik – bir joydan ikkinchi joyga bir xil ijtimoiy maqomni saqlab turgan holda ko’chishni nazarda tutib, asosan migratsion xususiyatlarni o’zida mujassamlashtiradi.

Shuningdek, sohaga oid adabiyotlarda akademik mobillik va bilishga doir mobillik kabi tushunchalar ham faol qo’llanilganligini ko’rishimiz mumkin. L.V.Znovenko akademik mobillikni shaxsiy neoplazma deb hisoblab, bu o’quv jarayoni subyektiv faoliyatining natijasi deb hisoblaydi. Ya’ni, tanlangan kasbning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim oluvchi tomonidan individual ta’lim yo’nalishini ishlab chiqish va amalga oshirishni o’z ichiga oladi [10].

N.K.Dmitrievaning tadqiqotlarida ta’lim jarayoni ishtirokchilarining akademik mobilligi o’quv jarayonida shakllanadigan va uning tarkibiy qismlarining dinamik holatini ifodalovchi, o’zini va atrof-muhitni o’zgartirish, moslashtirishga doir qobiliyatligi va ushbu jarayonga tayyorligini tavsiflovchi shaxsga oid fazilat tariqasida izohlanadi [7].

Bilishga doir mobillik o’quvchining voqelikni bilishga bo’lgan ehtiyoji, ta’lim

muammolarini hal qilish yo'llarini mustaqil ravishda topish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda o'z bilimlaridan foydalanish qobiliyati, olingan bilimlarni boshqa faoliyatga kiritish ko'nikmalari kabi fazilatlarga ega bo'lishni taqozo etadi.

Bilishga doir mobillik - bu shaxsning bilish jarayoniga, uning intellektual, hissiy va kommunikativ-irodaviy qobiliyatlariga bo'lgan ijobiy hissiy munosabatida ifodalangan, axborotni idrok etishga va uni egallashga tayyorlikda namoyon bo'ladigan shaxsning sifat jihatdan shakllanishidir [11]. Ushbu mobillik turida ta'lim oluvchi shaxsi fanning asosiy tushunchalari va mazmuni bilan ishlashda yetarlicha erkinlikka ega bo'lishi, o'quv-bilishga oid topshiriqlar ijodiylikni talab etishi, o'z navbatida, ta'lim oluvchilar ma'lum darajadagi bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishi ham talab etiladi.

Shuningdek, sohaga oid adabiyotlar mazmunida kasbiy mobillik turiga ham alohida to'xtalib o'tiladi. Kasbiy mobillik shaxsning o'z kasbiy maqomini to'liq yoki qisman o'zgartirishini ifodalab, uning asosida yuqori darajadagi kasbiy bilim, kasbiy texnika va ko'nikmalarni egallash, shuningdek, o'z kasbi bo'yicha har qanday vazifani bajarishda ularni samarali qo'llay olishni aks ettiradi.

Ilmiy-nazariy tahlillar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, barqaror kognitiv qiziqishlar shaxsning kasbiy faoliyatga moyilligini oshiradi va bu jarayon rivojlanib boradi. Kasbiy qiziqishlarning doirasi aniqlanib, shaxs o'zining rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi va bu yo'lda mustaqil yoki kattalar yordami bilan harakat qiladi. Kasbiy yo'nalishni tanlashda ixtiyoriy fanlarni tanlash, tanlov kurslariga qatnashish, va turli loyihalarda ishtirok etish orqali shaxs o'z manfaatlarini qondirishga intiladi.

Bu jarayon shaxsning kasbiy qiziqishlarini chuqurroq anglashga, o'z yo'nalishini to'g'ri tanlashga va bu orqali kasbiy muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Tanlov kurslari va ixtiyoriy fanlar orqali shaxs o'z qiziqishlarini amalda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi, bu esa uning kasbiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Loyihalarda ishtirok etish esa shaxsning tajribasini oshirish va yangi qobiliyatlarni rivojlantirish uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning kognitiv qiziqishlari va kasbiy moyilliklari kasbiy tanlov jarayonida katta rol o'ynaydi. Bu jarayon kasbiy qiziqishlarni aniqlash va rivojlantirish, o'z yo'nalishini belgilash va kasbiy muvaffaqiyatga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

О'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil 30-aprel.

Сорокин П.А. Социальная стратификация и мобильность. Человек. Цивилизация. Общество, 1992.

Амирова Л.А., Багишев З. Профессионально-педагогическая мобильность учителя. Alma Mater, 2004.

Гидденс Э. Социология. Едиториал УРСС, 2005.

Шеремет А.Н. Об академической мобильности будущих учителей информатики. Новокузнецк: Изд-во КузГПА, 2006.

Василенко И.В. Социокультурная мобильность как философская проблема. Волгоград, 1996.

Дмитриева Н.К. Академическая мобильность как личностное качество субъектов образовательного процесса. Петрозаводск: Изд-во ПетрГН. S. Mobillik tushunchasi va uning turlari

## **TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI**

*Yuldasheva Yulduz Muhammedovna,  
Qo'qon universiteti Ta'lim muassasalarining boshqaruvi yo'nalishi magistranti*

*Qo'chqarova Feruza Maxammadqosimovna,  
p.f.b.f.d. (PhD), Andijon davlat universiteti pedagogika kafedrasi professori*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada metod, yoshga mos o'qitish metodikasi, ta'lim boshqaruvining samaradorligini oshirish, sifatni baholash va monitoring, professional rivojlanish, hamkorlik va jamoat aloqalari, ta'lim jarayonini boshqarishni takomillashtirish metodikasi yoritib berilgan.*

*Kalit so'zlar: metod, ta'lim jarayonini boshqarishni takomillashtirish metodikasi, tahlil va rejalashtirish, innovatsion yondashuvlar, yoshga mos o'qitish metodikasi.*

## **METHODOLOGY FOR IMPROVING THE MANAGEMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS**

*Yuldasheva Yulduz Muhammedovna,  
Master's student, Direction of Management of educational institutions, Kokand  
University*

*Kuchkarova Feruza Makhammadkosimovna,  
Doctor of Philosophy (PhD), Professor of the Department of Pedagogy, Andijan  
State University*

*Abstract. This article describes the method, age-appropriate teaching methodology, improving the effectiveness of educational management, quality assessment and monitoring, professional development, cooperation and public relations, and the methodology of improving the management of the educational process.*

*Keywords: method, methodology for improving the management of the educational process, analysis and planning, innovative approaches, age-appropriate teaching methodology.*

## **МЕТОДОЛОГИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ**

*Юлдашева Юлдуз Мухаммедовна,  
Магистрант направления «Менеджмент образовательных учреждений»  
Кокандского Университета*

*Кучкарова Феруза Махаммадкосимовна,  
д.ф.п.н. (PhD), профессор кафедры педагогики Андигжанского  
государственного университета*

*Аннотация. В данной статье описаны метод, соответствующая возрасту методика обучения, повышения эффективности управления образованием, оценки и контроля качества, профессионального развития, сотрудничества и связей с общественностью, а также методика совершенствования управления образовательным процессом.*

*Ключевые слова: метод, методика совершенствования управления*

*образовательным процессом, анализ и планирование, инновационные подходы, возрастная методика обучения.*

O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy madaniy-ma'rifiy sohalarda katta ahamiyatga ega bo'lgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Barpo etilayotgan yangi bozor munosabatlariga asoslangan demokratik, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati insonlarning jamiyat hayotiga, mehnatga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirishini talab etadi. Endilikda har bir kishi o'zgalarga emas, balki shaxsan o'zining imkoniyatlariga, qobiliyati va iste'dodiga tayanishi, shulardan kelib chiqib yashashi kerak. Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat[1].

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi"dagi 08.10.2019 yil PF-5847-sonli farmonida keltirilib o'tilgan[2].

Ta'lim jarayonini boshqarishni takomillashtirish metodikasini bo'yicha olimlar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Michael Fullan ta'lim jarayonida o'zgarishlarni boshqarish va yetakchilik qilish bo'yicha metodik yondashuvlarni ko'rsatadi. John Hattie o'qitish va o'rganish samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar va baholash metodikalarini taqdim etadi. Chris Brow ta'lim boshqaruvi va tashkilot nazariyasi bo'yicha metodik ko'rsatmalar beradi. Philippe Perrenoud kompetensiyalarni rivojlantirish va ta'lim jarayonini boshqarish bo'yicha metodik yondashuvlarni o'rganib chiqishgan. Robert Marzano ta'lim samaradorligini oshirish uchun ilmiy tadqiqotlarga asoslangan o'qitish strategiyalarini, Hargreaves, A., & Fullan, M. o'qituvchilarning professional rivojlanishi va ta'lim boshqaruvi takomillashtirish bo'yicha metodik yondashuvlarni o'rganib chiqishgan[3].

Hayotimiz davomida juda ham ko'p atamalarga duch kelamiz. Ba'zan ularning aynan nima anglatishini bilmay turib ham qo'llab ketaveramiz. Bugun ham o'zim kuzatgan ikki atama haqida aytib bermoqchiman. Metod va metodologiya atamalarini ko'pchilik to'liq farqlamasligini, ikkisini asl ma'nosida qo'llamasligining guvohi bo'ldim, ana shuning uchun ham bu ikki atamaning o'zim bilgan angllamlari haqda yozishga qaror qildim. Bu maqolada metod hamda metodologiya atamalariga izoh beramiz, ularning asosiy farqlarini ko'rsatamiz. Ushbu izohlarni turli lug'atlarda qanday qo'llangani bilan tanishtiramiz.

Metod nima?

Metod — (yunoncha *metodos* — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l, yo'riqlar, usullar majmui[4].

Maqsadga yetishishda ma'lum to'siqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbir-choralar majmui usul (metod) deyiladi. Maqsadga yetishishda kishi bir necha, goho o'nlab, yuzlab to'siqlarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi. Bu to'siqlarni yengish uchun

tegishli usullarni ma'lum bir tartibda qo'llaydi. Maqsadga yetishishdagi qo'llaniladigan usullar tizimi uslub yoki yo'l (metodika) deyiladi[5].

Metod yunoncha "methodos — tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot" so'zidan kelib chiqqan bo'lib:

- 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish yo'li;
- 2) haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish yo'llari;
- 3) kutilayotgan natijaga erishish usullari;
- 4) voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari[6].

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki metod tushunchasi umumiy ma'noda usul ma'nosini anglatadi. Ya'ni biror maqsadga erishish yo'lida siz qo'llaydigan usul. Aytaylik, daraxtga chiqish uchun qo'llaydigan harakatlaringiz daraxtga chiqish metodi hisoblanadi. O'qitishda ham xuddi shunday, sizning oldingizda muammo bor — o'quvchilarga A harfini yozishni o'rgatish. Ana shu muammoni yechish uchun qo'llaydigan har qanday usullaringiz metod hisoblanaveradi.

Ilmiy ishdagi metod ta'lim jarayonidagi metoddan biroz farq qiladi. Ilmiy ishdagi metod bu biror nimani aniqlash uchun siz qo'llaydigan vositalar. Ya'ni ma'lumotlarni (ilmiy ishingizdagi savolga javob berishga xizmat qiladigan) qanday yig'ishingiz. Masalan, intervyu, so'rovnoma, kuzatish va h.k.

Ya'ni ta'lim jarayonidagi metod bu usul bo'lsa ilmiy ish yozishdagi metod bu vosita.

Bu tadqiqotlardan kelib chiqqan holda, ta'lim jarayonini boshqarishni takomillashtirish metodikasi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

#### 1. Tahlil va rejalashtirish

- Ta'lim ehtiyojlarini tahlil qilish: O'quvchilarning, o'qituvchilarning va ta'lim muassasalarining ehtiyojlarini aniqlash.

- Ma'lumotlarni yig'ish: Ta'lim jarayonini boshqarishdagi mavjud muammolar va samaradorlikni baholash uchun ma'lumotlar to'plash.

- Strategik rejalashtirish: Aniq maqsadlar va rejalarni ishlab chiqish, ular yordamida ta'lim jarayonini qanday yaxshilash mumkinligini belgilash.

#### 2. Innovatsion yondashuvlar

- Pedagogik innovatsiyalar: O'qitish va o'rganish jarayonlarini yaxshilash uchun yangi metodikalar va texnologiyalarni joriy qilish.

- Texnologik vositalar: Ta'lim jarayonini boshqarish uchun IT vositalarini va onlayn platformalarni qo'llash, masofaviy ta'lim va interaktiv metodlarni rivojlantirish.

#### 3. Yoshga mos o'qitish metodikasi

- Differensial yondashuv: O'quvchilarning individual xususiyatlariga mos keladigan o'qitish uslublarini qo'llash.

- Konstruktsion pedagogika: O'quvchilarning o'z bilimlarini qurish va amaliy tajriba orqali o'rganishiga yordam beradigan metodikalar.

#### 4. Ta'lim boshqaruvining samaradorligini oshirish

- Maktab menejmenti: Maktab yoki ta'lim muassasasining boshqaruv strukturasi va jarayonlarini takomillashtirish.

- Liderlik va jamoa ishlari: O'qituvchilar va boshqaruvchilar o'rtasida samarali aloqa va hamkorlikni rivojlantirish.

#### 5. Sifatni baholash va monitoring

- Sifatni baholash: Ta'lim sifatini baholash uchun standartlar va mezonlarni belgilash.

- Monitoring va qayta baholash: Ta'lim jarayonining samaradorligini doimiy ravishda kuzatish va zaruriy o'zgarishlarni amalga oshirish.

#### 6. Professional rivojlanish

- O'qituvchilarning malakasini oshirish: O'qituvchilar uchun doimiy professional



rivojlanish va treninglar tashkil etish.

- Innovatsion amaliyotlar: Yangi pedagogik yondashuvlar va metodikalarni o'rganish va joriy qilish.

7. Hamkorlik va jamoat aloqalari

- Ota-onalar bilan ishlash: Ota-onalar va boshqa jamoat a'zolari bilan hamkorlikni rivojlantirish, ularni ta'lim jarayoniga jalb qilish.

- Hamkorlik va tarmoqlar: Boshqa ta'lim muassasalari va tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

Xulosa qilish mumkinki, bu metodikalar ta'lim jarayonini boshqarishning samaradorligini oshirish, ta'lim tizimining sifatini yaxshilash va o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi. Ushbu metodlar ta'lim jarayonini boshqarishni takomillashtirish metodikasini o'rganishda va amaliyotda qo'llashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son qonuni. – <https://lex.uz/docs/5013007>

Mirziyoev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartibintizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" T.: "O'zbekiston"-2017. 20-bet  
<https://www.csus.edu/div/j/jelinekd/edte%20227/fullanleadinginacultureofchange.pdf>

Pedagogik atamalar lug'ati, 2008. "Fan", Toshkent.

Ziyomhammadov Bo'ri, 2006. Pedagogika: oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. "Turon-iqbol", Toshkent.

Tojiboyev A., Yo'ldoshev A., 2009. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi: darslik. "Aloqachi", Toshkent.

## TA'LIM-TARBIYA SIFATINI TA'MINLASHDA OTA-ONALAR HAMKORLIGI

*Zaynitdinova Masuda Abdukadirovna,*

*Toshkent viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
"Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasi mudiri, dotsent*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan ishlarga to'xtalib o'tilgan, farzandlarimizning kelajagi uchun nafaqat davlatimiz tomonidan berilayotgan yuksak e'tibor balki birinchi navbatda ota-onalarning o'rni muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan. Ta'lim va tarbiyaning sifatli hamda samarali olib borilishida ota-onalarning o'rni ham katta ekanligi ta'kidlanib, maktabda ta'limi jarayonida bilimlarni o'zaro aloqadorlikda olib borish muhimligiga e'tibor qaratilgan.*

*Kalit so'zlar: sifatli ta'lim, ota-ona, shaxsiy namuna, taqlid, bolalar, hatti harakat, bola tarbiyasi*

## COOPERATION OF PARENTS IN ENSURING QUALITY OF EDUCATION

*Zainitdinova Masuda Abdukadirovna,*

*New teachers of the Tashkent region National Center for Methodological Training  
Head of the Department of Pedagogy, Psychology and Educational Technologies  
Associate Professor*

*Abstract. This article focuses on the work carried out in the education system of our country, it is shown that not only the high attention given by our state for the future of our children, but also the role of parents is important. It is emphasized that the role of parents is important in quality and effective education and training, and the importance of mutual communication of knowledge in the process of education at school is emphasized*

*Key words: quality education, parents, personal example, imitation, children, even action, child education*

## СОТРУДНИЧЕСТВО РОДИТЕЛЕЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

*Зайнитдинова Масуда Абдукадировна,*

*Новые педагоги Ташкентской области Национальный центр методической  
подготовки Заведующий кафедрой «Педагогика психология и образовательные  
технологии» доцент*

*Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется работе, проводимой в системе образования нашей страны, показано, что важно не только высокое внимание, уделяемое нашим государством будущему наших детей, но и роль родителей. Подчеркивается, что в качественном и эффективном образовании и обучении важна роль родителей, а также подчеркивается важность взаимной передачи знаний в процессе обучения в школе*

*Ключевые слова: качественное образование, родители, личный пример, подражание, дети, равномерные действия, воспитание детей.*

*Kirish. Mamlakatimizda sifatli ta'lim tizimini tashkil etishda yaratilayotgan imkoniyatlar, tub islohotlar, o'qitishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari va moddiy-texnik bazasini yaratish, malakali kadrlar bilan ta'minlash, xalqaro ilg'or tajribalardan*

keng foydalanish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar natijasida o'quv jarayoniga jahonning ilg'or tajribalarini keng joriy qilishga erishildi. O'tgan muddat mobaynida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xuquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yurtimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, shijoatli, tashabbuskor yoshlarni tarbiyalashda alohida tartibli tizim yaratildi. Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va yurtimizga nafi tegadigan farzand bo'lib yetishishini ta'minlash, fan, madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalar va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab quvvatlashga qaratilgan bir qancha foydali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi amalga oshirilayotgan hozirgi paytda davlatimiz rahbari aytganidek "... islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azmu shijoatimizni ishga solishimiz zarur. Shundagina Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi".

Chunki ertamiz egalari bo'lgan farzandlarimizning yorqin kelajagi uchun nafaqat davlatimiz tomonidan berilayotgan yuksak e'tibor balki birinchi navbatda ota-onalarning o'rnini juda muhim ahamiyatga egadir.

Hech bir kuch, hech bir narsa farzandlarimizga namuna kuchidek ta'sir ko'rsata qilolmaydi, ayniqsa ota-onalar o'rnini bosadigan hech qanday boshqa namunalar yo'q.

O'rnak bo'lish taqlid uchun asosiy manba hisoblanadi. Shaxsiy o'rnak bo'lish esa tarbiya omili sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi va xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi katta yoshdagi kishilarning hatti-harakatlari va boshqa faoliyatlari yig'indisidir. Kattalarning o'rnak sifatida tarbiyaviy ta'siri shuning uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Ular xuddi bolalar va o'smirlarning taqlidi uchun ishonchli mabaa vazifasini o'taydi. Bolalar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ko'pincha o'zi bilmagan holda o'z oldiga o'rnak olsa arziydigan taqlid qilishga loyiq bo'lgan biror bir ijobiy shaxs bo'lishini juda-juda istaydi.

Tadqiqotning metodologiyasi va obyekt. O'sib borayotgan yosh avlod jamiyatda o'z o'rnini topishida kattalarning qo'llab va quvvatlashlariga tabiiy ehtiyojni xis qiladi. Yetarli darajada bilim va ko'nikmasi yo'qligi sababli ular kattalarning muomala va hatti harakatlariga taqlid qilishni boshlashadi yoki ularning harakatlarini aynan takrorlashga harakat qiladilar. Bir muddat o'tishi bilan bola o'zining hatti harakatlarini sekin asta baholay boshlaydi, natijada u yoki bu hatti harakatlariga aqli yetib, tushunib hamma vaqt ham taqlid qilishni o'ziga odat qilib olmaydi. Faqatgina o'zi uchun ma'qul topgan kattalarning hatti xarakatlariga taqlid qiladi. Shuning uchun ham namuna bo'ladigan ota-onalar, aka-opalar, qarindosh-urug'larning, mahalla oqsoqoli va katta yoshdagi kishilarning obro'si, muomala madaniyati, xulqi, xarakteri, yurish turishi va boshqalar ancha kuchli ta'sir qiladi.

Ota-onalarning farzand uchun shaxsiy namuna bo'lishlari juda muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida jamiyat axloqi talablari nuqtai nazaridan obyektiv haqiqatni ifodalab beruvchi jamiyat uchun o'ta muhim faktordir. Shaxsiy namuna ayniqsa otaning hatti harakatlari, oilani boshqarish qobiliyati, uning fel-atvori, farzandlari bilan olib borayotgan suhbatlari, o'gitlari bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Bola odatda ko'p vaqtini oila davrasida o'tkazganligi sababli ota-onalarining bolalari bilan muloqoti ham ularning dunyoqarashlari, fikirlar doirasining kengayishiga, xarakter xususiyatlarining shakllanishiga, shaxsiy qiziqishlarini rivojlanishiga olib keladi. Bolalarga ota-onalarning hatti harakatlarigina emas balki og'zaki nutqi, savol-javoblari ham ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar o'rtasida o'zaro janjallar bo'lishi, qo'shnilar bilan yaxshi kelisha olmasalar, bir-birlarini hurmat qilmasalar, ammo farzandlardan shirin

so‘z bo‘lishlarini talab qilsalar bunday tarbiya hech qanday yaxshi samara bermaydi va bola o‘rnak bo‘lishni oiladan emas tashqi muhitdan izlay boshlaydi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Psixolog olim V.I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o‘rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda otaonalarning bolalariga g‘amxo‘rligining samarasidir, degan xulosaga keladi. Oiladagi o‘zaro kelishuv otaning bolalariga va ularning onasiga bo‘lgan munosabati yuksak axloqli insoniy munosabatlar namunasi bo‘lib, ular bola qalbida o‘zgacha xislarni uyg‘otadi, yuksak his-tuyg‘ular bilan to‘ldiradi, yon-atrofida bo‘layotgan voqeylikka samimiy munosabatda bo‘lishi yanada aniqroq gavdalanadi. O‘z o‘rnida onaning shaxsiy o‘rnaki bolaning ijobiy shaxs bo‘lib shakllanishida katta ahamiyatga egadir.

Sharq allomalari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligi haqida juda ko‘p fikrlarni ilgari surganlar. Islom mamlakatlari kutubxonalarining asosiy suyanadigan adabiyotlarini bizning yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning kitoblari tashkil qilar ekan. Masalan: Imom Buxoriy, Shoshiy, Marg‘iloniy, Nasafiy, Xorazmiy va boshqalar kitoblaridir. Bu yerda gap onalardan boshlandiku nimaga mavzuni bu tomonga burildi desangiz Imom Buxoriyning onasi ko‘zi ojiz bolasini ertalab ko‘chaga olib chiqar va kim bomdod nomozini o‘qigani ketayotgan bo‘lsa unga o‘g‘lini qo‘shib berar ekan. Uning onasi bolasini qo‘lidan yetaklab ilm olish uchun Makkaga tashlab kelgan ekan. Bundan ko‘rinadiki, shu vaqtlarda shuncha uzoq masofaga farzandi kelajagini o‘ylab borib kelishning o‘zi katta jasorat bo‘lgan.

Shu nuqtai nazardan ham bolalarni yoshlik chog‘laridannoq kitobga muhabbat ruhida tarbiya qilishda ham onalar ma’suliyati ko‘proq ekanini tushunishimiz lozim. Farzandlarimiz kelajakda biror bir soha yoki kasbni puxta va chuqur egallashlari zarur bo‘lar ekan, bunda albatta maktabda egallagan bilimlarining o‘rni va o‘qituvchilarning dars dars jarayonida bolaga bergan bilimi, hayotiy o‘g‘itlari, bolaning mustaqil o‘qib-o‘rganishida kitobning ham o‘rni beqiyos. Demak, bolalarga berilayotgan bilimlar o‘zaro hamkorlik va fanlararo aloqadorlikda amalga oshirilishi biz kutgan natijalarni berishini takidlab o‘tishimiz joizdir.

Xulosa. Bolani moddiy tomondan yetarli shart-sharoitlarni qilib qo‘yilishining o‘zi yetarli emasligi hech kimga sir emas. Inson eng avvalo oila bag‘rida o‘sib-ulg‘ayadi, voyaga yetadi, shaxs sifatida shakllanadi. Oiladagi ta’lim-tarbiya, ma’naviy-axloqiy va milliy qadriyatlar keyinchalik insonlar orasida - mahalla-ko‘yda, ta’lim muassasalarida shakllanib boradi. Shunday ekan, vatanimiz va xalqimizning kelajagini, jahon hamjamiyatida tutgan obro‘-e’tiborini belgilovchi barkamol avlodni voyaga yetkazishdek ulug‘ ishni maktab va ota-ona hamkorligisiz samarali hal qilish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2022-yil, 416 b.
2. Munavvarov A.Q., Ma’murov M. Ota-onalarning shaxsiy namunalari. Namangan - 1992. 16 b.
3. Zoxidov I. Tarbiyada ota-onaning o‘rni. Namangan haqiqati gazetasi. 81-son, 11-oktabr 2023 yil.
4. Захидов, И. О. (2022). Важные аспекты преподавания физики в 6 классе на основе междисциплинарных связей. In Учёный XXI Века (pp. 80-83).
5. Alizhanov, D. A., & Zokhidov, I. O. (2021). Teaching in Physics “Electrical Instruments in the House”. Saving Electricity. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQ).
6. Alijanov, D., & Zaxidov, I. (2022). Таълимда фанларaro боғланишларнинг функциялари. Science and innovation, 1(B7), 1406-1411.
7. Imomqulova, F. U. B., & Qarshiboyeva, D. B. (2022). Ko‘p va yolg‘iz farzandli oiladagi farzandlarning emotsional intellektining o‘ziga xosligi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 1142-1146.

## TA'LIM MUASSASASI RAHBARLARINING HUQUQIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

Ziyavitdinov Zafar Mahmudovich,  
*Qo'qon universiteti Ta'lim muassasalarining boshqaruvi yo'nalishi magistranti*

*Qo'chqarova Feruza Maxammadqosimovna,*  
*p.f.b.f.d. (PhD), Andijon davlat universiteti pedagogika kafedراسi professori*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqiy madaniyat va huquqiy ta'limning zamonaviy jamiyatdagi o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Mualliflar huquqiy bilimlarning aholi, ayniqsa, ta'lim muassasasi rahbarlari orasida rivojlantirilishi zarurligini ta'kidlaydilar. Huquqiy madaniyatning shakllanishi ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta'lim jarayonining muhim qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada ta'lim muassasalari rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish orqali ta'lim sifati va muassasa boshqaruvining samaradorligini oshirish yo'llari muhokama qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonida huquqiy ta'limning ahamiyati, huquqiy me'yorlarga rioya etish, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish va pedagogik jarayonni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalalari keng yoritilgan. Huquqiy bilimlarning jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va qonun ustuvorligini ta'minlashdagi roli alohida ta'kidlangan. Shu orqali ta'lim muassasalarida huquqiy muhit yaratish va huquqiy mas'uliyatni oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan.*

*Kalit so'zlar: Huquqiy madaniyat, huquqiy ta'lim, ta'lim muassasasi rahbarlari, huquqiy savodxonligini rivojlantirish, ijtimoiy-pedagogik zaruriyat.*

## SOCIAL AND PEDAGOGICAL NEED TO DEVELOP LEGAL LITERACY OF EDUCATIONAL INSTITUTION HEADS

Ziyavitdinov Zafar Makhmudovich,  
*Master's student, Direction of Management of educational institutions, Kokand University*

*Kuchkarova Feruza Makhammadqosimovna,*  
*Doctor of Philosophy (PhD), Professor of the Department of Pedagogy, Andijan State University*

*Abstract. This article highlights the role and importance of legal culture and legal education in modern society. The authors emphasize the need to develop legal knowledge among the population, especially among the heads of educational institutions. The formation of legal culture is considered as an important part of the educational process from a socio-pedagogical point of view. The article considers ways to improve the quality of education and the effectiveness of institutional management by increasing the legal literacy of the heads of educational institutions. The importance of legal education in the educational process, compliance with legal norms, development of legal literacy, and social and legal support for the pedagogical process is also widely covered. The role of legal knowledge in enhancing the legal culture in society and ensuring the rule of law is emphasized. Thanks to this, ways to create a legal environment and increase legal liability in educational institutions are shown.*

*Keywords: legal culture, legal education, educational institution leaders, developing legal literacy, socio-pedagogical necessity.*

## СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Зиявитдинов Зафар Махмудович,  
Магистрант направления «Менеджмент образовательных учреждений»  
Кокандского Университета

Кучкарова Феруза Махаммадкосимовна,  
д.ф.п.н. (PhD), профессор кафедры педагогики Андиганского  
государственного университета

*Аннотация:* В данной статье освещается роль и значение правовой культуры и юридического образования в современном обществе. Авторы подчеркивают необходимость развития правовых знаний среди населения, особенно среди руководителей образовательных учреждений. Формирование правовой культуры рассматривается как важная часть образовательного процесса с социально-педагогической точки зрения. В статье рассматриваются пути повышения качества образования и эффективности управления учреждением за счет повышения правовой грамотности руководителей образовательных учреждений. Также широко освещается значение юридического образования в образовательном процессе, соблюдения правовых норм, развития правовой грамотности, социально-правового обеспечения педагогического процесса. Подчеркивается роль правовых знаний в повышении правовой культуры в обществе и обеспечении верховенства права. Благодаря этому показаны пути создания правовой среды и повышения юридической ответственности в образовательных учреждениях.

*Ключевые слова:* правовая культура, юридическое образование, руководители образовательных учреждений, развития правовой грамотности, социально-педагогическая необходимость.

Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg'usini, qonunlarni bilish va unga qat'iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo'lib kelmoqda. Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti – bu qonunlarning so'zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so'zsiz bajarilishi har bir shaxsning o'z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog'liqdir [1].

O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida mamlakatda islohotlar ko'lami to'g'risida to'xtalib davlatimiz rahbari shunday deydi: "Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O'zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi" [2]. Qaysi mamlakatki, uning xalqi hukumat

siyosatini to'laqonli tushunib yagona maqsad bilan uni qo'llab-quvvatlamasa, bu islohotdan ko'zlangan vazifalar natijasi barchaga ayon. Shu bois ayni damda yurtimizda barcha sohada kadrlar tayorlash tizimini qayta ko'rib chiqilmoqda. Xususan, huquqiy ta'lim tizimida ham. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim etukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholashning asosiy maqsadi aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir huquqiy targ'ibot tadbirlarining samaradorligini oshirish, bu borada davlat organlari va tashkilotlarning mas'uliyatini kuchaytirish hamda huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish bo'yicha yangi innovatsion uslublarni joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va amalda tatbiq etishdan iborat”[3].

Huquqiy ta'lim shaxsga muayyan ko'lamda va ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malaka berishga, shuningdek, huquqiy ongli faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, huquqiy ta'lim ham, barcha ta'limlar singari, ikki tomonlama xarakterga ega. Ya'ni u o'qituvchi (ta'lim beruvchi) va o'quvchi-talaba (ta'lim oluvchi)larning hamkorlikdagi faoliyati natijasida amalga oshiriladi.

Huquqiy ta'limning muvaffaqiyati, birinchidan, ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi hamkorligidagi faoliyatning faol tarzda o'tishiga, ikkinchidan, nimalardan saboq berilishiga, kim tomonidan tashkil qilinishiga, uni qanday metodlar bilan amalga oshirishga va nimalarning o'qitilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ma'lumki, har qanday davlatning taraqqiyoti va kelajak qiyofasi yoshlarning bilim va itellektual salohiyati, jismonan va ma'nan barkamolligiga bog'liq.

Jamiyatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borish, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining samarali ishtirokini ta'minlash, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish muhim sanaladi.

O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida mamlakatda islohotlar ko'lamini to'g'risida to'xtalib davlatimiz rahbari shunday deydi: “Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O'zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi” [4].

Shu bilan birga rahbarlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ta'lim muassasalari bilan fuqarolik jamiyati institutlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ommaviy axborot vositalarining samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir [5].

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi bo'lib hisoblanadi. Biz huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzliksiz davom ettirishimiz zarur. Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta'lim

tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko'nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi darkor.

Zamonaviy davrda ta'lim muassasalari yosh avlodga bilim va yo'l-yo'riq berish orqali jamiyat kelajagini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Mazkur muassasalar rahbarlari zimmasiga uzluksiz faoliyat yuritish, qonunchilikka rioya etishda katta mas'uliyat yuklangan. Binobarin, ta'lim rahbarlarining huquqiy savodxonligini rivojlantirish ta'lim tizimlarining samarali faoliyat yuritishi uchun keng ko'lamli ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-pedagogik zaruratdir.

Huquqiy savodxonlik ta'lim muassasalarini boshqaradigan qonunlar, qoidalar va siyosatlarni tushunish va bilishni anglatadi. Ta'lim muassasalari rahbarlari, ya'ni direktor va ma'murlar asosli qarorlar qabul qilish, qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash, o'quvchilar va xodimlarning huquqlarini himoya qilish uchun huquqiy masalalarni yaxshi bilishi zarur. Huquqiy savodxonlikka ega bo'lish orqali rahbarlar o'rganish uchun xavfsiz va inklyuziv muhit yaratishi, mas'uliyatni oshirishi va o'z muassasalarida axloqiy me'yorlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Huquqiy savodxonlik ta'lim rahbarlari uchun ta'lim siyosati, moliyalashtirish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va talabalar huquqlarini tartibga soluvchi murakkab huquqiy landshaftda harakat qilish uchun juda muhimdir. Nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ta'lim to'g'risidagi qonun, oilaning ta'lim huquqlari va shaxsiy daxlsizligi to'g'risidagi qonun kabi ta'limga oid qonunlarni tushunish talabalarning ta'lim olishdan teng foydalanishini ta'minlash va ularning shaxsiy huquqlarini himoya qilish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, mehnat qonunlari, fuqarolik huquqlari va maktab xavfsizligi va intizomi bilan bog'liq qoidalarni bilish ijobiy maktab muhitini saqlash, hurmat va adolat madaniyatini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Bundan tashqari, huquqiy savodxonlik ta'lim rahbarlariga siyosat o'zgarishlarini himoya qilish, kamsitish amaliyotiga qarshi turish va o'z muassasalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy muammolarni hal qilish imkoniyatini beradi. Ta'lim qonunchiligidagi huquqiy o'zgarishlar va ilg'or tajribalar haqida xabardor bo'lish orqali rahbarlar muammolarni faol ravishda hal qilishlari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytirishlari mumkin. Huquqiy savodxonlik, shuningdek, rahbarlarga o'quvchilar huquqlarini himoya qilish va ta'limda tenglikni ta'minlash uchun yuridik maslahatchilar, davlat idoralari va jamiyat manfaatdor tomonlari bilan samarali hamkorlik qilish imkonini beradi.

Ta'lim rahbarlarining huquqiy savodxonligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati individual darajadan tashqarida kengroq ta'lim tizimiga va butun jamiyatga ta'sir qiladi. Huquqiy masalalarni yaxshi bilgan pedagoglar axloqiy xulq-atvor, halollik, qonun ustuvorligiga rioya qilish muhimligini ko'rsatib, o'quvchilarga o'rnak bo'la oladi. Ta'lim rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish orqali biz ta'lim muassasalarida shaffoflik, hisobdorlik va ijtimoiy mas'uliyat madaniyatini tarbiyalashimiz mumkin.

Bundan tashqari, ta'lim rahbarlarining huquqiy savodxonligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishi va o'quvchilar va jamoalarning umumiy farovonligiga hissa qo'shishi mumkin. Huquqiy talablar haqida ma'lumotga ega bo'lgan rahbarlar talabalar muvaffaqiyati, ilmiy yutuqlari va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga yordam beradigan samarali siyosat, tartib va amaliyotlarni amalga oshirishi mumkin. Huquqiy me'yorlar va axloqiy tamoyillarni qo'llab-quvvatlagan holda, ta'lim rahbarlari ijobiy maktab muhitini yaratishi, manfaatdor tomonlar bilan ishonchni mustahkamlashi, mukammallik va innovatsiya madaniyatini rivojlantirishi mumkin.

Ta'lim muassasalari rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini ortiqcha ta'kidlab bo'lmaydi. Huquqiy savodxonlik ta'lim



rahbarlari o'z majburiyatlarini bajarish, o'quvchilar va xodimlarning huquqlarini himoya qilish, ta'lim tizimlarida halollik va javobgarlik madaniyatini oshirish uchun zarurdir.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyat bosqichma-bosqich shakllanib boradigan jarayon hisoblanadi. Huquqiy madaniyatning yuksalishi esa qonunga itoat tuyg'usini rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi kunda mazkur masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda, shu maqsadda fuqarolarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, ta'lim-tarbiyasi, huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirish, yoshlarning huquq sohasiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol avlod etib tarbiyalash asosiy maqsad va muddaolardan biri hisoblanadi. Jamiyatda o'z haq-huquqini biladigan va qonun-qoidalarga og'ishmay amal qiladigan fuqarolar huquqiy davlatning poydevoridir.

Albatta har bir ta'lim muassasalari rahbarlarining rivojlanishi uning qiziqishi va kasbiga bo'lgan talabchanligi va mas'uliyati bilan ham chambarchas bog'liq. Agar har bir rahbar bugungi kunda davlatimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlarga labbay deb javob berish uchun o'z kasbini sevgan holda kasbiy faoliyatini boshlashdan oldin o'z oldiga maqsad qo'ysa, albatta ko'zlangan maqsadiga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

Xudoyor Mamatov." Huquqiy ong, huquqiy madaniyat davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilaydi". uza.uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi 23.09.2020

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risida Nizom. 2019-yil 20-aprel. (<https://lex.uz/ru/docs/-4300837>)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi 23.09.2020

Utamurov, A., Khojiev, T., Isanova, G., & Khaytmetov, R. (2020). The Prospects of a New Template of the Modernization Uzbekistan. Jour of of Adv Research in Dynamical & Control Systems, 2(12), 2670-2676

## **BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUV MASHG‘ULOTLARINI SIFATLI O‘ZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI**

*Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna*

*Qoraqalpoq davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida assistent o‘qituvchisi*

<https://orcid.org/0009-0001-4071-6869>

*Annotatsiya: Ushbu maqolada bevosita mavzu bilan bog‘liq bevosita boshlang‘ich ta‘lim jarayonlarini tartibga solishga doir amaldagi qonun hujjatlaridan kelib chiqadigan vazifalar hamda ularni amalga oshirishda bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar, boshlang‘ich ta‘lim jarayonlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘zlashtirishga ta‘sir qilayotgan ijobiy va salbiy omillar, dars, dars mashg‘ulotlari, dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq mavjud muammolar, ushbu muammolarning yechimiga yo‘naltirilgan xorijiy va milliy pedagog olimlarning qarashlari va mulohazalari keng mazmunda tahlil qilingan. Ushbu maqola shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning didaktik shart-sharoitlari, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning bilish, fikrlash, dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish xususiyatlariga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishda darsning ahamiyati, bu borada maktab o‘quvchisining o‘quv-bilish faoliyati xususiyatlari, ta‘lim shakllari turlari va vositalari, dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish bosqichlari to‘g‘risidagi mualliflik fikrlar va qarashlar ilgari surilgan. Bundan tashqari, maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining dars shakliga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalanishi zarurligi, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, dars uchun ajratilgan vaqtni tejash va undan unumli foydalanish yuzasidan muallif tomonidan xulosa hamda takliflar ilgari surilgan.*

*Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, dars, dars mashg‘ulotlari, dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish, o‘quv-biluv faoliyati, fan to‘garaklari, ishlab chiqarish amaliyoti, ta‘limiy o‘yin.*

## **ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ОСВОЕНИИ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

*Хожаниязова Инкар Жуманазаровна*

*Ассистент кафедры «Педагогика и психологии» Каракалпакского государственного университета*

*Аннотация: В данной статье рассматриваются задачи, вытекающие из действующего законодательства по регулированию процессов начального образования, непосредственно относящиеся к теме, а также проводимые сегодня реформы в их реализации, положительно влияющие на качество учебной деятельности учащихся начальных классов. В процессах начального образования и негативных факторах, уроках, уроковой деятельности, существующих проблемах, связанных с освоением уроковой деятельности, в широком контексте анализировались взгляды и мнения зарубежных и отечественных ученых-педагогов, направленных на решение этих проблем. Данная статья также посвящена дидактическим условиям усвоения учебного материала учащимися начальных классов, особенностям знаний, мышления, усвоения уроков младшими школьниками. А также, в этой статье представлены мнения и взгляды автора о значении урока в освоении учебной деятельности, особенностях учебной*

деятельности школьника в этой связи, видах и средствах образовательных форм, этапах освоения учебной деятельности. статья. Кроме того, в статье автором выдвинуты выводы и предложения относительно необходимости эффективного использования учащимся начальной школы методов, способов и средств, подходящих к форме урока, организации учебных занятий, экономии времени, отведенного на урок. и его эффективное использование.

Ключевые слова: начальное образование, урок, учебная деятельность, освоение уроковой деятельности, учебная деятельность, научный кружок, производственная практика, учебная игра.

## PROBLEMS OF IMPROVING THE QUALITY OF LEARNING LESSONS IN PRIMARY EDUCATION

*Khojaniyazova Inkar Jumanazarovna*

*Assistant teacher of the Department of «Pedagogy and Psychology» of Karakalpak  
State University*

*Abstract: This article examines the tasks arising from the current legislation on regulation of primary education processes, directly related to the topic, as well as the reforms carried out today in their implementation, which have a positive effect on the quality of educational activities of primary school students. In the processes of primary education and negative factors, lessons, lesson activities, existing problems associated with the development of lesson activities, in a broad context, the views and opinions of foreign and domestic scientists-pedagogues were analyzed, aimed at solving these problems. This article is also devoted to the didactic conditions for the assimilation of educational material by primary school students, the features of knowledge, thinking, assimilation of lessons by younger students. And also, this article presents the opinions and views of the author on the importance of the lesson in the development of educational activities, the features of the student's educational activities in this regard, the types and means of educational forms, the stages of mastering educational activities. article. In addition, the author puts forward conclusions and proposals regarding the need for the effective use by primary school students of methods, methods and means that are suitable for the form of the lesson, the organization of educational activities, saving time allocated for the lesson. and its effective use.*

*Keywords: primary education, lesson, educational activity, mastering lesson activities, educational activity, scientific circle, industrial practice, educational game.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-yilga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida "2023-2024-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim mussasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shu asnosda ular da kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy dunyoqarash va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan yangi o'quv dasturlarini amaliyotga kiritish" [1] vazifasining qayd qilinishi bevosita boshlang'ich ta'limga ham tegishlidir. Zero, hozirgi davrda boshlang'ich sinflarda ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'quvchilarda o'qish, o'rganish, bilimlarni o'zlashtirish va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, faol bilish faoliyatiga intilishni paydo etish singari vazifalar qo'yilmoqda. Ularni bajarish uchun boshlang'ich ta'lim mazmunini integratsiyalash, ilg'or innovatsiyon texnologiyalarni amaliyotga tadbiiq etish, o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion va global pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Lekin pedagogik faoliyatni tashkil etishda qator muammolarning borligi bu sohada

ko'pgina izlanishlar olib borish lozimligini taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq ichki muammolar, ta'lim tizimidagi yondashuvlar, boshlang'ich ta'limni tashkilotish bo'yicha amaliy-yo'naltiruvchi ta'lim modelining mukammal emasligi, bugungi kunda axborot shaklidagi bilimlar o'quvchilarning kelajagi uchun hayot yo'lida foydali hisoblanmasligi, o'quv fanlarining soni va mazmunida uzluksiz ekstensiv o'zgarishlarning ko'p bo'lishi, bolalarning tevarakatrof haqidagi tushunchalarining shakllanishiga o'quv materiallari ta'sirining sustligi ta'lim bosqichlari o'rtasidagi bog'liqlikning zaifligi singari muammolar boshlang'ich ta'limning og'riqli nuqtalaridandir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Boshlang'ich ta'limga o'quv materiallarini o'zlashtirishning didaktik shart-shaoyitlariga tegishli muammolar S.L.Rubinshteyn [2; B.144.], tomonidan birinchilar qatorida tadqiq qilingan va aqliy rivojlanishning umumiy intellekt bilan bog'liq jihatlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, bugungi kun ta'limi L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan g'oya, ya'ni ta'lim berishda o'quvchi qo'lga kiritib bo'lgan rivojlanish darajasini qo'llamasdan, uning tafakkuriga shart-shaoyitlarini oshiradigan talablar qo'yilishi, u erishgan va yaxshi o'zlashtirib olgan analitik-sintetik faoliyat darajasini talab qilishi kerak, degan qoidaga asoslanadi [3; B.35-36.].

O'zbekistonlik olimlardan U.Nishonaliyev aqliy rivojlanishning asosiy mezoni - o'quv faoliyati tuzilmasini samarali tashkil etish, uning tarkibiy qismlarini to'g'ri rejalashtirish, - degan edi [4; B.11.].

Q.Husanboyeva esa kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning fikrlash faoliyatini:

- o'zlashtirishning tezligi yoki sustligi;
- fikrlash jarayonining o'zgargan sharoitlarga moslashuvi osonligi yoki qiyinligi;
- fikrlash doirasining o'zaro bog'liqligi;
- analitik-sintetik xususiyatlarini faoliyatning turli darajalari sifatida qaraydi [5; B.57.].

R.X.Djurayev, U.K.Tolipov, R.G.Safarova, X.O.To'raqulov, M.E.Inoyatova, M.S.Divanovalar bilan hamkorlikda tuzilgan "Pedagogika atamaları lug'ati"da "Dars - tarbiyaviy ishning asosiy tashkilotidir. U ma'lum bir vaqt bilan cheklangan shakl, butun ta'lim jarayonining mantiqiy tugallangan qismi sifatida belgilanadi", degan fikrni bildirdi [6; B.186.].

Shuningdek, pedagogikaga oid boshqa ilmiy manbalarda esa "Dars – ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustahkam o'zlashtirilishi, o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda tashkil etilishi zarur"ligi alohida ta'kidlangan.

"Bola maktabga kelgunga qadar oila muhitida, maktabgacha ta'lim muassasalarida qiziqishlari va ehtiyojlarini ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarni gap tarkibida turli shakllarda qo'llash namunasini o'zlashtirgan bo'ladi, deb yozadi metodist H.Bakiyeva, - lekin uning nutqiy arsenali maktabda o'rganiladigan yangi tushunchalarni, fikrlarni, maktabga kelgan kuniidagi hissiyotlarini ifodalashi uchun so'z zahirasi yetishmaydi. Maktab oldida turgan eng asosiy vazifa o'quvchilarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish asosida o'quvchilarning lug'atini boyitish, nutq va tafakkurini, mantiqiy fikrlashini o'stirishdir.

Mantiqiy fikrlashning dastlabki usuli tahlildir. Til hodisalarini tahlil qila olish ko'nikmasi maktabgacha davrdanoq shakllana boshlaydi. Boshlang'ich sinflardan dastur asosida rivojlana boradi" [7; B.16.].

Boshlang'ich ta'limda dars jarayonini sifatli tashkil etish masalalarini taniqli rus olimi, pedagogika fanlari doktori, professor N.V.Terexova shunday sharhladi: "Ta'lim

shakli - bu ichki barqaror aloqalar, munosabatlar va qonuniyatlarning mazmuni va tizimi bilan shartlangan bolalarning bilish faoliyatini boshqarish usuli. O'qitish usullari va shakllari o'zaro bog'liq: metodlar shakllarda amalga oshiriladi, shakllar esa usullarning tashkil etilishini va mavjudligini ta'minlaydi" [8; B.148.].

I.Ya.Lerner va M.N.Skatkinlar tomonidan o'qitish metodlari tizimini tasniflash tizimi va ularni aqliy faoliyat, kognitiv faoliyat xususiyatiga ko'ra farqlash masalalari guruhlariga ajratib chiqilgan. O'quv materiallar o'zlashtirishda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati xususiyatidan kelib chiqiladi. Bunda:

a) tushuntirish-illyustrativ yoki axborot-retseptiv (qabul qilish-idrok). Usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi har xil vositalar yordamida tayyor ma'lumotni yetkazadi, o'quvchilar idrok etadi va xotirada saqlaydi. Bunga hikoya qilish, ma'ruza qilish, tushuntirish, darslik bilan ishlash, rasmlar, fil'mlar namoyishi kabi usullar kiritildi;

b) reproduktiv - bu oldindan belgilangan algoritm bo'yicha o'quv harakatlarini takrorlashdan iborat bo'lib, u o'quvchilar tomonidan ko'nikma va malakalarni egallash uchun ishlatiladi. Amaldagi harakatlarni takrorlash, algoritmgaga muvofiq faoliyatni dasturlash usullari hisoblanadi;

v) o'rganilayotgan materialning muammoli bayoni. Ushbu metod bo'yicha ishlashda o'qituvchi o'quvchilar oldida muammo tug'diradi va o'zi yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni ochib berib, uni hal qilish yo'llarini ko'rsatadi;

d) evristik - qisman izlanish usuli. O'qituvchi ta'lim muammosini kichik qismlarga ajratadi va o'quvchilar uning yechimini topish uchun alohida bosqichlarni amalga oshiradilar;

e) tadqiqot uslubi, unda o'quvchilarga zaruriy usul va uslublarni tanlab, mustaqil ravishda hal qiladigan bilimga oid vazifalar beriladi. Demak, o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishda paydo bo'lgan muammoli holat o'qituvchidan turli motiv va qiziqishlarni uyg'otuvchi pedagogik va psixologik ta'sir usullarini qo'llashni talab etadi [9; B.185., 10; B.89.].

Pedagog olimi N.T.Toshevaning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o'quv vaziyatlarini tashkillashtirishning didaktik shart-sharoitlari" mavzusidagi tadqiqotida o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish jarayonidagi muammolar o'quvchining o'quv va o'quv-biluv faoliyati nuqtai nazaridan kelib chiqib tahlil qilingan [11; B.10.]. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv materiallari o'quv fanlariga taalluqli bo'lganidek, darsni o'zlashtirish muammolari ham o'quv materiallariga taalluqlidir.

Ilmiy ishimizda tadqiqotchi J.Qayirbaevning "Jumbaq bizden, juwap sizden" deb nomlangan, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun yozilgan kitobidan foydalanishga harakat qildik [12; B.36.].

Muhokama.

Demak, darsta'limning asosiy shakli bo'lib, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishida darsni to'g'ri tashkil etish, bilimlarni bolaning ongiga faol tarzda etkazish zarur ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi davrda yosh avlodning muloqatga kirishuvchanlik, kommunikabellikni rivojlantirish eng zarur ko'nikmalardan hisoblanadi. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi zamonaviy talablarni hisobga olgan holda o'zaro faol munosabatda bo'lishi, o'quvchi passiv tinglovchiga aylanmasligi, aksincha faol, kirishimli bolib, bilimlarni tezda o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim.

Fikrimizcha, boshlang'ich ta'limda o'quv mashg'ulotlariga qo'shimcha qator ta'lim shakllari mavjud bo'lib, ular:

- amaliy-tajriba mashg'ulotlari;
- qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari;
- fan to'garaklari;

- ekskursiyalardan tashkil topadi.

Ushbu ta'lim shakllari bilimlarni mustahkamlash, to'ldirish, amaliyot bilan bog'lash uchun tashkil etiladigan qo'shimcha mashg'ulotlar hisoblanadi. Hozirgi kunda bundan tashqari ta'lim muassasalari tajribasida fan to'garaklari, ishlab chiqarish amaliyoti, ta'limiy o'yin shaklidagi mashg'ulotlardan ham foydalanilmoqda.

O'quv materiallarini o'zlashtirish masalasini tadqiq qilgan olim I.Ya.Lerner o'quv materiallarini o'zlashtirishning quyidagicha 3 darajasini ajratadi:

1. O'quv materiallarini idrok etish va eslab qolish.
2. Namunaga qarab faoliyat usullarini xotirlash.
3. Noma'lum vaziyatlarda bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash [13; B.6-12.].

Demak, fikrimizcha, boshlang'ich ta'lim jarayonida bajaradigan vazifasiga ko'ra darsni o'zlashtirish bosqichlarini quyidagicha taqdim etish mumkin:

- yangi bilimlarni qayd qilishga oid o'quv materiallarini tayyorlash;
- bilimlarni ko'nikmalarga aylantirish texnologiyalarini joriy etish;
- o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'zlashtirish uchun ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish;
- darsga tegishli voqea-hodisalarga faol munosabatni rivojlantirishga oid o'quv vaziyatlari yaratish.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari tizimini faoliyat usuli sifatida qayd etish ta'lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Ko'nikma esa o'rganilayotgan bilimning shaxsiy faoliyat uchun notanish emasligini anglash. Bilimni ko'nikmaga aylantirishning bosqichlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1- bosqich – faoliyat egasi o'z maqsadini anglasa-da, uni amalga oshirish yo'llarini ajratishda kamchiliklarga yo'l qo'yishi;
- 2- bosqich – xatti-harakatlarni ongli ajratish, ammo ularni faoliyatda samarali qo'llay olmasligi;
- 3- bosqich – xatti-harakatning avtomatlasha borishi natijasida ularni sifatli bajarishning boshlanishi;
- 4- bosqich – yuqori darajada avtomatlashgan xatti-harakat orqali faoliyatda aniq, tejankorlik bilan ishlatishni bilishi;
- 5- bosqich – xatti-harakatlardagi noaniqliklarni sezishi va ularni bartarf eta olishi.

Kuzatishlarimizga qaraganda, ta'lim jarayonida bilim ko'nikmaga aylansagina o'qituvchi va o'quvchilar bilan olib borilgan pedagogik ishlar yakuniga yetadi va u endi malaka hisoblanadi. Ushbu malakalarni shakllantirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1- bosqich – o'rganilgan bilim va hosil qilingan ko'nikmalar asosida xatti-harakatlar maqsadi, ularni amalga oshirish usullarini aniqlash;
- 2- bosqich – faoliyat usullariga oid bilimlarning mavjudligi, oldin o'zlashtirilgan ko'nikmalariga murojaat qilish;
- 3- bosqich – yuqori darajada rivojlangan, ammo tor doirada shakllangan malakalar.
- 4- bosqich – yuqori darajada rivojlangan, keng qamrovli malakalar.

Biz mazkur fikrlarga qo'shilgan holda zamonaviy sharoitda boshlang'ich ta'limda noan'anaviy shakllardan samarali foydalanish bo'yicha ishlanmalar taqdim etish va tavsiyalar ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz. Darsning barcha bosqichlarida o'qitish motivatsiyasiga e'tibor berish, o'quvchilarni tarbiyalash, ularning umumiy rivojlanishidagi yakuniy natijalarga erishish; darsda o'quvchi bilan faol ishlash; ma'lum bir sinf uchun maqbul bo'lgan usullarni, shakllar va o'quv vositalarini tanlash, fanlarni o'zlashtirishda qiynaladigan o'quvchilarga differentsial yondashish, aqliy operatsiyalarni bajarishni iloji boricha yoshga muvofiq tarzda uyushtirish, fanlararo aloqalarni joriy

etish; o'qitish uchun axloqiy-psixologik va maktab-gigiena sharoitlarini yaratish, uy vazifalarini qat'iy me'yorlash kabilarga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz.

O'quvchilarning o'zlashtiruvchanlik darajalari, ya'ni dats materiallarini o'rganish – bilish holatlari turli sabablarga ko'ra o'zgarib turadi. Dastlabki kunlarda o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlariga moslashishi har xil bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari shunday holatlarga maxsus tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim. Har qanday holatlarda ham o'qituvchi o'quvchilarning o'qib-o'rganishga nisbatan intiluvchanliklarini orttirib, ishchanlik va o'zlashtiruvchanlik qobiliyatlarini yuksaltirishi zarur.

Dars jarayonida o'quvchilarning ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatlari ham namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu holat turli sabablarga ko'ra tez-tez yuz beradi. O'quvchilar diqqatini to'plash va markazlashtirish turli xil mashq turlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Bu holatlarda samarali mashqlar sifatida harakatlantiruvchi mashqlar, eslash va fikrlashga oid mashqlar, qisqa muddatli musobaqalar tashkil etish, yod aytishga doir mashqlar tashkil etish, o'qituvchining o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq yengil hazil va aksiyalari maqsadga erishish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot ishimizning amaliy bobida taqdim etilgan "Tarbiya" fani bo'yicha tuzilgan topshiriqlar berilgan bo'lib, ular o'quvchilar tafakkurini o'stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarda bilim, faoliyat usuli, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarni o'zlashtirishning yetakchi vositasi hisoblanadi.

#### Natijalar.

Har bir dars aniq maqsadni ko'zlagan holda puxta rejalashtirilsa, o'qituvchi darsning maqsadini aniq belgilab, uning bosqichlarini loyihalashtirish natijasida kutilyotgan natijalarni oldindan aniqlay olishi bugungi kundagi darsni to'g'ri tashkil etishga qoyilgan talablardan asosiysi hisoblanadi. Har bir dars aniq g'oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo'lib, o'qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanishi lozim. Har bir dars maktabning, ijtimoiy muhitning imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'langan bo'lishi, ko'rsatmali vositalar bilan jihozlanishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars shakliga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalanib o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishi, dars uchun ajratilgan vaqtni tejashi va unumli foydalanishi zarur. XXI-asr texnologiya asri hisoblanib, texnika vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanish ushuni keng imkoniyatlar yaratilgan.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi mashg'ulotlarni sinf jamoasi va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi kerak. Shuningdek, har bir darsda qo'llaydigan o'quv topshiriqlari xalqimizning boy ma'naviy merosi, ma'naviy qadriyatlarini, mentaliteti xususiyatlarini hisobga olib tayyorlanishi maqsadga muvofiq.

Taqdim etilgan talablarga mos tarzda boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayoniga tayyorgarligi sinchiklab kuzatilib, bolalarning berilgan mavzularni idrok etishi va tushunishiga psixologik jihatdan tayyorligiga e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyati o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslansagina o'quvchilar mustaqil fikrlay oladi, irodasi, nutq madaniyati rivojlanadi va muammoli vaziyatlarda izlanishlar orqali o'z yo'lini topishga harakat qiladi.

Boshlang'ich sinfda dars mashg'ulotlari o'quvchilarning yosh va psixologik bilish jarayonlariga mo'ljallab o'tkazilishi, asosan, bilimlarni egallashda diqqat, sezgi, idrok, tafakkur, xayol, xotira singari bilish jarayonlarining faolligi juda muhim. Aynan boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur jarayonini rivojlantirish oylash, fikrlash, tafakkurning rivojlanish xususiyatlariga bog'liq. Mustaqil tafakkurga ega o'quvchigina

mustaqil fikrlaydi va mustaqil tarzda xulosa chiqara oladi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda, materiallarni tahlil qilishga imkon beradigan topshiriqlarni tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni asosida tayanch o'quv rejasini takomillashtirish hamda o'zaro uzviy bog'liq fanlarni birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish belgilandi [14]. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad endi songa emas, sifatga urg'u berish, turli fanlardagi takrorlanishlarning oldini olishdan iboratdir.

Xalqaro tajribalardan ma'lumki, ta'lim tizimi yaxshi rivojlangan ba'zi davlatlarda boshlang'ich ta'lim o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish uchun kam soat ajratilgan, Bizda esa o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish uchun ajratiladigan soatlar soni kopayib ketishi oqibatida:

- o'quvchilar mavzularni o'zlashtirishga ulgurmaydi;
- bu holat uning fanga nisbatan qiziqishini susaytiradi;
- natijada o'quvchi darsdan bezib, o'zlashtirish uchun ichki rag'bat topmaydi;
- o'quvchilar o'zining qiziqishlari, qo'shimcha mashg'ulotlar uchun vaqt ajrata olmaydi.

Biroq bugungi kunga qadar boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirishning didaktik shart-shaoyitlarini takomillashtirish, o'quv mashg'ulotlarini oson va tez o'zlashtirishning didaktik shart-shaoyitlari alohida pedagogik muammo sifatida ilmiy jihatdan tadqiq etilmagan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, yuqorida muhokama qilingan masalalarni inobatga olgan holda boshlang'ich ta'limda dars jarayonini tashkil etish tuzilmasini yangicha yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
2. Рубинштейн С.Л. (2005). Основы общей психология. -СПб: Питер. // <https://psylib.org.ua/books/rubin01/index.html>
3. Выготский Л.С. (1991). Педагогическая психология. -М.: Педагогика. // <https://labirint.ru/197299>.
4. Нишоналиев У. (2000). Янги педагогик ва ахборот технологиялари муаммолари ва ечимлари // "Педагогик таълим" босма журнали, №3-сон. - 11-б.
5. Хусанбоева Қ. (2003). Адабий таълимда мустақил фикрлашга ўргатиш асослари. –Т.: Ўзинкомцентр.
6. Джураев Р.Х., Толипов У.К., Сафарова Р.Г., Туракулов Х.О., Иноятова М.Э., Диванова М.С. (2008). Педагогик атамалар луғати. – Тошкент: Фан.
7. Вакиева Н. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Ishonchli hamkor.
8. Терехова Н.В. (2013). Дидактика начального образования. Учебное пособие. –Тюмень: Издательство Тюменского государственного университета.
9. Лернер И.Я. (1981). Дидактические основы методов обучения: Монография. –М.: Педагогика.
10. Скаткин М.Н. (1984). Проблемы современной дидактики. 2 –е изд. - М.: Педагогика.
11. Тошева Н.Т. (2018). Бошланғич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини



ривожлантирувчи ўқув вазиятларини ташкиллаштиришнинг дидактик шарт-шароитлари. / Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореферати. – Нукус: НДПИ.

12. Қайырбаев Ж. (1997). Жумбақ бизден, жуўап сизден (киши мектеп жасындағы балаларға арналған). – Нөкис Қарақалпақстан.

13. Лернер И.Я. (1996). Развивающее обучение с дидактических позиций. // Педагогика. -№2. -С. 6-12.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>.

## **BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY ODOB VA UNING ASOSIY SIFATLARI**

*Bekberdiyeva Gulbahor Ortiqaliyevna  
University of Business and Science  
Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchisi*

*Annotatsiya. O‘zbekistonda oliy o‘quv yurtlarining asosiy maqsadi- tegishli saviya va ixtisoslikka ega bo‘lgan, mehnat bozorida raqobatbardosh, layoqatli, mas’uliyatli, o‘z kasbini yaxshi egallagan hamda aralash sohalarni ham biladigan, jahon standartlari darajasidagi mutaxassislik bo‘yicha samarali ishlay oladigan, doimiy kasbiy o‘shiga tayyor bo‘lgan kichik mutaxassisni tayyorlashdan iboratdir. Oliy o‘quv yurtlarining ta’limi tizimini mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifasini fundamental va amaliy fanlarning rivojlanishi bilan mustahkam aloqadorlikda hal etish mamlakat kelajagini belgilaydi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining tarkibiy qismi bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimiga kiritilgan to‘rt yillik ta’limining joriy etilishi tom ma’nodagi mazmunli bo‘ldi. Oliy o‘quv yurtidagi pedagogika fanlari asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu o‘quvchilarning pedagogik kasbiga moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha zamonaviy bilim egallash imkonini beradi.*

*Kalit so‘zlar: bo‘lajak pedagoglar, kasbiy odob, pedagog imidji.*

## **ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ЭТИКА И ЕЕ ОСНОВНЫЕ КАЧЕСТВА БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

*Бекбердиева Гулбахор Ортикалиевна  
Университет бизнеса и науки  
Преподаватель кафедры педагогики и психологии*

*Аннотация. Основная цель высших учебных заведений Узбекистана – подготовить студентов соответствующего уровня и специализации, конкурентоспособных на рынке труда, компетентных, ответственных, хорошо освоивших свою профессию, а также владеющих смешанными областями, эффективных в их специальность на уровне мировых стандартов – подготовить младшего специалиста, работоспособного и готового к постоянному профессиональному росту. Решение задачи кардинального повышения качества подготовки специалистов в образовательной системе высших учебных заведений в тесной связи с развитием фундаментальных и прикладных наук определило будущее страны, внедрение образования было в буквальном смысле значимым. Педагогические науки в высшем учебном заведении занимают главное место. Это позволяет глубоко развивать склонности, способности, знания и умения этих студентов к педагогической профессии, приобретать современные знания в избранных ими областях.*

*Ключевые слова: будущие педагоги, профессиональный этикет, имидж педагога.*

## PROFESSIONAL ETHICS AND ITS MAIN QUALITIES IN FUTURE EDUCATORS

*Bekberdiyeva Gulbahor Ortiqaliyevna*  
*University of Business and Science*  
*Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology*

*Abstract. The main goal of higher educational institutions in Uzbekistan is to produce students who have the appropriate level and specialization, who are competitive in the labor market, competent, responsible, who have mastered their profession well and who also know mixed fields, who are effective in their specialty at the level of world standards. is to prepare a junior specialist who can work and is ready for continuous professional growth. Solving the task of fundamentally improving the quality of the training of specialists in the educational system of higher educational institutions in close connection with the development of fundamental and applied sciences determines the future of the country. the introduction of education was literally meaningful. Pedagogical sciences at the higher educational institution occupy the main place. It allows to deeply develop the inclination, abilities, knowledge and skills of these students for the pedagogic profession, to acquire modern knowledge in their chosen fields.*

*Key words: future pedagogues, professional etiquette, image of a pedagogue.*

Kirish. Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak pedagoglarni o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, bu yo'nalishda o'quvchi yoshlarga pedagogika mutaxassisliklari bo'yicha bilim berishni, ularni amaliyotga o'rgatishni, ularning ongi, tasavvuri, dunyoqarashi, xatti-harakati, fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatish va o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishning uyg'otishni o'z oldiga asosiy masala qilib qo'yadi.

Demak, pedagogik kasbiy odob ko'nikmalarini shakllantirish masalasiga alohida muammo tarzida qaramoq zarur. Chunki, pedagogika darslarida o'quvchilar pedagogika bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bilan birga ularni boshqalarga o'rgatishlari ham zarur bo'ladi. Bu esa pedagogik jarayonni mustaqil boshqara olish, o'z bilganlarini o'quvchilarga mukammal o'rgatish zaruratini keltirib chiqaradi. Pedagogik jarayonini boshqarishda o'qituvchilarda kasbiy odob ko'nikmalari shakllangan bo'lishi talab etiladi. Kasbiy odob malakalari deyilganda kishining kasbiy faoliyati doirasidagi ahloq-odobi, yurush-turushi, o'zini jamoa orasida tuta bilishi, hamkasblari va o'quvchilar bilan yaxshi muomala muloqot qilishi kamtar, ishni tashkil eta bilishi va boshqalar tushuniladi. Shu o'rinda «O'z oldiga yosh avlodni tarbiyalashni maqsad qilib olgan kishining ijtimoiy mohiyati, ya'ni o'qituvchi-muallimlarning ijtimoiy sifatleri qanday bo'ladi?» degan savolga quyidagicha javob qaytarish mumkin. O'qituvchi-muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azal-azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

Asosiy qism. Zardo'shtiylik ta'limotida, «muallim — kohlarning burchlari bolalarga bilimlarni yaxshilik yo'sinida o'rgatib, ularni yaxshi bilan yomonni ajratadigan qilib tarbiyalash va to'g'ri yo'lga hidoyat etishdir» deyilgan. Uning «yasht»larida aqlu farosat bilan, yomonlikka qarshi kurashni amalga oshirib, bolalar ruhiyatiga rost so'z, pok aqida, halol niyatni singdiradigan ustoz-muallimlar peshvosi madh qilinadi.

Shunigdek, «Avesto»ning «yasht»larida tanballigi, befarqligi, mas'uliyatsizligi, loqaydligi, farosatsizligi, uquvsizligi, bilimi va malakasini takomillashtirmasligi oqibatida bolalar zehnini, ularning mustaqil tafakkurini o'tmaslashtiradigan, ayni chog'da, yoshlarning aqlini «zanglatadigan», hayotga, mehnatga munosabatlarini

susaytiradigan, imon e`tiqodini zaiflashtirib, ma`naviy jihatdan qashshoqlashtiradigan «yomon ustozlar» qattiq qoralanadi.

Zardushtning Oliy Tangri Ahuramazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar xaqida shunday deyiladi: «Noshud, yomon muallim o`quvchi qalbidan hunarmandchilikni yo`qotar ekan, ey Yazdon, yomon ustozdan o`zing asra».

O`quvchilarga bilim berish o`qituvchining mas`uliyatli burchidir, deb Ibn Sino o`qituvchining shaxsiyati qanday bo`lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo`lish;
- beriladigan bilimni o`quvchilar qanday o`zlashtirib olayotganiga e`tibor berish;
- ta`limda turli usul va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqтира olish;
- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o`qitish;
- bilimlarni o`quvchilarning yoshi, akliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so`zning bolalar hissiyotini uyg`otish darajasida bo`lishiga erishish zarur.

Muhammad Tarag`ay Mirzo Ulug`bek davrida ilm-fan, adabiyot va san`at, ma`rifatchilik jadal taraqqiy etgan. Shuningdek, o`qitishning sinf tizimlari, bolalarni yoshi bo`yicha tabaqalashtirib o`qitish, o`quv-tarbiya ishlarining aniq bir muddatini belgilab qo`yish kabi g`oyalar ilgari surilgan va ma`lum darajada amalga oshirilgan. Shu bilan birga Ulug`bek o`qituvchi va mudarrislarining insoniy xislatlariga bilimi va mahoratiga katta ahamiyat bergan. Ularning moddiy ehtiyojlari davlat ta`minotidan qondirilishini yo`lga qo`ygan, bundan tashqari ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishlarini talab qilgan.

Shunga o`xshash fikrlarni G`arb pedagoglari ham aytib ketishgan. Jumladan, Disterverg: «Yaxshi o`qituvchi mahoratli ustozlarni e`zozlagan. Ayni paytda, u mudarrislarining dars berishdan o`zining tarbiya printsiplaridan hech qachon qaytmaydi. O`qituvchi o`z ustida doimo mustaqil ishlashi lozim. Yomon o`qituvchi haqiqatni aytib qo`ya qoladi, yaxshi o`qituvchi esa bolalarga haqiqatni topishga o`rgatadi» degan.

O`tgan Sharq allomalari-yu, G`arb pedagoglarining fikri hamda ko`p yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar o`qituvchi va pedagog, ya`ni o`ziga yosh avlodni tarbiyalashni kasb qilib tanlagan inson quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo`lishi shart ekanini ko`rsatdi.

Birinchidan, o`qituvchi falsafani yaxshi bilishi shart. Chunki falsafani odamga abstrakt fikr yuritishni o`rgatadi. O`qituvchi sinf yoki auditorioyaga kirganda, unda abstrakt tafakkur sust rivojlangan bo`lsa, o`zini yo`qotib qo`yadi. Sinf va auditoriyadagilar diqqatini o`ziga qaratib olishi uchun, kishida abstrakt tafakkur yaxshi rivojlangan bo`lishi kerak.

Undan tashqari, falsafa dars paytida kechadigan bilish jarayonini o`rgatadi. Bilish jarayonini, ya`ni gnesologiyani bilmagan o`qituvchi dars o`tishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelib, darsni amalga oshira olmaydi, oshirganda ham noto`g`ri dars o`tadi.

Shu bilan bir qatorda, falsafaning asosiy qonunlari insonning barcha amaliy faoliyatida, shu jumladan, pedagogik faoliyatida ham umumiy metodologik asos vazifasini o`taydi.

Ikkinchidan, pedagog aholi ta`lim-tarbiyasi bilan shug`ullanishni o`ziga kasb qilib olgan ekan, pedagogikaning jamiyat hayotidagi o`rnini, uning paydo bo`lish tarixini yaxshi bilishi kerak. Pedagogika tarixini o`rganish jarayonida kishi pedagogik faoliyatning insoniyat hayotidagi o`rnini, pedagogikadagi asosiy qonun - qoida va tamoyillari hamda asosiy tushunchalarning shakllanish tarixini bilib oladi.

Umrini o`qituvchilikka bag`ishlagan kishi, pedagogika nazariyasini, shu jumladan, didaktikani juda yaxshi bilishi kerak. Chunki didaktika o`qituvchini pedagogikaning

nazariy asoslari bilan qurollantirib, bilim berish va uni hayotda qo'llashga o'rgatish jarayonini amalga oshirishning asosiy tamoyillariga amal qilishlikni ilmiy tomondan asoslab beradi. Shuningdek, pedagogikaning nazariyasi, o'qituvchilik kasbida qo'llaniladigan asosiy tushunchalarning ishlatilish o'rni, qoidasi, ya'ni kategorial apparatini tushuntirib beradi.

Shu bilan bir qatorda, pedagogika kasbini tanlagan kishi, didaktika tamoyillaridan kelib chiquvchi umumiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti, predmeti va maqsadini ko'rsatib beruvchi hamda pedagogikaga oid barcha umumiy masalalarni yechib beruvchi «Umumiy pedagogika»ni yaxshi bilishi shart. Har qanday o'qituvchi va pedagog didaktika tamoyillariga suyanuvchi va umumiy pedagogikaning barcha qonun-qoidalaridan kelib chiquvchi xususiy pedagogikaning o'ziga xosliklari hamda didaktika tamoyillarini o'zi tanlab olgan xususiy fanda qo'llashni to'liq bilishi kerak. Bolalarga bilim bermoqchi bo'lgan o'qituvchi dars berish usullarining majmuini va tartibga keltirilgan dars berish yo'li (metodika)ni mukammal egallab olgan bo'lishi lozim. Dars berish usul va uslublarini bilmagan pedagog dars o'tolmaydi. U didaktikaning barcha tamoyillariga suyanganda, umumiy pedagogikaning qonun-qoidalarini o'zi o'tayotgan fanda qo'llashni yaxshi bilishi, pedagogikada mavjud usullar ichidan o'ziga moslarini tanlab olishi, dars jarayonida o'z o'rniga qo'ya olish yo'li bilan o'z uslubini tuza oladigan kishi bo'lishi lozim.

Uchinchidan, pedagog didaktika, umumiy va xususiy pedagogika hamda metodikalardagi bilimlarni to'liq egallab olganidan keyin, muayyan fandan bilim berish uchun, shu fandagi bilimlarni puxta egallagan bo'lishi shart. O'z fani bo'yicha bilimlarni yaxshi o'zlashtirmagan kishi, pedagogika nazariyasi va amaliyotini qanchalik yod olgan bo'lmasin bolalarga to'liq bilim bera olmaydi. O'qituvchi o'qitayotgan predmetini va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchi va o'quvchilarga yetkaza olishi ularning shu predmetga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa o'qituvchi obro'sini ko'taradi.

To'rtinchidan, o'qituvchi va pedagog bolalarga bilim berishni amalga oshirayotganda, muayyan yoshdagi bolalar vujudida sodir bo'layotgan fiziologik va ruhiy hodisalarni yaxshi bilishi lozim. Aks holda, o'zini ham, bolalarni ham qiynab, dars oldiga qo'yilgan maqsadiga yeta olmaydi. Buning uchun pedagog bolalar anatomiyasi va fiziologiyasini hamda psixologiya fanlaridan to'liq bilimga ega bo'lishi kerak. Aks holda, bolalarning asabi buzilishiga sababchi bo'lishi mumkin. Maktabda uchrab turadigan bunday hodisalar, o'qituvchilarning bola fiziologiyasini yoki yosh psixologiyasini yaxshi bilmaganidan kelib chiqadi.

Beshinchidan, O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra din davlat ishlariga aralashmaydi. Shunga qaramay, u ijtimoiy hayotdan chetlatilgan emas. Din kundalik hayotimizda muhim rol o'ynab kelmoqtsa. Dinni yaxshi bilmagan yoshlar ba'zan diniy ta'limotga zid bo'lgan, oilasi hamda jamiyat tinchligini buzuvchi turli diniy oqimlarga kirib qolmoqtsalar. Ularni bu yo'ldan qaytarib, to'g'ri yo'lga solib yuborish uchun o'qituvchining o'zi dinni yaxshi bilishi shart. Shuning uchun ham pedagog dinning asl maqsadi, uning qonun-qoidalarini batafsil bilmog'i kerak. Buning uchun esa u dinshunoslik fanini o'qigan bo'lishi lozim.

Oltinchidan, o'qituvchi bolalarga o'z fanidan bilim berish jarayonida, ularni muayyan jamiyat va unda olib borilayotgan siyosat bilan tanishtirib borishi shart. Shu sababli o'qituvchi va pedagoglar siyosatshunoslik bilimlarini puxta egallab, ularni hayotda qo'llay olishlari lozim. Endi qiqacha bo'lsa ham siyosat tushunchasi va uni amalga oshirish yo'llari bilan sizni tanishtirib o'tamiz.

Siyosat — bu ijtimoiy jarayon bo'lib, hokim guruhlarning ularga qaram bo'lgan ijtimoiy guruhlar orasidagi, ularni tinchlik va farovonlikka boshlash maqsadida qilingan munosabatidir. Hokim guruhlar degan ibora oila boshlig'idan tortib, sinf rahbari.

maktab direktori, tuman va viloyat hokimlari hamda davlatning birinchi rahbarigacha bo'lgan kishi va ijtimoiy guruhlariga nisbatan qo'llaniladi. Demak, siyosat, avvalambor, munosabat va faqat boshqaruv hamda tinchlik va farovonlikka boshlash maqsadida qilingan munosabat ekan. Siyosat munosabat bilan bog'liq ekanligini bildik. Endi bu munosabatlar oddiy ijtimoiy munosabatlar emasligini, ya'ni bir darajadagi ijtimoiy guruhlar orasidagi munosabat emasligini anglasak, haqiqiy siyosat tushunchasiga yaqinlashgan bo'lamiz. Siyosat — bu jamiyatda turli martabalariga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar orasidagi munosabat ekanligi ma'lum. Endi qanday darajadagi guruhlar orasidagi munosabat haqida ran bormoqda? degan savol tug'iladi. Bu savolga javob berish uchun, siyosat nima maqsaddagi munosabat ekanligini bilib olishimiz kerak. Ma'lumki, har qanday siyosatning maqsadi boshqarishdir. Shundan kelib chiqib, siyosat — boshqarishga qurbi yetadigan, ya'ni hokimlik qilish qo'lidan keladigan shaxs yoki ijtimoiy guruhning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan, ularni boshqarish maqsadida qiladigan munosabatidir, de-sak xato qilmagan bo'lamiz. Har bir inson, har qanday ijtimoiy guruh, butun jamiyat, agar ular ijtimoiy sog'lom bo'lsalar, so'zsiz, tinch va farovon hayotga intiladilar. Ijtimoiy nosog' odamlar urush-to'polonga moyil bo'ladilar. Shunday qilib, «siyosat» tushunchasining uchinchi elementi — «tinch va farovon hayot» kelib chiqdi. Jamiyat a'zolari, o'zlarining tinch va farovon hayotini tashkil qilib berish vazifasini tarixan ixtiyoriy ravishda «davlat» deb nomlangan ijtimoiy ustqurmaga topshirganlar. Davlatning qiladigan ishi jamiyatni boshqarish bo'lganligi tufayli, uni «boshqaruv organlari» yoki «hokim guruhlar» deb yuritiladigan bo'lgan. O'qituvchi mana shu, siyosatning asl mazmunini, uning turlarini va muayyan siyosat yuritilgan jamiyatdagi davlat tuzumini bilib olishi, o'quvchi va o'quvchilarga tushuntirib berishi zarur bo'ladi.

Yettinchidan, pedagog muayyan jamiyatda tarixan shakllangan ijtimoiy guruhlardan ham o'quvchilarni xabardor etmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi va pedagog sotsiologiya bilimlaridan xabardor bo'lib, ulardan pedagogik amaliyotida foydalana olishi kerak. Shuning uchun o'qituvchi sotsiologiya fanini puxta egallagan bo'lishi shart.

Shu bilan bir qatorda, o'qituvchi bolalarga madaniyat to'g'risida boshlang'ich tushunchalar berib, ularda madaniyat elementlarini shakllantirib borishi lozim. Buning uchun o'qituvchining o'zi madaniyatshunoslik bilimlarini egallagan va ularni pedagogik amaliyotida qo'llay oladigan bo'lishi kerak.

Sakkizinchidan, yosh avlodga muayyan fan bilimlarini o'qituvchi pedagog, ularni axloq va odobga ham o'rgatishi shart. Bu o'qituvchi va pedagoglarning burch va mas'uliyatiga kiradi. Buning uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi axloqiy tarbiyalangan bo'lishi lozim. O'qituvchining yuksak ma'naviyati, uning teran bilim doirasi, ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimiz tarixini, madaniyatini va urf-odatlarini chuqur bilishi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, guruh murabbiysi milliy qadriyatlarimizni bilib-gina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda uning otashin targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak.

O'qituvchining asl fazilatlaridan yana biri, u kimni, qanday odamni shakllantirayotganligini to'liq bilibgina qolmay, o'qitayotgan bolasi shunday ijtimoiy sifatlarga albatta ega bo'lishiga chin dildan ishonishi kerak. Shu bilan bir qatorda, bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari bilan tanishtirib, milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashi, nutqi ravon, tili boy bo'lishi, ifoda usuli va tasvir vositalarining adabiy til uslubi va me'yori to'la egallagan bo'lishi zarur.

O'qituvchilik kasbiga xos bo'lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi. Pedagogik odob bu — o'qituvchining yuksak kasbiy fazilatidir. U o'qituvchiga sabotli bo'lish, o'z hissiyotini idora qila olish, bolalarga pedagogik ta'sir

o'tkazish vosita va me'yorini belgilash, aniqlashda yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchigina sinfdan mo'tadil psixologik muhit o'rnatiladi, bolalar qalbiga tez yo'l topa oladi.

O'z xizmati xususiyatiga ko'ra o'qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lishi kerak. Tashabbuskor va g'ayratli o'qituvchigina bolalarni o'z ortidan ergashtira oladi, o'quvchilar esa unga ergashadilar.

O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun uning salomatligiga ham ma'lum talablar qo'yiladi. O'qituvchining ovoz paychalari rivojlangan, ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lishi kerak, uzoq vaqt tikka tura olish, ko'p yurish, epchil harakat qilish kabi fazilatlarga ega Oulmogi tart.

To'qqizichidan, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi inson, so'zsiz, estetik tarbiyalangan bo'lishi shart. Estetik tarbiyaning jamiyat taraqqiyotida naqadar muhim rol o'ynashi hammaga ma'lum. Estetik tarbiya ma'naviy tarbiyaning muhim va tarkibiy qismi ekanini unutmash kerak. Estetik didning pastligi ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga salbiy Ta'cup o'tkazadi. Jumladan, ba'zi yosh oilalarda iqtisodiy kamchilik tufayli emas, balki ma'naviy, asosan, estetik didning pastligidan buzilib ketish hollari kam emas. Tuyg'ularning pastligi, qashshoqligi, go'zallikni seza bilmaslik, qadrlay olmaslik kabi omillar er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga putur yetkazmoqda.

Estetik did deganda ixcham, nafis, chiroyli kiyinishga o'rganish, uy-joyning saranjoni sarishta va ozoda tutish, hayotdagi go'zalliklarni, san'atdagi nafosatni tez ilg'ab olish va unga intilish, undan ta'sirlanish, yuksak, sof tuyg'ularga to'lib-toshib yashash tushuniladi.

Estetik didning shakllanishi davr xarakteri bilan bog'liq. Har bir davr estetikaga qo'yadigan talabiga mos holda estetik didning yangi-yangi mezonlarini vujudga keltiradi. Bu yangi mezonlar barcha kishilar tomonidan o'zlashtirilguncha ancha vaqt o'tadi. Bizning davrimiz ham bu jihatdan o'z xususiyatlariga ega. Davrimiz murakkab, shunga ko'ra, estetik tarbiyaning ham shakllanishi silliq va oson kechmaydi.

Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy va iqtisodiy tomonlar hamma vaqt ham bir xilda shakllanib bormaydi. Ba'zan ma'naviy tomon o'zib ketsa, ba'zan iqtisodiy tomon o'zib ketadi. O'zbek xalqi o'tmishida iqtisodiy tomonga nisbatan ma'naviy tomonlarning ko'proq shakllanib ketgan davrlari ko'p bo'lgan. Jamiyat a'zolarining ma'naviy tarbiyalanganlik darajasiga o'qituvchi va pedagoglar mas'uldir.

Estetik kamolot ma'naviy hayotning eng nozik, shu bilan birga, murakkab ko'rinishlaridan biri. Inson shaxsiyatida estetik didning shakllanishi asta-sekin davom etadigan uzoq jarayondir. Estetik ko'nikmalar inson vujudiga singib, uning e'tiqodiga aylana borishi zarur. Bu borada ma'lum tadbir asosida ish ko'rilmasa, estetik tarbiya sohasidagi barcha harakatlar zoe ketadi.

Go'zallik bilan yaxshilik qondosh egizak, ular doim bir-birini taqozo etgan, bir-birini to'ldirgan. Qadimgi yunonlarda bu ikki tushuncha bir butunning ikki tomoni sifatida qaralgan. Hozirgi paytda ham etika bilan estetikaning birligi kishilar hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chin insoniy axloq normalarini rivojlantirish chin estetik didni shakllantirishni talab yetadi. Faqat odobga ega, axloqli, vijdonli kishini yetuk inson deb bo'lmaydi. Odob-axloqli kishida estetik did shakllangan bo'lsa, u har tomondan rivojlangan shaxs hisoblanadi. O'qituvchi va pedagog faqat har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lishi kerak.

Yuqorida tavsiflab o'tilgan bilimlarning asosiy to'qqiz turini o'zida jamlab, ularni ko'nikma va malaka bosqichlaridan o'tkazib, ma'naviyatiga aylantirib ulgurgan kishigina o'qituvchilik va pedagoglik amaliyoti bilan shug'ullanishga haqli.

O'qituvchining kasbiy shakllanishi oliy o'quv yurti dargohida kasbiy ta'lim olish jarayonida boshlanadi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'quv-reja va fanlar bo'yicha dasturlarida bo'lajak o'qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o'rgatish, ilmiy bilimlar berish, o'qituvchi kasbi haqida ma'lumot berish va ko'nikma hosil qilish nazarda tutiladi.

Xulosa. Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlagan kasbi to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi davrdagi o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayiiqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o'ynaydi. Yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni biriktirib qo'yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri. O'qituvchi o'z kasbini sekin-asta o'zlashtirib borishi bilan birga ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib etadi. Shu yo'l orqali ham kasbiy shakllanishi takomillashib boradi.

O'qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash, maktab o'qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o'z o'rnini topib keta olishi yosh o'qituvchining o'ziga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhiy tushkunlikka tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va ularni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi.

Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy shakllanishi o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga va o'z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog'liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzullayev M. M. O'smirlarda psixologik savodxonlikning ko'pqirrali istiqbollari // Guliston Davlat Universiteti // ISSN 2181-7367 // E-ISSN 2181-1172 // Guliston Davlat Universiteti Axborotnomasi, 53-56s.

2. Fayzullayev M. M. O'smir yoshdagi o'quvchilarning psixologik savodxonligini rivojlantirish // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. –Buxoro, 2023. -№6 – 167-170.

3. Fayzullayev M. M. Concepts of formation and development of psychological literacy in continuous education // Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence ISSN: 2835-3064– The USA, 2023. – №11. 495-497

4. Fayzullayev M. M. Ўсмирлик даврида мулоқотдаги қийинчиликни шаклланишининг психологик хусусиятлари // ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference – The USA, 2023. – №12. – 129-133

5. Fayzullayev M. M. O'smirlarda psixologik savodxonlikni rivojlantirish va uning tadqiq etilish jarayoni // –“Yoshlar ta'lim-tarbiyasi jarayonida psixologik etuklikni shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: , 2023. 1047-1055



## **KOMPYUTER GRAFIKASINING TEXNIK OLIY O'QUV YURTLARIDA O'QITILISHINING ZARURLIGI VA BUGUNGI KUNDAGI O'RNI**

*Nazarova Shahnoza Shokirovna,  
Namangan muhandislik-qurilish instituti,  
"Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari"  
kafedrasida stajyor-o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Mazkur maqola kompyuter grafikasining texnik oliy o'quv yurtlarida o'qitilishining ahamiyati va zarurligini o'rganadi. Kompyuter grafikasining bugungi texnologik jamiyatda keng qo'llanilishi, ayniqsa texnik yo'nalishdagi mutaxassislar tayyorlash jarayonidagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Maqolada, shuningdek, kompyuter grafikasining asosiy tushunchalari, uning dasturlash va mexatronika, arxitektura va dizayn, avtomatlashtirish kabi turli texnik sohalarda qo'llanilishi tahlil qilinadi. Kompyuter grafikasini o'qitish natijasida talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlari va muammolarni hal etish ko'nikmalari rivojlanishi ta'kidlanadi.*

*Kalit so'zlar: Kompyuter grafika, texnik ta'lim, texnologik jamiyat, kreativ fikrlash, o'quv jarayoni, vizualizatsiya, texnik mutaxassisliklar*

## **НЕОБХОДИМОСТЬ И СОВРЕМЕННОЕ МЕСТО ОБУЧЕНИЯ КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКЕ В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ**

*Назарова Шахноза Шокировна,  
Наманганский инженерно-строительный институт,  
«Информационные технологии в технических системах»  
стажер кафедры*

*Абстрактный. В данной статье рассматривается важность и необходимость преподавания компьютерной графики в технических вузах. Обсуждается широкое использование компьютерной графики в современном технологическом обществе, особенно ее место в процессе подготовки специалистов технической сферы. Также в статье анализируются основные понятия компьютерной графики, ее применение в различных технических областях, таких как программирование и мехатроника, архитектура и дизайн, автоматизация. В результате обучения компьютерной графике особое внимание уделяется развитию у учащихся творческого мышления и навыков решения задач.*

*Ключевые слова: Компьютерная графика, техническое образование, технологическое общество, творческое мышление, образовательный процесс, визуализация, технические специальности.*

## **THE NEED AND CURRENT PLACE OF TEACHING COMPUTER GRAPHICS IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION SCHOOLS**

*Nazarova Shahnoza Shokirovna,  
Namangan Engineering-Construction Institute,  
«Information technologies in technical systems»  
department trainee*

*Abstract. This article examines the importance and necessity of teaching computer graphics in technical universities. The widespread use of computer graphics in today's technological society, especially its place in the process of training specialists in the technical field, is discussed. The article also analyzes the basic concepts of computer graphics, its application in various technical fields, such as programming and*

*mechatronics, architecture and design, and automation. As a result of teaching computer graphics, the development of students' creative thinking skills and problem solving skills is emphasized.*

*Keywords: Computer graphics, technical education, technological society, creative thinking, educational process, visualization, technical specialties*

Kirish. Kompyuter grafikasining rivojlanishi bugungi kunda texnologik taraqqiyotning ajralmas qismi bo'lib qolgan. Bu soha nafaqat axborot texnologiyalari bilan bog'liq, balki ko'plab texnik sohalarda uchun ham muhimdir. Texnik oliy o'quv yurtlarida kompyuter grafikasining o'qitilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishdagi mutaxassislar uchun zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Kompyuter grafikasi muhim soha bo'lib, yillar davomida sezilarli darajada rivojlangan va qo'llanilishini kengaytirgan. Talabalarni muhandislik, texnologiya va fan bo'yicha amaliy va nazariy bilimlar bilan qurollantirishga asosiy e'tibor qaratilayotgan texnika oliy o'quv yurtlarida kompyuter grafikasi o'quv dasturining ajralmas qismiga aylandi.[1] Ushbu maqola texnik universitetlarda kompyuter grafikasini o'qitish zarurati va uning bugungi ta'lim va kasbiy landshaftdagi dolzarbligini o'rganadi.

**Kompyuter grafikasining texnik ta'limdagi roli**

Texnik yo'nalishdagi ta'lim muassasalarida kompyuter grafikasini o'qitish zarurati bir qator omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, bu yo'nalishdagi ta'lim muassasalarida grafik dizayn, muhandislik va texnologik dasturlash kabi sohalarda talabalarning chuqur bilim olishini ta'minlaydi. Kompyuter grafikasining texnologik rivojlanishdagi o'rnini katta, chunki u murakkab muhandislik va ilmiy modellashtirish jarayonlarini soddalashtiradi.

Zamonaviy texnologik ilovalar uchun asos: Kompyuter grafikasi - bu raqamli media, o'yinlar, virtual haqiqat, kengaytirilgan haqiqat va simulyatsiyaga asoslangan modellashtirishni o'z ichiga olgan turli xil zamonaviy ilovalarni asoslaydigan asosiy texnologiya. Texnik ta'limda kompyuter grafikasini tushunish dasturiy ta'minot muhandisligi, kompyuter fanlari, mashinasozlik va elektrotexnika va boshqalar bo'yicha martaba izlayotgan talabalar uchun juda muhimdir.[2] Bu ularga yangi texnologiyalarni loyihalash, ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishda ajralmas bo'lgan vizual simulyatsiya va raqamli modellarni yaratish ko'nikmalarini beradi.

Vizual aloqani kuchaytirish: Vizual aloqa muhandislik va texnologiyada muhim ahamiyatga ega, bu erda murakkab g'oyalar, dizaynlar va jarayonlar samarali tarzda etkazilishi kerak. Kompyuter grafikasi talabalarga ma'lumotlarni tasavvur qilish, batafsil diagrammalar yaratish va aniq 3D modellarni ishlab chiqish imkonini beradi. Mavhum tushunchalarni vizual formatlarga aylantirish qobiliyati texnik taqdimotlar, loyiha namoyishlari va hamkorlikda ishlash uchun juda muhim bo'lib, talabalarning murakkab ma'lumotlarni qisqa va samarali etkazish qobiliyatini oshiradi.

Sanoat talablariga tayyorgarlik: Zamonaviy mehnat bozori AutoCAD, SolidWorks, Blender va Adobe Suite kabi turli xil kompyuter grafikasi vositalari va texnologiyalarida malaka talab qiladi.[3] Shuning uchun texnik universitetlar o'z talabalarini ushbu sanoat talablariga tayyorlashga mas'uldirlar. O'quv rejasiga kompyuter grafikasini integratsiyalashgan holda, texnik universitetlar o'z bitiruvchilarining ishga tayyor bo'lishini va turli sohalarda, jumladan, muhandislik, dizayn, arxitektura, animatsiya va boshqa sohalarda ish beruvchilarning talablarini qondirishga qodir bo'lishini ta'minlaydi.

**Texnik sohalarda kompyuter grafikasining qo'llanilishi**

Kompyuter grafikasining texnik ta'limda qo'llanilishi talabalarga bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Birinchidan, grafik modellashtirish va vizualizatsiya yordamida talabalar

texnik g'oyalarni samarali tasvirlash va taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Misol uchun, arxitektura va dizayn sohaslarida kompyuter grafikasidan foydalangan holda bino va inshootlarning 3D modellarini yaratish mumkin. Shuningdek, avtomatlashtirish va robototexnika yo'nalishlarida kompyuter grafikasidan foydalangan holda murakkab tizimlarni vizualizatsiya qilish va modellashtirish talabalarni nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlashga yordam beradi.

**Kompyuter grafikasi ta'limining hozirgi tendentsiyalari**

Fanlararo ta'lim: Kompyuter grafikasi bo'yicha ta'lim tobora ko'proq fanlararo bo'lib, sun'iy intellekt, inson va kompyuter o'zaro ta'siri va ma'lumotlar fani kabi sohalarda birlashadi. Ushbu tendentsiya nafaqat grafika sohasida malakali, balki tegishli sohalarda bilimga ega bo'lgan mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligini aks ettiradi, bu ularga yanada murakkab va integratsiyalashgan texnologik echimlarni yaratishga imkon beradi.[4]

**Haqiqiy vaqtda grafika va simulyatsiyaga e'tibor qaratish:** Yuqori unumli hisoblashning paydo bo'lishi va real vaqtda ilovalarga talab ortib borishi bilan kompyuter grafikasi ta'limida real vaqt rejimida ko'rsatish va simulyatsiya qilish tomon siljish kuzatilmoqda. Texnik universitetlar hozirda o'yin, virtual reallik va real vaqtda ma'lumotlarni vizualizatsiya qilishdagi ilovalar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan real vaqtda grafikalarini o'qitish texnikasi va algoritmlariga ko'proq e'tibor qaratmoqda.[5]

**Yangi texnologiyalar integratsiyasi:** virtual haqiqat (VR), kengaytirilgan haqiqat (AR) va 3D bosib chiqarish kabi rivojlanayotgan texnologiyalarni kompyuter grafikasi ta'limiga integratsiyalashuvi keng tarqalmoqda. Ushbu texnologiyalar talabalarga o'z dizaynlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish va ko'plab texnik sohalarda muhim ko'nikmalar bo'lgan murakkab fazoviy munosabatlarni tushunishning yangi usullarini taklif qiladi.

**Kompyuter grafikasini o'qitishning afzalliklari**

Texnik oliy o'quv yurtlarida kompyuter grafikasini o'qitish bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Birinchidan, bu talabalarni kreativ fikrlashga undaydi va ularni texnik muammolarni hal qilishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar bilan tanishtiradi. Ikkinchidan, kompyuter grafikasidan foydalangan holda murakkab texnik jarayonlarni vizualizatsiya qilish, talabalarni amaliyotga yaqinlashtiradi va ularning o'quv jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Uchinchi tomondan, kompyuter grafikasini o'qitish talabalarning IT sohasidagi ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ularning kasbiy malakasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

**Kompyuter grafikasini o'rgatishdagi muammolar**

**Resurs intensivligi:** Kompyuter grafikasini o'rgatish katta resurslarni, jumladan, yuqori unumdor kompyuterlar, maxsus dasturiy ta'minot va malakali o'qituvchilarni talab qiladi.[6] Bu ba'zi texnik universitetlar uchun, ayniqsa cheklangan mablag'ga ega yoki eng yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan universitetlar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

**Texnologik yutuqlar bilan hamnafas bo'lish:** Kompyuter grafikasidagi texnologik taraqqiyotning tez sur'ati shuni anglatadiki, ta'lim muassasalari o'z o'quv dasturlarini doimiy ravishda eng yangi vositalar, texnikalar va sanoat amaliyotlarini o'z ichiga olgan holda yangilashlari kerak. Bu fakultetni rivojlantirish va infratuzilmaga doimiy sarmoya kiritishni talab qiladi.

**Nazariya va amaliy ko'nikmalarni muvozanatlash:** Yana bir qiyinchilik nazariy tushunchalarni o'rgatish bilan amaliy, amaliy ko'nikmalarni muvozanatlashdir.[7] Grafik algoritmlar va matematika bo'yicha nazariy bilimlar muhim bo'lsa-da, talabalar mehnat bozoriga to'liq tayyor bo'lishlari uchun sanoat standartidagi dasturiy ta'minot va apparat vositalaridan foydalangan holda keng ko'lamli amaliyotga muhtojdirlar.

Xulosa. Kompyuter grafikasining texnik oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi zamonaviy ta'lim jarayonining muhim qismi bo'lib, u talabalarni texnik sohalar uchun zarur bo'lgan kreativ fikrlash va texnik muammolarni hal qilish ko'nikmalari bilan ta'minlaydi. Bu yo'nalishdagi ta'lim jarayoni nafaqat nazariy bilimlar berishga, balki amaliyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Kompyuter grafikasining texnik ta'limdagi ahamiyati talabalar va pedagoglar tomonidan e'tirof etilib, uning o'qitilishi orqali talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur poydevor yaratiladi.[8] Texnik universitetlarda kompyuter grafikasini o'rgatish nafaqat zarur, balki bugungi texnologiyaga asoslangan dunyoda ham dolzarbdir. Bu talabalarga turli sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan muhim ko'nikmalarni beradi, ularning murakkab g'oyalarni vizual tarzda etkazish qobiliyatini oshiradi va ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga javob berishga tayyorlaydi. Biroq, kompyuter grafikasi bo'yicha ta'lim texnologik yutuqlar bilan hamnafas bo'lishini va nazariy va amaliy ko'nikmalarga muvozanatli yondashishni ta'minlashda muammolar saqlanib qolmoqda. Kompyuter grafikasi sohasi rivojlanishda davom etar ekan, texnik universitetlar o'z o'quv dasturlari va resurslarini o'z bitiruvchilari raqobatbardosh bo'lib qolishlarini va kelajakdagi martaba uchun yaxshi tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlashlari kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chikazunga, L. B. (2020). Computer Graphics in Engineering Education: A Comprehensive Approach. *Journal of Technical Education and Innovation*, 15(3), 45-59.
2. Smith, R. A. (2019). The Role of Visualization in Technical Disciplines. *International Journal of Engineering and Technology*, 8(2), 123-139.
3. Lee, J., & Park, S. (2018). Integrating Computer Graphics into the Engineering Curriculum. *Advances in Educational Research*, 7(1), 67-82.
4. Мирахмедов, Ш. (2022). Компьютерная графика в техническом образовании: актуальные задачи и решения. *Технический вестник Узбекистана*, 5(12), 45-54.
5. Niyazov, U. (2021). Modern Trends in Teaching Computer Graphics in Higher Education. *Central Asian Journal of Education and Technology*, 10(4), 89-101.
6. Маликова Е. А. Педагогические условия обучения компьютерной графике студентов-дизайнеров в высшем учебном заведении // Москва. – 2009.
7. Литвинова Н. Б. Педагогические условия развития профессиональной компетентности студентов технического вуза средствами инженерной графики // Москва. – 2007.
8. Филимонова М. Ю. Проектирование системы обучения инженерной графике с использованием новых информационных технологий (на примере подготовки инженеров-нефтяников) : дис. – Диссертация.-2003, 2003.

## **FIZIKA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARI ORQALI O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

*Raxmonov Ikrom Abdulkarimovich  
Termiz Davlat Universiteti o'qituvchisi*

*Annosiya: Maqolada o'quvchilarda fizikaning "Mexanika" bo'limiga doir laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish orqali tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishga oid metodik taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan. O'quvchilarda tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik asoslaridan biri sifatida laboratoriya ishlarini bajarish jarayoni tanlangan.*

*Tayanch so'zlar: qiziqish, qobiliyat, mantiq, iqtidor, tadqiqot, ijod, fikrlash, rivojlantirish, bilim, ko'nikma, malaka.*

## **МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ФИЗИЧЕСКУЮ ЛАБОРАТОРНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ**

*Рахманов Икрам Абдукаримович  
Преподаватель Термезского государственного университета*

*Аннотация: В статье даны методические предложения и рекомендации по развитию исследовательских навыков у студентов путем проведения лабораторных занятий на кафедре физики «Механика». В качестве одной из методических основ развития исследовательских способностей студентов был выбран процесс выполнения лабораторных работ.*

*Ключевые слова: интерес, способности, логика, талант, исследование, творчество, мышление, развитие, знания, умение, компетентность.*

## **METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' RESEARCH SKILLS THROUGH PHYSICS LABORATORY ACTIVITIES**

*Rakhmanov Ikram Abdulkarimovich  
Teacher of Termiz State University*

*Annotation: In the article, methodical proposals and recommendations are given for the development of research skills in students by conducting laboratory exercises on the «Mechanics» department of physics. The process of performing laboratory work was chosen as one of the methodical bases for the development of students' research abilities.*

*Key words: interest, ability, logic, talent, research, creativity, thinking, development, knowledge, skill, competence.*

Fan va texnikaning hozirgi jadal rivojlanishi fizikani o'qitishda ayrim muammolarni keltirib chiqarib, yangi texnologiyalarning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Maktab o'quvchilarini o'qitish jarayonida zamonaviy fan va texnika yutuqlarini yoritish tobora qiyinlashib bormoqda. Hozirgi kunda jamiyatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda mutaxassislardan nafaqat bilim, balki tadqiqotchilik va izlanuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda alohida fizika fanini ham nazariy o'qitish, ham amaliyotda tatbiq etishga e'tibor berish – bugungi kunning muhim vazifasi hisoblanadi. Fizika qonuniyatlari amaliyotda eng ko'p qo'llanilgani uchun ham uni o'qitishdagi tajriba – amaliyot ishlariga alohida e'tibor berish lozim. Shu bois o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish va ularda

tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bu muammo, fizika fanidan iqtidorli maktab o'quvchilarini o'qitishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning iqtidorlarini aniqlashda biz fizika faniga qiziqqan va ancha yaxshi natijalarga erishgan o'quvchilarni tushunamiz va natijada fizikani o'qitishda ularni tengdoshlari bilan solishtiramiz.

Fizika sohasida iqtidorli maktab o'quvchilari ilmiy-texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan narsaga qiziqadilar, shuning uchun fan va texnika yutuqlari to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi ularga kelajakdagi kasbiy faoliyat yo'nalishini ongli ravishda tanlashga imkon bermasligi mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda ta'limda shaxsning qadriyatlari ustuvorlik kasb etmog'i lozim. Bunday yondashuv ta'lim oluvchining o'qish va mustaqil bilim olish o'rtasida uzviy bog'liqlikni belgilab beradi va uning mavjudligi ta'lim jarayoni muvaffaqiyatining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim muassasalari oldiga o'quvchilarda fizik tajribalar asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqishni taqqazo etadi. Bunday yondashuvga ko'ra o'qitishning yangi modellarini izlash, ta'lim jarayonini zamon talablariga yo'naltirish, innovasion dasturlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik zaxirasini zamonaviylashtirish masalasini xal etish bilan bog'liq.

O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ularda fizik tajribalar asosida o'quv tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish muammosini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi eng birinchi pedagogik shart-sharoit bu ta'lim mazmunini takomillashtirish va uning amaliy yo'nalishini kuchaytirish. Ikkinchi o'quv mashg'ulotlarini Davlat ta'lim standartiga mos holda tashkil etishga va ularning tashkiliy-metodik ta'minotini ta'minlash. Ushbu shart-sharoitning dolzarbligi, ta'lim muassasi o'quvchilarida faoliyatning asosiy turi o'quv bilish, o'rganish jarayonidan iborat bo'lib, keyinchalik u tadqiqotchilik faoliyatiga aylanadi. Uni tashkil qilish va amalga oshirish sifati, eng avvalo, ta'lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyati bilan belgilanadi.

Fizik jarayonlarni o'rganishda o'quvchilarda amaliy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning dastlabki bosqichi namoyishli tajribalar yordamida amalga oshiriladi. Laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida fizik qonunlarning o'quvchilar tomonidan "kashf etilishi"da, o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish samarali mashg'ulotlardan biri.

Fizik tajriba ishlari mustaqil ish turlaridan biri bo'lib, bunda o'quvchilar tajriba ishlarini mustaqil bajaradilar. Natijada, ular olgan nazariy bilimlarini mustahkamlaydi, amaliy tayyorgarligini oshiradi. O'rganilgan fizik qonun va hodisalarni laboratoriya sharoitida amalda tekshirib ko'radi, fizik tajribalardan olingan natijalarni tahlil qilib, tadqiqot ishlarini o'tkazish haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. Fizikadan laboratoriya ishlarini tashkil etish va fizik jarayonlarni tahlil qilish, o'lchash usullarini tanlash, ob'yekt va hodisalarni har tomonlama yoritish va tushuntirishga oid o'quv materiallarini tanlash. Bu o'quvchilarda tadqiqot ishlarini olib borish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Fizik eksperiment ishlarining samaradorligini ta'minlash uchun quyidagilar muhim hisoblanadi: o'qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, mashg'ulotni tayyorlash va tashkil etish qobiliyati, tajribaning moddiy texnik jihozlanishi va metodik ta'minot holati, shuningdek ta'lim oluvchining tayyorgarligi darajasi hamda mashg'ulotdagi faolligi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi fizika fanini o'qitishda iqtidorli maktab o'quvchilarining

tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik tizimini asoslash, ishlab chiqish va joriy etishdan iborat. Fizika fanini pedagogik nazariya va amaliyotda o'qitishda iqtidorli o'quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi holatini aniqlash, iqtidorli o'quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay bo'lgan fizika fanidan tadqiqot ishining turini aniqlash, fizika fanini o'qitishda iqtidorli maktab o'quvchilarining tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishning uslubiy tizimini yaratish, bu fizika fanidan iqtidorli maktab o'quvchilarini aniqlash, ularni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish.

Laboratoriya ishlarini mustaqil auditoriyadan tashqarida bajarish laborotoriya mashg'ulotlari uchun ajratilgan vaqtni sezilarli kengaytirishga, mashg'ulotlarni nazariy bilimlar berilgandan keyin o'tkazishga imkon beradi. Tajriba mashg'ulotlarini bajarishda o'quvchilar tomonidan tayyorlangan yoki madaniy – maishiy qurilmalardan foydalangan holda tajriba o'tkazishlari uchun o'quvchilar zarur asbob – uskunani yasashlari yig'ishi va tuzishlari kerak. Bu esa katta o'quv - tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib o'quvchilarda ijodiy izlanishga ilmiy tadqiqot faoliyatiga intilishni tarbiyalaydi. Laboratoriya ishlari tizim orqali o'quvchilarda ziyraklik, maqsadga intilish, dastur materialni bo'lajak mutaxassislik bilan bog'lay olish, mehnatga muxabbat kabi sifatlar tarbiyalanadi. Mustaqil bajariladigan tajriba ishlarida ko'pincha asbob va materiallarni hamda qurilmani yig'ish uchun ko'p vaqt sarflanmaydi va ularni osongina uyda bajariladigan tajriba vazifalariga aylantirish mumkin. Uyda bajariladigan tajriba ishlar o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatadi. Ularning fikrlashlarini faollashtirishga imkon beradi, hamda fizikani turmush va tabiat bilan bog'lashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha tajriba ishlarining tavsiflari quyidagi yagona dastur asosida tuziladi. Ishning nomi, qisqacha nazariy qism, ishning maqsadi, asbob va jihozlar, ishni bajarish tartibi, savol va topshiriqlar, adabiyot. Nazariy qismda asosan ishni bajarish uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumotlar bayon qilinadi. To'liq nazariy ma'lumotni o'quvchilar tavsif oxiridagi adabiyotlar ro'yxatiga kiritilgan qo'llanmalardan olishlari kerak. O'quvchilar tajriba ishini bajarishni ishning tavsifi bilan tanishishdan boshlashlari kerak. U ishning tafsiloti yuzasidan quyidagi dastur asosida ishning nomi, nazariy qism, ishning maqsadi, ishni bajarish uchun talab etiladigan asbob va jihozlar, ishni bajarish tartibi, zarur bo'lgan taqdirda tajriba natijalari yoziladigan jadval, adabiyot.

O'quvchi zarur asbob – uskunalarni tayyorlaydi va tajriba mavzusi bo'yicha nazariy material bilan tanishadi. O'lchash va kuzatish ishlari bajarilgach, o'quvchi olingan natijalarni ishlab chiqadi va xatolikni hisoblaydi. Kuzatilgan hodisa va qonuniyatlarni izohlaydi. Bajarilgan har bir tajriba ish yuzasidan yozma hisobot tayyorlaydi. Masalan:

1) "Sharning polga urilishida yo'qotgan energiyasini aniqlash" nomli laborotoriya ish mazmunini keltiramiz. Jismning mexanik energiyasi boshqa turdagi energiyaga o'tmasa, u holda kinetik va potensial energiyalar yig'indisi jismning to'la energiyasini ifodalab har qanday vaziyatda ham o'zgarmaydi.

Tabiatda absolyut elastiklik to'qnashishlar yuz bermaydi, balki elastik urilishdan chetlashadi. Demak, bunday urilishlar vaqtida mexanik energiyaning biror qismi boshqa turdagi energiyaga o'tadi. Urilishlar natijasida yo'qotilgan energiya ko'pincha issiqlik energiyasiga aylanadi.

Biror balandlikdan tushib polga urilgan sharning qayta ko'tarilish balandligini o'lchash orqali sharning yo'qotgan energiyasini topish mumkin.

Kerakli asboblari: 1. Kauchik yoki metall shar. 2. O'lchov lentasi. 3. Tarozi (toshlari bilan).

Ishni bajarish tartibi.

1. Sharning massasi tarozida o'lchab olinadi.

2. Sharni polga tashlashdagi H balandlik o‘lchanadi.
3. Shar polga urilib qayta ko‘tarilgan balandlik h o‘lchanadi (1-rasm).
4. Sharning H balandlikdagi potensial energiyasi

$$E_1 = PH = mgH \quad (1)$$

5. Sharning polga urilib yuqoriga ko‘tarilgandagi potensial energiyasi


$$E_2 = Ph = mgh \quad (2)$$

formula bo‘yicha hisoblanadi.

6. Boshqa turga o‘tgan energiya

$$E = E_2 - E_1 \quad (3)$$

formuladan topiladi. Shu tajribani turli xil balandlik va sharlar uchun takrorlash zarur.



1-rasm. Sharchaning vertikal harakati

7. O‘lchash natijalarini quyidagi jadvalga yozamiz.

No	Sharning massasi, m, (kg)	Sharning tushish balandligi N, (m)	Sharning chiqish balandligi h, (m)	Sharning boshlang‘ich energiyasi, Ye <sub>1</sub> , (J)	Sharning keyingi energiyasi, Ye <sub>2</sub> , (J)	Yo‘qotilgan energiya, Ye, (J)
1						
2						
3						




2) “Polispastning foydali shi koeffitsiyenti topish” nomli laboratoriya ish mazmunini keltiramiz. Polispast osilgan P yukni h balandlikka ko‘tarishda bajarilgan  $A_1$  foydali ishning qo‘zg‘aluvchi bloklarini yuk bilan birga yuqoriga ko‘tarishda va ishqalanish kuchlarini yengishda bajarilgan  $A_2$  ishga nisbati polispastning foydali ish koeffitsiyentini beradi.

**Kerakli asboblari:** 1.Polispast. 2.Tarozi toshlari (12 kg gacha). 3.Blok va yuklarni ko‘tara oladigan 3 m uzunlikdagi ip. 4.Dinamometr. 5.Shtativ va ramka.

Ishni bajarish uchun ramkaning, yuqori tomonidagi reyka uchta ko‘chmas blok, past tomoniga esa uchta ko‘char blok o‘rnatiladi (2-rasm). Ko‘char blok o‘qiga parallel qilib ilgakli reyka osilib, unga ko‘tariluvchi yuk ilinadi. So‘ngra tajribani o‘tkazishga mo‘ljallab, sxema asosida bloklarga ip tortiladi.

### Ishni bajarish tartibi

1. Ipning bir uchini yuqorigi ilgakka bog‘lab, ikkinchi uchini polispastning bloklaridan o‘tkazamiz va dinamometrغا birlashtiramiz (2-rasm).



2-rasm. Polispastda yuklar harakati

2. Yuk dinamometrغا ilinadi va uni yuqoriga ko‘taruvchi kuch dinamometr yordamida aniqlanadi.

3. Polispastning foydali ishini hisoblash uchun yukning og‘irligini uni ko‘tarilgan balandlikka ko‘paytiramiz, ya’ni

$$A_1 = P \cdot h \quad (1)$$

4. Tortish kuchining shu kuch ta’sirida o‘tilgan yo‘lga (tortilgandagi ip uzunligiga)

$$A_2 = F \cdot l \quad (2)$$

5. Polispastning foydali ish koeffitsiyenti

$$\eta = \frac{A_1}{A_2} \cdot 100\% = \frac{P \cdot h}{F \cdot l} \cdot 100\% \quad (3)$$

6. O'Ichangan va hisoblangan barcha kattaliklar quyidagi jadvalga yoziladi.

№	Yukni ko'tarish balandligi, h, (m)	Ko'tariluvchi yukning og'irligi, P, (N)	Tortilgan ipning uzunligi, l (m)	Tortuvchi kuch, F, (N)	Yukni ko'tarishdagi foydali ish, A <sub>1</sub> (J)	Yukni ko'tarishdagi to'la ish, A <sub>2</sub> , (J)	FIK, η, (%)
1							
2							
3							

3) “Disk yordamida kuch momentlarini aniqlash” nomli laboratoriya ish mazmunini keltiramiz. Kuchning kuch yelkasiga ko'paytmasi kuch momentini beradi. Agar og'irlik kuchlarini  $P_1$  va  $P_2$  orqali, yelkalarni mos ravishda  $l_1$  va  $l_2$  orqali belgilasak, kuch momentlari

$$M_1 = P_1 \cdot l_1,$$


$$M_2 = P_2 \cdot l_2$$

Bu kuch momentlari bir – birlarini muvozanatlaganda disk tinch holatda bo'lib, noma'lum kuchni topish mumkin bo'ladi.

**Kerakli asboblari:** 1. Vertikal o'q atrofida aylanadigan qilib reyka o'rnatiladigan simmetrik mixlar qoqilgan faner disk. 2. Toshlar (to'la komplekti) va ularni osish uchun ip. 3. 20 sm uzunlikdagi chizg'ich.

### Ishni bajarish tartibi.

1. Disk o'qning o'ng va chap tomonida markazidan har xil uzoqlikda toshlar osib, diskni muvozanatga keltiriladi (3-rasm). Bu holda kuch momentlarining tengligi ( $P_1l_1 = P_2l_2$ ) bajariladi.



3-rasm. Disk yordamida kuch momentini aniqlash

2. Diskning o'ng va chap tomonlariga uning markazidan turli masofalarga turlicha toshlar osib kuch momentlari tenglashtiriladi.

3. Disk yordamida kuch momentlarini aniqlash natijalari quyidagi jadvalga yoziladi.

№	O'ng tomonga qo'yilgan toshlar, $P_2, (H)$	O'ng tomondagi tosh qo'yilgan masofa, $l_2, (m)$	Chap tomonga qo'yilgan toshlar, $P_1, (H)$	Chap tomondagi tosh qo'yilgan masofa, $l_1, (m)$	Kuch momentlarining tengligi, $P_1l_1 = P_2l_2$ $(H \cdot m)$
1					
2					
3					

O‘quvchilarga “Sharning polga urilishida yo‘qotgan energiyasini aniqlash”, “Polispastning foydali shi koeffitsiyenti topish”, “Disk yordamida kuch momentlarini aniqlash” laboratoriya ishlarini taklif qilinayotgan metodika bo‘yicha o‘qitilsa, ular ushbu mavzuni to‘laqonli o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lib qolmasdan, laboratoriya ishlarida foydalanilgan formulalarning keltirib chiqarilishini ham yetarli darajada tushunib olishi mumkin.

Ushbu keltirilgan laboratoriya ishlaridan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning tadqiqotchilik qobiliyati, ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, fanga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va iqtidorini yosh hamda psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday ekan, fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borishi natijasida o‘quvchilarda o‘tilgan o‘quv materialni aniq, ongli va chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi, ularning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirib, kichik tadqiqotlarni va yangi g‘oyalarni topishga, izlanishga da‘vad etadi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Андреев В.И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. / В.И. Андреев. - Казань: Центр инновационных технологий. -2000. -608 с.
2. Гальперин П.Я. Лекции по психологии. Учебное пособие для студентов вузов / П.Я. Гальперин. — М.: Высшая школа. — 2002. — 400 с.
3. Гурина Р.В. Подготовка учащихся физико-математических классов к профессиональной деятельности в области физики: Дис... док. пед. наук. / Р.В. Гурина. - Ульяновск. - 2007. - 471 с.
4. Косихина О.С. Понятие о психодидактике. / О.С. Косихина, А.Н. Крутский // Физика в школе. — 2010. — №3. — с. 30-34 с.
5. Мещеряков Б.Г, Зинченко В.П. Большой психологический словарь. / М.: АСТ. - 2009. - 816 с.
6. Мухина В.С. Психологический смысл исследовательской деятельности для развития личности. / В.С. Мухина // Школьные технологии. — 2006. — №2. — с. 19-31 с.
7. Abdukarimovich R. I. Methodology for Developing Research Ability of Students in Physics Education //JOURNAL OF THEORY, MATHEMATICS AND PHYSICS. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 19-21.
8. Shapulatovich I. N., Abdukarimovich R. I. METHODOLOGY OF DEVELOPING CAPACITY OF STUDENTS IN PHYSICS //Conference Zone. – 2021. – С. 133-134.
9. Рахмонов И. А. УМУМИЙ УРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА МЕХАНИКА БЎЛИМИДАН МАСАЛА ЕЧИШ ЖАРАЁНИДА ФИЗИКА ФОРМУЛАЛАРНИ КЕЛТИРИБ ЧИҚАРИШ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 2007-2009.
10. Tursunmetov K.A. Turg'unboyev F.Yu. Xamidjonov I.X. Umumiy fizika kursidan praktikum “Механика” О‘quv qo‘llanma T.: -2019 у.
11. Nazirov E.N. va boshqalar. Механика va molekulyar fizikadan praktikum. O‘zbekiston. T.- 2001 у.
12. Ж.Нурматов, М.И.Исроилов, М.Нишонова, А.Авлиёкулов. Физика лаборатория ишлари. Тошкент “Уқитувчи” 2002 йил.

## SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA

*Kadirov Tulkin Baxridinovich-Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida v.b. dotsenti*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt, texnologik rivojlanishning asosi sifatida qaralib ta'limning barcha jabhalarini jumladan, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash integratsiyasida sun'iy intellektning o'rni, sun'iy intellekt texnologiyasining xususiyatlari ko'rib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, texnologiya, axborot, texnika, robot, kompyuter.*

## ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ – ОСНОВА ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

*Кадыров Тулкин Бахридинович-Центр педагогического мастерства Самаркандской области, Кафедра методологии точных и естественных наук и др. Доцент*

*Аннотация. В данной статье искусственный интеллект рассматривается как основа технологического развития в интеграции всех аспектов образования, включая дошкольное и начальное образование, высшее образование, послевузовское образование, профессиональную подготовку и переподготовку, роль искусственного интеллекта, особенности искусственного интеллекта. рассматриваются разведывательные технологии.*

*Ключевые слова: искусственный интеллект, технологии, информация, техника, робот, компьютер.*

## ARTIFICIAL INTELLIGENCE IS THE BASIS OF TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT

*Kadyrov Tulkin Bakhridinovich, Pedagogical skill center of Samarkand region, Department of Methodology of Exact and Natural Sciences, etc. associate professor*

*Abstract. This article considers artificial intelligence as the basis of technological development in the integration of all aspects of education, including preschool and primary education, higher education, postgraduate education, vocational training and retraining, the role of artificial intelligence, the features of artificial intelligence, and intelligence technologies.*

*Key words: artificial intelligence, technology, information, equipment, robot, computer.*

**KIRISH.** Darhaqiqat hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyasi imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sun'iy intellektning imkoniyatlari kundan kunga ortib borishi esa ko'plab foydalanuvchilarni sun'iy intellekt bilan bog'liq dasturiy vositalardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish ta'lim jarayonining sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Axborotlar hajmining keskin ortishi va mashinali o'qitish tizimining rivojlanishi jarayonida sun'iy intellekt insonni o'rganish, o'rgatish va baholash usullarini to'liq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyasidan ta'lim jarayonida foydalanishning o'ziga xos juda ham ko'plab imkoniyatlari mavjud.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** Sun'iy intellekt (SI) bu mashinalarga insonning intellektual xulq-atvori va fikrlash qobiliyatiga taqlid qilish imkoniyatini beruvchi dasturiy vosita hisoblanadi. Ya'ni insonga tabiat tomonidan berilgan idrokning ma'lum bir funksiyasini sun'iy ravishda bajaruvchi aqlli dasturlar majmuasi sifatida qarashimiz mumkin.

Sun'iy intellektning amaliy fan sifatida rivojlanishi Alan Tyuring nomi bilan bog'liq. 1950-yil Tyuring kelajak mashinalari imkoniyatlari va ularning aql bobida insoniyatni ortda qoldirishi haqida muammoli savollarni o'rta tashlaydi. Jumaladan "Tyuring testi" nomli protsedurani taklif etadi. Bu protsedura sun'iy intellekt tafakkurini inson tafakkuriga solishtirish orqali ularni baholash imkonini berdi. 1956-yil sun'iy intellekt sohasiga bag'ishlangan Dartmut konferensiyasi AQSH da tashkil etildi. Konferensiyada o'sha davrning mashhur olimlari Marvin Minskiy, Jon Makkarti, Klod Shennon, Natan Rochester va boshqalar jam bo'lishadi va sun'iy intellekt sohasidagi rivojlanish nuqtalarini belgilashadi. Konferensiyada Marvin Minskiy tomonidan sun'iy intellekt atamasi rasman fanga kiritildi. 1960-1990-yillar oralig'ida SI texnologiyalari birmuncha rivojlandi. Sanoat robotlari, inson bilan suhbat quruvchi dasturlar, gumanoid robotlar, avtomatik xizmat ko'rsatuvchi chatbotlar va boshqalar yaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Sun'iy intellekt — bu ma'lumotlarni tezkor olish, muayyan muntazamligni aniqlash, tendensiyalarni optimallashtirish yoki bashorat qilish mumkin bo'lgan juda ko'p algoritmlar va mexanizatsiyalashgan bilimlar vositasi sifatida ham ta'riflashimiz mumkin.

Sun'iy intellekt deganda insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun'iy tizim tushuniladi. Ushbu atama, shuningdek, o'rganish va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bog'liq xususiyatlarni namoyish etadigan har qanday texnologiyaga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Sun'iy intellektning ideal xususiyati - bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Hozirda sun'iy intellekt turli amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritmlar hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo'lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi. Olimlar sun'iy intellekt bilan tajriba o'tkazishga ishtiyoq bilan qarashsada, ko'pchilik odamlar bu hodisadan ehtiyot bo'lishadi. Hatto Tesla rahbari Elon Mask ham buni insoniyat uchun "asosiy tahdid" va urush va ishsizlikning mumkin manbasi deb ta'kidlagan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida hozirda yurtimizda ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

O'z navbatida sun'iy intellektni ilm-fanga joriy etish uchun malakali kadrlar sonini oshirish talab etiladi. Negaki aynan o'z kasbining ustasi bo'lgan mutaxassislar barcha jabhalarga sun'iy intellekt kirib borishida asosiy omil bo'ladi. Hozirda yurtimizda shu yo'nalish bo'yicha "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt" ixtisosligi oliy malakali kadrlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik mutaxassisliklar nomenklaturasiga kiritildi va uning pasporti yaratildi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt ixtisosligi" bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti ochilganligi shu sohaga qaratilgan e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Sun'iy intellekt" deganda ko'pchilik robotlarning turli sohalarga jalb qilinishini

tushunadi. Ammo sun'iy intellekt atamasi robotlarning inson bilan o'rin almashishini anglatmaydi. Uning asosiy maqsadi inson qobiliyatlari va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirishdir. Shuning uchun bu kabi texnologiyalar qimmatli biznes resursi hisoblanadi.

Avvallari "sun'iy intellekt" atamasi faqat odamlar bajarishi mumkin bo'lgan, masalan, mijozlarga xizmat ko'rsatish yoki shaxmat o'ynash vazifalarni bajarish uchun qo'llanilgan. Shuningdek, kompyuter texnologiyalarini chuqur o'rganishga ham sun'iy intellekt sifatida qaralgan. Lekin mijozlarga xizmat ko'rsatish, turli onlayn o'yinlar va kompyuter texnologiyalarini chuqur o'rganish kabilar sun'iy intellekt texnologiyalarining kichik qismi hisoblanadi. To'g'ri, sun'iy intellekt texnologiyalari odamlar bajaradigan vazifalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq endilikda uning qamrovi kengaymoqda, hozirda sun'iy intellekt bilan odamlarning xarakterini, o'quvchilarning qobiliyatlarini, xodimning ishga bo'lgan qarashlarini aniqlab olish mumkin.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyasining kun sayin rivojlanishi jahon taraqqiyoti va mamlakatlarning sohaviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan ta'lim sohasida ham sun'iy intellekt texnologiyasining ayrim elementlari keng qo'llanilmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyasining quyidagi xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin:

- yuzni tanib olish;
- chuqur o'rganish;
- oddiy vazifalarni avtomatik takrorlash;
- chatbotlar;
- bulutli hisoblash;
- kvant hisoblash;
- ma'lumotlarni qabul qilish;

Tahlillardan xulosa qiladigan bo'lsak sun'iy intellektdan turli sohalarda yordamchi vazifani bajaruvchi sifatida ko'plab funksiyalarga ega bo'lgan chatbotlarning yangi avlodining yaratilishi, tabiiy tilni qayta ishlovchi vositalarning yanada rivojlanishi, mashinalarni o'qitishda avtomatlashgan tizimlarining yangi bosqichga o'tishi, ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining yanada rivojlanishi, avtomobil sanoatida o'zini-o'zi boshqaruvchi avtomabillarning mukammallashishi, kvant kompyuterlarining ishlab chiqarilishi, jamiyat hayotida qashshoqlikni bartaraf etuvchi sun'iy intellektga asoslangan ekspert tizimlarini yaratilishi, davlat boshqaruv sohasida shaffoflik va qonun ustivorligini taminlashga yordam beruvchi sun'iy intellekt tizimlari ishga tushishi kutilmoqda.

Sun'iy intellektning keng qo'llanilishiga uchta sabab, hozirda sun'iy intellektning sohalarga joriy etilishi uchun turli sabablar keltirilmoqda, ulardan uchta eng asosiysini keltirib o'tishimiz mumkin. Birinchisi, arzon narxlardagi yuqori samarali hisoblash resurslari. Ikkinchisi, ta'lim uchun katta hajmdagi ma'lumotlarning mavjudligi. Sun'iy intellekt mahsulining aniq prognozlarni amalga oshirishi uchun u katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashi kerak. Ushbu omil sabab turli vositalar, xususan, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning oddiy hamda arzon vositalari, turli xil algoritmlar yaratildi. Uchinchisi, sun'iy intellekt maxsulotlari raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. U kompaniyalar xarajatlarini va xavflarni kamaytirishi, bozorga chiqish imkoniyatini kengaytirishi hamda boshqa foydali omillar uchun ko'plab vositalarni taklif qila oladi. Natijada sun'iy intellekt joriy etilgan kompaniyalar raqobatga anchayin chidamli bo'ladi.

Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt bu o'quv faoliyatida o'qituvchi ro'lini bajarishi kutilayotgan aqlli kompyuter dasturi va uning imkoniyatlari hisoblanadi. Bugungi

kungacha bu kabi imkoniyatlarga ega bo'lgan dastur yaratilganini juda kam uchratish mumkin ammo sun'iy intellekt ma'lum xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bir necha ko'rinishdagi dasturiy vositalar yaratilmoqda va mutaxassislar tomondan ta'lim jarayonida foydalanib kelinmoqda. Masalan, tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyasi o'quvchilar bilan yozma va og'zaki muloqot o'rnatish, ularni bilimni nazorat qilishda qo'llanilmoqda. Nazorat qiluvchi testlarni avtomatik yaratish dasturlari sinovdan o'tkazilmoqda (Education Testing Service va Pearson); Intellektual repetitorlik tizimlarining ma'lum xususiyatlari ishlab chiqilganligi va h.k.

Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyalashuvi o'quv jarayonidagi tub o'zgarishlardan darak beradi. Sun'iy intellekt algoritmlari tomonidan boshqariladigan moslashtirilgan o'quv vositalari ta'lim oluvchilar uchun ularning o'rganish uslublari va ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan tajribalarni taklif qiladi. Ushbu tizimlar ko'p qirrali ma'lumotlar manbalarini tahlil qilib, moslashtirilgan o'quv rejalarini ishlab chiqish, o'quvchilarga o'z sur'atlarida rivojlanish va yordamga muhtoj bo'lgan sohalarda ustunlik qilish imkonini beradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyasidan samarali foydalanish ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пантелеева Т.А., Арустамов Э.А., Максаев А.А. Возможности искусственного интеллекта в управлении кадровыми ресурсами в условиях свободного предпринимательства // Интернет-журнал «Отходы и ресурсы», 2019 №3,

2. Камилова Р.Ш. Абдулатипова М.А. ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ // Опубликовано в 2013, Выпуск Май 2013, ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ.

3. Entoni Changning «Sog'liqni saqlashda sun'iy intellekt: muvaffaqiyatli biznes modelini qurish». 2020.



## MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH OMILLARI

*Rustamova Shohista Alisher qizi*

*Chirchiq Davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqil o'quv faoliyati va uning talabalarning bilim olish jaroyonidagi ahamiyati, mustaqil o'quv faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha o'qituvchilar tomonidan qaysi jihatlarga ahamiyat berish zarurligi haqida fikrlar yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: Mustaqil o'quv faoliyati, tanqidiy, individual ta'lim, mustaqil ish, mantiqiy tafakkur, metodika, ta'lim.*

## FACTORS OF ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES

*Rustamova Shohista Alisher qizi*

*Chirchik State Pedagogical University basic doctoral student*

*Abstract: In this article, independent study activity and its importance in the process of students' learning, which aspects should be given importance by teachers in order to organize independent study activity effectively.*

*Key words: Independent educational activity, critical, individual education, independent work, logical thinking, methodology, education.*

## ФАКТОРЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Рустамова Шахисты Алишер кизи*

*Базовый докторант Чирчикского государственного педагогического университета*

*Аннотация: В данной статье рассматривается самостоятельная учебная деятельность и ее значение в процессе обучения студентов, каким аспектам следует уделить внимание преподавателям, чтобы эффективно организовать самостоятельную учебную деятельность.*

*Ключевые слова: Самостоятельная учебная деятельность, критическая, индивидуальное обучение, самостоятельная работа, логическое мышление, методика, обучение.*

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining 1- § da mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish masalalarida talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz rivojlantirish orqali bo'lajak mutaxassislarining zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan [1].

Avvalo mustaqil o'quv faoliyati nima uchun zarur degan savolga javob izladik. Mustaqil o'quv faoliyati talabalarning shaxsiy rivojlanishi, o'zini boshqarishi, tanqidiy va analitik fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi, ijodkorlik qobiliyatlarining rivojlanishi,

o'qishga bo'lgan qiziqishining oshishi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining oshishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Yurtimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy qilish orqali talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish masalalari bo'yicha bir qator olimlar jumladan, D.M.Maxmudova, O'.N.Sultonova, S.I.Qulmamatov, M.L.Boltayeva, H.Y.Najmiddinova o'zlarining tadqiqot ishlarini olib borganlar.

D.M.Mahmudova o'z ishida muammoli matematik masalalarni o'qitish asosida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish, muammoli matematik masalalarni MatLab, MathCad, Maple, Mathematica kabi matematik dasturiy paketlardan foydalanib o'qitish metodikasi bo'yicha tadqiqot olib borgan.

H.Y.Najmiddinova algebra fani bo'yicha talabalar mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish jarayonidagi muammolar va ularni hal etish yo'llari ustida o'z tadqiqotlarini olib borgan. Oliy ta'lim muassasalarida muayyan fanning o'quv materiallarini auditoriya mashg'ulotlari va talabalarning mustaqil o'quv faoliyati uchun ajratishda talabalarning yosh va individual-psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda ushbu fanning ham o'ziga xos jihatlari inobatga olish lozimligini ta'kidlagan. Shu bilan birga mustaqil o'quv faoliyatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalarni tanlash bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan.

S.I.Qulmamatov o'z tadqiqot ishida mustaqil ta'limni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi, elektron darsliklar orqali mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish, kompyuter dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib talabalar mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.

Metodologiya. Talabalarning ijodiy salohiyatini yuksaltirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning eng yaxshi usullaridan biri bu mustaqil ta'limdir. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalari talabalar uchun chop etilgan "Matematika o'qitish metodikasi" darsligida mustaqil o'quv faoliyati haqida quyidagicha fikrlar keltirilgan: "Matematika o'qitishning amaliy maqsadlaridan biri o'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish. Bunda asosan o'quvchilarni o'quv darsliklardan va ilmiy-ommaviy matematik kitoblardan mustaqil o'qib o'rganish malakalarini shakllantirishdan iboratdir" [2,7 b].

Tadqiqot doirasida matematikani o'qitishda mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish maqsadida avvalo bir-biriga yaqin bo'lgan bu tushunchalarga aniqlik kiritish zarurati yuzaga keldi.

"O'quv faoliyati deganda psixologlar talaba (o'quvchi)larning o'rganiladigan fanga oid nazariy bilimlari va ular bilan bog'liq masalalarni yechishning umumiy yo'llarini o'zlashtirishga, talaba (o'quvchi)larning rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan faoliyatni tushunadilar" [5,18 b].

"O'quv faoliyati-bu insonda muaffaqiyatli mehnat faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini ta'minlash maqsadida uni o'qitish hamda tarbiyalashga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan to'plangan tajriba, bilimlar, malaka va ko'nikmalar shaklida o'zgartirish hamda uni o'sib kelayotgan avlodga berishdan iborat. O'quv faoliyati insonning individual rivojlanishi bilan uzviy bog'liq va uning hamma fazalarida-bolalikdan boshlab, to'ulg'aygan davrgacha mavjud bo'ladi".[6,3 b].

Demak, o'quv faoliyati inson hayotidagi muhim va inson rivojlanishi uchun ajralmas faoliyatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil o'quv faoliyati bu-auditoriya va auditoriyadan tashqaridagi mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida amalga oshiriladigan, talabaning aqliy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, intellektual qolbiliyatini va mustaqil ta'lim olishga bo'lgan intilishini rivojlantiruvchi individual jamoaviy o'quv faoliyatlari tizimidir [5,24

b]. “Mustaqil ta’lim olish - oliy ta’lim tizimida talabalarning maqsadga yo’naltirilgan o’quv faoliyatidirki, bunda talabalarning o’quv faoliyati jarayonida o’qituvchi tomonidan mustaqil bilim olishga yo’naltiriladi (mustaqil o’rganish uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi, o’quv-uslubiy qo’llanmalar tavsiya etiladi, maslahatlar uyushtiriladi va bajarilishi nazorat qilinadi) va boshqariladi .

Mustaqil ta’limning asosiy maqsadi-“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning yakuniy bosqichi talablari asosida ta’lim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o’zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Zamonaviy mutaxassisning o’z bilimi va hayotiy tajribalarini oshirib borishi unda shaxsiy xislatlarning shakllanganlik darajasiga bog’liq” [7,17 b.].

Bunday xislatlarni shakllantirishda mustaqil ishlarning o’rni va ahamiyati katta hisoblanadi. Ya’ni mustaqil ishlardan ko’zlangan asosiy maqsad talabalar auditoriyada olgan bilim va malakalarini mustahkamlash, yangi bilimlarni olish va ijodiy ishlash malakasini tarkib toptirishdir.

“Individual ta’lim-ta’lim jarayonida o’qituvchining faqatgina bir nafar o’quvchi bilan yoki o’quvchining ta’lim vositalari ( adabiyotlar, kompyuter, televideniya, radio va b) bilan o’zaro hamkorligi asosida o’quv materiallarining o’zlashtirilishini ta’minlashga yo’naltirilgan ta’lim” [4,168 b.].

Tahlil va natijalar: Individual ta’lim va mustaqil ta’lim bir-biriga yaqin tushunchalardek tuyilsada aslida bir-biridan tubdan farq qiluvchi tomonlari bor. Individual ta’lim ham mustaqil ta’lim ham shaxsga yo’naltirilgan ta’lim hisoblanadi. Bir biridan asosiy farqi shundaki o’quv faoliyatini amalga oshirish uslubida. Individual ta’lim yakka tartibda aynan bitta talabaga ta’lim berish uchun amalga oshirilsa, mustaqil ta’lim talabaning mustaqil o’rganishi va o’zlashtirishini maqsad qilgan ta’lim shakli. Mustaqil ta’lim talabani o’z-o’zini boshqarishga va faoliyatini tartibga solishga o’rgatadi. Individual ta’limning asosiy mohiyati har bir talabaning individual xususiyatlari to’la inobatga olingan holda maxsus o’qitish shakllari, metodlari va vositalari tanlangan holda o’qitish jarayonining tashkil etilishida.

Individual ta’limning quyidagi turlari mavjud:

- o’rgatuvchi ta’lim;
- insonparvarlik ta’limi;
- umumiy ta’lim olishga asoslanuvchi ta’lim;
- shaxsga yo’naltirilgan ta’lim;
- maxsus dasturga asoslangan ta’lim;
- o’z-o’zini rivojlantiruvchi ta’lim;
- ijodiy xarakterga ega ta’lim.

Tajribalar shuni ko’rsatadiki, talabalar muayyan fandan mustaqil bilim olishlari uchun ularga nazariy ma’lumotlarni o’rganishlari bilan birga, amaliy topshiriqlar va ularni bajarish bo’yicha metodik ishlanmalar berib borilsa fanni o’zlashtirish ko’rsatkichi yanada yuqori bo’lishini tasdiqladi.

Xulosa. Mustaqil ta’lim talabalarning o’z-o’zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantiradi va ularda mustaqil ishlash ko’nikmalarini rivojlantiradi. Bu ta’lim usuli orqali talabalar shu soha doirasida chuqurroq bilim olishlari, analitik va tanqidiy fikrlashni o’rganishlari, shuningdek o’z o’quv jarayonlarini boshqarish va rejalashtirishda mustaqil bo’lishga o’rganadi.

O’qituvchilar esa mustaqil o’quv faoliyatini tashkil etishda quyidagi jihatlarga ahamiyat berishlari kerak:

- Talabalar uchun aniq maqsadlar belgilashlari kerak. Bu talabaga nimaga erishish kerakligini aniq tushinishga yordam beradi va ularning motivatsiyasini oshiradi.

- Talabalar uchun turli darajadagi murakkablikdagi va qiziqarli o'quv topshiriqlarini taqdim etishlari kerak. Ya'ni topshiriqlar talabani qiziqishi va qobiliyatiga mos bo'lishi kerak.

- Talabani kerakli resurslar bilan ta'minlash, jumladan kitoblar, maqolalar, onlayn manbalar va boshqa o'quv materiallari. Shu bilan birga ularga resurslarni topish va ulardan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatish juda muhimdir.

- Talabalarni mustaqil o'rganish jarayonida kerakli ko'rsatmalar berish va muntazam ravishda qayta aloqa o'rnatish. Ularning savollari va muammolariga javob berish talabalarning ta'lim jarayoniga qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi.

Bu jihatlar talabalar uchun samarali va foydali mustaqil ta'lim jarayonini tashkil qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5847-son farmoni. T. 2019.

2. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi.-T. "Cho'lpon", 2011-304 b.

3. Mahmudova D.M. Talabalarda mustaqil ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalardan foydalanish. Dis.ped.fan.nom. Toshkent, 2018-130 b.

4. Muslimov N, Usmonboyeva M, Sayfurov D, To'rayev A. Innovatsion ta'lim texnologiyalari.-T. 2015-208 b.

5. Najmiddinova H.Y. Oliy ta'lim muassasalarida algebrani o'qitishda talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish metodikasi. Dis.ped.fan.nom. Namangan, 2011-150 b.

6. Omonov H.T, Xo'jayev N.X, Madyarova S.A, Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T. "Iqtisod-Moliya", 2009-240 b.

7. Turdiyeva G,S, Fayziyeva D.H. Oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishlarini innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali tashkil etish metodikasi. Monografiya. Buxoro. "Durdona", 2020-105 b.

## KONSTRUKTIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TARKIBIY KOMPONENTLARI

*Isakov Jasurbek Arifjonovich  
Andijon iqtisodiyot va qurilish  
instituti, "Arxitektura va qurilish" kafedrasida erkin tadqiqotchisi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqot doirasida biz talabalarda konstruktiv kompetensiyalarni rivojlantirishning tarkibiy komponentlari kasbiy mahoratini shakllantirish modelini baholash-samarali komponenti uning tuzilishiga muvofiq tuzilgan va ularning shakllanish darajasi yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: kognitiv, texnik va texnologik, kommunikativ, refleksiv, individuallik, pedagogik qobiliyat, insayt.*

## ОСНОВНЫЕ КОМПОНЕНТЫ РАЗВИТИЯ КОНСТРУКТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ

*Исаков Джасурбек Арифжонович  
Андижанская экономика и строительство института, независимый научный  
сотрудник кафедры «Архитектура и строительство».*

*Абстрактный. В данной статье в рамках исследования мы оценили структурные компоненты развития конструктивных компетенций у студентов, оценочно-эффективный компонент модели формирования профессиональных навыков по ее структуре, а также уровень их сформированности. выделено.*

*Ключевые слова: познавательный, технико-технологический, коммуникативный, рефлексивный, индивидуальность, педагогические способности, пронциательность.*

## MAIN COMPONENTS OF THE DEVELOPMENT OF CONSTRUCTIVE COMPETENCES

*Isakov Jasurbek Arifjonovich  
Andijan economy and construction  
Institute, independent researcher of the «Architecture and construction» department*

*Abstract. In this article, as part of the research, we have evaluated the structural components of the development of constructive competences in students, the evaluation-effective component of the professional skill formation model, according to its structure, and the level of their formation has been highlighted.*

*Key words: cognitive, technical and technological, communicative, reflexive, individuality, pedagogical ability, insight.*

Respublikamizda ta'lim olishning kunduzgi, kechki, sirtqi, maxsus sirtqi shakllari mavjud bo'lib. 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi Qonunining 16-moddasi Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Hozirgi shiddatli davrda dunyo shunchalik tez rivojlanmoqdaki, bugungi yangilik ertaga eskirib qolyapti. Shuning uchun, ma'lumotlarni o'z vaqtida olish maqsadida, odamzot informatsion texnologiyalarni yaratdi. Kompyuter – bu oddiy va qulay tarzda ma'lumotlarga yetishish vositasidir. Ma'lumotlar bilan ishlayotgan shaxs, ma'lumotlarning qayerda joylashishidan qat'iy nazar, xoh u shaharda, xoh jahonning boshqa nuqtasi bo'lsin, uni

olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Hozirda shu va shunga o'xshash boshqa muammolar kompyuterlar yordamida bartaraf qilinmoqda. Kompyuterlar inson hayotining barcha jabhalariga jadallik bilan kirib boryapti va jahonda ularning soni va qo'llanilish doirasi kengaygandan kengaymoqda. Bu esa kompyuterlarning kundan-kunga yanada rivojlanishini ta'minlayapti.

Bularning hammasi ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hozirda puxta bilimga ega bo'lish uchun informatsion texnologiyalarni ham o'zgartirish zaruriyati tug'ilmoqda, chunki ta'lim tizimi har doim zamon talablariga mos kelishi kerak. Hozirgi zamon talabi esa yangi o'quv muhiti, ya'ni yangi informatsion texnologiyalar yordamida ixtiyoriy joyda turib bilim olish, ixtiyoriy o'quv yurtlari bilan aloqa qilish va jahonning ixtiyoriy nuqtasidagi ma'lumotlarni olishdir. Bunda bizga internet tizimi yordam berishi mumkin.

Biz konstruktiv kompetensiyalarni shakllantirishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan asosiy boshlang'ich nuqtalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- o'quv materialini idrok etishga tayyorlikni shakllantirish;
- ijodiy izlanish vaziyatlarini yaratish;
- dizayndagi shaxsiy ahamiyatni shakllantirish;
- ijodiy faoliyat amalga oshirish jarayonida o'quv talablari va operativ nazoratni taqdim etish; professionallikni diqqat markazida saqlash;
- muvaffaqiyatga erishish uchun turtki berishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarga e'tibor berish kerak.

Bo'lajak muhandislarni konstruksiyalash jarayonini tadqiq qilish natijalari bo'yicha faoliyat turiga motivatsion, kognitiv, refleksiv-faoliyatli tarkibiy komponentlari talabalarning konstruktiv kompetensiyalarini rivojlantirishning quyidagilar tarkibiy bosqichlarida amalga oshiriladi:

1-bosqich – Muammoni tahlil qilish: bu bosqichda ma'lumotlar to'planadi, qiyoslanadi va umumlashtiriladi;

2-bosqich - Motivatsion-mo'ljalli: muammoni hal qilishga yo'naltirilgan ma'lumotlarni tizimlashtiriladi;

3-bosqich – Maqsadli-tashxisli: ya'ni ko'p variantli yechimlar bankini tuziladi;

4-bosqich – Kasbiy-izlanuvchilik: yechimlardagi nomutanosiblik va ziddiyatlarni aniqlanadi va bartaraf etiladi;

5-bosqich – Amalga oshirish: tanlab olingan g'oyalarni amalda sinab ko'riladi va natijalarni taqqoslanadi;

6-bosqich – Hamkorlik va ommalashtirish: Yangi g'oya va yechimlarni pedagogik hamkorlikda amalga oshirish va ommalashtirish amalga oshiriladi;

7-bosqich – Yakuniy: Yaratilgan yechimlardagi kamchiliklarni aniqlab qo'shimcha ishlov berish.

Talabalarning konstruktiv kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy bosqichlari sifatida quyidagilarni belgilab olamiz (1-rasm):

1.6-rasm. Talabalarning konstruktiv kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy bosqichlari

Ilmiy adabiyotlarda kompetensiya tuzilishini ko'rib chiqishda tadqiqotchilar to'rt yoki besh komponentni ajratib ko'rsatishadi. Tadqiqotimizda bakalavriat talabalarining axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarining shakllanish darajasini aniqlash uchun N. G. Vitkovskaya [1], G. A. Gareeva [2], E. M. Zayseva [4], A. V. Gofenberg [3], S. R. Markulis [5], Yu. G. Plaksina [6], N. I. Sakovich [7] va E. V. Shalashova [8] va boshqalarning dissertatsiyalarini tahlil qildik va yuqoridagi mualliflarning ishlarida axborot kompetensiyalarining quyidagi tarkibiy qismlarini aniqladik:

N. G. Vitkovskaya quyidagi komponentlarni taklif qiladi [1]:

- 1) kognitiv - ma'lumot uchun so'rov, ma'lumot bilan ishlash;
- 2) qiymatga asoslangan - axborotga o'rnatish;
- 3) refleksiv - kasbiy muammolarni hal qilish uchun ma'lumotlardan foydalanish;
- 4) texnologik - axborotni tahlil qilish va umumlashtirish, natijalarni taqdim etish.

A.V.Goferberg quyidagi "axborot kompetensiyasi komponentlari"ni ko'rib chiqdi [3]:

1) motivatsion komponent axborot texnologiyalari bilan ishlashga ijobiy munosabatni o'rnatadi va kasbiy muammolarni hal qilishda yangi axborot texnologiyalaridan professional tarzda foydalanishga qaratilgan;

2) kognitiv komponent kasbiy faoliyatda yangi axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilimlar tizimi bilan ifodalanadi;

3) operativ-harakat komponenti axborotni tahlil qilish va umumlashtirish hamda natijalarni taqdim etishni, shuningdek, kasbiy faoliyatda yangi texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini ifodalaydi .

G. A. Gareeva quyidagi tarkibiy qismlarni bildiradi [2]:

1) kognitiv tayyorgarlik - AKT sohasidagi bilimlar, axborot-ta'lim muhitida axborot bilan ishlash usullari haqidagi bilim;

2) motivatsion-qiymatli tayyorlik - axborot bilan ishlashga qiziqish, AKTdan foydalanish zarurati, AKT vositasida axborot resurslaridan foydalanishga tayyorgarlik, axborotning qimmatligini anglash;

3) texnologik tayyorgarlik - AKT vositalaridan foydalanish qobiliyati, axborotni olish, saqlash, qayta ishlash va uzatish usullarini bilish.

Axborot texnologiyalari (AT) sohasida bakalavriat talabalari turli darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lganligi sababli, axborot va kompetensiyaning shakllanish darajasi ham har xil bo'ladi. Etuklikni aniqlash uchun uch turdagi darajalar, mezonlar ishlab chiqilgan.

E.M.Zayseva quyidagi «mutaxassislarining axborot kompetensiyasining tuzilishini va tarkibiy qismlarning kombinatsiyasini ochib berdi [4]:

1) kognitiv, kasbiy muammolarni ijodiy hal qilish uchun zarur bo'lgan o'zlashtirilgan bilimlar tizimini aks ettiradi;

2) ijodiy faoliyat, o'quvchilarning kasbiy faoliyatda o'zini o'zi anglash uchun zarur bo'lgan turli xil faoliyat usullarini shakllantirish va rivojlantirishga hissa qo'shish;

3) shaxsiy, sub'ektning shaxsiy sifatlarida namoyon bo'ladi, «shaxs bo'lish» ijtimoiy tartibini amalga oshiradi: ehtiyojlar, motivlar;

Psixologik adabiyotlarda keltirilgan tolerantlik tushunchalari va ta'riflari juda xilma-xil va ularni bir-biriga taqqoslash qiyin. Masalan, tolerantlik turli mualliflar tomonidan: tasdiqlangan xatti-harakatlar va bir kishining nuqtai nazarini boshqa odamlarga yuklashdan bosh tortish (N. Ashford), "o'yin qoidalari" bo'yicha kelishuvni qabul qilish (J. Sallivan, J. Pereson, J. Markus), boshqa odamni hurmat qilish usuli sifatida nuqtai nazar (L. G. Pochebut), o'zaro ta'sirning ma'lum bir sifati sifatida (M. Maskovskiy), maxsus munosabatlar sifatida (S. K. Bondareva), obyektga sezgirlikning pasayishi sifatida (Y. Klepsova), psixologik barqarorlik, ijobiy munosabatlar tizimi, individual fazilatlar to'plami sifatida, shaxsiy va guruh qadriyatlar tizimi va h.k. (G. U. Soldatova) [2].

Boshqa mualliflar tomonidan tolerantlik ta'riflari yoki tavsiflarida "o'z – boshqasi", "biz – ular", "tenglik – ustunlik", "boshqacha – bir xil" obrazli taqqoslashlarga ega.

Tolerantlik va shunga o'xshash tushunchalar, xususan, bag'rikenglik, muvofiqlik, ishonch, mehribonlik, odob-axloq kabi farqlarni aniqlashga ham urinishlar mavjud (A. Asmolov, Y. Klepsova, V. Kunisina, T. Skripkina). Tolerantlikning ayrim determinantlarini, omillarini, tarkibiy qismlarini, fazilatlarini, xususiyatlarini, turlarini, empirik xususiyatlarini aniqlashni taklif qilgan mualliflarning pozitsiyalari ham qarama-qarshi emas va taqqoslanmaydi ham (S. Bondareva, I. Grinshpun, Y. Gundar, I. Dzyaloshinskiy, Y. Klepsova, P. Nikolson, B. Riyerdon, Z. Sikevich, M. Valzer, I. Shkuratova, Y. Shlyagina, E. Eydemiller va boshqalar) [1,2].

Tolerantlikni tadqiq qilishning uslubiy vositalari miqdoriy usullarning sifat usullaridan ustunligi bilan tavsiflanadi. Miqdoriy usullarga, o'z navbatida, asosan og'zaki ekspress anketalar va turli mualliflik so'rovnomalar misol bo'la oladi. (S. Badner, V. V. Boyko, V. S. Magun, M. S. Mirimanova, G. U. Soldatova va boshq.).

Murosasiz xatti-harakatlarning ekstremal shakllarini oldini olishning psixologik asoslarini ilmiy va amaliy, xususan, konseptual ishlanmalari ham unchalik ko'p emas (A. G. Asmolov, D. V. Olshanskiy, L. G. Pochebut, M. N. Reshetnikov va boshqalar). Shu bilan birga, bugungi kunda psixologlar, siyosatshunoslar, ijtimoiy ish sohasi vakillari va boshqa mutaxassislar tomonidan faol qo'llaniladigan tolerantlikni shakllantirishning ko'plab modellari, dasturlari, usullari jiddiy ilmiy umumlashtirish va tizimlashtirishga muhtoj [4,5,9].

Muhokama va natijalar: Ijtimoiy psixologiyaga oid nazariy va empirik tadqiqotlarning maqsadi ijtimoiy psixologiyaning yangi ilmiy sohasi sifatida tolerantlikning konseptual asoslarini ishlab chiqishdir. Qolaversa, tolerantlikni tadqiq etishda quyidagi maqsadlarni belgilash maqsadga muvofiq:

1) tolerantlikning nazariy va konseptual tavsifi, uning predmeti, muammolari, kategorik va konseptual asoslari, fenomenologiya, boshqa fanlar bilan aloqalari, tadqiqot metodologiyasi va uning namoyon bo'lishini tasniflash mezonlarini tizimlashtirish;

2) tolerantlik mohiyatini to'la tushuntiruvchi psixologik modellarini ishlab chiqish;

3) tolerantlikni ijtimoiy-psixologik o'rganish uchun uslubiy vositalarni yaratish va sinovdan o'tkazish hamda uning empirik bazasini rivojlantirish;

4) tolerantlikning amaliy asoslarini ishlab chiqish, uning ayrim turlarining namoyon bo'lish qonuniyatlarini amaliy jihatdan ijtimoiy-psixologik tadqiq qilish.

5) Tolerantlikni tadqiq etishda yosh, gender, milliy, etnik xususiyatlarni hisobga oluvchi metodik tizimni yaratish.

Ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida nazariy va konseptual bilimlar asosida ijtimoiy-psixologik

muammolarning asosiy kategoriyasi sifatida tolerantlik (intolerantlik) namoyon bo'lishini psixologiya fani doirasida chuqur tadqiq etish muhim. Jumladan:

1. Tolerantlik – bu insonning atrofdagi ijtimoiy farqlarga ijobiy javob berish qobiliyati. Ushbu farqlar o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan uchta yo'nalish mavjud: ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy bilish va ijtimoiy xatti-harakatlar. Tolerantlik tuzilishi affektiv, kognitiv va konativ komponentlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun farqlarga javob hissiy, kognitiv, konativ yoki murakkab bo'lishi mumkin. Javobning yo'nalishi farqlar belgilarini oshirish yoki o'xshashlik belgilarini izlash strategiyalari bilan belgilanadi.

2. Farqlarga javobning intensivligi ularning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati bilan belgilanadi. Farqlarning ahamiyati ularning ijtimoiy kontekstining sifat xususiyatlari (keskinlik, xavf, umidsizlik) va tolerantlik subyekting farqlar (tolerantlik obyektlari) bilan munosabatlarining pozitsion darajasi bilan belgilanadi.

3. Tolerantlik quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: a) aqliy jarayonlar (idrok, fikrlash, hissiyotlar, iroda); b) ruhiy holatlar (barqarorlik, muvozanat); c) aqliy xususiyatlar (bag'rikenglik, ta'lim, tarbiya, hurmat, mehribonlik). Tolerantlik turlari biologik, madaniy, psixologik yoki ijtimoiy farqlarning shartlilik bilan ham belgilanadi.

4. Tolerantlikning (murosasizlikning) yo'nalishi va miqdoriy ifodasi insonning o'ziga xos psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi, ular uch guruhga bo'linadi: psixofiziologik, psixologik va ijtimoiy-rol xususiyatlari.

5. Katta ijtimoiy guruhlarda tolerantlikning (intolerantlikning) miqdoriy ifodalanish darajasiga ta'sir qiluvchi omillarga quyidagilar kiradi: kasbiy bandlik, yashash hududi va guruh vakillari joylashgan sosializatsiya bosqichi.

6. Tolerantlik psixologiyasining amaliy sohalar tolerantlik turlari, uning subyektlari va obyektlari tasnifiga, shuningdek, tolerantlik (intolerantlik) namoyon bo'lishining tipik holatlariga muvofiq shakllanishi mumkin.

7. Tolerantlik psixologiyasi shaxsning asosiy faoliyatiga yo'naltirilgan uni shakllantirish va tuzatish texnologiyalariga asoslanishi mumkin.

Xulosa: Aksariyat hollarda murakkab psixologik hodisalarni tasvirlashda komponentlar triadasidan foydalaniladi. Bu triada quyidagilarni o'z ichiga oladi: kognitiv komponent, emosional komponent va xulq-avtor komponenti. Eng umumiy hollarda yuqoridagi komponentlarning asosiy mazmuni yoki tolerantlik o'lchamlar quyidagicha ta'riflanishi mumkin:

Tolerantlikning "kognitiv" komponenti. Bu komponent yaqqol ko'rinuvchi va ko'p jihatdan tadqiq etilganligi uchun tolerantlik ko'pincha kognitiv "transkripsiya"da tasvirlanadi. Bu yerdagi asosiy jihatlar murakkablik, ko'p o'lchamlilik, oldindan bashorat qilib bo'lmasligi, u haqdagi individual fikrlar tabiatini tan olishdir. Shuning uchun ham u haqdagi fikrlarni yagona haqiqatga birlashtirishning imkoni yo'q.

Tolerantlikning kognitiv komponenti inson tomonidan murakkablik va ko'p o'lchamlilikni qabul qilish va tushunishdan iborat bo'lib, bular hayotiy haqiqat bilan bir qatorda uni qabul qilish variantlarining turlichaligi, ularni turli insonlar tomonidan turlicha baholanishi va tushunilishi, nisbiy va to'liq emasligi, subyektivligidir. Tolerantlik kognitiv o'lchamda aynan qarama-qarshilik holatlarida namoyon bo'ladi: fikrlarning to'qnash kelishi, qarashlarning mos kelmasligi va hokazo. Bu mos kelmaslik plyuralizmni qabul qilish, interpretatsiyalarning boyligidan dalolat beradi. Kognitiv intolerantlik tolerantlikning aksi bo'lib, me'yor mavjudligi pozitsiyasidan kelib chiqadi, shuning uchun u fikrlarning ko'p bo'lish imkoniyatini rad etadi va har qanday fikrlar plyuralizmi, insonlarning turlicha nuqtayi nazarlarini xatolik, adashish va hatto atayin qarshi chiqish deb baholaydi. Tolerantlik shuningdek, shaxsning suhbatdoshi bilan ma'lum vaziyat yuzasidan turlicha fikrlar bildirish imkoniyatini ham anglatadi, kognitiv "nizo" shaxslararo nizoga olib kelmaydi.

Tolerantlikning emosional komponenti. Tolerantlikka empatiyaning ahamiyati beqiyos va bu fikrni deyarli barcha tadqiqotchilar ma'qullagan. Tolerantlikning emosional tashkil etuvchisining ahamiyati shundaki, aynan shu o'lchov kommunikativ jarayonda suhbatdoshlarni o'zaro umumiylikka erishishlari, uzilgan insoniy aloqalarni tiklashlari imkonini beradi. Bunda tashqari empatiya suhbatdoshlar o'rtasidagi kognitiv yoki xulq-atvor tekisligida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish yoki yumshatish imkonini beradi. Chuqur empatiya bebaho va bu ma'noda mazmunan tolerantidir. Emosional komponentning alohida tashkil etuvchisi sifatida emosional barqarorlikning o'ziga xos ko'rinishi – "affektiv tolerantlik"ni aytish mumkin. Uning mazmuni emosional tolerantlikni, og'riqli hislarni sabr bilan yengish va hokazo. Tolerantlikning ushbu ko'rinishining boshqa bir aspekti o'zga kishining turli emosional ko'rinishlariga sabrli munosabatla bo'lish bilan bog'liq. Rivojlangan affektiv tolerantlik insonga shaxsiy emosional jarayonlari bilan bir qatorda boshqa insonlarning his-

hayajonlarini yaxshiroq anglashga, asabiylashmay va ulardan yomon ma'no izlamay qabul qilishga yordam beradi.

Tolerantlikning xulq-atvor komponenti. Ushbu o'lchov "tolerantlik aysbergi"ning eng ko'zga ko'ringan qismini tashkil etadi va odatda o'ziga e'tiborni jalb qiladi. Xulq-atvor tolerantligiga qarab ko'nikma va qobiliyatlarni kiritish mumkin, ular orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatamiz:

1) tolerant fikr bildirish va o'z nuqtayi nazarini shaxsiy muloahaza sifatida himoya eta olish qobiliyati;

2) boshqalarning fikriga tolerant munosabatda bo'la olish qobiliyati, ya'ni o'zining shaxsiy fikridan qanchalik farq qilishiga qaramasdan, boshqalarning ham o'ziga xos fikri borligi va u ham bu fikrni bildirish huquqiga ega ekanligini tan olish;

3) nizoli vaziyatlarda (qarama-qarshi nuqtayi nazar, fikrlar to'qnashuv yuz berganda) tolerant bo'la olish qobiliyati.

Bular orasida oxirgi uchinchisi, nafaqat xulq-atvor o'lchamida balki boshqa o'lchamlarda ham alohida e'tiborni talab qiladi. Tolerantlikning ushbu jihatlarini tadqiq etishda B.I. Xasanning konflikt va konflikt kompetenligi konsepsiyasi asos bo'lib xizmat qiladi. Kognitiv komponent tolerantlik prinsiplarini qabul qilish, tushunish, fikrlash, interpretatsiyalashni nazarda tutsa, verbal komponent "ilmiy tashkil etuvchilar" bilan chegaralanadi. Bu tolerantlikni eng sodda o'lchamidir.

Demak, tolerantlik mohiyatini to'la tushuntiruvchi psixologik modellarni ishlab chiqish asosida tolerantlikni ijtimoiy-psixologik o'rganish uchun uslubiy vositalarni yaratish va sinovdan o'tkazish hamda uning empirik bazasini rivojlantirishga, tolerantlikning amaliy asoslarini ishlab chiqishga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

Асмолов А.Г. На пути к толерантному сознанию. – М.: Смысл, 2000. – 255 с.

Бардиер Г. Л. Социальная психология толерантности. Автореф. дисс. д. психол.н. – СПб.: 2007. – 45 стр.

Маматов М.М. Этнопсихология. – Тошкент, 1999. – 59 б.

Сафаев Н.С. Духовность и национальное самосознание личности. Монография. – Ташкент: Фан, 2014. – 121 с.

Почебут Л. Г. Взаимопонимание культур. Методология и методы этнической и кросс-культурной психологии. Психология межэтнической толерантности. СПб., 2005.

Бафаев М.М., Санакулова Н.С., Болтаев С.И. Национальная толерантность – основа мира и стабильности / М.М. Бафаев, Н.С. Санакулова, С.И. Болтаев // Психология XXI столетия: материалы ежегодного Конгресса (Ярославль, 27–29 октября 2017), МАПН.

Бафаев М.М. Психологические основы толерантности. «Замонавий психология фанининг амалий имкониятлари» мавзусида хорижлик мутахассисликлар иштирокидаги илмий-амалий конференция материаллари / Тошкент, 2018. Б. 128–131.

Бафаев М.М. Роль феномена толерантности в развитии современного общества / М.М. Бафаев // Вестник НУУз. Ташкент, 2017. № 1/3. Б. 9–11.

Бафаев М.М. Социально-психологические детерминанты формирования национальной толерантности в условиях глобализации//Автореферат доктора философии по психологическим наукам (PhD) – Ташкент, 2021. – 45 с.

**ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARINI SHAXSIY, KASBIY FAZILATLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

*Ismoilov Alisher Ulug'bekovich,  
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilarini shaxsiy, kasbiy fazilatlariga ta'sir etuvchi omillar, ob'yektiv va sub'yektiv omillari yuzasidan fikrlar keltirilgan.*

*Kalit so'zlar: fazilat, shaxsiy fazilat, kasbiy fazilat, omillar, oila, mahalla, ichki muhit, ob'yektiv omillar, sub'yektiv omillar.*

**FACTORS AFFECTING PERSONAL AND PROFESSIONAL QUALITIES OF ACADEMIC LYCEUM STUDENTS OF THE MINISTRY OF INTERIOR AFFAIRS**

*Ismailov Alisher Ulugbekovich,  
Tashkent State Pedagogical University is an independent researcher*

*Abstract: This article presents opinions on the factors, objective and subjective factors affecting the personal and professional qualities of academic lyceum students of the Ministry of Internal Affairs.*

*Key words: virtue, personal virtue, professional virtue, factors, family, neighborhood, internal environment, objective factors, subjective factors.*

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЛИЧНОСТНЫЕ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЕВ МИНВД**

*Исмаилов Алишер Улугбекович,  
Ташкентский государственный педагогический университет – независимый исследователь*

*Аннотация: В данной статье представлены мнения о факторах, объективных и субъективных факторах, влияющих на личностные и профессиональные качества академических лицеистов МВД.*

*Ключевые слова: добродетель, личная добродетель, профессиональная добродетель, факторы, семья, соседство, внутренняя среда, объективные факторы, субъективные факторы*

Ichki ishlar vazirligi huzuridagi akademik litseylarning huquq-tartibot, jamoat xavfsizligi va ma'muriy vazifalarda turli lavozimlarda xizmat qilishga intilayotgan o'quvchilar kelajagini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu muassasalar oldiga nafaqat akademik bilim berish, balki talabchan va mas'uliyatli lavozimlarda samarali xizmat qilish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va kasbiy fazilatlarni tarbiyalash vazifasi ham yuklangan. Bu sifatning rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, ta'lim muhiti, o'quv dasturlarini loyihalash, pedagogik yondashuvlar va tashqi jamiyat ta'sirini o'z ichiga olgan son-sanoqsiz omillar ta'sirida bo'ladi.

So'nggi yillarda mazkur litseylarda ta'limga yaxlit yondashish zarurligi e'tirof etilmoqda. O'quv yutuqlari asosiy e'tibor bo'lib qolsa-da, bo'lajak huquq-tartibot idoralari xodimlari va davlat xizmatchilarining samarali faoliyat yuritishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yumshoq ko'nikmalar, axloqiy qadriyatlar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor kuchaymoqda. Ushbu siljish ichki ishlar sohasidagi zamonaviy mutaxassislar duch keladigan qiyinchiliklar uchun faqat texnik bilimlarning o'zi etarli emasligini yanada kengroq tushunishni aks ettiradi.

Ushbu maqola ushbu akademik litseylar o'quvchilarida shaxsiy va kasbiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli omillarni o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan. Ta'lim muhitini, o'quv dasturining tuzilishi va mazmunini hamda o'quvchilar rivojlanishini shakllantiruvchi tashqi ta'sirlarni o'rganib, ushbu tadqiqot o'quvchilarni kelajakdagi rollariga tayyorlashda eng samarali bo'lgan elementlarni har tomonlama tushunishga qaratilgan. Ushbu tahlildan olingan ma'lumotlar o'qituvchilar, siyosatchilar va ma'murlar uchun ushbu muassasalarda qo'llaniladigan ta'lim strategiyalarini takomillashtirishda foydali bo'ladi.



Xususan, maqolada quyidagi savollar ko'rib chiqiladi: Ushbu litseylar ichidagi ta'lim muhiti o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirishga qanday hissa qo'shadi? Ushbu rivojlanishda o'quv dasturining o'ziga xos jihatlari qanday? Oilaviy kelib chiqishi va jamiyatlardagi umidlar kabi tashqi omillar o'quvchilarning o'sishi va kelajakdagi kasbiga tayyorligiga qanday ta'sir qiladi? Ushbu savollarga javob berish orqali ushbu tadqiqot Ichki ishlar vazirligining keyingi avlod mutaxassislarini shakllantiradigan ta'lim jarayonlari bo'yicha nozik nuqtai nazarni taklif qiladi. Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilarini shaxsiy, kasbiy fazilatlarining psixologik xususiyatlarining kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Ilmiy tadqiqot muassasalari, ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilarini shaxsiy, kasbiy fazilatlarining psixologik xususiyatlari, zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi asosida ta'limni raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriishda Abdulla Avloniy, Imom al-Buxoriy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ibn Sino, At-Termiziy, A.N.Farobiy, Abu Homid G'azzoliy, Al Xorazmiy va boshqa mutafakkirlarning ilmiy, o'zbek psixologlaridan N.B.Atabaeva, G.A.Bogdalova, D.R.Raxmanova, R.I.Sunnatova, B.M.Umarov, G.V.Xrulnova va boshqalarning tadqiqotlarida o'smirlik davrida shaxs xususiyatlari o'rganilgan.

Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilarini shaxsiy, kasbiy fazilatlarining psixologik xususiyatlarining nazariy asoslari, ommaviy nutq, muzokaralar taktikasi aniqlaydi. Tadqiqot adabiyotlarni sintez qilish, ta'lim dasturlarini tahlil qilish va o'qituvchilar va yetakchilikni rivojlantirish bo'yicha ekspertlar bilan suhbatlarni o'z ichiga olgan sifatli usullardan foydalanadi.

Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilarini shaxsiy, kasbiy rivojlanishi o'quvchining o'z qo'lida bo'ladi va aynan u o'z xulqi standartlarini ongli tartibga soluvchiga aylanadi. Bu avvalo, o'z kasbiy-axloqiy tajribasini anglash orqali sodir bo'ladi. Kasbiy-shaxsiy sifatlarining shakllanishi asosida dinamik rivojlanuvchi professional sifatida o'qituvchining turli xil tajribasi yotadi. Ta'limning ana'naviy modellari, ular o'qituvchini jalb etadigan tajriba tashqaridan belgilangan va shuning uchun psixologik asoslanmaganligi sababli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Bunga rivojlantiruvchi "ichkidan tashqiga" o'tuvchi, "mahsuldor va ijodiy yashovchi" tajriba qarshi chiqadi (Dj. Dyui).

Ichki ishlar vazirligi akademik litsey o'quvchilarini shaxsiy, kasbiy fazilatlarining psixologik xususiyatlarining nazariy asoslarida pedagogikaning muhim rolini ta'kidlaydi. U shaxslarni turli xil tashkiliy muammolar va hamkorlik muhitiga tayyorlash uchun yetakchilik ta'limi doirasida tuzilgan aloqa mashg'ulotlarini integratsiyalashuvini targ'ib qiladi.

Shaxsiy fazilatlarga mehribonlik, ezgulik, yaxshilik qilish, rahmdillik, ko'ngilchanlik, kuyinchaklik, mushfiqlik, mehnatsevarlik, hozirjavoblik, chidam, sabr-toqat, bardosh, gayratlilik, qunt, mas'uliyat, javobgarlik, tinchliksevarlik, samimiylik, do'stona munosabatda bo'lish, ma'naviyatlilik, yuqori darajadagi shaxs madaniyati, sadoqat, burchdorlik, vafo, sodiqlik, to'g'rilik, rostgo'ylik, subutli bo'lish, ishonchlilik, beg'arazlik, harislik, sofdillik, ochiq ko'ngillilik, o'ziga bo'lgan ishonch, intellekt, bama'nilik, mulohazalilik, andishalilik, maqsadga intiluvchanlik, optimizm, hushchaqchaqlik, quvnoqlik, shodmonlik, omilkorlik, ishbilarmonlik, tajribakorlik, tashabbuskorlik, jonbozlik, serg'ayratlilik, qatiyatlilik, jur'atlilik, botirlik, mardlik, mardonavorlik, dadillik, ishonchlilik, ozodalik, pokizalilik, extiyotkorlik, saranjomlik, tejamkorlik, puxtalik, e'tiborlilik, ziyraklik, hushyorlik, sinchkovlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, iltifotlilik, izzat-hurmat ko'rsatish, yoqimlilik, dilbarlik, jozibalilik, hushmuomalilik, g'amxo'rlik va boshqalar kiradi.

Kasbiy fazilatlarga quyidagilar kiradi:

- kasb bilimlari;
- kasb bilim va ko'nikmalari;
- xizmat faoliyatini muvofiqlashtiruvchi zarur hujjatlarni bilish;
- kasb tajribasini to'plash va yangilash mahorati;
- egallab turgan lavozimda tajribani qo'llash mahorati;
- kasb tajribasini ijodiy qo'llash mahorati.
- amaliy faoliyatdagi tashkilotchilik va yakdillik;
- mas'uliyat va ijro intizomi;

tashabbuskorlik va uddaburonlik;  
 qarorlar qabul qilish va xarakterlanishda mustaqil  
 bo'la olish;  
 o'z boshqaruvida bo'lgan hodimlarni samarali  
 boshqarish;  
 faoliyatning natijaliligi;  
 intensivlik (ishchanlik qobiliyati);  
 tafakkur va nutq madaniyati;  
 kommunikativlik (aloqa qilish ahloqi);  
 umumiy madaniyat;  
 hujjatlar bilan ishlash madaniyati.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasb jihatidan ahamiyatli bo'lgan sifatlar quyidagilardir:

shaxsning psixologik jihatdan yo'nalganligi;  
 psixologik jihatlarda barqaror (qat'iy)bo'lish;  
 rivojlangan iroda sifatleri: qiyin vaziyatlarda o'zini tuta olish, mardlik, botirlik, tavakkalchilikka nisbatan aqlli moyillik;  
 yaxshi rivojlangan kommunikativ sifatlar: turli toifada bo'lgan odamlar bilan tezkor aloqa o'rnatish mahorati, o'zaro ishonchli munosabatlarni o'rnatish va tutib turish;  
 turli tezkor-xizmat vazfalarini hal etishda odamlarga psixologik ta'sir o'tkazish qobiliyati;  
 aktyorlik mahorati, boshqa shaklga kira olish mahorati;  
 bilib olish mahorati sifatleri: kasbiy kuzatuvchanlik va diqqat-e'tibor, kasbiy rivojlangan xotira, ijodiy fantaziya;

kasbiy rivojlangan tafakkur, kuchli aqliy mehnatga moyillik, fahm-idrok o'tkirligi, ichki sezuvchanlik qobiliyatining rivojlanganligi;

tezkor reaksiya ko'rsatish (aloqadorlikni o'rnatish), qiyin sharoitda xarakterlanishni boshqarish mahorati.

Natijadorlikni baholash komponenti huquqiy madaniyat rivojlanganligini baholash me'zonlari va darajalaridan iborat.

Munozara yuritishda, o'z nuqtai nazarini, dalillar va asoslar bilan mustahkamlab ifodalashni biladi. o'quvchi odatiy vaziyatda avvaldan belgilangan izchillikda harakat qilib, shakllangan ko'nikmalar va o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llay oladi. Bunda, ta'lim muassasasi, tashkilot va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi. Bunda inson o'z hatti-harakatlarini, boshqalarning hatti-harakatlari hamda jamiyatda bo'layotgan voqealarni, baholaydi va o'z nuqtai nazarini ifoda etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kuychiyeva M.A. Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 [www.converter-magazine.info](http://www.converter-magazine.info). - P. 485-489. (№10. ISSN:0010-8189). ([subscription@converter-magazine.info](mailto:subscription@converter-magazine.info))

2. Kuychiyeva M.A. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journals. 2022. ISSN (E): 2795-739, - P.19-21. (№7. SJIF; IF-8.115) ([www.geniusjournals.org](http://www.geniusjournals.org))

3. Kuychiyeva M.A., Eshmatova D. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extracurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 2022. ISSN:2776-0979, - P.617-621. (№12. SJIF; IF-7.565). (<https://wos.academiascience.org>)Luria A.R.,

4. Yudovich, F.A. Speech and development of mental processes of the child. Moscow: Pedagogika, 2008.

Sapargaliev AZh, Muratbekova DE. The development of speech activity in children of primary school age. Reports of the Kazakh Academy of Education 2019; 3: 152-161

## OILADAGI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUNOSABATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MA'NAVIIY TARBIYANING ROLI

*Mirzasoliev Jaxongir Mirzasoipovich,  
Jamoat xavfsizligi universiteti tadqiqotchisi*

*Annotasiya: Ushbu maqolada oilani mustahkamlashga bag'ishlangan ilmiy, nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida, oiladagi muammolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish orqali, ma'naviy tarbiyaning roli tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: harbiy xizmatchi, oila, psixologik yordam, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy tarbiya, oiladagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar, milliy urf-odatlar, ma'rifiy ishlar.*

## РОЛЬ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ

*Мирзасолиев Джахонгир Мирзасоипович,  
научный сотрудник Университета общественной безопасности*

*Аннотация: В данной статье анализируется роль духовного воспитания путем изучения причин проблем в семье на основе научных, теоретических и практических исследований по укреплению семьи.*

*Ключевые слова: военнослужащий, семья, психологическое сопровождение, социально-экономическое, духовное воспитание, социально-психологические отношения в семье, национальные традиции, воспитательная работа.*

## THE ROLE OF SPIRITUAL EDUCATION IN INCREASING THE EFFECTIVENESS OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL RELATIONS IN THE FAMILY

*Mirzasoliev Jahongir Mirzasoipovich,  
Researcher at the University of Public Safety*

*Abstract: This article analyzes the role of spiritual education by studying the causes of problems in the family based on scientific, theoretical and practical research on strengthening the family.*

*Key words: military serviceman, family, psychological support, socio-economic, spiritual education, socio-psychological relations in the family, national traditions, educational works.*

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan keng qamrovli ijtimoiy islohotlarning mazmun-mohiyati oila manfaatlarini himoya qilish, uning jamiyatdagi muhim ijtimoiy institut va barkamol avlodni tarbiyalash o'chog'i sifatida mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-tarbiyaviy asoslarini qo'llab-quvvatlash, oilaviy tarbiya va reproduktiv salomatlik hamda bu boradagi tizimli ishlardan tarkib topadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida "Xalq va armiya – bir tanu bir jondir" degan ezgu g'oya asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, harbiy qurilish sohasini tubdan modernizasiya qilish bo'yicha olib borayotgan islohotlarimiz natijasida milliy armiyamizda chuqur sifat o'zgarishlari yuz berayotganligi, milliy armiyamizning chinakam kuch-qudratini belgilab beradigan qo'rqmas va dovyurak harbiylarimiz qalbida jangovar ruhni oshirish, ularni har qanday qiyinchilik va sinovga chidamli va matonatli etib tarbiyalash bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi deb aytgan so'zlari bejizga emas. Shunday ekan harbiylarimizning atrof-muhitdagi o'zgarishlarga yuqori moslashuvchanlik, o'z oldiga qo'ygan mashaqqatli xizmatlarini mardonavor engib o'tishda ularning oilalaridagi ijtimoiy muhit ham eng asosiy fazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Konstitusiyamizning XIV bob, 76-moddasida "Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi" deb qonun bilan asoslab qo'yinganligi bejizga emas [1].

"Oila - mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne'mat bor, insoniy qadr-

qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu - eng ulug' saodatdir" Shavkat Miromonovich Mirziyoev. 2022 yil 28 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida" harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish bo'yicha vazifalar belgilab berilganligi bejizga emas [2].

Inson borki, oilada tug'iladi, voyaga etadi. Oilalardan jamiyat tashkil topadi. Baxtli va farovon oilalar ko'paysa, jamiyat rivojlanadi.

Oila – ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon.

Oila erkak va ayol o'rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan, jamiyatning axloqiy me'yorlari va qoidalari qo'llab-quvvatlanadigan, insoniyat madaniyatini kelajak avlodga etkazib beradigan va uni rivojlantiradigan birlamchi ijtimoiy guruhdir [9]

Darhaqiqat, hozirgi zamon globallashuv jarayonlarining jadallashuvi oilaviy qadriyatlarning himoya qilinishini ham kun tartibiga qo'ymoqda. Jamiyatda zamonaviy tendensiyalar: iqtisodiy integrasiya, axborot-kommunikasiya texnologiyalarining taraqqiy etishi va global internet tarmog'ining keng quloch yoyishi bilan oilaviy munosabatlar madaniyatining pasayishi va an'anaviy qadriyatlarga nisbatan oila a'zolarida yangicha munosabatning shakllanishiga ta'sir qilmoqda.

Bu esa, albatta, jamiyatimizda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish hamda yoshlar ongida oila muqaddasligi tushunchasini singdirib, ma'naiy rivojlantirib borishni birlamchi vazifa etib belgilamoqda.

Mamlakatimizda harbiy xizmatchi oilalari, oilalarning alohida toifasidir, chunki ular harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyati tufayli ma'lum ijtimoiy to'siqlarga duch keladilar. Oiladagi munosabatlar harbiy xizmatning talablari va harbiy burchni bajarish bilan bog'liq holatlarda o'z aksini topadi. Binobarin, bunday oilalarda yuzaga keladigan nizolarning o'ziga xosligi ularning o'z oilaviy ehtiyojlarining armiya hayotining asoslari va qoidalar to'qnashuvi bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'zbekistonning ko'zga ko'ringan tarixchi, iqtisodchi va psixologik olimlarining ishlarida umumiy fuqarolik oilalarining o'rni va ijtimoiy xayoti turli jihatdan tadqiq qilingan. Bular:

Psixologiya fanlari nomzodi X.K.Karimov tomonidan "O'zbek oilalarida er-xotin nizolarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari", Psixologiya fanlari doktori Z.A.Rasulova tomonidan "O'zbeklarda oila-nikoh an'analarning ijtimoiy va etnik psixologiyasi", Iqtisodiyot fanlari doktori X.X.Mamadaliyeva tomonidan "O'zbekistonda oila rivojlanishining ijtimoiy-demografik xususiyatlari", Yuridik fanlari doktori N.J.Yusupova tomonidan "Islom oila huquqi: paydo bo'lishi, rivojlanishi, manbalari va institutlari", Psixologiya fanlari nomzodi G.Niyozmetova tomonidan "O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari", Pedagogika fanlari nomzodi Sh.A.Abdujalilova tomonidan "Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari", Psixologiya fanlari nomzodi A.T.Kadirova tomonidan "O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi", Psixologiya fanlari nomzodi O'.B.Shamsiev tomonidan "Oilada maktabgacha yoshdagi bola shaxsi o'zini-o'zi anglashining ijtimoiy psixologik omillari", Psixologiya mutaxassisligi magistranti A.A.Xamidova tomonidan "Yosh oilalarning inqirozli davrida er-xotin munosabatlarining psixologik xususiyatlari" mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilgan, biroq ushbu izlanishlarda harbiy xizmatchi oilalari va undagi muammolarning kelib chiqish sabablari, oilani mustahkamlashga bag'ishlangan ilmiy, nazariy, amaliy tadqiqotlarning tahlili ko'rib chiqilmagan.

Faqatgina mamlakatimizning quyidagi iqtisodchi va psixologik olimlari tomonidan harbiy xizmatchi oilalarining xayotdagi o'rni, ularning ijtimoiy-psixologik jihatlari o'rganilgan. Bular:

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori G'.Z.Ikmatullaev tomonidan "Harbiy xizmatchilar oilalarini mustahkamlashning tashkiliy va pedagogik-psixologik jihatlari" [3], Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori A.Sh.Murodov tomonidan "Ichki ishlar organlarining oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish"[5], Falsafa fanlari doktori R.S.Samarov tomonidan "Qurolli Kuchlar tizimining feminizasiyalashuvi, rivojlanishining o'ziga xosligi va ijtimoiy mexanizimi" mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilgan [4].

Bu esa, harbiy xizmatchilarning oilaviy hayoti, harbiy xizmatchilar oilalarining o'ziga xos

xususiyatlari, oiladagi nizolarning etarlicha o'rganilmaganligi hamda globallashuv sharoitida jaxonda ro'y berayotgan harbiy to'qnashuvlar natijalaridan kerakli xulosalarni chiqarib, vatan posbonlari bo'lgan harbiy xizmatchilar oilalarini mustahkamlashning ijtimoiy-psixologik va ma'naviy asoslarini o'rganishni talab etadi.

Harbiy xizmatchilarning oilalarini mustahkamlash muammolari mamlakatimiz pedagog olimlari tomonidan ma'lum bir vazirliklar tarkibida maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan bo'lsada, Qurolli Kuchlar miqiyosida hozirgacha to'liq o'rganilmagan.

Oila va undagi muammolarning sabablari oilani mustahkamlashga bag'ishlangan ilmiy, nazariy, amaliy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarning oilalarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini etarli deb aytishimizga hozircha huquqiy jihatdan haqqimiz yo'q.

Muallif ushbu fikrlarni quyidagi bir qator omillar bilan bog'liq deb hisoblaydi:

birinchisi, yangi oila qurgan er-xotinning yaxlit munosabatlarini shakllantirishda ularning harbiy xayotga moslashishi etarli darajada nazoratsiz qolishi;

ikkinchisi, oiladagi turmush tarzi xizmatning kelib chiqish xususiyatlariga bog'liq ravishda o'zgarib borishining ijtimoiy-psixologik xarakterlari kam o'rganilganligi;

uchinchisi, oiladagi muammolarning kelib chiqish sabablarini o'rganish orqali, ma'naviy tarbiyaning roli etarli darajada o'rganilmaganligi;

to'rtinchisi, harbiy xizmatchilar oilalarini mustahkamlash jarayonlari ijtimoiy-psixologik institut sifatida etarli darajada chuqur tadqiq etilmaganligi.

G'.Z.Ikmatullaev tomonidan harbiy xizmatchilar oilalarini mustahkamlashning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirish jihatlari o'rganilgan.

Tadqiqotning vazifalari etib: harbiy xizmatchilar oilalarini mustahkamlash faoliyatini tashkil etishning mazmun-mohiyatini tahlil qilish asosida harbiy xizmatchilar oilasini mustahkamlashning tashkiliy va pedagogik-psixologik jihatlari, milliy urf-odatlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish belgilab olingan.

Tadqiqot ishlarini harbiy xizmatchilarning oilalaridagi ijtimoiy-psixologik muhitni, oilalarning buzilish sabablarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot pilotaj so'rovnomasi (sinov, sosiologik tadqiqotning bir yo'nalishi) usulida o'rganilgan bo'lib, so'rovnomada harbiy-texnik institutning ofiser va kontrakt asosida xizmat qilayotgan serjantlari ishtirok etishgan.

G'.Z.Ikmatullaev o'z tadqiqot ishlarida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun zarur psixoprofilaktik, psixodiagnostik maslahatlarni tizimli ravishda yo'lga qo'yish, harbiy xizmatchilar oilalarini mustahkamlash maqsadida yakka, guruhli va korreksion treninglar tashkillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi Markaziy apparati negizida harbiy xizmatchilar oilalarini tadqiq etish bo'limini tashkil etish, harbiy xizmatchilar oila a'zolarining harbiy xizmat haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga, harbiy urf-odat va an'analar to'g'risida ma'lumot berishga yo'naltirilgan veb-saytlar, internet kanallari, «Maslahat telefon»lari faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflarni keltirib o'tgan.

R.S.Samarov o'z tadqiqot ishida quyidagi g'oyani ilgari surgan, Qurolli Kuchlar feminizatsiyalashuvning ijtimoiy falsafiy xususiyatlarini o'rganish va harbiy xizmatchi xotin-qizlarning o'quv-jangovar tayyorgarlik jarayonida harbiy kasbiy sifatlarini shakllantirishga yangicha yondashuvni tadbiq etish, xotin-qizlarni Qurolli Kuchlar safidagi bugungi ahvoli, mavjud muammolari va ularni echish yo'llari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

Tadqiqotda muammo sifatida xotin-qizlarning harbiy xizmatni o'tashga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muammolar mavjudligi. Bunday muammolar "boshliq-bo'ysinuvchi", "harbiy xizmatchi va jamoa" munosabatlar tizimida ifodalaniib, gender madaniyatning nisbatan past ekanligi bilan izohlangan. Xotin-qizlarning oilalari ijtimoiy xususiyatlar bilan xarakterlanadiki, turmush o'rtog'ini tanlash imkoniyatining chegaralanganligi, tanishuv muddatining qisqaligi, oila va oilaviy munosabatlar yuzasidan yuzaga keladigan barcha muammolarning oila yaqinlarining ishtirokisiz hal etilishi, oiladagi farzandlar tarbiyasida keksa avlod tajribasining qo'llanmayotganligi keltirib o'tilgan.

Hozirda oilalarda nizolar paydo bo'lishi, oilalardagi zo'ravonlik holatlarni keltirib chiqarish kabi muammolarni ham vujudga keltirmoqda. A.Sh.Murodov oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarni o'rganar ekan, uning oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar bo'yicha

o'tkazgan tadqiqot xulosalarida, oilada qo'llaniladigan har qanday ko'rinishdagi zo'ravonlikning kelib chiqishiga, oila a'zolari o'rtasida vujudga keladigan oilaviy-maishiy nizolar sabab bo'layotganligiga alohida to'xtalib o'tgan. Tadqiqotchi maishiy nizoga - kundalik hayot (turmush)da oila a'zolari er va xotin, qaynona (qaynopa, qaynsingil) va kelin, aka-ukalar, opa-singillar o'rtasida ularning fikrlari o'zaro to'g'ri kelmasligi, kelishmovchiligi va janjal oqibatida vujudga keladigan nizoli vaziyatdir degan izohni kertirgan.

Oilani kichik ijtimoiy guruh sifatida belgilash mumkin, unga bo'lgan ehtiyoj jamiyatning aholining jismoniy va ma'naviy ko'payishiga bo'lgan ehtiyoji bilan belgilanadi [7].

Oilada muhit sog'lom bo'lmasa, oila a'zolarida yoki ularning o'rtalarida kelishmovchilik vujudga kelganda bir-birlarini mensimaslik, boshqalardan past ko'rish, hurmat qilmaslik kabi g'ayri ijtimoiy xulq-atvor turli xil ko'rinishdagi zo'ravonlikka asoslangan muayyan qilmishlarda namoyon bo'ladi.

Harbiy xizmatga nisbatan oila omilining ta'siri muhimdir. Oilada salbiy munosabatlar kuchayib borgan taqdirda, harbiy xizmatchilarning xulq-atvorida jiddiy o'zgarishlar ro'y berib, ularning xizmat faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy munosabatlarda bunday holat, hattoki boshqa harbiy jamoa a'zolarining shaxsiy va xizmat xayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishiga ham olib keladi.

Bugungi kunda harbiy sohada qo'llanib kelinayotgan talabnomalar doirasida oila omili ham o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiq. Chunki jamoada maqsadlar, faoliyat turlari va munosabatlar tabaqalashganligi mavjud bo'lib, bu hususiyatlar harbiy jamoalarga ham taalluqlidir.

Manbalarni o'rganish natijalarida shu aniqlandiki, harbiy xizmatchilarning oilasi harbiy qadriyatlar va armiyaning manfaati yo'lida yashaydi. Harbiy xizmatchi hayotida ro'y beradigan voqealar, misol tariqasida lavozim ko'tarilishi, navbatdagi harbiy unvon berilishi, xizmat joyining o'zgarishi, ularning o'zlari uchungina emas, balki yaqinlari uchun ham muhim hisoblanadi. Shunday ekan, bu masalalarni ham o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan xulosalar asosida chora-tadbirlar belgilash va ularni amalga oshirish ijobiy ahamiyat kasb etib, harbiy xizmatchilarni ruhlantirishga olib keladi. Natijada harbiylikka mansublik, kasbiy g'ururlanish, kasbga sodiqlik kabi xususiyatlarning shakllanishi uchun zamin yaratilgan bo'ladi [10].

Psixologiya fanlari doktori X.U.Abdusamatov o'z ilmiy tadqiqotida "Oilaviy nizolar, kelishmovchiliklarni hal qilish haqida gap ketayotganda avvalo "barbot qilish" emas "barpo qilish" g'oyasi ustun bo'lishi kerak" deb ta'kidlab o'tgan [6].

Oiladagi ijtimoiy-psixologik munosabatlar samaradorligini oshirishda ma'naviy tarbiya doimiy o'rin tutadi. Bu oila a'zolari o'rtasida mustahkam va uyg'un aloqalar barpo etiladigan mustahkam poydevorni tashkil qiladi.

Oilada ma'naviy tarbiyaning ta'siri ko'p qirrali bo'lib u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

**Qadriyatlar tizimini shakllantirish:** Ma'naviy tarbiya oila a'zolari qalbida mehr-oqibat, hurmat, mas'uliyat, o'zaro yordam, halollik, adolat, kechirimlilik kabi asosiy qadriyatlarni singdiradi. Bu qadriyatlar hayotda yo'l-yo'riq bo'lib, oila a'zolarining bir-biri bilan xatti-harakati va o'zaro munosabatini belgilaydi. Misol: Ma'naviyat muhit hukm surgan oilada bolalar kattalarni hurmat qilishni, uyda yordam berishni o'rganadilar.

**Axloqiy fazilatlarni rivojlantirish:** Ma'naviy tarbiya mehr-oqibat, hamdardlik, sabr-toqat, hayo, shukronalik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu fazilatlar oila a'zolari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi, o'zaro yordam muhitini yaratadi, xatolarni kechirishga va murosaga o'rgatadi. Misol: qiyin hayotiy vaziyatda oila a'zolari ma'naviy qadriyatlarga asoslanib birlashadilar, bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydilar, qiyinchiliklarni birgalikda engadilar.

**Sevgi va hurmat muhitini yaratish:** Ma'naviy tarbiya oilaning har bir a'zosini yoshi, jinsi, qarashlari va qiziqishlaridan qat'i nazar, qadrlashga, hurmat qilishga o'rgatadi. Hamdardlik tuyg'usini uyg'otadi, boshqa odamlarning his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini tushunishga o'rgatadi. Har bir inson o'zini sevilgan, himoyalangan va muhim narsalarni his qiladigan muhitini yaratadi.

**Nizolarni hal qilish:** Ma'naviy tarbiya o'zaro hurmat, kechirimlilik va murosala izlashga asoslangan nizolarni konstruktiv hal qilishga yordam beradi. Salbiy his-tuyg'ularni tiyishga, bir-birini tinglashga va tinch yo'l bilan echim izlashga o'rgatadi. Buzg'unchi nizolarning oldini oladi, oila birligini saqlaydi. Misol: janjal paytida ma'naviyat ruhida tarbiyalangan inson shaxsiyatga ega bo'lmaydi, bir-birlarining his-tuyg'ularini tushunishga harakat qiladi, har kimga mos keladigan muammoni hal qilish yo'llarini izlaydilar.

Hayotning mazmunini topish: Ma'naviy tarbiya oila a'zolariga hayot mazmunini topishga, maqsad va qadriyatlarini aniqlashga yordam beradi. Qiyinchiliklarni engish, maqsadlarga erishish va o'z-o'zini takomillashtirish uchun kuch va motivasiya beradi. Oilani umumiy intilishlar bilan birlashtiradi va jamoa tuyg'usini yaratadi. Misol: muhtojlarga yordam berish, muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish, bularning barchasi oila a'zolari o'rtasidagi ma'naviy aloqani mustahkamlaydi, hayotga mazmun bag'ishlaydi.

Xulosa. Shuni aytish mumkinki ma'naviy tarbiya oila a'zolarining ruhiy salomatligini mustahkamlaydi, stress darajasini pasaytiradi, yaxshilik tuyg'ularini oshiradi, har bir oila a'zosining shaxsiy o'sishiga yordam beradi. Ma'naviy barkamol oila, har bir oila a'zosining tayanchi va himoyasi, kuch va ilhom manbaidir.

#### I. Qonun, qaroro va farmonlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi XIV bob 76 moddasi, T.2023 y.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" Farmoni.

#### II. Dissertasiya, avtoreferatlar va boshqa manbalar

G'.Z.Ikmatullaev, dissertasiya, "Harbiy xizmatchilar oilalarini mustahkamlashning tashkiliy va pedagogik-psixologik jihatlari" T- 2020 y. -9, 148-149 bb.

R.S.Samarov, dissertasiya, "Qurolli Kuchlar tizimining feminizatsiyalashuvi, rivojlanishining o'ziga xosligi va ijtimoiy mexanizimi" T-2005 y, 303-305 bb.

A.Sh.Murodov, dissertasiya, "Ichki ishlar organlarining oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish", T-2019. - 156 b.

H.U.Abdusamatov, dissertasiya, "Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va echimlari", T-2022. - 61 b.

H.B.Кокоева Роль семьи в формировании личности современного подростка // Современные образовательные технологии» Сборник статей и тезисов. Выпуск 10. Часть 2. Изд-во: СОГПИ. Владикавказ 2010. С. 3-8.

Книга Специфика конфликтов в семьях военнослужащих и участников боевых действий. <https://fado-dpo.ru/articles/>.

N.Egamberdieva, B.Otajonova, maqola "Oila hayotning abadiyligini ta'minlovchi muqaddas maskan", T-2022y. (<https://yuz.uz/news/>) .

Internet ma'lumoti <https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/13/army/>.

## YOSHLARNING OTA-ONALIK ROLIGA PSIXOLOGIK TAYYORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Niyozmetova Munira Ibragimovna,  
 Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

*Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada yoshlarning ota-onalik roliga psixologik tayyorgarlik ko'rish masalalari keng tahlil qilingan. Zamonaviy oila tendensiyalari, yoshlarning oilaga nisbatan munosabatlari va qarashlari, shuningdek, ularning oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi to'g'risidagi ilmiy fikrlar yoritilgan. Maqolada yoshlarning oilaviy hayotga psixologik va emotsional tayyorgarligi, ularning ota-ona sifatidagi rollari va majburiyatlarini qabul qilish qobiliyati hamda bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar muhokama qilingan. Shuningdek, oilaviy munosabatlarni shakllantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ta'lim va tarbiya tizimi, yoshlarning shaxsiy xususiyatlari va psixologiyasi o'rganilgan. Maqola yoshlarning oila qurishga tayyorgarlik ko'rish jarayonidagi psixologik qiyinchiliklarni aniqlash va ularni yengish bo'yicha tavsiyalarni ham o'z ichiga olgan.*

*Kalit so'zlar: oila, yoshlar, psixologik tayyorgarlik, oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, oila mustahkamligi.*

## ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К РОЛИ РОДИТЕЛЕЙ

Ниёзметова Мунира Ибрагимовна,  
 Независимый научный сотрудник Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами, электронная почта:

*Аннотация. В данной научной статье широко анализируются вопросы психологической подготовки молодых людей к роли родителей. Освещены современные семейные тенденции, установки и взгляды молодых людей на семью, а также научные мнения об уровне их подготовки к семейной жизни. В статье рассматривается психологическая и эмоциональная подготовка молодых людей к семейной жизни, их способность принять роли и обязанности родителей, а также проблемы, возникающие в этом процессе. Также были изучены социально-экономические факторы формирования семейных отношений, системы образования и воспитания, личностные особенности и психология молодежи. В статье также приведены рекомендации по выявлению и преодолению психологических трудностей в процессе подготовки молодых людей к созданию семьи.*

*Ключевые слова: семья, молодежь, психологическая подготовка, семейные отношения, семейные ценности, стабильность семьи.*

## ISSUES OF INCREASING PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF YOUTH FOR THE ROLE OF PARENTS

Munira Ibragimovna Niyazmetova,  
 Independent researcher, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

*Abstract. This scientific article widely analyzes the issues of psychological preparation of young people for the role of parents. Modern family trends, attitudes and views of young people on the family, as well as scientific opinions on the level of their preparation for family life are covered. The article examines the psychological and emotional preparation of young people for family life, their ability to accept the roles and responsibilities of parents, and the problems that arise in this process. The socio-economic factors in the formation of family relationships, the education and upbringing systems, personal characteristics and psychology of youth were also studied. The article also provides recommendations for identifying and overcoming psychological difficulties in the process of preparing young people to start a family.*

*Keywords: family, youth, psychological preparation, family relationships, family values, family stability.*



o'sayotgan bir davrda yoshlar oila qurishga har tomonlama tayyorgarlik ko'rish mas'uliyatni oshirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Yoshlarni kelajakdagi oilaviy hayotga tayyorlash yosh avlodni tarbiyalashning umumiy tizimining ajralmas qismidir. Yoshlarning o'z oilaviy hayotlariga oid bilimlari, tasavvurlari muhim hisoblanib, ularning qanchalik reallikga yaqin bo'lishi oilaning mustahkamligiga xizmat qilishini ta'minlash masalalari psixolog mutaxassislarini o'ziga jalb qiladi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari oilani mustahkamlashga e'tirof etiladi. Chunki odam doim rivojlanib boruvchi, har qanday faoliyatida yangi dunyoviy qarashlarni shakllantirib boruvchi mavjudot. Global o'zgarishlar davrida yoshlarni oilaga bo'lgan munosabatlari ham o'zgarib bormoqda.

Asosiy qism. Respublikamizda keyingi yillarda yoshlar orasida arzimas sabablarga ko'ra ajrashishlar ko'payib bormoqda. Turmush qurgan yoshlar oila muqaddas ekanligini anglab yetmaslik, oiladagi munosabatlarga e'tirozlari kuchayib borishi, o'zaro hurmat, ishonch hislarining yetishmasligi, sabrsizligi kabi psixologik tayyorgarligi bo'lmashligi oqibatida turli xil kelishmoqchiliklarni yuzaga chiqarib keladi. Davlatimiz tomonidan oilaviy-huquqiy munosabatlarni, oilaviy milliy qadriyatlarni saqlashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-sentyabrda 437-son qarori bilan "Ibratli oila" ko'krak nishonini berish, "Farovon oila - jamiyat ravnaqining asosi" konseptual g'oyalarini nikohlanuvchilarning ongiga singdirib borish maqsadida 2022-yil 1-martdagi PF-81 son "Oila va xotin qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmonlari va me'yoriy xujjatlarni amalga oshirishda xizmat qiladigan tadqiqot ishlarini amaliyotga joriy etishini taqozo etadi.

Yoshlarni oilaga psixologik tayyorlashda oila haqida chuqur bilimlarni va hayotiy tajribalarni o'rganib boruvchi oila institutlari, oila markazlari va mahalla qumitalari, ta'lim muassasalari ham o'z javobgarligini oshirib borishini talab qiladi. Oilaviy hayotga tayyorlashda dastlab yoshlarda oilaviy turmush to'g'risidagi tasavvurlarining aniqlash va ularni to'g'ri shakllantirish ta'lim-tarbiyaning muhim tomoni bo'lib, yoshlarning ota-onalik rolga psixologik tayyorgarlik ko'rishni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning har tomonlama yetuk shaxs bo'lishga intilishi, psixologik holatlari, oilaviy munosabatlari, o'zga jinsga nisbatan moyillikning kuchaygan davri psixologiyasini chuqur anglab yetib, kelgusi hayotlarini poymol qilmasliklari uchun tarbiyaviy tomonlariga ham e'tibor qaratilishi lozim. Kelgusida oilaning mustahkam bo'lishida yoshlar oila qurishga intilishida dastlab o'zlarining sihat-salamatligiga qarashi, samimiy munosabatlarni shakllantirishi, sharm-hayosi, iffati, idob-axloqi, mexnatsevarligi, jamoatchilik o'rtasida o'zini tuta bilishi hamda gigiyenik, jinsiy tarbiya masalalarini puxta egallab borishiga bog'liq.

Bugungi kunda yoshlarning ijtimoiy-psixologik jihatdan yetukligi oilaviy hayotining muhim jihati sifatida belgilanadi. Yoshlarning yetukligi, ehtiyoji, psixologik tayyorgarligi va oilada erkak va ayol rollari, keyinchalik oilada otalik va onalik funksiyalarini bajarish qobiliyati rivojlantirib borishga oid psixologik tayyorgarlik kurslari ahamiyat kasb etadi [3].

Mutaxassislar oila mustahkamligini ta'minlash, oilaviy ajralishlarning oldini olish, nikohlanuvchi shaxslarda oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish, oilalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish hamda ibratli ota-ona bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ishlarni talab darajasida bajarib keldi. Shunday bo'lsada, keyingi oilada ajrimlarni ko'pligi, oila qurish masalalariga yoshlar yengil qarashlari davom etib kelmoqda. Albatta, oiladagi ajrimlarning har xil sabablarini ko'ramiz. Hozirgi kuzatishlar natijasiga qaraganda, ko'pchilik ota-onalar farzandlarini oilali qilish maqsadida mol-dunyo va sep yig'adilar, sovchilik, qudachilik bordi-keldilarini qiladilar va kattaroq to'y qilish bilan o'z burchlarini ado etgan bo'lib, erkin nafas oladilar. Ammo eng muhim masalalardan biri bo'lgan narsa – qizlarini kelinlikka, o'g'illarini kuyovlikka tayyorlash eslaridan chiqib qoladi. Ming afsuski, ko'pchilik yoshlar go'shangaga oila, er-xotinlik hayoti, ularning o'zaro munosabatlari, haq-huquqlari hamda burch va mas'uliyatlari haqidagi bilimlardan bexabar holda kiradilar. Hammamizga ma'lumki, yoshlar oila qurishning dastlabki kunlaridan kelin-kuyovning yaqinlari, kuyov jo'ralar, kelin yangalar

ularga qanday qilib bo'lsa ham umr yo'ldoshini bo'ysindirishga qaratilgan bachkana odatlarni o'rgatib borishi ham achinarli holdir. Yoshlarni ota-onalik roliga oldindan tayyorgarlik ko'rish haqida fikrlarni berishning o'zi bizni millatda uyat hisoblanadi-yu, lekin ayrim doiralarda kelinlik va kuyovlikka nomzodlar to'y kuni g'arbcha raqs tushishga bir necha oy davomida katta miqdorda mablag' to'plab, alohida dars olishi, mashq qilishlari, yoki sevgi tarixi lahzalarini fotosessiya qilishiga uyalmaymiz. Bu masalalarga alohida psixolog mutaxassislarni jalb qilib e'tibor qaratilishi lozimdir.

Tadqiqotlarning umumiy maqsadi ham oila qurish ostonasida turgan yoshlar va yosh oilalar hayotida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarga oqilona yechim topishlarida yordam berish hisoblanadi. Nikohlanuvchi yoshlarni oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatligi, farzand tarbiyasi, oiladagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha tizimli o'quv kurslarni tashkil etishi masalalari kundalang bo'lib turibdi.

So'nggi paytlarda fanning turli sohalaridagi tadqiqotchilar oila muammolariga va uning umuman a'zolarining shaxsiyatiga, xususan, ularning individual xususiyatlariga ta'siriga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Zamonaviy jamiyatda erkaklar va ayollarning funksional rol munosabatlari, ular o'rtasida oilaviy majburiyatlarni taqsimlash haqidagi g'oyalarida sezilarli darajada bo'shliqlar mavjud ekanligi psixolog mutaxassislarni tashvishlarga solib keladi. Shu sababli, ko'plab pedagogik-psixologik tadqiqotlarda yoshlarni oila qurishga tayyorlashda ijtimoiy, pedagogik, psixologik omillarni asosiy deb ko'rsatmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosining turli jihatlariga bag'ishlangan zamonaviy yondashuvlar va yo'nalishlar shakllanmoqda.

O'zbek oilalarida nikohning o'ziga xos talablari hamda ajralish va kelishmovchiliklarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini N.A.Sog'inov, o'zbek oilalarida er-xotin munosabatlarida nizolarning yuzaga kelish sabablarining ijtimoiy-psixologik, mintaqaviy va milliy xususiyatlarini X.K.Karimovlar o'rganishgan [2]. V.M.Karimova esa o'zbek oilasi to'g'rsidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruh vakillaridan namoyon bo'lishini empirik jihatdan o'rag'nib kelgan. G'.B.Shoumarov oila munosabatlarida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi bog'liqlik, o'zbek oilalarining o'ziga xos xususiyatlari, er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklarning asosiy sabablari va uni hal qilish yo'llari, o'smir-yoshlarni oilaga tayyorlashning psixologik muhit, qaynona-kelin, qaynona-kuyov o'rtasidagi kelishmovchiliklar va ularning oldini olish kabi muhim muammolarni tadqiq etadi.

Rus psixologlaridan N.N.Obozov oilaviy hayotdan qoniqmaslik, nikohning buzilishi va beqarorligini belgilovchi sabablarni er bilan xotin o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarining tenglashtirilishidandir, deb tushuntiradi [4].

Ingliz olimi E.Le.Sham ham oilalarda yuzaga keladigan ota-ona va bola o'rtasidagi ziddiyatlar, kelishmovchiliklarning oldini olishda bolaning o'ziga xos xususiyatlari, uning sabablarini aniqlash va ularga to'g'ri munosabatning psixologik jihatlari, shuningdek, ota-onaning ajrashish sabablari, ularda oila, bolalar uchun mas'uliyat masalalariga e'tiborni qaratgan.

R.V.Ovcharovanning ilmiy fikrlarida ota-onalikni ijtimoiy-psixologik hodisa deb biladi. Ota-onalikka tayyorgarlik jarayonlarda shakllanib boradigan turli-tuman hayotiy bilimlar majmuasidir-degan fikrlarni ilgari surishgan [6].

Ye.P.Ilin, G.Navaytis, E.G.Eydemiller, V.Yustiskis kabi olimlar tomonidan ko'plab psixologik-pedagogik tadqiqotlarida nikoh motivlari batafsil tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida talaba yigit va qizlarda turmush o'rtog' tanlashning asosiy sabablarini aniqlashga imkon beradi. Talaba yigitlarda bu motivlar jinsiy yaqinlik istagi, boshqa jinsga g'amxo'rlik ko'rsatish hoxishi bilan bog'liq. Talaba qizlar motivida boshqa jins vakilidan g'amxo'rlikni boshdan kechirish, sevgi tuyg'ularini ko'rsatish va uni o'zlariga nisbatan his qilish istagi bilan bog'liqligi aniqlangan. Umuman olganda, ikkala jinsda ham motivlar deyarli bir xil va hissiy motivlar bilan bog'lanmoqda [6].

E.Eydemiller va V.Yustiskislar talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda psixoterapiyadan foydalanish ularning oilaviy munosabatlarni barqarorligi zamin bo'luvchi qiziqishlari va ma'naviy qadriyatlariga mos keluvchi juftliklarni tanlay olish imkoniyatini ko'rsatib bergan [1].

Tadqiqotlar kuzatishlar natijasidan xulosa qilamizki, yoshlarni ota-onalik roliga psixologik tayyorgarlik ko'rish uchun faqat bir yoqlama yondashuvlar biz kutgan samaradorlikni oshirib beravermaydi. Yoshlar ota-ona roli, ota-onalik burchi, mas'uliyati hislarini his qila olishi uchun ularda ma'lum darajada amaliy tajribalar, ilmiy tushunchalar talab qilinmoqda. Uning uchun yoshlarda nikoh qurishga munosabati, nikohga tayyorgarligi va nikoh qurish motivlari, oila haqidagi tasavvurlari,

qarashlarini to'g'ri shakllantirishga yordam ko'rsatish lozim. Bundan tashqari yoshlarda oila qurishga iqtisodiy tayyorgarlik ham talab qilinmoqda. Sababi yoshlarimizning moddiy ehtiyojlari turli tuman bo'lganligining hisobiga turar-joy, iqtisodiy-maishiy imkoniyatlariga bo'lgan munosabatlarni aniqlashtirishga to'g'ri keladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida yoshlarimiz ota-onalik roliga psixologik tayyorgarligida oila to'g'risidagi barqaror tasavvurlarini va tushunchalarini boyitish, zarur bo'lgan psixologik bilimlar bilan kuchaytirishga qaratilgan o'quv kurslarini tashkil etish lozim. Unda yoshlarga ota-onalikka psixologik tayyorgarlik darajasi ta'lim bilan belgilanadi.. Kelgusida yoshlar uchun samarali oila tarbiyasi, ota-ona pozitsiyalari, ota-onalik mas'uliyati kabi ko'plab tizimli o'quv mashg'ulotlarini joriy etishni qullav-quvvatlash zarurati tug'iladi.

#### Adabiyotlar

Rasulova Z.A. O'zbeklarda oila-nikoh an'analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi. -T: O'qituvchi,2018.-256 b

Yadgarova G.T. Noto'liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol.fan.nomzod... diss: 19.00.05.-T.2004-140 b.

Карабанова, О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: учебное пособие [Текст] / О.А. Карабанова. – Москва: Гардарики, 2004. – 320с.

Жупиева, Е.И. Особенности психологической готовности к материнству студенток [Текст] / Е.И. Жупиева // Сибирский психологический журнал. – 2015. – №16 – С.100–108.

А.И. Фрей, М.В. Нухова, В.В. Курунов. Психологическая готовность к родительству студенческой молодёжи. Научный статья. Педагогический журнал башкортостана. №1(74) 2018г.

Васильева Е.Н. Психологическая готовность к родительству: монография / Е.Н. Васильева, А.В. Щербаков. – Н. Новгород: НИУ РАНХиГС, 2015. – 208 с

## **PEDAGOGLARDA FRUSTRATSION TOLERANTLIK VA EMOTSIONAL ZO'RIQISH NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li,  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagoglarda frustratsion tolerantlik va emotsional zo'riqish darajasining kasbiy faoliyatdagi ahamiyati, xorij psixolog olimlarining psixologik qarashlari hamda salbiy voqelikka nisbatan barqarorlik sifatlarining ahamiyatli jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, umumta'lim maktablarida va oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglar orasida namoyon bo'ladigan frustratsion tolerantlik va psixologik stress doirasida olib borilgan tadqiqot ishining miqdor va sifat tahlili keltirilgan.*

*Tayanch tushunchalar: frustratsion tolerantlik, emotsional zo'riqish, psixologik stress, pedagog shaxsi, oliy ta'lim, kasbiy faoliyat, ish yuklamasi, pedagogik mehnat staji*

## **ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФРУСТРАЦИОННОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СТРЕССА У ПЕДАГОГОВ**

*Нурматов Нурхаёт Нурзиёт угли,  
Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами,  
преподаватель кафедры «Психология»*

*Аннотация. В данной статье широко освещены значение уровня фрустрационной толерантности и эмоциональной напряженности у педагогов в профессиональной деятельности, психологические взгляды зарубежных психологов и важные аспекты качества устойчивости по отношению к негативной действительности. Также представлен количественный и качественный анализ исследовательской работы, проводимой в рамках фрустрационной толерантности и психологического стресса, который проявляется у педагогов, работающих в общеобразовательных школах и высших учебных заведениях.*

*Основные понятия: фрустрационная толерантность, эмоциональное напряжение, психологическое напряжение, педагогическая личность, высшее образование, профессиональная деятельность, нагрузка, педагогический стаж.*

## **PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FRUSTRATION TOLERANCE AND EMOTIONAL STRESS IN TEACHERS**

*Nurmatov Nurhayot Nurziyot ugli,  
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,  
Teacher of the «Psychology» department*

*Abstract. In this article, the significance of the level of frustration tolerance and emotional tension in pedagogues in professional activity, the psychological views of foreign psychologists and the important aspects of the qualities of stability in relation to negative reality are widely covered. Also, a quantitative and qualitative analysis of the research work conducted within the framework of frustration tolerance and psychological stress, which is manifested among pedagogues working in general education schools and higher education institutions, is presented.*

*Basic concepts: frustration tolerance, emotional strain, psychological stress, pedagogical personality, higher education, professional activity, workload, pedagogical work experience.*

*Kirish. Tadqiqot ishimizda ilgari surilgan asosiy muammo pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bundan ko'zlangan maqsad asosida mehnat faoliyatida pedagoglarda yuzaga keladigan frustratsion tolerantlikka ta'sir etuvchi*

omillar o'rganiladi.


Ta'kidlash joizki, pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishiga qaratilgan diagnostika ishimiz uchun o'tkazilgan metodikalardan olingan natijalar IBM SPSS 20 dasturiga kiritilib, dastlab Kolmogorov-Smirnov mezon yordamida variatsion qatorlarning normal taqsimlanish qonuniga mos kelishi yoki kelmasligi tekshirildi. Mazkur mezon natijalariga ko'ra sinaluvchilarning ko'rsatkichlari normal taqsimlanish qonuniga mos kelmasligi aniqlandi. Shu boisdan ham tadqiqot natijalarini taqqoslashda Mann-Uitni U-mezone va Kruskal-Uollis H-mezonlaridan foydalanildi.

Asosiy qism. Ma'lumki, pedagoglarda yuzaga keladigan frustratsion tolerantlikni ilmiy tadqiq etish maqsadida V.V.Boykoning «Frustratsiya holatini aniqlash» metodikasi tanlab olindi. Mazkur metodika pedagoglarda kuzatiladigan frustratsion tolerantlikning namoyon bo'lish darajalarini aniqlash imkonini berib, maqsadga erishish yo'lida paydo bo'ladigan to'siqlarga bardosh bera olish, emotsional ta'sirlanish kabi munosabatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shu bilan birga, pedagoglarda namoyon bo'adigan emotsional zo'riqish holatlarini o'rganish maqsadida N.E.Vodopyanovanning «Psixologik stress shkalasi»dan foydalanildi. Ushbu so'rovnomalar tanlab olingan sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilingan hamda 1-jadval va 1-rasmda aks ettirilgan.

### 1-jadval

**Pedagoglarda frustratsion tolerantlik va emotsional zo'riqish bo'yicha  
tafovutlarning ifodalanishi (n=312)  
(Mann-Uitni U-mezone bo'yicha)**

Komponentlar	Tashkilot	Ranglar o'rtachasi	U (Mann-Uitni qiymati)	p (ishonchlik darajasi)
Frustratsion tolerantlik	Umumta'lim maktablari	57,80	1492,0	p>0,05
	Oliy ta'lim muassasalari	61,11		
Psixologik stress	Umumta'lim maktablari	69,78	1229,0*	p≤0,05
	Oliy ta'lim muassasalari	55,86		



### 1-rasm. Pedagoglarda frustratsion tolerantlik bo'yicha tafovutlarning aks ettirilishi (n=312)

1-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, umumta'lim maktablarida va oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglar orasida namoyon bo'ladigan frustratsion tolerantlikning psixologik xususiyatlari o'rganilganda, ushbu holat bo'yicha ahamiyatli tafovutlar qayd etilmadi ( $U=1492,0$ ;  $p>0,05$ ). Bundan ma'lum bo'ladiki, ta'limning turli bo'g'inlarida faoliyat yurituvchi pedagoglarda mehnat jarayonida yuzaga keladigan turli kutilmagan salbiy voqea-hodisalardan tezda tashvishlanish, vaziyat uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olish, o'zini o'zi tanqid qilish, o'z xatti-harakatlarining oqibatlaridan afsuslanish, belgilangan maqsadga erisha olmaganlikdan qoniqmaslik holatlari bir-biridan tubdan farq qilmaydi. Bundan ko'rinadiki, pedagoglarda frustratsion tolerantlikning faol ifodalanishi har doim ham ular ishlaydigan maktab yoki oliy ta'lim tashkiloti bilan bog'liq bo'lmaydi.

Psixologik stressning namoyon bo'lishi bo'yicha umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanganda, ular o'rtasida ahamiyatli farqlar aniqlandi ( $U=1229,0$ ;  $p\leq 0,05$ ). Mazkur ko'rsatkichlarga tayanib, ta'kidlash joizki, oliy va o'rta ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib boradigan o'qituvchilarning stressga berilish darajasi bir-biridan farq qilib, kasbiy faoliyatda sodir bo'ladigan har xil ko'ngilsiz hodisalarda o'zini asabiy his qilish, emotsional zo'riqishlarni boshdan kechirish, stressogen omillarga barqaror munosabat bildira olmaslik hamda shu kabi boshqa salbiy hissiy holatlar, asosan, oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritadigan professor-o'qituvchilarga nisbatan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ishlovchi pedagoglar o'rtasida tez-tez kuzatilishi tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldi. Tafovutlarning bunday ifodalanishini maktabda ish yuklamasining ko'pligi, bugungi kunda o'quvchilar xulqidagi og'ishlarning ortganligi va ular bilan ishlashdagi qiyinchiliklar, ota-onalar bilan murosasizlik holatlari bilan izohlash mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan natijalar asosida qayd etish mumkinki, umumta'lim maktablarida va oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritadigan pedagoglarda yuzaga keladigan frustratsion tolerantlik ta'lim tashkilotlarining turlari jihatdan ahamiyatli tarzda tafovutlanmaydi. Mazkur ko'rsatkichlardan

ko'rinadiki, pedagoglarning kelajakda erishish rejalashtirilgan maqsadlarga to'siq bo'ladigan vaziyatlarga jiddiy e'tibor bermaslik, tushkunlikka tushmaslik kabi frustratsion tolerantlik sifatlarini namoyon qilishi o'zi ishlaydigan ta'lim tashkilotining shakliga bevosita bog'liq bo'lmaydi.


Shuningdek, yuqorida keltirilgan metodikalar bo'yicha umumta'lim maktablarida va oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritadigan pedagoglarda yuzaga keladigan frustratsion tolerantlik hamda emotsional zo'riqish holatlarining mehnat stajlari kesimidagi o'zaro ko'rsatkichlari ham taqqoslanib, ularning natijalaridagi farqlar o'rganildi. Dastlab oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va o'rta ta'lim tashkilotlari pedagoglarining umumiy ko'rsatkichlariga e'tibor qaratilib, ushbu so'rovnomalar bo'yicha qayd etgan natijalari hamda tafovutli jihatlari 2-jadval va 2-rasmda aks ettirilgan.

**2-jadval**

**Pedagogaarda frustratsion tolerantlik va emotsional zo'riqish bo'yicha tafovutlarning mehnat stajlari kesimida ifodalanishi (n=312)**

(Kruskal-Uollis H-mezoni bo'yicha)

Komponentlar	Mehnat staji	Ranglar o'rtachasi	H (Kruskal-Uollis qiymati)	p (ishonchlik darajasi)
Frustratsion tolerantlik	1-5 yil	63,49	2,12	p>0,05
	6-10 yil	51,60		
	11 va undan yuqori	58,31		
Psixologik stress	1-5 yil	56,81	2,96	p>0,05
	6-10 yil	71,76		
	11 va undan yuqori	60,84		



2-rasm. Pedagoglarda frustratsion tolerantlik va emotsional zo'riqish bo'yicha tafovutlarning mehnat stajlari kesimida aks ettirilishi (N=312)

Jadvalda (2-jadval) keltirilgan ko'rsatkichlarga ko'ra, frustratsion tolerantlikning namoyon bo'lishi bo'yicha 1-5 yil, 6-10 yil va 11 yildan ortiq mehnat stajiga ega bo'lgan pedagoglarning natijalari o'rtasida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ( $H=2,12$ ;  $p>0,05$ ). Buni shunday izohlash mumkinki, turli davrlar mobaynida ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritib keladigan professor-o'qituvchilarda maqsadga erishish yo'lida paydo bo'ladigan to'siqlardan umidsizlikka tushish, kelajakka ishonch bilan boqmaslik, yuzaga kelgan noxush vaziyatning yechimini tashqi olamdan qidirish, shu bilan birga, bu kabi salbiy voqe'larga nisbatan bardoshlilik sifatleri bir xil tarzda namoyon bo'ladi. Demak, oliy o'quv yurtlari yoki umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars beruvchi pedagoglarda kutilmagan noxush vaziyatlarga ruhan tayyor turish, to'siqli holatlarni tushkun kayfiyatlarsiz qabul qilish singari frustratsion tolerantlik xususiyatlari ularning qancha muddat davomida ish yuritib kelayotganligi bilan belgilanmasligi tadqiqot natijalari orqali qayd etildi.

Psixologik stressning namoyon bo'lishi bo'yicha turli muddat davomida oliy ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablarida ishlab kelayotgan pedagoglarning natijalari qiyosiy o'rganilganda, ular o'rtasida ahamiyatli tafovutlar qayd etilmadi ( $H=2,96$ ;  $p>0,05$ ). Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, 1-5 yil, 6-10 yil va 11 yildan ortiq mehnat stajiga ega bo'lgan pedagoglarda emotsional zo'riqishning ifodalanish darajasi bir-biridan tubdan farq qilmay, kasbiy faoliyatda sodir bo'ladigan noqulay vaziyatlardan asabiy taranglikni his qilish, hayotiy muammolarga salbiy munosabatda bo'lish, qiyinchiliklar oldida qat'iyatsizlik bilan yondashish kabi psixologik stress holatlari oliygohlar va maktablarda faoliyat yuritadigan o'qituvchilarda, ish faoliyatining davomiyligidan qat'iy nazar, deyarli o'xshash tarzda yuzaga keladi. Bundan ko'rinadiki, pedagoglarda stressni boshdan kechirish jarayonlari ko'pincha ish stajlariga emas, balki boshqa omillar, xususan, faoliyat davomidagi shaxslararo munosabatlar, oilaviy muammolar yoki shaxsiy yondashuvlar, individual-psixologik xususiyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Keltirilgan ko'rsatkichlar asosida qayd etish mumkinki, tadqiqot jarayonida umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarida faoliyat yuritadigan pedagoglarda yuzaga keladigan frustratsion tolerantlik hamda emotsional zo'riqish holatlari

Bundan anglash mumkinki, professor-o'qituvchilar hayoti va faoliyatida sodir bo'lgan yoqimsiz holatlar uchun aybdorlarni tashqi olamdan qidirish, vaziyatni o'z holicha baholash, muammoli vaziyatni bo'rttirib idrok qilmaslik darajalari muayyan faoliyat bilan qancha muddat shug'ullanish



jihattidan yaqqol tafovutlanmasligi tadqiqot natijalari orqali tasdiqlandi.


Yuqorida oliy o'quv yurtlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida ishlaydigan pedagoglarning natijalari umumiy tahlil qilingan bo'lsa, quyida esa har bir ta'lim tashkiloti o'qituvchilarining frustratsion tolerantlik hamda emotsional zo'riqish holatlariga oid ko'rsatkichlari mehnat stajlari bo'yicha alohida yoritiladi. Dastlab umumta'lim maktablarida faoliyat yuritadigan pedagoglarda V.V.Boykning «Frustratsiya holatini aniqlash» va N.E.Vodopyanovning «Psixologik stress shkalasi» metodikalari bo'yicha qayd etilgan ko'rsatkichlar 3-jadval va 3-rasmda aks ettirilgan.

**3-jadval**

**Umumta'lim maktablari pedagoglarida frustratsion tolerantlik va emotsional zo'riqish bo'yicha tafovutlarning mehnat stajlari kesimida ifodalanishi (n=154)**

(Kruskal-Uollis H-mezoni bo'yicha)

Komponentlar	Mehnat staji	Ranglar o'rtachasi	H (Kruskal-Uollis qiymati)	p (ishonchlilik darajasi)
Frustratsion tolerantlik	1-5 yil	22,07	0,69	p>0,05
	6-10 yil	17,79		
	11 va undan yuqori	20,34		
Psixologik stress	1-5 yil	19,04	1,90	p>0,05
	6-10 yil	26,00		
	11 va undan yuqori	19,55		



**3-rasm. Umumta'lim maktablari pedagoglarida frustratsion tolerantlik va emotsional zo'riqish bo'yicha tafovutlarning mehnat stajlari kesimida aks ettirilishi (n=154)**

3-jadvalda qayd etilgan natijalarga binoan, umumta'lim maktablarida ishlovchi o'qituvchilarda frustratsion tolerantlikning yuzaga kelishi bo'yicha mehnat stajlari kesimida ahamiyatli tafovutlar mavjud emasligi kuzatildi ( $H=0,69$ ;  $p>0,05$ ). Mazkur ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, mehnat va hayot faoliyatida duch kelinadigan ko'ngilsiz vaziyatlarga nisbatan barqaror munosabatda bo'lish, ish jarayonida kuzatiladigan salbiy vaziyatlar uchun astenik hissiyotlarga berilmaslik, ayrim sabablarga ko'ra amalga oshirilgan tasodifiy xatti-harakatlar uchun hamkasblar va atrofdagi insonlar oldida noqulay ahvolda qolmaslik kabi holatlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida 1-5 yil, 6-10 yil va 11 yildan ortiq mehnat stajiga ega bo'lgan pedagoglarda bir xil tarzda namoyon bo'ladi. Bundan ma'lumki, pedagoglardagi kutilmagan noxush hodisalarda o'z-o'zini past baholash, maqsadga erisha olmaganlikdan qoniqmaslik singari frustratsiya xususiyatlari ularda har doim ham mehnat stajlari negizida yuzaga kelmasligi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 1-5 yil, 6-10 yil va 11 yildan ortiq vaqt mobaynida faoliyat yuritib kelayotgan pedagoglarning psixologik stress bo'yicha natijalari taqqoslanganda, ushbu qiymatlar orasida ahamiyatli farqlar aniqlanmadi ( $H=1,90$ ;  $p>0,05$ ). Natijalardan ma'lumki, mehnat jarayonida sodir bo'lgan ko'ngilsiz voqeliklarning salbiy tomonlariga ko'proq urg'u berish, arzimas sabablardan tez asabiylashish, hissiy ta'sirchanlikning haddan tashqari oshib ketishi, o'zida zo'riqishlarni his qilish holatlari kasbiy faoliyatning barcha davrlarida birdek kuzatilib, muayyan muddatning alohida o'ringa egaligi qayd etilmadi. Demak, maktab o'qituvchilari ta'lim tashkilotida qancha davrdan buyon ishlashidan qat'iy nazar salbiy ta'sirlar, shaxslararo munosabatlardagi qiyinchiliklar sababli psixologik stressga berilib qolish ehtimoli mavjudligi ayon bo'ladi.

Aniqlangan ko'rsatkichlar asosida qayd etish joizki, tadqiqot natijalariga ko'ra umumta'lim maktablarida o'z mehnat faoliyatini olib boradigan pedagoglarda frustratsion tolerantlik va emotsional zo'riqish bo'yicha ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, kasbiy faoliyat davomida namoyon bo'ladigan qiyin vaziyatlarga chidamlilik, maqsadga erishish yo'lidagi to'siqlarga umidsiz munosabatda bo'lmaslik kabi frustratsion tolerantlik sifatleri, shuningdek, emotsional zo'riqishlarni boshdan kechirish, ishchanlik kayfiyatining pasayishi singari psixologik stress holatlari mehnat stajlari kesimida bir xil tarzda namoyon bo'ladi.


Shu bilan bir qatorda, mazkur metodikalar bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida dars beradigan professor-o'qituvchilar qayd etgan ko'rsatkichlari ham alohida mehnat stajlari kesimida o'rganilib, ularning natijalari 4-jadval va 4-rasmda ifodalangan.

4-jadval

**Oliy ta'lim pedagoglarida frustratsion tolerantlik va emotsional zo'riqish bo'yicha tafovutlarning mehnat stajlari kesimida ifodalanishi (n=158)**

(Kruskal-Uollis H-mezeni bo'yicha)

Komponentlar	Mehnat staji	Ranglar o'rtachasi	H (Kruskal-Uollis qiymati)	p (ishonchlilik darajasi)
Frustratsion tolerantlik	1-5 yil	41,78	1,19	p>0,05
	6-10 yil	34,57		
	11 va undan yuqori	38,73		
Psixologik stress	1-5 yil	39,58	1,51	p>0,05
	6-10 yil	47,14		
	11 va undan yuqori	37,08		



**4-rasm. Oliy ta'lim pedagoglarida frustratsion tolerantlik va emotsional zo'riqish bo'yicha tafovutlarning mehnat stajlari kesimida aks ettirilishi (n=158)**

4-jadvalda aks ettirilgan natijalarga ko'ra, frustratsion tolerantlikning namoyon bo'lishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan professor-o'qituvchilar natijalari o'rtasida mehnat stajlari kesimida ahamiyatli tafovutlar qayd etilmadi ( $H=1,19$ ;  $p>0,05$ ). Mazkur ko'rsatkichlardan anglash mumkinki, oliygohlarda 1-5 yil, 6-10 yil va 11 yildan ortiq vaqt mobaynida ishlab kelayotgan pedagoglar frustratsiyani bir-biridan farqli ravishda boshdan kechirishmaydi. Oliy o'quv yurtlarida dars beruvchi professor-o'qituvchilarda kutilmagan muammoli vaziyatlarga tolerant munosabatda bo'lish, to'siqli holatlarni chetlab o'tishga intilish, umidsizlikka tushib qolmaslik va qat'iyatni namoyish etish singari frustratsiyaga bardoshlilik sifatleri o'xshash tarzda yuzaga kelishi tadqiqot natijalari orqali aniqlandi.

Psixologik stressning namoyon bo'lishi bo'yicha 1-5 yil, 6-10 yil va 11 yildan ortiq vaqt mobaynida mehnat qilib kelayotgan oliy ta'lim sohasi vakillarining natijalari o'rganilganda, mazkur ko'rsatkichlar orasida ahamiyatli tafovutlar qayd etilmadi ( $H=1,51$ ;  $p>0,05$ ). Bundan ko'rinadiki, oliygoh professor-o'qituvchilarida mehnat jarayonida paydo bo'ladigan stressogen omillarga ta'sirchanlik, o'zida doimiy charchoqni his qilish, kasbiy ishtiyoqning pasayishi, shaxslararo munosabatlardagi tajanglik, agressivlik holatlari turli ish stajlari bo'yicha birdek uchraydi. Natijalardan anglash mumkinki, psixologik stressning oliy ta'lim muassasalari pedagoglarida kuzatilishi har doim ham ularning ushbu tashkilotda necha yildan buyon ishlashi bilan belgilanmaydi.

Qayd etish joizki, tadqiqot jarayonida oliy ta'limda turli mehnat stajlariga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning frustratsion tolerantlik va emotsional zo'riqish natijalari bo'yicha ahamiyatli farqlar ko'zga tashlanmadi. Bundan anglash mumkinki, ish faoliyatida turli noxush masalalarga duch kelganda tushkunlikka tushmaslik, maqsadga erishishdagi qat'iyatni saqlab qolish, shu bilan birga stresslarni boshdan kechirish, hissiy ta'sirchanlik darajalari mehnat stajlari kesimida o'zaro yaqqol tafovutlanmasligi tadqiqot natijalari orqali qayd etildi.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, pedagoglarda mehnat jarayonida frustratsiya turli omillar negizida shakllanib, emotsional holatlarning barqarorligiga salbiy ta'sir etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalari pedagoglarida frustratsion tolerantlikning namoyon bo'lishi hamda uning kechishi ko'pincha tashkilotdagi faoliyat davriyligiga bog'liq bo'lmaydi, ushbu holatni aniqlangan natijalar orqali tasdiqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Rosenzweig S. The children's Form of the Rosenzweig Picture-Frustration Study / S. Rosenzweig, E.E. Fleming, L. Rosenzweig // J. Psychol. – 1948. – V. 26. – P. 15-29.

Ермолаева Л.И. Фрустрация как социально-психологический феномен: Автореф. дис.к. психол. наук. – М., 1993. – 22 с.

Заремба Г.Ф. Фрустрация в профессиональной деятельности учителя начальной школы и условия её преодоления: Автореф. дис. .к. психол. наук. – М., 1982. – 23 с.

Левитов Н.Д. Фрустрация как один из видов психических состояний // Вопросы психологии. 1967. – № 6. – С. 123.

Словарь практического психолога. Минск: Харвест, 1997. – 800 с.

## **TURMUSH QURAYOTGAN TALABALARNI OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Turobova Maxbuba Alisherovna,  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya: maqolada turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorligini baholash mezonlari va talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi rivojlanish darajasini aniqlashning psixodiagnostik kompleksi ishlab chiqilgan. Oila va uni qo'llab-quvvatlash borasidagi O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan me'yoriy huquqiy hujjatlar, oliy ta'lim muassasalari hamda talabalari statistikasi va turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash bo'yicha tadqiqot olib borgan xorij va mahalliy olimlar ilmiy ishlari o'rganilgan. Turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

*Kalit so'zlar: oila, psixologiya, oilaviy munosabat, turmush, psixodiagnostik kompleks, talaba, komponent, huquq, nikoh.*

## **СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ К СЕМЕЙНЫМ ОТНОШЕНИЯМ СТУДЕНТОВ НА ПОРОГЕ ВСТУПЛЕНИЯ В БРАК**

*Туробова Махбуба Алишеровна,  
Преподаватель Университета экономики и педагогики*

*Аннотация: В статье изложены социально-психологические особенности подготовки студентов к семейным отношениям. Также разработаны критерии оценки готовности молодых студентов к семейной жизни и психодиагностический комплекс для определения уровня их готовности. Изучены нормативные правовые документы, принятые в Республике Узбекистан по поддержке семьи, статистические данные вузов и студентов, а также научные работы зарубежных и отечественных ученых, проводивших исследования по подготовке студентов к семейным отношениям. Разработаны предложения и рекомендации по подготовке студентов к семейным отношениям.*

*Ключевые слова: семья, психология, семейные отношения, социальный, психодиагностический комплекс, студент, компонент, право, брак.*

## **SOCIO-PSYCHOLOGICAL PECULIARITIES OF PREPARING THE STUDENTS WHO ARE AT THE EVE OF MARRIAGE FOR THE FAMILY RELATIONSHIPS**

*Turobova Maxbuba Alisherovna,  
Lecturer at the University of economics and pedagogy*

*Abstract: this article outlines the socio-psychological characteristics of preparing students for family relationships. Criteria for assessing students' readiness for family life and a psychodiagnostic complex for determining the development level of their readiness have been developed. The normative legal documents adopted in the Republic of Uzbekistan regarding family support, statistics of higher education institutions and students, and scientific works of foreign and local scholars who have conducted research on preparing students for family relationships have been studied. Proposals and recommendations for preparing students for family relationships have been developed.*

*Key words: family, psychology, family relationships, social, psychodiagnostic complex, student, component, law, marriage.*

*Kirish. Dunyo miqyosidagi yetakchi universitetlar ilmiy tadqiqotlarida yoshlarning oilaviy hayotga psixologik tayyorligi tobora dolzarb bo'lib kelmoqda. Bunday tadqiqotlarni amalga oshirishda va farovon oilaga erishishda yoshlarning o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlari hal qiluvchi nikoh*

oldi omillaridan biridir. Shu bilan birga oila qurishda uning tuzilishi, oilaviy hayot tarziga ijobiy munosabati, kommunikativ xususiyatlari, oilaviy hayot qadriyatlarini ongli qabul qilganligi va oilaviy hayotga tayyorlik kabi murakkab va ko'p darajali tarkibiy xususiyat faol shakllanishiga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Talabalarning oilaviy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan psixologik tayyorgarlik, vaziyatni oqilona baholash va qiyinchiliklarga sabr-toqatli bo'lish ko'nikmalari ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash va ularning oilaviy munosabatlarda teng huquqliligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida qonun bilan mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, "Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi" [1].

Talabalar oliy ta'lim tizimi tomonidan tashkiliy jihatdan birlashtirilgan maxsus ijtimoiy guruhdir. Talabalarning psixologik xususiyatlari asosan yoshga (17 yoshdan 25 yoshgacha) qarab belgilanadi, bu esa yetuklik boshlanishining yosh davrini anglatadi. Tadqiqotchilar Yu.E.Makarova va N.A.Svetkovalar fikricha, bugungi kunda ko'plab yoshlar turmush qurishga tayyor emasligi, oilaviy hayot va oila mas'uliyatni qabul qilish va bajarishga tayyor emasligi, o'z oila a'zolarining farovonligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishni istamasliklari sababli oila qurishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda [2].

Oila atamasini aniqlashtirish tadqiqotchilar uchun eng katta muammolardan biri hisoblanib, uning noaniqligi akademik adabiyotlarda tez-tez uchrab turadi. Ernest V.Burgess tomonidan ishlab chiqilgan oila ta'rifi tadqiqotchilar tomonidan keng qo'llaniladigan birinchi ta'rif edi. Uning fikricha, "Oila" atamasi "nikoh, qondoshlik yoki farzand asrab olish rishtalari bilan birlashgan ikki yoki undan ortiq shaxslarning bitta uy xo'jaligini tashkil etish; er va xotin, ona va ota, o'g'il va qiz, aka-uka va opa-singilning tegishli ijtimoiy rollarida bir-biri bilan muloqot qilish va umumiy madaniyatni yaratish va qo'llab-quvvatlashdir" [3].

Mamlakatimiz tadqiqotchilari M.B.Nosirova va R.B.Qudratullayevalarga ko'ra, "psixologik tadqiqotlar asosida shuni taxmin qilish mumkin, talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi yoshga, ijtimoiy rivojlanish darajasiga, ta'lim va kasbiy faoliyatga bog'liq bo'lgan va universitet ta'limi ta'sirida faol shakllanadigan o'ziga xos asosiy omillar bilan belgilanadi [4].

Mamlakatimiz olimlarining aksariyat ishlari oilaviy hayot psixologiyasi V.M.Karimova [5], G.B.Shoumarov, I.O.Xaydarov, N.A.Soginov [6], O'.B.Shamsievlar [7] tadqiqotlarida va turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari N.X.Lutfullaeva [8] tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi: B.S.Kruglovning qadriyat orientatsiyalari shakllanganligini aniqlash metodikasi; M.Snaydning muloqotda o'z-o'zini nazorat qilishni baholash so'rovnomasi; V.V.Boykning shaxslararo muloqotda emotsional to'siqlarni aniqlash so'rovnomasi; A.V.Karpovning refleksivlik rivojlanishi darajasini aniqlovchi so'rovnomasi; O.L.Goncharovning nizo darajasi namoyon bo'lishining ekspress-dagnostik so'rovnomasi; A.V.Zverkov, Ye.V.Eydmanlarning irodani boshqarishni tadqiq etish so'rovnomasi; Yu.Z.Gilbuxning shaxs yetukligi test-so'rovnomasi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

2023-2024 o'quv yilida mamlakatimizda 219 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat olib bormoqda va joriy o'quv yilida ularni 184133 nafar talaba bitirdi. Bitirgan talabalarning 84721 nafari (46 foiz) ayollar hisoblanadi [9]. Dunyo miqyosida iqtisodiy hayotning jadal rivojlanishi tufayli turmush qurish yoshi ham kattalashib bormoqda.


O'rganilayotgan hodisaning mazmuniy xususiyatlariga doir olimlarning turli qarashlarini tahlil qilish talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligini quyidagi umumlashtirilgan mazmuniy komponentlarini ajratish imkonini berdi:

- birinchi mazmuniy komponent – qadriyatli, uzoq muddatli hayot istiqboliga yo'nalganlikni aks ettiruvchi maqbul oilaviy hayot, yaxshi ko'rgan insoni bilan yaqinlik, o'ziga ishonch, mas'uliyat, sezgirlik, ratsionalizm, yuzaga keladigan hayot qiyinchiliklari oldida chekinmaslik qobiliyatlarini aks ettiradigan talaba shaxsining qadriyat sohasini o'z ichiga oladi;

- ikkinchi mazmuniy komponent – emotsional-shaxslararo, o'z-o'zini nazorat qilish, muloqotda emotsional samaradorlik, kommunikativ refleksiya qodirlik, o'zaro ta'sir jarayonida nizoli vaziyatlarni hal eta oladi;

- uchinchi mazmuniy komponent – kognitiv-xulqiy, o'z xatti-harakatlari, holati, istaklari, shuningdek, axloq mezonlari, shaxslararo muloqot prinsiplari, jamoadagi xulq-atvor individual xususiyatlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi tarkibiy qismlari shartlidir, chunki ularning mazmun asoslari o'zaro bog'liq, ya'ni bir-birini to'ldiradi, chambarchas aloqadadir (1-rasm).



1-rasm. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorligini baholash mezonlari.

O'tkazilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi universal metodika mavjud bo'lmagan psixodiagnostika uchun yetarlicha murakkab va integrativ tuzilma sanaladi. Shu bilan bog'liq ravishda, aniqlangan mazmuniy komponentlar, baholash mezonlarini hisobga olgan holda talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi rivojlanish darajasini empirik aniqlash uchun o'zini amaliyotda yaxshi isbotini topgan quyidagi psixodiagnostik kompleks tanlandi va qo'llandi (1-jadval).

## 1-jadval

Talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi rivojlanish darajasini aniqlashning psixodiagnostik kompleksi.

T/r	Ko'rsatkichlar	Yuqori daraja	O'rtadan yuqori daraja	O'rta daraja	O'rtadan quyi daraja	Quyi daraja
1	Talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi qadriyatli mazmuniy komponenti shakllanligining miqdoriy tavsifi (n=288)	0	0	33	64,9	2,1
2	Talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi shaxslararo-emotsional mazmuniy komponenti shakllanligining miqdoriy tavsifi (n=288)	0	0,3	16,7	82,3	0,7
3	Talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi kognitiv-xulqiy mazmun komponenti shakllanganligining miqdoriy tavsifi (n=288)	0	0,7	11,4	85,1	2,8
4	Talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi qadriyatli-mazmuniy komponenti shakllanganligining miqdoriy tavsifi (n=288)	0	0	44,4	55,6	0


Talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi rivojlanish darajasini aniqlashda psixodiagnostik kompleksdan foydalanish juda muhimdir. Bu kompleks turli xil psixologik testlar va so'rovnomalarni o'z ichiga oladi, ular orqali talabalar oilaviy munosabatlar va ularning talablari haqidagi bilimlarini, shuningdek, psixologik va emotsional holatini baholash mumkin.

B.S.Kruglovning qadriyat orientatsiyalari shakllanganligini aniqlash metodikasini tatbiq etishdan olingan empirik ko'rsatkichlarda, tayyorlangan umumlashtiruvchi mexanizmni qo'llash orqali olingan psixodiagnostik natijalar talabalarning aksariyatida Talabalarning 2,1 % (6 nafar)ida rivojlanishning past darajasi aniqlandi. Talabalarning faqat 33 % (95 nafar)ida o'rta darajadagi rivojlanish kuzatildi.



Shunga ko'ra, o'rtadan yuqori va yuqori darajadagi talabalar aniqlanmagan.

Talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi ularning shaxslararo va emotsional jihatlarining qanchalik rivojlanganligi bilan bevosita bog'liqdir. Shaxslararo-emotsional mazmuniy komponent talabalarning oila va munosabatlarda qanday munosabatda bo'lishlarini, his-tuyg'ularni qanday boshqarishlarini va oila a'zolari bilan qanday aloqada bo'lishlarini aniqlaydi. Quyida biz tomonimizdan o'tkazilgan tadqiqot natijalari va ushbu komponentning shakllanganlik darajasi quyidagi miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholandi:



2-rasm. Talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi shaxslararo- emotsional mazmuniy komponenti shakllanligining miqdoriy tavsifi (n=288).

Oilaviy hayotga tayyorlikning shaxslararo-emotsional mazmuniy komponentini tadqiq etishda M.Snayderning muloqotda o'z-o'zini nazorat qilishning baholash so'rovnomasi, V.V.Boykoning shaxslararo muloqotda emotsional to'siqlarni aniqlash so'rovnomasi, A.V.Karpovning refleksivlikning rivojlanish darajasini aniqlash so'rovnomasi, O.L.Goncharovning nizo darajasi namoyon bo'lishining ekspress-diagnostik so'rovnomalariga tayanildi. Tayyorlangan umumlashtiruvchi mexanizmni qo'llash orqali olingan psixodiagnostik natijalar respondentlarning aksariyatida (82,3 %, 237 nafar) shaxslararo-emotsional mazmuniy komponentning rivojlanish darajasi o'rtadan past ekanligi kuzatish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasida oilaning muqaddasligini ta'minlash maqsadida turli markazlar tashkil etish belgilanib, ularning maqsadlari sifatida:

— zamonaviy oilaning namunali shaklini hamda “Oila — muqaddas”, “Sog'lom oila-sog'lom jamiyat”, “Oila-jamiyat va davlat himoyasida” va “Farovon oila-jamiyat ravnaqining asosi” konseptual g'oyalarini nikohlanuvchilarning ongiga singdirib borish;

— nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va budjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha tizimli tayyorlash;

— oilalar mustahkamligini ta'minlash, oilaviy ajralishlarning oldini olish, nikohlanuvchi shaxslarda oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish, oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratish hamda ibratli ota-ona bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish belgilangan [10].

Shuningdek, mamlakatimizda oliy ta'lim olishga ehtiyoji mavjud yoki ta'lim olayotgan ijtimoiy ehtiyojmand talaba qizlar va ularning oila vakillarini qo'llab-quvvatlash tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, unga asosan, har yili bazaviy to'lov-kontrakt asosida davlat oliy ta'lim muassasasining bakalavriat

ta'lim yo'nalishlariga qabul qilingan, ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarni hokimliklar hisobidan o'qitish tartibini joriy etish, bunda, o'qish uchun to'lov pullari hokimliklar tomonidan har yili 150 nafardan ehtiyojmand talabalar uchun mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplab berilishi belgilandi [11].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarining natijalari, ushbu jarayonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Talabalarining oilaviy hayotga tayyorligi ularning oilaviy munosabatlarni o'rganish, shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish, emotsional barqarorlik va moslashuvchanlik kabi jihatlariga bevosita bog'liqdir. Ushbu tadqiqot jarayonida aniqlangan asosiy omillar talabalarining oilaviy hayotga moslashish qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi xulosalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Oilaviy hayotga tayyorlikning tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari oliy ta'lim muassasasi va mutaxassislik yo'nalishi talabalari uchun bilimlarini boyitishga xizmat qilishi lozim.

Oliy ta'lim muassasasi mutaxassis va mutaxassislikdan tashqari yo'nalishdagi talabalarga "Oilaviy hayotga tayyorlash" amaliy dars turlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotimiz davomida tayyorlangan ijtimoiy-psixologik trening dastur oilaviy hayotga tayyorlikda uning samaradorligi va amaliy maqbulligi o'z tasdiqini topganligi bois, "Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash" markazlari psixologlari va FHDYO xodimlari dasturdan keng foydalanishlari lozim.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, talabalarining oilaviy hayotga tayyorligini oshirish va ularning kelajakdagi oilaviy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 01.09.1998 yil.

Макарова Елена Юрьевна, & Цветкова Наталья Афанасьевна (2022). Особенности психологической готовности к браку студенческой молодежи разной направленности образования. Проблемы современного образования, (6), 32-47.

Burgess, E. W. (1963). The family: From institution to companionship (3rd ed.). American Book Company; pg. 2.

Ma'mura Bahodir qizi, N. ., & Ruxsora Baxtiyarovna, Q. . (2024). Psychological characteristics of family preparation in students. International Journal of Formal Education, 3(2), 88-90. Retrieved from <https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2082>

Karimova V.M. Oila: Ijtimoiy himoya omillari. Ilmiyommabop maqolalar to'plamlari., // Prof. V.M.Karimova tahriri ostida. T.: 2007. – 118 b.

Shoumarov G.B., Haydarov I.O., Sog'inov N.A. va boshq. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun qo'l. / G.B.Shoumarovning tahriri ostida. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-mahsus ta'lim vazirligi, o'rta-mahsus, kasb-hunar ta'lim markazi. - T.: «Sharq», 2010. – 296 b.

Шамсиев Ў.Б. "Оилавий муносабатлар тизимида боланинг ўзини-ўзи англаш жараёни" Ўқув-услубий кўлланма "Мумтоз сўз" нашриёти, 2012 йил, 52-бет.

Н.Х.Лутфуллаева. Турмуш курган талабаларнинг оилавий муносабатларга тайёрлигининг ижтимоий психологик хусусиятлари / автореф. дис психология фан. номзоди: 19.00.05/ Тошкент, 2006-24 б.

<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-son Qarori, 31.12.2020 yil.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 17.09.2021 yildagi 585-son.

## TA'LIM JARAYONINING MUVAFFAQIYATIDA GURUHIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK TA'SIRI

*Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna,  
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Annotatsiya: Maqolada ta'lim jarayonining muvaffaqiyati va shu ta'lim tizimida o'quvchi shaxsining ijtimoiy-psixologik taraqqiyoti eng avvalo har bir o'quvchining shu ta'lim faoliyatiga nisbatan mustaqil va ijodiy yondashuviga, o'quv faolligiga nisbatan barqaror qiziqishlarning tarkib topishiga va ayni paytda ma'lum bir guruhda o'zining ijtimoiy menligini nechog'lik shakllantirishga bog'liq ekanligi asoslangan.*

*Kalit so'zlar: jamoa munosabatlari, rivojlangan guruh, individual munosabat, ijtimoiy taraqqiyot, guruhiy menlik, guruhiy moslik, ta'lim muvaffaqiyati, psixologik muhit.*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ГРУППОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА УСПЕХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

*Худайкулова Гулшода Бахрановна,  
Доктор философии психологических наук (PhD), доцент*

*Аннотация: В статье успешность учебного процесса и социально-психологическое развитие учащегося в данной образовательной системе базируются, прежде всего, на самостоятельном и творческом подходе каждого учащегося к этой учебной деятельности, формированию устойчивых интересов в образовательная деятельность и в то же время она основана на том, что от нее зависит формирование социального "Я" в определенной группе.*

*Ключевые слова: групповое отношение, развитая группа, индивидуальная установка, социальное развитие, групповое "Я", групповая совместимость, учебная успешность, психологическая среда.*

## PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF GROUP RELATIONS ON THE SUCCESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS

*Khudaykulova Gulshoda Bakhronovna,  
Doctor of Philosophy of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Abstract: In the article, the success of the educational process and the socio-psychological development of the student in this educational system are based, first of all, on the independent and creative approach of each student to this educational activity, the formation of sustainable interests in educational activities and at the same time it is based on the fact that the formation of the social "I" in a certain group depends on it.*

*Key words: group attitude, developed group, individual attitude, social development, group "I", group compatibility, educational success, psychological environment.*

Birgalikdagi ijtimoiy qimmatga ega va shaxs uchun ahamiyatga molik faoliyatning amalga oshirilishi o'zaro jamoatchilik munosabatlari o'rnatilishini, individual munosabat bilan jamoa munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlar barham topishini ta'minlaydi. Bunday faoliyat jarayonida shaxslararo munosabatlarda boshqa sharoitlarda qayd etilishi mumkin bo'lmagan alohida hodisalar yuz beradiki, guruh rivojlanishining alohida belgisi sifatidagi jamoatchilik hosil bo'ladi. Aynan, jamoa shaxsning jamiyatga bog'liqligini ifoda etadi. Shaxs ana shu bog'liqlik orqali erkinlikka muvaffaq bo'ladi.

Zero, maktab davridayoq guruhii va ijtimoiy menlikning yetarli darajada tarkib topishi o'quvchi shaxsi ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim "manba" hisoblanadi. Bu jarayon bizning nazarimizda o'ziga xos imkoniyatlar ko'lamiga ega bo'lgan guruhii mas'ullik, jamoatchilik, guruhii jipslik, o'zaro aloqadorlik, o'zaro samimiylik, guruhii tashkilotchilik, o'zaro guruhii xabardorlik kabi sifatlarning namoyon etilishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy psixologiyada muhim o'rin tutuvchi kichik guruhlar doirasidagi o'quvchi shaxsi va shaxslararo faollik motivatsiyasining tarkib topishga daxldor

bo'lgan mezonlarning (guruhiy mas'ullik, jamoatchilik, guruhiy jipslik, guruhiy aloqadorlik, o'zaro samimiyluk guruhiy tashkilotchilik, o'zaro xabardorlik) bugungi ta'lim jarayonida har bir o'quvchi va aksariyat kichik guruhlar a'zolarining amaliy faoliyatlarida qay tariqa namoyon bo'lishini tasdiqlovchi o'rtacha umumiy va qiyosiy-tipik ko'rsatkichlarni aniqlash va shu asosda muayyan ijtimoiy-psixologik xulosalar chiqarish asosiy maqsad qilib qo'yilmog'i dardkor.

Jamoaning yuksak darajada rivojlangan guruh sifatida boshqa barcha guruhlariga nisbatan prinsipial jihatdan farqlari tajriba yo'li bilan qayd etilgan. Jamoada faoliyatning samaradorligi bilan o'zaro hisxayajonli psixologik munosabatlarning maqbul xarakteri o'rtasidagi nisbat ijobiy, sust rivojlangan guruhlarda esa salbiy bo'ladi. Past darajada rivojlangan guruhlarda guruhning miqyosi bilan uning a'zolaridan umumiy ishga eng ko'p hissa qo'shish istagi o'rtasidagi teskari bog'lanish mavjudligi aniqlandi, guruhning tarkibi yiriklasha borishi bilan jamoadan birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarning motivlari susaymaydi. Tasodifiy guruhda yordamga muhtoj kishiga yordam ko'rsatilishi ehtimoli guruhning miqyosi kengayishi bilan susaya boradi, jamoada esa bunday qonuniyat namoyon bo'lmaydi.

Tabiyy ravishda, jamoa ichida, ijtimoiy va psixologik kuchlar ta'sirida vujudga keladigan guruhlar norasmiy guruhlar deb nomlanadi. Ushbu guruhga binoan tashkilot xodimlari o'zlari ish joyidagi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun rahbariyatning tasdiqsiz guruhlariga kiradilar. Hech kim alohida yashashni xohlamaydi; odamlar o'zlarining hissiyotlari, fikrlari, tajribalari, ma'lumotlari va boshqalarni o'zaro ta'sirlashishlari va baham ko'rishlari uchun o'zlarini atrofida aylana hosil qilishadi. Ushbu doiralar ish joyidagi norasmiy guruhlar deb nomlanadi. Ushbu guruhlar umumiy yoqtirishlar, yoqtirmasliklar, aqidalar, aloqalar, a'zolarining tili, qiziqishlari, qarashlari asosida tuziladi. Bu qiziqish guruhi va do'stlik guruhini o'z ichiga oladi.

Har qanday guruh tuzilishiga ko'ra guruh a'zolari nufuzi va statusining o'ziga xos darajasini aks ettiradi. Uning yuqorisida referentometrik va sotsiometrik tarzda tanlanadigan shaxslar o'rin oladi, eng orqada esa noreferent va sotsiometrik jihatdan ajratib chiqarilgan individlar turishadi. Mazkur iyerarxiya zinapoyasining eng yuqori bosqichida guruhning lideri mavjud bo'ladi.

Lider - bu shunday shaxsdirki, guruhning qolgan barcha a'zolari uchun o'zlarining manfaatlariga daxldor bo'lgan hamda butun guruh faoliyatining yo'nalishini va xarakterini belgilab beradigan eng ma'suliyatli yechimlarni qabul qilishga haqli deb hisoblaydilar. Lider rasman guruhning rahbari bo'lishi ham va aksincha, bo'lmasligi ham mumkin. Lider bilan rahbarlikning yagona bitta shaxsda shakllanishi maqbul hodisa hisoblanadi. Bordi-yu, agar bunday muvofiqlik bo'lmasa, u holda guruh faoliyatining samaradorligi rasmiy rahbar (masalan, sinf boshi) bilan norasmiy lider yoki liderlar o'rtasidagi munosabatlar qay tarzda yuz berishiga bog'liq bo'ladi.

Guruh jamoasining rasmiy rahbarlik tizimi, unda norasmiy nufuzning taqsimlanishi va norasmiy peshqadam sifatida tanilish uchun to'g'ri kelishi ham, to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Natijada, shaxslararo munosabatlarda umumiy maqsadlarning mavjudligi jamoaga xalaqit qiladigan emas, balki hatto yordam berishi ham mumkin. Chunonchi, 30-40 o'quvchidan iborat kichik guruh hisoblanadigan guruhda guruhboshi va yoshlar tashkilotchisidan tashqari, odatda bir necha peshqadamlar mavjud bo'lib, ular tevaragida bir nechta norasmiy guruhlar uyushadi.

Psixologiyada guruhdagi tabaqalanishni (uning ichki tuzilishini) o'rganish uchun ko'plab metodlar qo'llaniladi. Ulardan ikkita asosiylari - sotsiometriya (sotsiometrik so'rov) va referentometriya metodidir. Amerikalik psixolog, mikrosotsiolog J. Moreno guruhlarda shaxslararo munosabatlarni o'rganish uchun shaxslarning bir birini saylashini (tanlashi, afzal qo'rishlarni) aniqlash usulini va hissiy afzal qo'rishlarni qayd qilish texnikasini taklif etdi. Buni u sotsiometriya deb atadi. Sotsiometriya metodi kichik guruhlariga taalluqli bo'lgan shaxslararo munosabatlarni o'rganish va o'lchashning metodi sifatida taklif qilingan. Sotsiometriya yordamida shaxslararo birgalikdagi harakat jarayonida guruh a'zolarida namoyon bo'ladigan afzal ko'rishni, befarqlik yoki xush ko'rmaslikni miqdoriy m'yorini aniqlash mumkin. Sotsiometriya guruh a'zolarining bir - birlarini xush qo'rish yoki xush ko'rmasligini aniqlashda keng qo'llanadi. Guruh a'zolarining o'zlari bunday munosabatlarni anglab ola olmasliklari va ularning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida o'zlariga hisob bermasliklari mumkin. Sotsiometriya metodi juda ham tezkor bo'lib, uning natijalari matematik usul bilan qayta ishlanishi va yozma shaklda ifoda etilishi mumkin.

Sotsiometrik usulning negizida «Sen kim bilan birga bo'lishni xohlarding?» degan to'g'ridan - to'g'ri savol turadi. U kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni xohlagan jabhasida tatbiq qilinishi

mumkin: sen kim bilan birga bitta partada o'tirishni, dam olishni, vaqt o'tkazishni, ishlashni xohlarning va hokozo. Qoida tariqasida tanlashning ikki yo'nalishi - birgalikda mehnat qilish sohasidagi va vaqtni birgalikda o'tkazish yo'nalishlari tavsiya qilinadi. Bu o'rinda, tanlashning maqbulligi darajasida (benihoya istak borligi, bajonudilligi, befarqligi, unchalik istalmayotganligi, sira ham istak yo'qligi) aniqlik kiritilishi va tanlash uchun tavsiya qilinadigan shaxslar soni cheklangan bo'lishi ham mumkin. Tanlashlarni sotsiometriya matritsasiga tushirish chog'ida bular hisobga olinadi. Natijalarni tahlil etish o'zaro xush ko'rish va xush ko'rmasliklarning murakkab tarzda qo'shib ketganligini, sotsiometrik «yulduzlar» (ularni ko'pchilik tanlaydi), «autsayder» larning (ulardan hamma o'zini chetga tortadi) mavjudligini va butun iyerarxiyasini ko'rsatib beradi. Sotsiometriya metodini juda ham tezkor ekanligiga shubha yo'q va uning yordami bilan guruh ichidagi hissiy intilishlar manzarasi yetarli darajada aniq - ravshan ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Bu natijalarni kuzatishlar yo'li bilan aniqlash uchun uzoq vaqt sarflashga to'g'ri kelgan bo'lardi. Har qanday guruhni hosil bo'ladigan kommunikativ shaxobcha sifatida talqin qilish mumkin.

Lekin, sotsiometrik tahlil guruhdagi shaxslararo kommunikativ shaxobchaga juda ham umumiy tarzda ta'rif berishi mumkin. U nima uchun individ bir xil birliklarda guruhga qarama - qarshi qo'yilganligi, boshqalarida esa kommunikativ birlik borligini payqamasligini tushunib yetishga olib boradi. Sotsiometrik texnika yordamida qayd etiladigan bog'lanishlar tizimini muqarrar deb hisoblab bo'lmaydi. Bugungi «yulduz» ertaga yakkalanib qolishi mumkin. Sotsiometriya natijalari bizga bunday o'zgarishlarning sabablari haqida ma'lumot bera olmaydi. Shuningdek, guruh a'zolari bir-birovlarni rad etib, boshqalarni tanlaganlarida nimalarga asoslanganliklari, guruhning har xil a'zolariga xos xush ko'rish va xush ko'rmasliklar zamirida qanday ma'no borligi mavhumligicha qoladi.

Kichik guruhlarga bo'lgan alohida e'tibor va kichik guruhlarga ko'rsatilgan maxsus dasturdagi alohida psixologik xizmat jarayoni har bir o'quvchidagi guruhiy faollik va guruhiy ijtimoiy identifikatsiyani bir muncha yuqori darajada ta'minlashga olib keladi. Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotshi psixologlar uchun «Men va mening guruhim» mavzusida suhbatlar, yozma ishlar olib borish va ularning birlamchi natijalari bo'yicha kontent tahlillar o'tkazish, Dj. Morenning «Sotsiometriya» metodini, P.C. Nemovning «Ijtimoiy-psixologik relief ko'rsatkishlarini aniqlash» metodikalarini qo'llash tavsiya etiladi. Shu metodikalar orqali o'quvchi shaxsidagi guruhiy faollik mexanizmlari aniqlangash, psixologik xizmat jarayonidagi individual va guruhiy korreksiya ishlari samaraliroq keshadi.

Amerikalik tadqiqotchi Linda Djuell o'zining «Industrialno-organizatsionnaya psixologiya» (2001 yil) kitobida ijtimoiy psixologik hodisalardan muhimi bo'lmish liderlik masalasiga o'zining o'ziga xos yondashuvini bayon etgan. U bu muammoni aynan bizning sharoitimizdagi talqini, ya'ni mardlik va jasorat ko'rsatish uchun ochiq maydonlar yo'q bo'lgan sharoitda liderlik xislatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini ochishga urinadi. Uning fikricha, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorligi eng avvalo xodimlar rolini oshirib, liderlarnikini aksincha, pastlashtirish, yoki aniqrog'i, kamaytirish hisobiga ro'y beradi. Shundagina rahbarlikda ortiqcha bo'g'inlarni kamaytirish mumkin. Liderning, ya'ni amerikaliklar rahbarni lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi, vazifasi – guruhning samarali faoliyat ko'rsatish yo'llarini belgilab berishdir.

Amerikalik tadqiqotchilar Mans va Simslarning fikricha, eng yaxshi lider – bu «superliderdir». Bu shunday shaxski, u o'z xodimlarining aksariyatini liderlarga, birinchi navbatda o'zlari uchun liderlarga aylantira oladi. Bunday asosiy g'oya shundan iboratki, agar odam eng avvalo o'zi uchun lider bo'la olsa, o'zidagi bu malaka yoki mahoratni boshqalarga yetkaza olsagina, bu odam uchun shunday vaqt-saot yetib keladiki, jamoa o'zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqarib turadigan insonga muhtoj bo'lmagan mexanizmga aylanadi. Bu – superliderlikdir.

Oddiy rahbar yoki liderning superliderga aylanishi bir necha bosqichlarda kechadi:

I – o'zi uchun lider bo'lish, ya'ni shaxsiy maqsad va maslaklar, o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi rag'batlantirish, xayoliy repititsiyalar va kognitiv tahlillar orqali o'zining mustaqil inson, shaxs ekanligini, o'zida boshqalarga o'rnak bo'luvchi sifatlar borligini anglash;

II – yuqorida qayd etilgan sifatlarning afzalliklarini o'zgalarga namoyish etib, uning afzalliklariga ishonтира olish;

III – xodimlariga o'zlarida tashabbus va o'ziga ishonchni namoyon etish uchun sharoit yaratish;

IV – mustaqil qobilyat egalari bo'lgan xodimlarni rag'batlantirish, kerak bo'lganda, faqat

konstruktiv tanbehlar berish;

V – o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan ijtimoiy faoliyatni tashkil etish va ishlarga xadeb aralashaverishdan o‘zini tiyish.

Demak, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta’sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko‘rinishidir. Shu ma’noda, liderlik – avval shaxsning o‘ziga, so‘ngra o‘zgalarga bera oladigan ta’sirida ko‘rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta’riflanadi.

Kichik guruhlariga bo‘lgan alohida e’tibor va kichik guruhlariga ko‘rsatilgan maxsus dasturdagi alohida psixologik xizmat jarayoni har bir o‘quvchidagi guruhiiy faollik va guruhiiy ijtimoiy identifikatsiyani bir muncha yuqori darajada ta’minlashga olib keladi. Ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotshi psixologlar uchun «Men va mening guruhim» mavzusida suhbatlar, yozma ishlar olib borish va ularning birlamchi natijalari bo‘yicha kontent tahlillar o‘tkazish, Dj.Morening «Sotsiometriya» metodini, P.C.Nemovning «Ijtimoiy-psixologik relief ko‘rsatkishlarini aniqlash» metodikalarini qo‘llash tavsiya etiladi. Shu metodikalar orqali o‘quvshi shaxsidagi guruhiiy faollik mexanizmlari aniqlangash, psixologik xizmat jarayonidagi individual va guruhiiy korreksiya ishlari samaraliroq keshadi.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida shaxs faolligi va ijtimoiy taraqqiyoti, guruhlarda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, psixologik xizmat ko‘rsatish konsepsiyalarini takomillashtirishga, gumanistik va identifikatsion jarayonlarning ilmiy tahliliga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni olib borish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, psixologik xizmat jarayonini maxsus dasturlar asosida tashkil etish orqali o‘quvchilarning guruhiiy munosabatlar dinamikasi va guruhiiy faollik motivatsiyasini muayyan darajada rivojlantirish, professional darajada psixologik faoliyatni takomillashtirish, shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik xizmatning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq etish zarurati oshib bormoqda.

#### Adabiyotlar:

Агеев В.С., Андреева Г.М. Межличностное восприятие в группе.– М.: 1981. – 294 с.

Немов П.С. Психология.-Учеб.для студ.высш.пед.учеб.заведений.-М.: Гуманит.изд. тсентп ВЛАДОС,1999.-Кн.1. Общие основы психологии.-С. 528-647.

Немов П.С. Психология.- Учеб.для студ.высш.пед.учеб.заведений.- М.: Гуманит.изд. тсентп ВЛАДОС,1999.-Кн.3. Психодиагностика.-С. 389- 600..

Морено Дж. Сотциометрия. – М., 1958. – 244 с.

Khudoykulova G.B. Psychological mechanisms of the formation of interpersonal activity motivation for interactive activities in small groups. Psixologiya № 1.2019. Buxoro. 32-35.

Xudoyqulova G.B. Guruhlarda psixologik treninglarni tashkil etishda etnik xususiyatlarning ahamiyati . Psixologiya № 3.2021. Buxoro.70-73.

## **ВЫСШИЕ ПСИХИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ. ВИДЫ И ФУНКЦИИ ПАМЯТИ**

*Шарипов Абдурашид Бозорбоевич,*

*Старший преподаватель кафедры социально-экономических и гуманитарных дисциплин.  
Военный институт авиации Республики Узбекистан*

*Аннотация. В статье даются понятия о памяти, его основных видах и особенностях, а также способах запоминания, хранения и воспроизведения информации.*

*Ключевые слова: память, хранение информации, мозг, функции памяти, восприятие, внимание, язык.*

## **HIGHER MENTAL PROCESSES. TYPES AND FUNCTIONS OF MEMORY**

*Sharipov Abdurashid Bozorboyevich,*

*Military Institute of the Republic of Uzbekistan, Department of Humanitarian Disciplines*

*Abstract. The article provides concepts about memory, its main types and features, as well as methods of remembering, storing and reproducing information.*

*Key words: memory, information storage, brain, memory functions, perception, attention, language*

## **YUQORI RUHIY JARAYONLAR. XOTIRA TURLARI VA FUNKSIYALARI**

*Sharipov Abdurashid Bozorboyevich,*

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti*

*Ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlari kafedrasida katta o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Maqolada xotira, uning asosiy turlari va xususiyatlari, shuningdek, ma'lumotlarni eslab qolish, saqlash va ko'paytirish usullari haqida tushunchalar berilgan.*

*Kalit so'zlar: xotira, axborotni saqlash, miya, xotira funksiyalari, idrok, diqqat, til*

Память - это прежде всего накопление, закрепление, сохранение и последующее воспроизведение человеком своего опыта, то есть всего, что с ним произошло. Существует четыре главных процесса. Первый - запечатление (анализ и идентификация различных характеристик поступающей информации, ее кодирование). Второй - хранение (организация и удержание информации). Забывание - исчезновение из памяти. Эти два процесса, противоположные по характеру, представляют разные характеристики одного процесса. Забывание дает возможность мозгу избавляться от избыточной информации. Сохранение - это борьба с забыванием нужного, полезного. Третий - воспроизведение, произвольное или произвольное (процесс появления в сознании ранее воспринятых мыслей). Это основная функция памяти, дает человеку возможность использовать данные своего опыта. Формы воспроизведения: узнавание; воспоминание; припоминание.

Виды памяти:

Образная память

Зрительная память

Слуховая память

Двигательная память

Словесно-логическая память

Эмоциональная память

Долговременная, кратковременная и оперативная память

Непроизвольная память и произвольная память

Человеческая память является, по сути, взаимосвязанным процессом, состоящим из трёх компонентов: ввод информации (запоминание), её удержание (сохранение) и, наконец, воспроизведение. Их взаимосвязь выражена в том, что от того, как организовано запоминание, зависит сохранение информации, а от него - и качество воспроизведения. Это обстоятельство следует учитывать решая для себя задачу как улучшить память взрослому.

По характеру психической активности различают образную, словесно-логическую,

двигательную и эмоциональную память.

#### Образная память

Образная память – это хранилище звуков, запахов, зрительных представлений. Наглядно-образная память сохраняет материал в форме зрительных, слуховых и других образов. Поэтому выделяют несколько отдельных видов образной памяти, таких как слуховая (попробуйте вспомнить мурчание котёнка или потрескивание хвороста в костре), зрительная образная память (лицо близкого человека или любимая ваза), обонятельная (запах знакомого парфюма или просто свежесрезанной травы), тактильная (прикосновение тёплой руки или боль от укола), вкусовая (кислота ломтика лимона или сладость банана). Наглядно-образная память особенно важна в творческой деятельности.

Наш мозг предпочитает воспринимать мир, обрабатывая информацию обоими полушариями: правое воспринимает образ, а левое подбирает для него слова. Развивая образную память, мы восполняем пробел, вызванный дефицитом образов: в современном мире много информации, но основной её массив не задействует в работу правое полушарие, возникает дисбаланс, в результате которого нам все труднее запоминать, удерживать внимание, концентрироваться. Развитие образной памяти помогает включить в работу правое полушарие, задействуя воображение. Воображая, мы легко запоминаем. Поняв материал, мы создаём образ, закрепляющий понимание, и получаем знание.

Различают зрительную, слуховую, моторно-слуховую память, зрительно-моторно-слуховую память. Это виды так называемой сенсорной памяти, которая играет наиболее важную роль в обучении. Зная, какой тип памяти преобладает у ученика, можно дифференцированно подходить к процессу его обучения, достигая лучших результатов запоминания. Преподаватель должен позаботиться о том, чтобы в процессе усвоения материала принимало участие как можно больше органов чувств. В своё время на это обращал внимание известный педагог К.Д. Ушинский.

#### Зрительная память

Зрительная память связана с хранением и воспроизведением зрительных образов. Зрительная образная память предполагает использование зрительного анализатора для обработки информации. У многих людей зрительная образная память представляет основной тип запоминания.

Особенно актуально развитие зрительной памяти для художников, но широко используем её мы все. Развивая воображение, мы также помогаем развитию зрительной памяти, ведь то, что мы представляем, нам легче запомнить и воспроизвести.

#### Слуховая память

Слуховой памятью называют способность к запоминанию и точному воспроизведению звуков, будь то музыка, речь или какие-то другие звуки. Особенно она важна для музыкантов, но активно её задействуем все мы. Слуховую память легко выявить у ребёнка: если ему легко даётся материал, рассказанный учителем (и дома параграф уже можно не читать, так как он и так все помнит), значит, ребёнок – аудиал.

#### Двигательная память

Моторная память удерживает все, что связано с двигательной активностью. Руки и ноги словно сами «помнят», что им делать. Двигательная память помогает нам запоминать движения и затем воспроизводить их. Благодаря ей мы разучиваем танцы, работаем с инструментами, ездим на велосипеде и т.д. Развитие двигательной памяти способствует не только отточенности движений, меткости, ловкости. Без неё просто невозможно достичь успехов в любом деле, за какое бы мы ни взялись. Она лежит в основе навыков ходьбы, езды, письма, всех трудовых и практических навыков. Если бы мы не имели этой памяти, то вынуждены были бы учиться повторять то или иное действие. Чем более знакомы условия, тем точнее и вывереннее движения, тем лучше результат.

Обычно преобладает какой-то один тип памяти, но встречаются и смешанные, комбинированные. Так, моторно-слуховая память и зрительно-моторно-слуховая память относятся к комбинированным видам памяти.

#### Словесно-логическая память



Словесно-логический вид памяти хранит информацию в виде словесных понятий и чисел. Он отвечает за смысл, логику, взаимодействие между элементами словесной информации. В процессе обучения широко задействуются и образная, и словесно-логическая память. Образная память неразрывно связана с воображением и востребована во многих областях человеческой жизни.

Словесно-логический вид памяти мы используем постоянно. Когда мы изучаем новый материал, работает преимущественно именно она. От развития словесно-логической памяти зависит и развитие всех других видов памяти у человека: она опирается на них и играет ведущую роль в усвоении новых знаний. Очень важно развивать словесно-логическую память младших школьников, ведь, как показывает практика, если ребёнок не овладеет приемами мыслительной деятельности и не научится учиться (простите за тавтологию) в младших классах, то он будет неуспевающим в средних и старших, отставая в обучении.

Развитие словесно-логической памяти способствует улучшению эрудиции, повышению образованности. Особенность словесно-логической памяти заключается в том, что мысли не существуют без участия языка, без слов, и их воспроизведение – тоже. Мы всегда работаем с мыслями, выраженными в словах, отсюда и название – словесно-логическая память.

#### Эмоциональная память

Эмоциональная память содержит все воспоминания о пережитых эмоциях и чувствах. Особенностью эмоциональной памяти является её яркость даже по прошествии многих лет после полученного эмоционального всплеска. Обычно она, подкреплённая эмоциональным импульсом, долго и прочно хранит информацию. Возможно, это связано с тем, что под влиянием сильных эмоций в механизм запоминания включаются гормоны надпочечников, не задействующиеся при обычном запоминании.

Иногда первичные эмоции замещаются вторичными, иногда противоположными, и тогда мы переоцениваем отношение к происходившим когда-то событиям. Развитие эмоционального типа памяти способствует повышению интеллектуального потенциала человека. От развития эмоциональной памяти зависит и успех, и комфортность эмоционального состояния в семье и обществе. Произведения искусства, живая природа, художественная литература стимулируют развитие образного мышления, что способствует и развитию эмоциональной памяти.

#### Функции эмоциональной памяти

Накапливание и воспроизведение эмоционального опыта, связанного с событием, вызвавшим эмоцию. Через память на эмоциональные состояния мы принимаем решения о своих последующих шагах, имеем возможность учиться на своих ошибках и повторять успешный опыт. Функции эмоциональной памяти делают её вклад в формирование личности очень весомым.

Благодаря эмоциональному типу памяти мы умеем страдать, радоваться, сочувствовать. Однажды пережитые чувства от чего-то нас удерживают, к чему-то побуждают. Эмоции задействованы в том механизме, который побуждает нас к действию. Не мышление, а эмоции заряжают нас энергией.

#### Долговременная, кратковременная и оперативная память

По времени сохранения информации различают мгновенную, кратковременную, оперативную и долговременную память. Кратковременная память способна хранить информацию совсем недолго, около 40 секунд, и объём её невелик, он составляет 7 плюс-минус 2 единицы информации. Этот объём можно увеличить путём объединения информации в блоки.

Большая часть информации из кратковременной памяти затем стирается, а меньшая переходит в так называемую оперативную память. Этому способствуют некоторые факторы, такие как эмоциональность подачи, яркость, неожиданность, необычность материала, многократность повторения, важность для конкретного человека. В оперативной памяти информация сохраняется до суток (максимум), затем менее важная её часть стирается, а более важная переходит в долговременную память. Здесь информация сберегается в течение всей жизни, и для этого организмом задействуются специальные нуклеиновые кислоты и белки памяти.

Интересно, что в фазе медленного сна происходит логическая обработка информации, а

в фазе быстрого – перевод отобранной информации в долговременную память. Более подробно об этих процессах и о развитии долговременной памяти, а также о развитии кратковременной памяти Вы можете прочитать в нашем блоге.

#### Непроизвольная память и произвольная память

По степени волевой регуляции различают произвольную и непроизвольную память.

Непроизвольная память – это процесс, происходящий без усилий, «сам по себе», непроизвольно. Но, как правило, запечатление в этом случае связано с сильными эмоциями, вызывая, например, удивление, интерес. Материал, усвоенный с использованием непроизвольной памяти, запечатлевается лучше, чем с использованием произвольной, ведь непроизвольно мы запоминаем то, что находится в центре внимания, что интересно, что точно пригодится, и особенно – если с этим был связан умственный труд. А ведь именно такую информацию мозг и предпочитает отправлять в хранилище долговременной памяти.

Развитие непроизвольной памяти у дошкольников связано с вовлечением их в активное взаимодействие с предметами, с обучением пониманию их важности и умению разделять их на группы. Расширение интересов ребёнка также способствует развитию непроизвольной памяти.

Произвольная память – это процесс, при котором человек прилагает волевые усилия для достижения запоминания. В этом случае, когда «не хочется, а надо», мы используем «хитрости»: мнемотехнику, концентрацию внимания, мотивацию; стимулируем и награждаем себя за усилия и успехи.

Развитие произвольной памяти играет огромную роль в обучении, позволяя усваивать программу занятий младшим школьникам и способствуя общему интеллектуальному развитию, в том числе навыку мыслить логически и делать выводы, так необходимому старшеклассникам.

По способу заучивания разделяют два вида произвольной памяти: механическую и смысловую. При запоминании материала путем механического заучивания, без использования при этом анализа и преобразований, речь идёт об использовании механической памяти. При запоминании смысла, а не формы информации, когда материал связывается с уже имеющимся и структурируется, мы говорим об использовании смысловой памяти. Но, каким из видов произвольной памяти мы бы ни воспользовались, результат запоминания зависит от того, сумеем ли мы обеспечить прочное, длительное внимание к предмету запоминания. Можно говорить о том, что произвольная память имеет особенности, отражающие её специфику.

#### Особенности произвольной памяти

Наличие намерения сохранить информацию в памяти. Приложение определенных усилий для запоминания информации. Использование мнемонических приемов или иных способов запоминания. Организованное повторение с целью лучшего запоминания. Память – одна из важнейших когнитивных функций мозга, необходимая для полноценной жизни и развития человека, и её можно и нужно тренировать. Тренировать память можно с помощью специальных упражнений для развития памяти. В увлекательной форме игры для этой цели можно заниматься на развивающих тренажёрах для мозга онлайн.

В заключении отметим, что из всего вышесказанного можно сделать вывод о том, что виды памяти различают в зависимости от того, что запоминается, как запоминается и насколько долго хранится. Все рассмотренные виды памяти играют определенную роль в жизни и деятельности человека, в том числе значительную роль в деятельности молодого человека, который развивает свою память.

#### Список использованной литературы

- Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник. – Аспект Пресс. 2022. 363 с.  
Даянова З.В., Щеголева Т.М. Общая психология. Познавательные процессы.  
Якуничева О.Н. Психология общения. Учебник. М. Лань. 2024 с.  
М.Академический проект.2024.224 с.

## MEHNATDAN QONIQLASH IJTIMOY MUHITGA OID PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

*Abdullayev Akobr Shokir o'g'li,  
Profi universiteti o'qituvchisi, PhD*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnatdan qoniqlash psixologik fenomen sifatida tahlil qilinadi. Mehnatdan qoniqlash insonning o'z ishidan va ish jarayonida erishgan natijalardan mamnun bo'lish holati bo'lib, bu psixologik jihatdan motivatsiya, o'zini o'zi anglash, va shaxsiy ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi.*

*Kalit so'zlar: mehnatdan qoniqlash, ijtimoiy-psixologik muhit, ta'lim, boshqaruv, ijtimoiy psixologiya, motivatsiya, ehtiyoj, kasbiy psixologiya, ta'im, boshqaruv.*

**KIRISH.** Mehnatdan qoniqlashning individual psixologik omillariga shaxsning motivatsiya darajasi, ishga bo'lgan shaxsiy munosabati va shaxsiyat xususiyatlari kiradi. Ijtimoiy va tashkilot omillari ham muhim rol o'ynaydi, jumladan, rahbariyat uslubi, hamkasblar bilan munosabatlar, ish sharoiti va ish haqi. Ushbu omillar ishchilarning umumiy psixologik farovonligiga ta'sir qiladi. Shuningdek, mehnatdan qoniqlashning inson ruhiy holatiga, ish unumdorligiga va professional rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda dolzarb muammo sifatida ko'tariladi.

AQShda qariyb 2,5 mln ishchilar o'rtasida olib borilgan so'rovnoma (2013) natijalari shuni ko'rsatadiki, quyidagilar mehnatdan qoniqlash xosil qilish uchun eng muhim omillar sanaladi:

hamkasblar bilan o'zaro aloqa va hamkorlik muhiti;

xodimlarning mehnati nafaqat moddiy, balki ma'naviy jihatdan ham e'tirof etilishi, xodimning o'z ishidan, natijasidan faxrlanishini ta'minlash;

xodimlarga nisbatan adolatli rahbarlik munosabatlari, hurmat, ishonch va xavfsizlikni ta'minlash[1].

Mazkur tadqiqotga tayanga holda, o'ziga xos tashkilot va muassasalarda xodimlarning sodiqligini shakllantirish va mehnatdan qoniqqanligini ta'minlash modelini yaratish ham mumkin deb o'ylaymiz (5-rasm). Zero, mazkur omillar nafaqat xodimlarning mehnatdan qoniqqanligini ta'minlashga balki, xodimning kompaniyaga sodiqlik qadriyatini vujudga kelishiga olib keladi. Sodiqlik xodimlar esa, yaxshi kadrlarni topish qiyin bo'lib turgan mehnat bozori sharoitida, har qanday kompaniya samarali faoliyat yuritishi uchun zarurat.

### METODOLOGIYA.

Metodlar sifatida mazkur maqolani yozishda asosan kontent analiz, normativ huquqiy hujjatlarni o'rganish hamda mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilindi. Mehnatdan qoniqlash holatini, aynan pedagog xodimlarning o'z mehnatidan qoniqqanligini chuqurroq anglab yetish uchun, bir qator yondoshuv hamda tavsiflarni ko'rib chiqish masalani ilmiy-amaliy jihatdan yechimlariga kelishga imkon berishi mumkin. P.L.Malyakov (2015) tomonidan pedagoglarning mehnatdan qoniqqanligi muammosiga qaratilgan 5 ta yondoshuv mavjudligini ajratib ko'rsatadi:

1. Mehnatdan qoniqqanlik – insonning faoliyatga nisbatan, ehtiyojlari; moyilliklari, istaklari, tasavvurlari, prinsiplari inobatga olingan munosabat sifatida;

2. Mehnatdan qoniqqanlik – insonning mehnat faoliyatini baholash jarayoni sifatida;

3. Mehnatdan qoniqqanlik – insonning emotsional-psixik holati sifatida;

4. Mehnatdan qoniqqanlik – kognitiv, emotsional va axloqiy jihatlarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy mustahkamlangan ustanovkalar majmui sifatida;

5. Mehnatdan qoniqqanlik – faoliyat motivatsiyasi sifatida[2]. Ushbu yondoshuvlarga asoslanib, mehnatdan qoniqqanlik holatini qanchalik keng qamrovli tarzda ilmiy jihatdan ko'rib chiqish mumkin ekanligini bilsa bo'ladi.

### NATIJALAR.

E.A.Zarutskaya (2016) mehnat jamoasida xodimlarning mehnatdan qoniqqanligi qanday komponentlardan iborat bo'lishini ochib bergan bo'lib, u o'z ilmiy maqolasida mazkur komponentlarni

ikki guruhga bo'lad.

Birinchi guruh, tashkiliy komponentlar guruhi bo'lib, ular: umumiy mehnatdan qoniqqanlik, ish sharoiti, ishni tashkil etilishi, ishga berilgan haq, kollektivdagi munosabatlar, rahbariyat bilan munosabatlardan iborat.

Ikkinchi guruh, shaxsiy komponentlar bo'lib, ular: professional o'sish imkoniyati, karyerada o'sish imkoniyati, shaxsiy rivojlanish imkoniyati, tashkilot faoliyatiga ta'sir qila olish, o'zining ahamiyatligini his etish, o'z mehnatining foydaliligini his etish imkoniyatlari bilan ifodalanadi[3].

Ayrim manbalarda, aytilishicha ilmiy adabiyotlarda xodimlarning mehnatdan qoniqqanligi – ko'p hollarda tashkilotning psixologik EMSK sifatida ko'rib chiqiladi. Mehnatdan qoniqqanlikning o'zi esa faoliyat motivatsiyasini tashkil etuvchi mehnat sharoitlari, maosh kattaligi, ijtimoiy tan olinish, o'zini namoyot qilish imkoniyatlari, tan olinish, foydali faoliyatga intilish, ijodiy tashabbus va hamkorlikka tayyorlik kabilardan iborat ekanligi aytiladi[4]. Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlarda mehnatdan qoniqqanlik shaxs yoki guruhning mehnat faoliyati kechayotgan vaziyatga emotsional baholash munosabati sifatida[5], barcha tomonidan o'z ishi yoki mehnat jarayoniga nisbatan ijobiy yoki salbiy xususiyatga ega munosabatlari yoki tasavvurlari sifatida ham ko'rib chiqiladi[6]. Aytish joizki, mehnatdan qoniqish, ish jarayonida olingan ijobiy emotsional-hissiy holat tarzida[7], kasb yoki ishga nisbatan emotsional reksiya tarzida[8] yoki xodimning ish joyidagi holati, darajasi, tutgan o'rni tarzida[9] namoyon bo'lishi mumkin.


#### MUHOKAMA.

Umumta'lim maktablarining pedagogik jamoalarda psixologik muhitning ijobiyligi ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim komponentlardan biri ekanligi nazariy va amaliy jihatdan inkor etib bo'lmaydigan faktdir. Jamoada ijobiy psixologik muhit mavjud bo'lsa, nafaqat pedagogik majburiyatlar balki, har qanday mehnat jamoasida oldiga qo'yilgan vazifalar sifatli bajarilishiga zamin hozirlanadi. Masalaning yana bir muhim tomoni ham borki, bu ham bo'lsa, mehnat jamoasi a'zolarining o'z kasbidan qoniqqanligidir. Chunki, jamoada ijobiy muhit bo'lishi uchun, jamoa a'zolari o'zidan, ayniqsa, o'z kasbidan qoniqqan bo'lishlari zarur[10].

Mehnatdan qoniqish holatining 14 ta aspekti bor, ular: minnatdorlik, muloqot, hamkasblar, qo'shimcha ligotalar, ish shart-sharoitlari, ish xarakteri, tashkilot, shaxsiy rivojlanish, sirosat (mehnat jamoasidagi), protsedura, ishda o'sish imkoniyati, e'tirof, xavfsizlik, superviziya[11] dan iborat (1-rasmdagi mualliflik illyustratsiyaga qarang).

## Mehnatdan qoniqish aspektlarining illyustratsiyasi.

1-rasm.



Ko'rinib turibdiki, o'qituvchining mehnatidan qoniqishi haqida gap borar ekan, yuqoridagi aspektlarning barchasi qoniqish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi jihatlardan, mulotoq, hamkasblar, e'tirof, havfsizlik, superviziya, siyosat kabi aksariyat omillar ijtimoiy-psixologik muhitning determinanti ekanligini e'tiborga olish, o'qituvchi mehnatdan qoniqqanligini, qay datarada u faoliyat yuritayotgan mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhitga bog'liq ekanligini ko'rish mumkin.

Xodimning mehnatdan qoniqqanligiga doir bir qator ilmiy modellar (metodologik asoslar, nazariyalar xorij psixologiyasida asosan model deb yuritilishiga guvoh bo'ldik) mavjud bo'lib, ular mazkur masalani chuqurroq tushunish bilan birga turli yondoshuvlar asosida ko'rib chiqishga yordam beradi. Jumladan, Amerikalik psixolog Edwin A. Locke tomonidan asos solingan "Affect nazariyasi – Affect theory" (1976) ga ko'ra, mehnatdan qoniqish holati, shaxsning ishdan nimani xohlashi va uning ishdan real hayotda nima ola olayotgani kabi ikki omilning o'rtasidagi mutanosiblikdan yuzaga keluvchi holat ekanligi ilgari suriladi. Bunda mehnatdan qoniqish, kutuvlarni amalga oshish hamda oshmasligiga bog'liq[12].

Mehnatdan qoniqishni ochib beruvchi yana bir nazariya, bu "Adolatlilik/tenglik nazariyasi - Equity Theory"(1965) sanaladi. Bu nazariyaning o'ziga xosligi shundaki, xodim o'zining mehnatdan qoniqish holatini ishdagi ijtimoiy munosabatlar zahirida xosil qiladi. Jumladan ish beruvchining unga bo'lgan ijtimoiy munosabati xodimning mehnatdan qoniqishiga ta'sir qiluvchi eng muhim factor sifatida ko'rib chiqiladi[13]. Bu o'z navbatida, rahbarlarning xodimlarga bo'lgan konstruktiv ijtimoiy munosabatlar hamda shunday xususiyatga ega bo'lgan hamkasblik munosabatlari pedagoglarda mehnatdan qoniqishga olib kelishi mumkin degan fikrni uyg'otadi.

"Nomuvofliqlik nazariyasi - Discrepancy theory" (1998) ham mehnatdan qoniqishni o'ziga xos tarzda ko'rib chiqqan nazariyalardan biri bo'lib, unda shaxsdagi havotir va g'amginlikni asosiy omili sifatida shaxsning ishi va kasbi ko'rib chiqiladi. Bunda xodim o'z ishiga mos bo'lmasa,

undan kutilayotgan vazifalarni bajara olmasa yoki o‘z ishini bajara olayotganidan ko‘ngli to‘lmasa, bu mehnatdan qoniqmaslik kontekstida kuchli havotir va g‘amginlik holatini keltirib chiqarishi ta’kidlanadi[14].

Mehnatdan qoniqqanlikni jamaodagi ijtimoiy-psixologik muhitga bog‘liq tarzda o‘rganish xorijlik olimlar ishlarida keng ko‘zga tashlanadi. Jumladan, Vatson Vayt tomonidan mehnatdan qoniqqanlikni muhitga bog‘liqligi, “Fortune” jurnalining TOP-100 taligiga kirgan kompaniyalar misolida o‘rganilgan. Unga ko‘ra kollegial (jamaviylik, jipslik nazarda tutilmoqda) ishlash, moslashuvchan ish grafigi, yuqori maosh kabilar xodimlarning bir vaqtning o‘zida mehnatdan qoniqishi va samarali faoliyatining eng muhim omillari sifatida ajratib ko‘rsatiladi[15]. Demak, pedagogik jamoada ham ijtimoiy-psixologik jihatdan jamoaviylik muhitini shakllantirish orqali ularda mehnatdan qoniqqanligini oshirishga erishish mumkin.

Mehnatdan qoniqqanlikni jamaodagi ijtimoiy-psixologik muhitga bog‘liq tarzda o‘rganish nazariyasiga K.Krayer, I.Vestbruk (1986) kabi olimlar ham o‘z ishlarida to‘xtalib o‘tishgan bo‘lib, ularga ko‘ra ish jarayonida xodimlarning kommunikatsion zo‘riqishi yoki kommunikatsion ehtiyojlari qonmasligi, mehnatdan qoniqishga salbiy ta’sir qilishini ta’kidlashadi. O‘z navbatida kommunikatsion zo‘riqish – ish jarayonida olingan axborotlarni tahlil qila olmaslik, xaddan tashqari ko‘p axborot iste’moli bilan izohlansa, kommunikatsion ehtiyojlar qonmasligi – xodimning o‘ziga kerakli axborotni ish jarayonida xosil qila olmagan bilan ifodalanadi[16]. Aytib o‘tish o‘rinliki, kommunikatsiya (har qanday shakldagi muloqot) jarayoni – pedagogik jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitga determinant bo‘lishi, muhitga o‘zining xususiyatidan kelib chiqib ijobiy yoki salbiy ta’sir etishi mumkin deb o‘ylaymiz.

#### XULOSA.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’lim tizimi misolida aytadigan bo‘lsak o‘qituvchilarda mehnatdan qoniqqanlikni o‘rganish hamda o‘z mehnatidan qoniqmaslik holatlarini korreksiya qilish orqali pedagogik jamoalarda ijobiy muhitni shakllantirish, pirovardida pedagog faoliyatini samaradorligini oshirish, ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilashga ta’sir ko‘rsatish maqsad qilingan. E’tiborga olish kerakki, pedagogik faoliyat odam-odam tipiga mansub kasb hisoblanib, agar mazkur soha egalarida o‘z kasbiga nisbatan loqaydlik, e’tiborsizlik yoki sustkashlik vujudga kelsa, bevosita pedagogik faoliyat obyekt bo‘lgan o‘quvchilar mazkur jarayonda zarar ko‘radilar. Bu zarar ta’lim-tarbiya sifatini pasayishida o‘z aksini topadi. Boshqa kasb sohalarda ham shu qatorda yuqoridagi kabi tendensiyalar namoyon bo‘lishi ijtimoiy-psixologik ehtimoldir.

#### ADABIYOTLAR.

1. Система вознаграждения: Как разработать цели и КР1 / Елена Ветлужских . - 2-е изд. перераб. и доп. - М.: Альпина Паблишер, 2013. - 161 с.
2. Маляков П.Л. Труд педагога: анализ подходов к понятию удовлетворенности трудом. Актуальные направления научных исследований: от теории к практике. 2015. №1. С. 195-197.
3. Заруцкая Е.А. Методы и инструменты исследования мотивации трудовой деятельности персонала организации. Актуальные проблемы управления: теория и практика Материалы III Международной научно-практической заочной конференции. М-во образования и науки РФ, ФГБОУ ВО «Твер. гос. ун-т»; редкол.: Н. Н. Беденко, д.э.н., проф., [и др.]. 2016. С. 109-120.
4. Глухих Л.С. Удовлетворенность трудовой деятельностью. Электронный ресурс. Режим доступа: <https://www.b17.ru/article/46573/>.
5. Психология. Словарь / под общ. ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. М., 1990. 413-414 с.
6. Мотивация и стимулирование трудовой деятельности / О.К. Минева, С.А. Арутюнян, Е.А. Белик [и др.]. М., 2015. 203 с.
7. Locke, 1976 cited in Brief, A. P., & Weiss, H. M. (2001). Organizational behavior: affect in the workplace. *Annual Review of Psychology*, 53, 279—307, p. 282
8. Cranny, Smith & Stone, 1992 cited in Weiss, H. M. (2002). Deconstructing job satisfaction: <http://interscience.uz>

separating evaluations, beliefs and affective experiences. *Human Resource Management Review*, 12, 173—194, p.174

9. Brief, 1998 cited in Weiss, H. M. (2002). Deconstructing job satisfaction: separating evaluations, beliefs and affective experiences. *Human Resource Management Review*, 12, 173—194, p. 174

10. Wu, P., & Chen, C. (2022). Relationships between job stress and job satisfaction among elementary school teachers: The mediating role of teacher self-efficacy. *Journal of Educational Research and Development*, 18(2), 51-92. doi:[https://doi.org/10.6925/SCJ.202206\\_18\(2\).0002](https://doi.org/10.6925/SCJ.202206_18(2).0002)

11. Spector, P.E. (1997). *Job satisfaction: Application, assessment, causes and consequences*. Thousand Oaks, CA: SAGE

12. [https://en.wikipedia.org/wiki/Edwin\\_A.\\_Locke](https://en.wikipedia.org/wiki/Edwin_A._Locke)

